

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
O'ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI**

**“Arxeologiya va Etnologiya”
(Arxeologiya) fanidan**

(Tarix fakulteti I kurs talabalari uchun)

**Bilim sohasi: 100000 –Gumanitar soha
Ta'lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalish: 60220300- Tarix (mamlakatlari va yo'nalishlar
bo'yicha)**

Andijon-2021-2022

Mazkur o'quv- uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 30 avgustdagi 16.01-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar:

Sobirova D.T. - AnDU, O'zbekiston tarixi kafedrasida dotsenti, t.f.n.

Kuchkarova Z. - AnDU, O'zbekiston tarixi kafedrasida o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Abdullayev M.G'. - AnDU, O'zbekiston tarixi kafedrasida v.b.professori, t.f.d.

Abduraupov O. - AnDU, O'zbekiston tarix kafedrasida katta o'qituvchisi

O'quv – uslubiy majmua ADU kengashining 2021 yil “30” avgustdagi _1-sonli qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I. O'quv materiallar	4-75
1.1 Ma'ruza mavzulari	4-75
1.2. Seminar mashg'ulotlari mavzulari	76-80
II. Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari	81
III. Glossariy	82-83
IV. Ilova	84-90
4.1. Fan dasturi	91-100
4.2. Ishchi fan dasturi	101-128
4.3. Tarqatma materiallar	129-137
4.4. Testlar	137-147
4.5. Baholash mezonlari	148
4.6. Adabiyotlar ro'yhati	148-149
4.7. Dastur bajarilishining kalendar rejasi	150

I. O'QUV MATERIALLARI
1.1. MA'RUZA MAVZULARI

SO'Z BOSHI

Tarixni yoritishda va o'rganishda arxeologlar olib borgan tadqiqot ishlarining ahamiyati juda kattadir. So'nggi yillar ichida jahonning, jumladan O'rta Osiyoning turli hududlarida ko'plab arxeologik kashfiyotlar qilinib, muhim ma'lumotlar to'plandi. Olimlar tomonidan topib tekshirilgan bu yangi ashyolar eng qadimgi va o'rta asrlar tarixi haqidagi bilimlarni kengaytiradi. Mazkur manba va ashyolar jahon tarixining qadimgi davr siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlari haqida to'laroq tasavvurlar hosil qilish imkonini beradi.

Jahonda ibtidoiy odamlar tarqalishi jarayonidan boshlab, xalqlarning tarixida turli xil murakkab voqealar sodir bo'lgan. Ular ibtidoiy to'da davri, ibtidoiy xo'jaliklari va mehnat qurollari, urug'chilik tuzumining vujudga kelishi, xo'jalikning ishlab chiqarish shakllariga o'tilishi, binokorlik va hunarmandchilikning rivojlanishi, ishlab chiqarishda metallning ishlatila boshlanishi, ilk shaharlar va davlatlarning tashkil topishi, antik davri, o'rta asrlar me'morchiligi va moddiy madaniyatining rivojlanishi bilan birga boshqa ko'pdan-ko'p voqealar bilan bog'liq.

Talabalar jahonning qadimgi tarixini o'rganishda qimmatli arxeologik manbalarga e'tibor berishlari lozim. O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistonda tekshirilgan barcha turdagi arxeologik yodgorliklar va ularda topilgan moddiy manbalar, insoniyat toshdan yasagan oddiy qo'pol cho'qmordan boshlab, uzluksiz mehnat natijasida yuksak madaniyat darajasiga yetib kelishining asosiy qonuniyatlarini ochib beradilar.

Ushbu majmuaning asosiy maqsadi - tariximizning muhim voqealarini o'rganishda arxeologik manbalarni ahamiyatini ko'rsatish, O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston hududida yashab o'tgan ibtidoiy odamlar, qadimgi qabilalar va xalqlarning tarixini va madaniy taraqqiyotidagi o'ziga xos tomonlari va xususiyatlarini ko'rsatib berishdir.

1- MAVZU: Kirish. “Arxeologiya” o'quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari (2soat)

1. Arxeologiya fanining maqsad va vazifalari.
2. O'rta Osiyo arxeologiyasining manbalari.
3. Arxeologik davrlashtirish va sanalar.
4. O'rta Osiyo arxeologiyasining rivojlanishi.

Asosiy adabiyotlar:

1. Archeology: The Basics London First published 2004 by Routledge
 2. Archeology: the key concepts First published 2004 by Routledge 2 Park Square, Milton Park. Abingdon, Oxon.
 3. History of civilizations of Central Asia Volume I.II. Unesco Publishing 2001.
 4. Эгамбердиева Н.А. Археология. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2011.
 5. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. Тошкент «Ўқитувчи» 1990
-
1. Karimov I. A “Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q” T., “Sharq” 1998, 3-5-betlar.
 2. Annaev T, Shaydullaev Sh. “Surxondaryo tarixidan lavhalar” T. “O'zbekiston” 1997. 26-bet
 3. Anorboyev A, Islomov O', Matboboyev B. O'zbekiston tarixida qadimgi Farg'ona. T. 2000. 3-8-betlar.
 4. Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Е.В. Северная Бактрия –Тохаристан. Т. Стр 5.
 5. Малиничев Г. Археология по следам легенды и мифов. М. Вече. 2006. Стр 10.
 6. Ranov V.A. Decouverte des Sivilizations d'Asie Centrale. Less dossiers d'Archeologie № 185. Paris. 1993. P-93

Tayanch so'zlar: Arxeologik manbalar, tadqiqot usullari, madaniy qatlam, xronologiya, davrlashtirish, materik, moddiy manbalar, yozma manbalar, etnografiya, lingvistika, epigrafiya, paleozoologiya, paleobotanika

Respublikamiz birinchi prezidenti I.A.Karimovning 1998 yilning iyunida bir guruh tarixchi olimlar, ijodiy xodimlar va jurnalistlar bilan bo'lgan suhbatida uqtirilgan edi. Suhbatda yurtboshimiz bu masalaga e'tiborni jalb etib bunday degan edi: «Nazarimda o'zbek xalqining tarixiy o'tmishini, o'zligini, ma'naviyati haqida gapirayotganda, bizda chuqur ilmiy asosga tayangan tahlil, muayyan masalalarda aniq yondoshuv yetishmayapti. Ilmiy tilda aytganda yaxlit kontseptsiya yo`q. O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbot talab bo'lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi zarur

Kishilik jamiyatining paydo bo'lishi uzoq o'tmishga borib taqalib, murakkab tarixiy jarayondan iborat. Bunday tarixiy jarayonlarni o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Arxeologiya fani vazifalari. Qadimiy yodgorliklar xalqlarning madaniyati, ma'naviyati, qadriyatlarini tarixidan darak beruvchi ashyoviy dalillar hisoblanadi. Shu o'rinda tarixni arxeologik yodgorliklar misolida targ'ib etish va uning tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatish juda muhimdir. Shu bilan birga, mamlakatimiz hududida joylashgan arxeologik yodgorliklar va ulardagi topilmalar yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda, ularning qalbida ko'hna tarix va madaniyatga hurmat- ehtirom ruhini uyg'otishda katta ahamiyatga egadir. Arxeologik yodgorliklar O'zbekiston madaniy hayotini o'zida aks ettiruvchi juda muhim moddiy manba hisoblanadi.

Arxeologiya tarix fanining ajralmas qismi bo'lib, o'ziga xos tadqiqot predmeti, tadqiqot

usullari va o'rganish manbalariga ega.

Arxeolog olimlar O'.I.Islomov va K.A.Kraxmal O'rta Osiyo mintaqasining o'ziga xos geologik tuzilishini, ya'ni tog'lik, adirlik va pasttekisliklardan iborat ekanligini hisobga olib, undagi geotektonik va geomagnit hodisalarni radiomagnit metodlari orqali o'rgandilar. Natijada olimlar pasttekisliklardagi kimyoviy o'zgarishlar tog'lik hududlariga nisbatan sekin kechishini isbotladilar va paleolit davri yodgorliklari uchun ilgari belgilangan sanalami 500-600 ming yilga qadimiylashtirdilar. Bu esa, jahon miqyosida katta yangilik bo'ldi.

Arxeologiyada qadimgi davrlar tarixi tabiiy-geografik sharoit bilan bog'liq holda tadqiq qilinadi. Arxeologiyada bu «ekofakt» va «artefakt» tushunchalari bilan ishlatiladi.

«F.kofakt» - insonlarni qurshab turgan tabiiy-geografik muhit omillaridir. Inson tabiiy muhitga moslashib hayot kechiradi. Hayot tarzi uchun zarur bo'lgan narsalarni tabiatdan oladi va yashash tarziga xos madaniy izlar qoldiradi. Arxeologlar xuddi shu madaniy izlar orqali insoniyatning o'tmishini tiklaydi.

«Artefakt» - insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy madaniyat obyektlari sanaladi. ya'ni turli mehnat, ov va jangovor qurollar, sopol buyumlar, turli hunarmandchilik va zargarlik buyumlari, tangalar, uy-joy qoldiqlari, qal'a, qasr va qo'rg'onlarning harobalari, qadimiy dalalar, ariq va kanallarning izlari, mozar-qo'rg'onlar va boshqalar. Moddiy madaniyat arxeologiya fanining asosiy tadqiqot obyekti bo'lib, ularni izlab topish, yoshini aniqlash, tahlil qilish va ilmiy sistemalashtirish asosida tarixning umumiy jihatlarini tiklash arxeologlar oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

Arxeologik ma'lumotlar arxeologik ekspeditsiyalar natijasida topilgan ibtidoiy makonlar, qishloq va shahar xarobalari va ulardan o'rin olgan mudofaa va suv inshootlari, metalchilik va boshqa hunarmandchilik ustaxonalar xamda qoyatosh suratlari o'rganish asosida to'planadi.

Joylardagi arxeologik ekspeditsiyalarni maxsus muassasalar: arxeologik tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlarining arxeologiya kafedralari, san'atshunoslik institutlari, muzeylar va shuningdek o'lkani o'rganish to'garaklari tashkil etadi.

Arxeologik tadqiqot turlari: 1. Yer usti, 2.Suv osti 3,Kosmik tadqiqot turlari mavjud.

Arxeologik tadqiqotning ish uslubi uch pog'ona bo'lib, arxeologik qidiruv, sinov va qazish ishlaridan iboratdir. Ularning vazifasi yodgorlikning paydo bo'lgan, yashagan, inqirozga uchragan davrlarini xamda boshqa xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Arxeologik qazishmalar arxeologik qidiruv va sinov natijasida to'plangan ma'lumotlarga tayanib, mazkur joylarda yodgorlikni batamom qazib tugatishdan va yodgorlik xaqida xulosa chiqarishdan iborat bo'ladi.

Arxeologik yodgorliklarda tadqiqot ishlarini olib borish jarayonida tadqiqot usullarini chuqur bilishi va undan foydalana olishi zarur. Arxeolog mavjud yodgorliklarni qazir ekan, shubxasiz madaniy qatlamga duch keladi. Madaniy qatlam deyilganda insoniyatning turmushi, xo'jalik va g'oyaviy faoliyatlarining izlari saklanib qolgan tuproq qatlami tushuniladi. Bu qatlam yillar, asrlar davomida vujudga keladi.

Madaniy qatlam deganda — insoniyatning turmushi, xo'jalik faoliyati izlari saqlanib qolgan tuproq qatlami tushuniladi. Madaniy qatlamlar bir va bir necha o'ntacha gorizontlarga bo'linadi.

Arxeologik yodgorliklarda bir yoki bir necha o'nlab madaniy qatlam mavjud bo'lib, ularning qalinligi bir necha santimetrdan 30 — 35 metrlargacha bo'lishi mumkin. Bu esa ushbu yerda kishilarning qanchalik yashaganligiga bog'liq. Madaniy qatlam mazkur yodgorliklarda shurf tashlash, keng ko'lamda qazish ishlari natijasida aniqlanadi.

Shurf — nemis tilidan «qazimoq» deb tarjima qilinadi. SHurf tashlash deyilganda mazkur yodgorlikdagi dastlabki qazish ishlari tushunilib, madaniy qatlam aniqlanadi va yodgorlik xaqida dastlabki ma'lumotlar olinadi. SHurflar odatda kvadrat yoki to'g'ri to'rtburchak shakllarda bo'lib, kengligi va chuqurligi madaniy qatlamga qarab xar xil bo'lishi mumkin. Keng ko'lamdagi arxeologik qazish ishlari natijasida yodgorlikning madaniy qatlami to'liq ochilib, insoniyat faoliyatining izlari bo'lmagan yergacha kavlab tushiladi, arxeologiyada bu — «materik»,bezovta qilinmagan yer deb ataladi.

O'rta Osiyo qadimgi SHarqning yuksak madaniyat yaratgan o'choqlaridan biri bo'lib, bu o'lkada insoniyat ilk tosh asridan boshlab yashagan. O'lkaning turli joylaridan topilgan moddiy manbalar fikrimizni to'liq tasdiqlaydi. Keyingi davrlarda esa ibtidoiy va qadimgi odamlar o'lka bo'ylab ancha keng tarqaladi.¹

Keng ko'lamdagi arxeologik tadqiqot ishlari natijasida tog' va tog' oldi, vodiy xatto qoraqum va qizilqum cho'llaridan tosh asri makonlari, manzilgoxlari neolit va bronza davri qishloqlari, mozor qo'rg'onlar, ilk temir va feodal davri qishloqlari, shaharlari, suv inshootlari, mudofaa devorlarining qoldiqlari va ulardan o'rin olgan turli xildagi moddiy manbalar xamda turli davrlarga oid qoyatosh rasmlar ko'plab topilgan.

Bu o'lka xududidagi arxeologik yodgorliklar xilma — xilligi va madaniy qatlamning boyligi bilan ajralib turadi. Arxeologik manbalar quyidagi ikki turga bo'linadi:

1. Tabiiy manbalar (Paleozoologiya, paleobotaniqa) — inson va xayvon suyaklari va o'simlik qoldiqlari geologik qatlamlar bo'lib, ularni asosan antropologlar, zoologlar, botaniklar va geologlar o'rganadilar.

2. Inson tomonidan yaratilgan manbalar: mehnat qurollari, qurol—aslaxalar, kulolchilik buyumlari, san'at va zeb—ziynat buyumlari, qoyatosh rasmlari, yozma manbalar va x.k. Yozma manbalarni o'rganish bilan asosan tarixchilar shug'ullansalarda, arxeologlar kishilik o'tmishini o'rganishda moddiy manbalar bilan birgalikda yozma manbalarga xam tayanib ish ko'radilar.

Arxeologiya fanida «yodgorlik» va «manba» iboralari keng qo'llanilib, ular bir ma'noni anglatuvchi sinonim so'zlardir. Shuning uchun odamlar yashagan barcha turdagi manzilgoxlar arxeologik yodgorliklar deb ataladi.

O'rta Osiyo xalqlarining moddiy madaniy yodgorliklarini o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan, yahni o'lkaning chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng boshlandi. Bu o'lkaga turli kasbdagi kishilar kela boshladilar. Ular orasida moddiy yodgorliklarga qiziquvchi maxalliy kishilar xam bor edi. V. V. Bartold, V. A. Jukovskiy, N. I. Veselovskiy kabi sharqshunoslar, xamda A. L. Kun, V. L. Vyatkin, I. T. Poslovskiy, N. P. Ostroumov va boshqalarning o'lka arxeologiyasini o'rganishdagi xizmatlari kattadir. Maxalliy xavaskorlardan Akrom Asqarov, M.Mirmuxammedovlarning ishlari xam diqqatga sazovordir.

V. V. Bartoldning bevosita raxbarligi va taklifi bilan 1895 yilda «Turkiston arxeologiya xavaskorlari to'garagi» tuzilib, uning ustavi tasdiqlanadi. To'garak tadqiqot ishlariga jiddiy e'tibor qaratib, dastabki yutuqlarga erishadi.

Lekin bu paytda ish olib borgan olimlar va xavaskorlar ishni muntazam tashkil etmagan edilar.

O'rta Osiyo arxeologiyasi jiddiy e'tibor 20 — yillarning oxiri va 30 —yillardan boshlandi. Ayniqsa ikkinchi jaxon urushidan so'ng arxeologik tadqiqot ishlari O'rta Osiyoning barcha xududlarida keng ko'lamda olib borila boshlandi.

¹ Малиничев Г. Археология по следам легенды и мифов. М. Вече. 2006. Стр 15

Bu davrda O'rta Osiyo arxeologiyasi rivojlanishida S. P. Tolstov, M. Ye. Masson, M. M. Dyakonov, A. P. Okladnikov, M. M. Gerasimov, V. G. Grigor'ev, A. Yu. Yakubovskiy, Ya. G'. G'ulomov, M. P. Gryaznov, A. N. Bernshtam, A. I. Terenojkin, B. A. Latinin, A. M. Belenitskiy, V. A. SHishkin, V. M. Masson, B. A. Litvinskiy, G. A. Pugachenkova, M. A. Itina kabi arxeologlarning fan oldidagi xizmatlari beqiyosdir.

Keyingi 30 — 35 yil ichida O'rta Osiyo moddiy madaniyatini o'rganishda ulkan ishlarni amalga oshirgan arxeologlar guruxi yetishib chiqib, ular jumlasiga A. A. Asqarov, A. R. Muxammadjonov, U. Islomov, L. I. Albaum, Yu. F. Buryanov, R. X. Sulaymonov, N. Ne'matov, V. A. Ranov, I. Axrorov, V. I. Sarianidi, O. K. Berdiev, M. R. Qosimov, T. Mirsoatov, E. V. Rtveladze, M. Jo'raqulov, A. S. Sagdullaev, SH. R. Pidaev, 3. I. Usmanova, B. Turg'unov, T. SH. SHirinov va boshqalarni kiritish mumkin. Bularning ko'pchiligi hozirgi paytda xam O'rta Osiyoning o'tmish tarixining turli davrlari bo'yicha muntazam tadqiqot ishlari olib bormoqdalar.

O'rta Osiyo arxeologiyasini o'rganish hozirda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu ishlar bilan maxsus institutlar, universitetlar, arxeologiya kafedralari, joylardagi muzeylar xamda ular bilan hamkorlikda chet el institutlar va universitetlari shug'ullanishmoqdalar. Bularning tadqiqotlari o'lka xalqlari tarixini o'rganishda katta ilmiy axamiyat kasb etmoqda.

2- MAVZU: Paleolit davri moddiy madaniyati (4soat)

1. O'rta Osiyo paleolit davrida (davri va sanalari)
2. O'rta Osiyo ilk paleolit davrining o'rganilish
3. O'rta Osiyoning ilk paleolit davriga oid asosiy makonlar tavsifi.
4. O'rta Osiyoning o'rta paleolit davriga oid asosiy makonlar
5. O'rta Osiyoning so'nggi paleolit davriga oid makonlarida o'rganilishi

Adabiyotlar:

6. Archeology: The Basics London First published 2004 by Routledge
7. Archeology: the key concepts First published 2004 by Routledge 2 Park Square, Milton Park. Abingdon, Oxon.
8. History of civilizations of Central Asia Volume I.II. Uneseo Publishing 2001.
9. Эгамбердиева Н.А. Археология. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2011.
10. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. Тошкент «Ўқитувчи» 1990
1. Karimov I. A “Тарихий хотирасиз келажак йўқ” Т., “Sharq” 1998, 3-5-betlar.
2. Kabirov J. Sagdullaev A.S. O'rta Osiyo arxeologiyasi. T. 1990. 5-10-betlar
3. Sagdullaev A.S. O'zbekiston tarixi. T. 1997. 10-15-betlar
4. Egamberdiyeva N.A. Arxeologiya. T. 2011. 17-36-betlar
5. Mirsoatova S. O'zbekistonning tosh davri arxeologiyasi va antropogenezi masalalari. T. 2019. 10-32-betlar.
6. Сайфуллаев Б, Абдуллаев Б, Рахимов И “Андижонда ипидоий одам излари” Водийнома 1-(3)сон//Андижон 2019 йил// 24-27 бетлар

Tayanch iboralar: Paleolit, ilk paleolit, o'rta paleolit, so'nggi paleolit, Mustye, Solyutre,

Madlen, Orinyak, Ashel, chayla, qoyatosh rasmlar.

Paleolit — dastlabki tosh asri bo'lib, qazilma odamlar xamda xozirgi paytda turlari yo'qolib ketgan qazilma xayvonlar yashagan davr xisoblanadi va u geologik era turlamchi davrining dastlabki ikki yirik bo'linmasi — eopleystotsen va pleystotsenlarga to'g'ri keladi. Paleolit davrining boshlanishi yer yuzida sodda tosh qurollari yasashni uddalaydigan maymunsimon odamlarning tarqalishi bilan boshlanadi. (2 mln. yildan ortiq). Paleolitning tugashi, yahni Mezolit davriga o'tish bundan 10—12 ming yil ilgari sodir bo'lgan.

Olimlar tomonidan paleolitning quyidagi davrlari belgilangan.

1. Olduvoy davri
2. qadimgi ashel davri
3. O'rta ashel davri
4. So'nggi ashel davri
5. Mustye davri

SHunday qilib, qadimgi tosh davri paleolit 1,75 mln. yil ilgari odamlar va dastlabki mehnat qurollarining paydo bo'lishi bilan boshlanib, pleystotsen muzligi davomida va taxminan mil. av. 8300 yillar atrofida, yahni muzlikning batamom chekinishigacha davom etadi va asosiy mehnat qurollari qo'l cho'qmori va cho'perlar tashkil etgan (avstralopityek va Homa eruktus) quyi (ilk) paleolit; neandertal shaklidagi odamlar yashagan va asosiy yo'nilgan tosh qurollari ko'pchilikni tashkil etgan o'rta paleolit; Homa Sapiens lar, silliqlangan kesuvchi tosh qurollari va qoya tosh suratlari keng tarqalgan yuqori paleolit davrlariga bo'linadi.

O'rta Osiyoda ilk paleolit davrining o'rganilish tarixi nisbatan qisqa. 1938 yili Okladnikov A. P. tomonidan mustg'e davri madaniyati qoldiqlari va neandertal bolasining qabri joylashgan Teshiktosh gorining ochilishini O'rta Osiyodagi eng qadimgi makonlarini ilmiy o'rganishning boshlanishi deb xisoblash mumkin. Okladnikov A. P. tomonidan O'rta Osiyoning boshqa xududlaridan xam paleolit davriga oid ko'plab makonlar ochilgan va o'rganilgan, uning muxim muammolarni yechishdagi xizmatlari kattadir. O'rta Osiyoning ilk paleolit davri manzilgoxlarini tadqiq etishda D. N. Lev, V. A. Ranov, M. M. Gerasimov, R. X. Suleymanov, M. R. Qasimov, N. X. Toshkenboev, U. I. Islamov va boshqalar ishtirok etishganlar.

Nafaqat O'rta Osiyo, balki Markaziy va SHarqiy Osiyo qadimgi madaniyatlarini anglashda Tojikiston xududidagi paleolit davriga oid turar joylarning ochilishi muxim axamiyatga egadir. qoratepa I va Loxutiy I joy — makonlarida qazish ishlari muntazam olib borilgan. Ikkalasidan xam toshqotishmadan yasalgan mehnat qurollari to'lsada, Loxutiy I nisbatan ancha rivojlangan madaniyatga ega.

Janubiy Tojikiston to'ilmalari tadqiq qilingunga qadar O'rta Osiyo hududidan mustg'egacha bo'lgan davrga oid 10 ta alohida makon o'rganilib, undan 9 tasi tog'da, qolgan bittasi esa tekislikda Krasnovodsk yarim oroli hududida joylashgan.

O'rta Osiyoda mustg'e davrining o'rganila boshlanganligiga 50 yildan ortiq vaqt o'tdi. Dastlabki makon 1938 yili A. N. Okladnikov tomonidan o'rganila boshlangan tor makonidir. Undan keyin O'rta Osiyo hududidan mustg'e davriga oid 150 dan ortiq joy — makonlar to'ib tekshirildi.

V. A. Ranov O'rta Osiyoda mustg'e davri madaniyatini o'rganish jarayonida uni levallua — mustg'e va mustg'e — soan guru^lariga bo'lishni tavsiya qiladi. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki birinchi guruhi xdm bir xil bo'lmasdan uchta variantga bo'lingan.²

² Ранов. В.А Памир и проблема заселения высокогорной Азии человеком каменного века. Страны и рыболовы Среднеазиатского междуречья. Т ХЭ ., М.: 1981 —С48

1. Levallua. Unga Xo'jakent, Jarqo'ton, Obiraxmat va qo'tirbuloq makonlari kiradi;
2. Levallua —must'e. Unga qayroqum, qopchig'ay, Tossor va Fargona makonlari kiradi;
3. TOG'LI must'e. Unga Teshiktosh, Semiganch, Og'zikichik gor—makonlari kiradi;
4. Mustye — Soan. Unga qora —Bura, Kuxi —Piyoz.

Keyinchalik yana bir texnik varianti — tishli Mustye davom etgan (Ko'lbuloq)

Muammoni yechish uchun R. X. Sulaymonov o'zgacha yondoshdi. U O'rta Osiyodagi Mustye davri makonlarini mehnat qurollarini yasash usullari, silliqlash va ularning miqdoriga ko'ra ikki yirik guruxga bo'ladi. Birinchisiga Kulbuloq va Bo'zsuv, ikkinchisiga Teshiktosh, Xo'jakent, Farrona makoni, qayroqum, Jarqo'ton, Obiraxmat manzilgoxlari kiradi.

Mustye davri manzilgoxlari O'rta Osiyoning barcha xududlarida aniqlangan, lekin ularning ko'pchiligi O'zbekiston va Tojikiston xududlaridan to'ib o'rganilgan bo'lib, ular nafaqat yer ustida balki yerning ostki qismida xam ko'pchilikni tashkil etadi. Boysun tog'ining janubiy yonbag'ridan topilgan Teshiktosh g'ori muxim ahamiyatga ega. Bu yerda beshta madaniy qatlam aniqlangan. Teshiktosh roridan siniq uchrindiq, tosh parchalari, plastinka — parrakcha, nukleuslar, tosh bo'lakchalaridan iborat uch mingga yaqin tosh qurollari topilgan.

Teshiktosh gori tosh qurollari Samarqand janubidagi Omonqo'ton qurollariga yaqin. Bu turdagi Mustyega Vaxsh tog'i tizmalarining janubi — garbiy qismida joylashgan ORZIKICHIK rori xam taaluqlidir. G'or makonlardan Toshkentdan shimoli — sharqda Tangritogning rarbida CHotqol tog' tizmalarida joylashgan Obiraxmat g'orini ko'rsatish mumkin. Poltov (Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani) gori tosh qurollari Obiraxmat va Xo'jakent tosh qurollaridan farq qilmaydi.

Oloy TOG' tizmasining shimoliy tarmog'ida Farg'onadan sharqda joylashgan Selung'ur g'oridan mil. av. 1 mln. 100 ming — 1 mln. yilliklarga oid ashyel qatlami qazib o'rganilgan. Selung'ur g'ori to'ilmalari eng qadimgi mehnat qurollari ko'rinishida bo'lib, o'ziga xos shakllariga ega bo'lsada, Janubiy va Janubi — SHarqiy Osiyoning eng qadimgi manzilgoxlari mehnat qurollari bilan ko'pincha o'xshash. Selung'urdan ashyel davri mehnat qurollaridan tashqari arxantrop qoldiqlari xam topilib, uni jaxonning mashxur manzilgoxlari qatoriga qo'yish mumkin.

Ochiq xoldagi mazilgoxlarga Vaxsh voxasida joylashgan bir —biriga o'xshash qora — Bura va Oqjorlar oiddir. qora — Bura joy — makonidan juda ko'p tosh parchalari va mehnat qurollari topilgan bo'lib, ularning yarmi qurol qilish uchun tayyorlangan mayda toshlardan iborat. Ular nukleuslar, uchrindiqlar, uchli paykonlar. Ayniqsa cho'per va cho'pinglar ko'p. Mustye davrining shunga o'xshash shakldagi materiallari Sirdaryo xavzasidagi qayroqum va Fargona shaxridagi makonlaridan xam to'ib o'rganilgan.

Ochiq xolda saqlangan makonlar turiga Angren daryosining o'ng soxilida joylashgan Ko'lbuloq va Samarqandning janubi — rarbidagi qo'tirbuloqlar oiddir. Kulbuloq to'ilmalari xilma —xil va unga xos makonlari bilan ajralib turadi. Mehnat qurollari — nukleuslar, tishli tosh qurollar-qirgichlar, tosh paykonlar, sixchalar, plastinkalar, tosh pichoqlar va boshqa tosh bo'laklaridan iborat. Bu makon mehnat qurollari O'rta Osiyoning boshqa makonlaridagi bilan o'xshash.

Qo'tirbuloq makonidagi tosh qurollarini chaqmoq diorit, kvartsit va daryo toshlaridan yasalgan o'tkir uchli paykonlar, qirg'ichlar, teshgichlar, parmalar, bargsimon qurollar xamda daryoning shag'al va chaqmoq toshlaridan yasalgan cho'ping va cho'per, yassi va gardishsimon nukleuslar, uchrindilar va boshqalardan iborat.

Qo'tirbuloq makonidagi toshdan yasalgan mehnat qurollarining yasalish usullariga Zirabuloq makoni (Zarafshon voxasi) to'ilmalarini xam kiritish mumkin.

Qirg'izistonning Mustye davriga oid makonlari yaxshi o'rganilmagan Tossor va Georgiy do'ngligi bu yerdagi mashxur makonlaridir. Tossor tosh qurollari Mustye davrining so'nggi bosqichi va so'nggi paleolitning ilk bosqichlariga oid. Georgiy do'ngligi mehnat qurollari yuqori pleystotsenning boshlanish davriga oid. Janubiy qirg'izistondagi Isfara daryosi vodiysidagi Xo'jag'ayr degan joydan xam Mustye davriga oid manzilgoh topilgan. U yerdan toshdan yasalgan — parrakchalar, qirg'ichlar, pichoqsimon qurollar, nukleuslar, sixchalar topilgan.

Teshiktosh g'or — makonidan topilgan yosh bolaning bosh chanog'i o'sha davr kishilarining qiyofasini tiklashga asos bo'lib, u O'rta Osiyo xududidagi yagona paleoantro'ologik to'ilma xisoblanadi. Bosh chanog'i yuqori madaniy qatlamdan topilgan. Ko'rinishdan bola dafn etilgach, yovvoyi xayvonlarga yem bo'lgan, shuning uchun bola skeleti to'liq saqlanmagan. Antro'olog olim M. M. Gerasimov bo'lakchalarga bo'linib ketgan bosh chanoqni yelimlab, bolaning qiyofasini tiklashga erishgan. Natijada suyaklar 9 yashar bolaga tegishli bo'lib, morfologik jixatdan neandertal shaklida ekanligi aniqlangan. SHu bilan birgalikda Teshiktosh to'ilmasi yevro'oid irqiga mansub ekanligi xam aniqlangan. Keyingi qilingan taxlillarning xulosasiga ko'ra, O'rta Osiyoning janubiy xududlari irq shakllangan uchoqlardan biri xisoblanadi.

Bola suyagining qoldiqlari atrofida tog' echkisining to'rt juft shoxi tartib bilan terib qo'yilgan bo'lgan. qabr yaqinida olov qoldiqlarining izlari xam aniqlangan. Ko'rinishidan teshiktoshliklarda vafot etganlarni dafn qilish odatlari mavjud bo'lib, diniy tasavvurlar shakllangan.

Teshiktoshdan ko'plab yovvoyi xayvon suyaklari topilgan. Ular tog' echkisi, bug'u, ot, yo'lbars, ayiq, tulki, 20 dan ortiq qush suyaklaridan iborat.³

Omonqo'ton makonida muflon suyaklar ko'plab topilgan. Teshiktoshga nisbatan esa bu yerdan bug'u, ayiq ancha kam.

Teshiktoshda uchramaydigan Sibir kiyigi va , cho'l toshbaqasi suyaklari xam mavjud.

Og'zikichikdan topilgan xayvon suyaklarining 14 tasi Omonqo'ton va 6 tasi Teshiktoshlardagi xayvon suyaklari bilan bir xil. Umumiy suyaklarning ko'pchiligini cho'l toshbaqasi suyaklari tashkil etadi. Bundan tashqari yovvoyi qo'chqor va echkilar, otg eshak, bug'u xatto jundor nosorog suyaklari xam topilgan.

Obiraxmat g'oridan topilgan suyaklarning yarmidan ko'prog'ini yovvoyi echki tashkil etadi. Bug'u, qo'y, yovvoyi cho'chqa suyaklari xam mavjud.

Obiraxmat, Omonqo'ton va Teshiktosh makonlari to'ilmalarida unchalik farq katta emas. Bular Mustye davrining o'rta tog' variantiga mansub bo'lib, asosan tog' echkisiga ov qilishgan.

G'or —makonlar ichida qo'tirbuloq to'ilmalari boshqalardan ancha farq qiladi. Undagi topilgan suyaklarning deyarli yarmi otniki, keyingi o'rinda filniki. Tur (yovvoyi buqa), buxoro butusi suyaklari esa kamchilikni tashkil etadi.

Umuman, O'rta Osiyoning Mustye davri makonlari mahlum xudud tabiiy sharoitlariga mos ixtisoslashgan ovchilikning mavjud bo'lganligini ko'rsatmoqda.

So'nggi paleolit davri bir necha million yil davom etgan qadimgi tosh asrining so'nggi bosqichi bo'lib, o'zidan oldingi Mustye davriga nisbatan yaxshi o'rganilmagan, ochilgan joy — makonlar soni xam kamchilikni tashkil etadi. O'rta Osiyoda yuqori pleystotsenning ikkinchi yarmida noqulay ob —xavo sharoitiga moslashgan turar joylar bo'lganligidan dalolat beruvchi moddiy to'ilmalar uchramaydi. Bu davr kishilari faqat gorlardagina yashamasdan, vodiylar va

³ Окладников А.П Неандертальский человек и следы его культуры в Средней Азии (предварительные данные и выводы о раскопках в гроте Тешикташ). СА, вып 6, М.: 1940 А. — С,12-14

daryo bo'ylariga xam tushib kelganlar va shu yerlarda istiqomat qilganlar. SHuning uchun ularning makonlari tabiat injiqliklari natijasida nobud bo'lgan va keyinchalik yerlarning o'zlashtirinishi tufayli madaniy qatlamlar yo'q bo'lib, bizgacha saqlanib qolmagan. O'rta Osiyoda so'nggi paleolit davri mil. av. 34 ming yillikdan 10 ming yillik (mil. av. 8300 yil atrofi)gacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. So'nggi paleolit davriga oid kam sonli makonlar davrlarga bo'lish imkoniyatini qiyinlashtirsada, ularning to'ilmalarini u yoki bu darajada anyqlash mumkin.

O'rta Osiyoda so'nggi paleolit davriga oid manzilgox Samarqand shaxri yaqinidan 1939 yili N. G. Xarlamov tomonidan ochilib, Samarqand makoni deb atalgan. Keyinchalik makon D. N. Lev, B. N. Amartseva va M. D. Jo'raqulovlar tomonidan o'rganilgan. So'nggi paleolit davriga oid madaniy qatlam yaxshi saqlangan 30 dan ortiq yodgorliklarda V. A. Ranov, A. P. Okladnikov, S. A. Nesmyanov, G. F. Korobkova, M. D. Jo'raqulov, M. R. Qosimov, N. X. Toshkenboev va boshqalar o'zlarining ulkan xissalarini qo'shganlar.

V. A. Ranov tomonidan so'nggi paleolit davrining quyidagi to'rtta varianti ajratib ko'rsatiladi: qorakamar, xo'jagor, samarqand, ko'lbuloq. Dastlabki ikkitasi bitta taraqqiyot bosqichida bo'lib, ko'rinishdan ularni birlashtirish mumkin.

Qorakamar varianti Turkmanistondagi Krasnovodsk yarim orolida joylashgan Yangaja II ustaxona — makoni misolida aniqlangan. Bu makondan jelavkalar, nukleuslar, siniqlar, parrak va parrakchalar, teshgich, keskich va boshqa tosh qurollari to'ib o'rganilgan. Ular orasida nukleussimon qirg'ichlar diqqatga sazovor bo'lib, ularga o'xshash qurollar Falastinning so'nggi paleolit davri yodgorliklarining quyi qatlamidan xam to'ib tekshirilgan.

Tojikistondagi Xo'jag'or makonidan esa oq, qora va ko'k rangdagi chaqmotoshlardan yasalgan mehnat qurollari to'plami to'ib o'rganilgan. Bu tosh qurollar nukleus, qadama, plastinka va boshqalardan iborat. Bulardan tashqari maxsus mexnit qurollari (parmalagich, teshgichlar) xam to'ib o'rganilgan.

Tojikiston Pomir tog' tizmasidan Darvoza tog'ining g'arbiy qismidagi daryo voxasida ko'p qatlamli SHurnou joy — makoni joylashgan. Bu makonda to'rtta madaniy qatlam aniqlangan. Makonning umumiy maydoni 500 m. kv. bo'lib, madaniy qatlamlar bir — birlariga nisbatan kichiklashib boradi. Birinchi va ikkinchi madaniy qatlamlarda olov QOLDIRI izlari yoki kuygan tuproq izlari to'ib tekshirilgan. Uchinchi madaniy qatlamdan esa ish joyi o'rni aniqlangan. To'rtinchi madaniy qatlamdagi qoldiqlarga ko'ra bu qatlamda yashash joylari bo'lmagan. Olov qoldiqlari makonda odamlar uzoq yashamaganliklaridan dalolat beradi. Mehnat qurollariga ko'ra manzilgoh bu yerda yashagan ovchi qabilalarining vaqtinchalik lageri bo'lganligidan guvo'lik beradi.

Shug'noudan topilgan barcha tosh qurollarni uch (I — madaniy qatlam, II — madaniy qatlam, III — madaniy qatlam) guruhga bo'lish mumkin. Birinchi madaniy qatlamdan ko'p sonli plastinka, nukleus — qirg'ichlar topilgan. Mehnat qurollari bir xilda (keskich, plastinka, retushli parrakchalar va boshqalar).

Ikkinchi madaniy qatlamda plastinkalar ko'pchilikni, nukleuslar esa kamchilikni tashkil etadi. Ammo, qirg'ichlar, ushatgichlar, keskichlar soni ko'payadi.

III va IV — madaniy qatlamida esa kam sonli plastinka va nukleuslar topilgan. Umuman bu madaniy qatlamdagi to'ilmalarda Mustye davri tosh qurollari belgilari mavjud bo'lib, Obiraxmat tosh qurollariga yaqin. Bu esa pastki ikki madaniy qatlamning yoshi o'rta paleolit davri bilan belgilanishini ko'rsatadi.

Samarqand manzilgoxi shaxar markazida Siyobcha soyining o'ng soxilida joylashgan. Makonning madaniy qatlami 3 — 4 va 3 — 7 metr qalinlikda.

Madaniy qatlami turli qalinlikka ega. Bu makondan 75 mingga yaqin tosh qurollar topilgan. qurollarning ko'pchiligi chaqmoqtosh, diorit, amfibolit, . kabi tog' jinslaridan yasalgan.

Tosh qurollar uchun xom —ashyo 7—8 km. shimolda joylashgan Cho'pon ota qoyalaridan olib kelingan bo'lishi mumkin.

Bu yerdagi mehnat qurollari qirg'ich, keskich, sixchalar, pichoqlar, gardishsimon nukleuslar, uchrindilar, ushatgichlar, boltalar va yupqa parrakchalardan iborat.

Bular orasida xayvon terilariga ishlov berish uchun mo'ljallangan qirg'ichlar, teshgichlar va suyakdan yasalgan mehnat qurollari ajralib turadi.

Ayniqsa to'ilmalar orasida 16 sm. tosh bolta, tesha vazifasini bajaruvchi tosh qurol diqqatga sazovor bo'lib, boshqa manzilgoxlardan ajralib turuvchi o'ziga xos xususiyatdir.

Samarqand manzilgoxi tosh qurollarining yasash texnikasiga ko'ra Xo'jamag'iz manzilgoxinikiga o'xshash.

Bu yerda ibtidoiy odamlar yasagan chaylalarning izlari xam uchraydi. Bu esa yuqori paleolit davriga kelib yengil turar joylar qura boshlaganliklarini to'liq tasdiqlaydi. Bu yerdan topilgan chaylaning maydoni 100 metr kvadratni tashkil etadi.

Ko'lbuloq makoni. Ko'lbuloq O'rta Osiyodagi tosh asri manzilgoxlarining ajoyib namunasi xisoblanadi. Makon Oxangaron shaxridan 10—12 km. g'arbda, CHotqol tog'ining janubiy yonbag'ridan chiqadigan qizilolma soyi bo'yidagi adirliklarda joylashgan. Bu makon bir necha madaniy qatlamdan iborat bo'lib, quyi qatlami ilk tosh asriga, yuqoridagi uchta qatlami esa so'nggi paleolit davriga oid. Ushbu madaniy qatlamlardan gulxan, ko'mir qoldiqlari, ko'l xamda tosh buyumlar — nukleuslar, tishli tosh qurollari, qirg'ichlar, tosh paykonlar, sixchalar, plastinkalar, tosh pichoqlar to'ib o'rganilgan.

Umuman olganda mehnat qurollari manzilgoxning Mustye davridagi xususiyatlarini saqlab qoladi.

O'rta Osiyoning bu davrga oid manzilgoxlarida oldingi davrga nisbatan antropologik to'ilmalar va xayvon suyaklari qoldiqlari ko'plab uchraydi. Samarqand manzilgoxidan antropologik to'ilmalar aniqlangan bo'lib, ular 25 yoshlardagi kramang'on tipidagi ayolning yelka suyagi, pastki jag'ining 9 ta tishi va boshqa tishlaridan iborat.

Keyinchalik birinchi to'ilmaga o'xshash 35 yoshlardagi erkak yoki ayolga tegishli bo'lgan 10 ta tishi saqlangan pastki jag' topilgan.

O'rta Osiyoning so'nggi paleolit davriga oid ko'pgina makonlarda xayvon suyaklari ko'proq uchraydi. Masalan Shugnou makonidagi o'choqlar yonida ot, xo'kiz yoki bizon, (echki)larning suyaklari to'ib o'rganilgan.

Samarqand manzilgoxida xam xayvon suyaklari ko'plab uchraydi. Bu yerdagi suyaklarning ko'pchiligini ot, so'nggi paleolit davri eshagi, ibtidoiy turlarniki tashkil etsa, tuya, Buxoro bug'usi, cho'l qo'chqori nisbatan kamroq, jayron, toshbaqa, fil yoki nosorog, bo'ri va qushlarning suyaklari esa juda kamchilikni tashkil etadi. Bu xududda cho'l to'qay, tog' va tog' oldi xududlarga mansub xayvonlar ko'p bo'lgan.

Ko'lbuloqdan bug'u, ot, sirtlon, yovvoyi qo'chqorlarning suyak qoldiqlari topilgan.

O'rta Osiyodagi Mustye va so'nggi paleolit davri manzilgoxlarini xar tomonlama o'rganish ibtidoiy odamlar tabiat bilan uzviy bog'langanligini va o'z faoliyatlarida tosh qurollardan keng foydalanganligini xamda ularni uzluksiz rivojlantirib borganligini ko'rsatadi.

2001-2002 yillar mobaynida Ko'lbuloq makonida qayta tadqiqot ishlari olib borildi va so'ngi paleolit dariga oid retushlangan mehnat qurollari, turli shakllardagi nukleuslar topildi.

Toshkent vohasidan so'nggi paleolit davriga oid Bo'zsuv I, Bo'zsuv II, Bo'zsuv VI, Tuyabo'g'iz

II, III, IV, V, VI makonlari ham topib o'rganilgan. Ulardan topilgan tosh buyumlar Ko'lbuloqdan topilgan tosh buyumlariga o'xshaydi. Bular asosida arxeologlar Toshkent vohasida ibtidoiy odamlar paleolit davrining barcha bosqichlarida isteqomat qilib, bir-biri bilan yaqin aloqada bo'Mganlar va ovchilik xo'jaligi bilan shug'ullanganlardegan xulosaga kelishgan.

So'nggi paleolit davriga oid Fransiya, Ispaniya, Janubiy Italiya xududlaridan g'orlarga ishlangan rasmlar topilgan. Qoya tosh rasmlar o'sha davr odamlarining diniy e'tiqodi bilan bog'liq holda ishlangan. Ba'zida rasmlar g'orlarning yorug' tushmaydigan joylariga. ya'ni 900 w.gacha bo'lgan joylaridan ham topilgan. Franciyaning Losel g'oridan odam va hayvonlar tasviri qizil va sariq ranglar ishlangan. Angl-syur- L'Anglandan esa. 35m kenglikda bizon, ot. Tog' echkisi tabiiy hajinda aks ettirilgan. Ulami uchta ayol kuzatib turibdi. Bu tasvirlar urib-o'yish yo'li bilan ishlangan. Ispaniyada Altamir g'oridan topilgan tasvirlar butunlay o'zgacha bo'lib, qizil rang bilan ishlangan. Ramziy ma'nolarga ega bo'Mgan turli shakllar ham aks ettirilgan.

So'nggi paleolit davrida. mil.aw. 30-20 ming ilgari Shimoli - Sharqiy Osiyo xududidagi ibtidoiy odamlar Bering bo'g'ozini orqali Alyaskaga kirib borib, Amerika xududlari bo'ylab tarqaladilar va o'ziga xos madaniyatni yaratganlar.

Yodda tuting! Ilk paleolit davrida

- Paleolit 3 min - 12 ming yilliklarni o'z ichiga oladi.
- O'zbekiston hududida ilk paleolit davri 2 mln-200 ming yillikgacha davom etgan.
- Ilk paleolit olduvay va ashel davrlariga bo'linadi.
- Ilk qo'l cho'qmori qayroqtoshdan yasalgan.
- Ashel davrida qo'l cho'qmori chaqmoqtoshdan yasalgan.
- Qo'l cho'qmori kerta texnika asosida ishlangan.
- Ilk paleolit davrida pitkantropl, zinjantrop, sinantrop, ferganantrop odamlari yashaganlar.
- Er yuzida 4 muzlik davri - ginc, mindel, riss, vyurm davrlari bo'lgan.
- O'zbekiston hududidan ashel davriga oid makonlar topilgan.
- Farg'onadagi Selungur makonidan Ferganantrop odami topilgan.
- Toshkent viloyatidagi Ko'lbuloq makonidan 49 madaniy qatlam topilgan.

O'rta paleolit davrida

- O'rta paleolit mil.avv. 100-40 mingyilliklarni o'z ichiga oladi.
- O'zbekiston hududi o'rta paleolit mil.avv. 200-100 ming yilliklar hisoblanadi.
- Jahon arxeologiyasida o'rta paleolit muste va levallua-muste bosqichlariga bo'linadi.
- O'zbekiston hududida o'rta paleolit -muste, levallua. levallua- muste, soan bosqichlariga bo'linadi.
- Nukleus tosh o'zagidir.
- Nukleus yorma texnika asosida ishlangan.
- O'rta paleolitda sun'iy olov ixtiro qilingan.
- O'rta Osiyodan 300dan ortiq o'rta paleolit makonlari topilgan.
- 1938 yili Teshiktosh g'oridan neandertal odam qoldiqlari topilgan.
- 2003 yilda Obiraxmatdan neandertal va xomo sapines odamidagi xususiyatlar omuxtalashgan odam qoldiqlari topilgan.
- Zarafshon vohasidan Omonqo'ton, Zirabuloq, Go'rdara, Takalisoy makonlari topilgan.

So'nggi paleolit davrida

-kromanon odam yashagan.

- urug'chilik va matriarxal tuzumi boshlangan.
- diniy tasawurlar, irqalar vujudga kelgan.
- qoya tosh suratlari, haykaltaroshlik paydo bo'lgan.
- Mehnat qurollarini ishlashda retushlash qo'mlanilgan.
- Pichoqlar paydo bo'lgan.
- Suyakdan garpun, igna, bigiz ishlaganlar.
- O'rta Osiyoda 30dan ortiq joydan makonlar topilgan.

3- MAVZU: Mezolit davri xo'jaligi va moddiy madaniyati (2soat)

1. Mezolit davrida O'rta Osiyo (o'rganilish tarixi, davri)
2. Sharqiy Kaspiybo'yi mezoliti.
3. Ustyurt mezoliti.
4. O'rta Osiyo sharqiy viloyatlari mezoliti.
5. Vaxsh, Kofirnigon va Panj vodiylarida mezolit.
6. Sharqiy Pomir mezoliti.
7. O'rta Osiyoda mezolit davri san'ati.

Adabiyotlar:

1. Kabirov J, Sagdullaev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. T. 1990. 57-67 betlar.
2. O'zbekiston tarixi. I qism. Mualliflar jamoasi. A.S. Sagdullaev umumiy taxriri ostida. T. 1997. 26 bet
3. Mirsoatova S. O'zbekistonning tosh davri arxeologiyasi va antropogenezi masalalari. T. 2019. 40-55-betlar.
4. Egamberdiyeva N.A. Arxeologiya. T. 2011. 38-46-betlar
5. Исламов У.И. Мезолитические памятники Ферганской долины. ИМКУ. №9. Т. 1972. Стр 27
6. Исламов У.И. Обиширская культура. Т. 1980. стр 9.

1. Archeology: The Basics London First published 2004 by Routledge
2. Archeology: the key concepts First published 2004 by Routledge 2 Park Square, Milton Park. Abingdon, Oxon.
3. History of civilizations of Central Asia Volume I.II. Uneseo Publishing 2001.
4. Эгамбердиева Н.А. Археология. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2011.
5. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. Тошкент «Ўқитувчи» 1990

Tayanch iboralar: Ta s v iriy san'at, o'rta tosh davri, ovchilik, nayza, o'q-yoy, hayvonlarni qo'lga o'rgatilishi, petroglif, Obishir, Qo'shilish, Machay.

Mezolit davriga oid dastlabki tadqiqot ishlari 40 — 50 yillarda A. P. Okladnikov tomonidan amalga oshirilgan (Turkmanistonda va Tojikistonning tog'li rayonlarida). Keyingi tadqiqot ishlari A. M. Mendelshnam, G. Ye. Markov, X. Yu. Yusupov, B. E. Gamburg, N. G. Garbunova, Yu. A. Zadneprovskiy, U. I. Islomov, V. I. Timofeev, Ye. B. Bejanov, A. Ye. Vinogradov, V. A. Ranov, A. X. Yusupov, V. A. Jukov, M. Yu. Yunusaliev va boshqalar tomonidan davom ettirilgan. qator manzilgoxlarning ochilishi va oldin o'rganilgan

manzilgoxlardan topilgan materiallar xamda ko'pchilik tadqiqot ishlarining natijalari O'rta Osiyo xududida mezolit madaniy — xronologik jixatidan turli xil bo'lganligini ko'rsatadi.

Mezolit davrining yoshini nisbiy (g'or—makonlar, chaylalar va ochiq manzillar stratigrafiyasi) va mutlaq (absolyut) (radiouglerod davrlashtirish, bir davrdagi yodgorliklar, ko'pincha Yaqin SHarq yodgorliklari bilan solishtirish) davrlashtirishlarga asoslanib, mil. av. XI—VII m. yy. doirasida belgilash mumkin. Mezolit davrini madaniyatlar va variantlarga ajratish xarakterlari xam bo'lgan. Sharqiy Kaspiybo'yi mezoliti ikkita madaniy kompleksga: (tosh industriyasining turli shakllari) balxanbo'yi va kaspiybo'yiga bo'linadi. Farg'ona vodiysidagi yodgorliklarni xam aloxida madaniyatlarga ajratish masalasi paydo bo'ladi. Bu yerda mezolitni ikki variantga yoki madaniy komplekslarga: ilk (fargona) va g'or —makon (obishir)larga bo'lish mumkin. O'zbekiston xududida mezolit davriga oid boshqa yana ikkita Toshkent va Surxondaryo komplekslari mavjud. Pomirning baland tog'li xududlarida o'ziga xos Markansuv madaniyati aniqlangan. Mezolit davrida Vaxsh madaniyatining bo'lganligi to'g'risida xam munozaral mavjud.

Sharqiy Kaspiybo'yi mezoliti. Krasnovodsk yarim oroli, Balxanbo'yi, qorabo'giz, quyi O'zboy yodgorliklari mezolit davriga oiddir. Bu yerda 30 dan ortiq manzilgoh va to'rt qatlamli g'or—makonlar (Jebel, qayli, Damdamchashma 1 va 2) aniqlangan. Topilgan materiallar taxlili va ularning qiyosiy tavsifi bu yerdagi manzilgoxlarni balxanbo'yi va kaspiybo'yi guruxlariga ajratish imkonini beradi. Har ikkala manzilgoxlarga toshlarni tekis yorish va silliqlash texnikasi xosdir. Ammo ikkinchi guruxda mikrolitlar ko'proq uchraydi.

Sharqiy Kaspiybo'yida mezolit davrining sanasi mil. av. X—VII m. yy. doirasida bo'lgan. Har ikkala komplekslar o'z navbatida balxanbo'yi ilk —o'rta va so'nggi va sharqiy kaspiybo'yi — ilk va so'nggi davrlarga bo'lingan. Bu xududda yashagan xalqlar ovchilik, baliqchilik va terimchilik bilan kun kechirganlar. Teriga, suyakka va yog'ochga ishlov berish, mehnat qurollari yasash, chiganoq va toshlardan taqinchoqlar yasash, ishlangan teri va charmdan kiyim tikish ishlari ularning uyidagi asosiy mashg'ulotlari bo'lgan. SHarqiy Kaspiybo'yida xonakilashtirilgan echki va qo'y suyaklarining to'lishi ularning so'nggi mezolit davriga kelib xo'jalikning yangi shakli — chorvachilikka o'tganliklaridan dalolat beradi. SHarqiy Kaspiybo'yi madaniyati O'rta Osiyoda neolit davri madaniyatining shakllanishida asosiy o'rin tutadi.⁴

Ustyurt mezoliti. Bu yerda mezolit davriga oid yodgorliklar shakliga ko'ra ochiq xoldagi manzilgoxlardan iborat. Doimiy manzilgoxlar, qisqa muddatli yashash manzillari xamda vaqtincha yoki mavsumiy manzillar ajralib turadi. Ustyurtning mezolit davri tosh industriyasiga tekis yorish va silliqlash texnikasi xosdir. Ustyurtda Kaspiybo'yi va Janubiy Ural mezolit davri madaniyatlari tahsirida shakllangan o'ziga xos aralash maxalliy madaniyat yoyilganligi to'g'risida taxminlar mavjud. Ustyurtda mezolit mil. av. VIII—VII—VII—VI m. yy. bilan sanaladi. Ustyurtning mezolit davri makonlarini to'ilmalar xususiyatiga ko'ra quyidagi xronologik guruxlarga bo'lish uchun xam xarakterlar xam qilingan: ilk (rivojlangan mezolit) — mil. av. VIII—VII m. yy. va so'nggi (so'nggi mezolit va ilk neolit) — mil. av. VII—VI m. yy. Xo'jaligini o'zlashtiruvchi bo'lib, ovchilik va termachilikka asoslangan. Suyak va yog'ochlarga ishlov berish uydagi asosiy mashg'ulot xisoblangan. Ustyurt makonlari bir xil shaklda, to'p — to'p joylashgan. Bu Ustyurtning mezolit davri uyushmasi ovchilar guruxidan yoki soddd ichki

⁴ Egamberdiyeva N.A. Arxeologiya. T. 2011. 38-46-betlar

tuzilmadan tashkil to'ganligini ko'rsatadi. Mezolit davri maxalliy neolit davrining shakllanishida muxim rol o'ynadi.

O'rta Osiyoning sharqiy viloyatlari mezoliti. Bu O'rta Osiyoda yaxshi o'rganilgan xudud xisoblanadi (200 dan ortiq yodgorlik ochilgan va o'rganilgan, ular turar joy, makonlar, gor — makonlar, qoyatosh suratlari mavjud bo'lgan turar joylardan iborat). Bir xil shakldagi manzilgoxlarni o'z ichiga olgan qator yodgorliklar guruxga bo'lingan xolda to'plangan (masalan, Farg'ona makonlari, Markaziy qizilqum turar joylari, Machay gor — makoni va qurilish makonlari muxim o'rin tutadi). Fargona yodgorliklari madaniyati jixatdan o'ziga xosligi bilan quyidagi ikkita kompleksga bo'linadi: tekislikdagi (farrona) va gor — makondagi (obshir) O'rta Osiyoning sharqiy viloyatlarida mezolit mil. av. XI — VII m. yy. o'z ichiga oladi.

Machay gor — makoni. Yodgorlik Surxondaryo viloyat Boysun togida joylashgan. G'orning madaniy qatlamida tosh va suyakdan yasalgan mehnat qurollari, xayvon (yovvoyi va xonakilashtirilgan xayvonlar) suyaklari topilgan. Mehnat qurollari yasashda dolomit qisman chaqmoqtoshdan foydalanilgan. Tosh qurollari: nukleuslar, tosh pichoqlar, arrasimon qurollar, keskich, yo'ng'ich — randalar, nayza va o'q uchlari, trapetsiyalar va sigmentlardan iborat. Yodgorlik radiouglerod davrlashtirishga ko'ra mil. av. 7550— 110 yilliklar bilan sanaladi.

Qurilish makoni. Yodgorlik Toshkentning g'arbida, qadimgi Bo'zsuv anxorining chap soxilida joylashgan. Madaniy qatlamida 200 dan ortiq chaqmoqtosh qurollari (nukleuslar, mayda parrakchalar, uchrindilar, qirgichlar, toshpichoq, silliqlangan boshqa tosh buyumlar) topilgan. Qurilish makonining davri mil. av. X — IX m. yy. bilan sanaladi.

Obishir madaniyati. Bu madaniyatga Farg'ona vodiysidagi bir necha mezolit davri yodgorliklari (40 dan ortiq) kiradi. Ularning ko'pchilik qismi ochiq xoldagi makonlar, kamchilik qismi bir va bir necha qatlamga ega bo'lgan g'or — makonlar (Obishir 1,2,3,4,5 va Toshko'mir)dan iborat. Ular ichida Obishir 1 va Obishir 5 yaxshi o'rganilgan. Ularning madaniy qatlamlaridan tosh qurollar (mikrolitlar, qirgichlar, pichoq qadamalari, keskich va teshkichlar, o'roq — randalar xamda nukleuslar) suyak buyumlari, chig'anoq, suyak va toshdan yasalgan taqinchoqlar shular bilan birgalikda xayvon suyaklari xam topilgan. Toshko'mir gor — makonida Obishir makoniga o'xshash, silliqlash texnikasi ancha dagal chaqmoqtoshdan yasalgan buyumlar mavjud.⁵

Har ikkala guruxagi manzilgoxlardan topilgan tosh qurollarning tayyorlanish texnikasiga ko'ra o'xshash tomonlari ko'p bo'lib, ular yagona madaniyatga mansub ekanligidan dalolat beradi. Ammo, ular madaniy jixatdan bir — birlariga yaqin bo'lsada, davrlari farqlanadi, ko'rinishdan bu umumiy Obishir madaniyati: ilk (g'or — makonlar) va so'nggi (tekislikdagi makonlar) bosqichlari bo'lganligini ko'rsatadi. Obishir madaniyatiga mos tosh qurollarning ishlanish texnikasiga ko'ra Samarqandning yuqori paleolit makoni va Xo'jag'or makonlari materiallariga o'xshash. Obishir madaniyati soxiblari ovchilik va termachilik bilan shug'ullanganlar ov quroli sifatida o'q va yoy ishlatilgan. Obishirliklar tog' oldi va dasht zonalarida daydi ovchilik qilganlar. Keyingi davrda Obishir madaniyati markaziy Fargona neolit davri manzilgoxlarining rivojlanishiga sezilarli tahsirini o'tkazadi.

Vaxsh, Kofirnigon va Panj vodiylarida mezolit. Bu yerda mezolit davriga oid 20 ta yodgorlik ochilgan va tadqiq qilingan. Ko'pchilik joy — makonlarning madaniy qatlamlari buzilib ketgan. Bu xududda mezolit rivojlanishi ikki yo'nalishda borgan: tog'lda va tekislikda.

⁵ Исламов У.И. Мезолитические памятники Ферганской долины. ИМКУ. №9. Т. 1972. Стр 27

Turli davrlarga va madaniyatlarga bo'linadigan to'rtta yodgorliklar kompleksi (majmuasi) ajralib turadi. Bu regionda mezolit mil. av. XI—VIII m. yy. bilan sanaladi.

I kompleks: Tutqovul va Chil —chor chashma. SHartli ravishda Tutqovul madaniyati deb nomlangan. Bu madaniyat, mil. av. XI G'X — VIII m. yy. oid.

II kompleks: Darai SHO'r, Tutqovulning ikkinchi madaniy qatlami. Ularning to'ilmalari obishir materiallariga o'xshash. Mil. av. VIII—VII m. yy. bilan sanaladi. Vaxsh daryosining o'rta oqimi xududi mezolit davri Vaxsh madaniyatiga oid deb taxmin qilinadi. Bu madaniyat an'anasi keyinchalik Tojikiston tog' zonasi qabilalarining neolit davri Hisor madaniyati yoyilishiga tahsir qildi.

III kompleks: quyi Bulon va Obi kiyik (obi kiyik kompleksi). Bu makonlar uchun faqat chaqmoqtoshdan yasalgan mikrolitlar va plastinkasimon qurollar xosdir. Davri mil. av. VIII—VII m. yy. bilan belgilanadi.

IV kompleks: Shugnau makonining O gorizonti (shugnou kompleksi). mil. av. X m. yy. ga (XI m. yy. lar xam bo'lishi mumkin) oid. Bu makonning paydo bo'lishi to'g'ridan — to'ri o'zining yuqori paleolit davri madaniyati bilan boglangan.

Bu xuddagi madaniyat soxiblari xam o'zlashtiruvchi xo'jalik: ovchilik, baliqchilik, termachilik bilan kun kechirganlar. Ovchilik va baliqchilikda nayza, o'q va yoydan foydalanganlar. Hayvonlardan qo'y va echkilarning suyaklari topilgan. Ovchi va baliqchilar vaqtinchalik yashash uchun chaylaldan foydalanganlar yoki ochiq xavoda yashashgan.

Tojikistonning mezolit davri makonlarida bir vaqtda yoyilgan shimoliy Afg'oniston, Falastin, Suriya va Old Osiyoning boshqa rayonlaridagi manzilgoxlari bilan o'xshash belgilari seziladi. Bu esa Yaqin SHarq qabilalari bilan madaniy va genetik aloqasi borligidan dalolat beradi.

Sharqiy Pomir mezoliti. Bu yerdagi mezolit davri yodgorliklari Markansuv madaniyati (Alichur va Oshxona makoni) va Issiq madaniyati yoki anshfog'i issiq qompleksi (Issiq g'or — makoni)laridan iborat. Pomirda mezolit davri mil. av. VII m. yy. ga to'g'ri keladi. Markansuv madaniyati Pomirdan tashqarida shakllangan. Uning kelib chiqish ildizi aniqlanmagan bo'lsada, industriya xususiyatlarining maxalliy tabiiy sharoitga bog'liqligi seziladi.

Oshxona makoni. Bu yerda bir davrga oid uchta madaniy qatlam aniqlangan. Yirik dag'al ishlangan mehnat qurollari va kichik nafis mehnat qurollari ajralib turadi. Bu yerda silliq toshdan yasalgan ikkita o'choq va atrofida yashash maydonchasi aniqlangan.

Issiq g'or —makoni. Madaniy qatlami bir yarim metr. U yerdan kichik va o'rta xajmdagi toshlardan aylana qilib terilgan o'choq topilgan.

Markansuv madaniyati soxiblari ovchilik va terimchilik bilan kun kechirganlar. Makon mavsumiy foydalaniladigan joy bo'lib, undan o'lja izlab ovga chiqqan vaqtda yashash uchun foydalanilgan. Oshxonadagi topilgan yashash maydonchasi yengil turdagi chaylasimon uylarning qoldig'i bo'lishi mumkin.⁶

O'rt Osiyodagi mezolit davri madaniyatlari va komplekslari o'ziga xos va turli xilda. Bu yerda mezolit davrining shakllanishida avvalambor so'nggi paleolit davri maxalliy madaniyati asosiy o'rin tutgan bo'lsada, shu bilan birgalikda tosh asrining yirik madaniy markazi xisoblangan Yaqin Sharq qabilalarining xam sezilarli tahsiri bor. SHunday qilib, mezolit davrida

⁶ Исламов У.И. Обиширская культура. Т. 1980. стр 9.

O'rta Osiyoda xo'jaligi va madaniy xususiyatlari bilan ajralib turadigan bir qancha q[^]bilalar yashashgan.

O'rta Osiyoda mezolit davri san'ati. San'at namunalari tog'li rayonlarda qoyatoshlarga bo'yoq bilan yoki urib, o'yib, ishqalash, chizish usuli bilan ishlangan tasvirlardir. Zarautkamar Surxondaryoda, SHaxta g'ori Tojikistonda). Zarautkamar qoyatoshlarida ov manzaralari (yovvoyi buqa, jayron va tik shoxli echkilarga qilinayotgan ov) tasvirlangan. Rasmlar qizil bo'yoqda ishlangan. Tasvirdagi xayvonlarning shakli aniq xarakter qilayotganga o'xshaydi. Odamlar shakli esa

shartli va xarakatsiz tasvirlangan. Zarautkamarda madaniy qatlam uchramaydi. Tasvirlar borish noqulay bo'lgan joylarda chizilgan.

Bunga o'xshash uslubdagi tasvirlar Shaxta kamarida xam chizilgan. Saqlangan to'rtta tasvirda odam, yovvoyi cho'chqa, ayiq tasvirlangan. Ular qizil bo'yoqda ishlangan.

Zarautkamar va Shaxta kamaridagi rasmlari o'zida mezolit davri tog' ovchilarining qarashlarini aks ettiradi va ular rassom tomonidan zo'r maxorat bilan berilgan.

1. Ilk mezolit bosqichi miloddan avvalgi XI-X ming yilliklami o'z ichiga oladi. Ko'shilish madaniyatida o'z aksini topgan.
2. O'rta mezolit bosqichi miloddan avvalgi IX—VIII ming yilliklar bo'lib, Obishir madaniyatida o'z aksini topgan.
3. So'nggi mezolit bosqichi miloddan avvalgi VII—VI ming yilliklar bo'lib, Machay madaniyatida o'z aksini topgan.

O'zbekistondagi mezolit davri yodgorliklarida prizma, konus, pona shakllaridagi nukleuslar topilgan. Tosh paraqalari bir tomonlama kerta tarzda o'tkirlangan. Qirg'ich qurollari tosh uchrindilardan va parchalaridan ishlangan. Shuningdek, tog'li hududlarda nukleuslar qayroqtoshlardan bo'lgan.

O'zbekistonda ilk mezolit davriga oid manbalar XX asr boshlarida topilgan. Mezolit davrini sistemali o'rganishni A.P.Okladnikov boshlab bergan. Keyinchalik Katta va Kichik Balxash hududlarida ko'p qatlamli mezolit davriga oid yodgorliklar, Ustyurtda, Markaziy Farg'onada, Qizilqum. Pomirda mezolit yodgorliklari ko'plab topilgan.

J.M.Mandelstam, X.Yu. Yusupov, Yu.A.Zadneprovskiy, O'Islo-mov-Farg'onada, E. Bijanov, V.Yagodin, A.Vinogradov, G.Xodja- . niyozovlar Ustyurtda tadqiqot ishlarini olib bordilar. Lekin O'zbekiston mezoliti boshqa davrlarga nisbatan kam o'rganilgan. Omslomov shu kunga qadar O'zbekiston hududida o'rganilgan yodgorliklarni uchta - Farg'ona. Toshkent va Surxandaryo territorial xususiyatlarga bo'ldi.

Qo'shilish makoni Toshkentning g'arbida qadimgi Bo'zsuv anhorining chap sohilidan topilgan. U erdan nukleuslar, mayda paraqachalar, qirg'ichlar topilgan. Qo'shilishning madaniy qatlamidan topilgan mazkur qurollar so'ngi tosh davri qurollariga nisbatan o'zining ancha ixchamligi va qurol turlarining xilma—xilligi bilan ajralib turadi.

4- MAVZU: NEOLIT MODDIY MADANIYATI XUSUSIYATLARI.(4soat)

1. Neolit davri xususiyatlari va xronologiyasi.
2. Jaytun madaniyati xususiyatlari
3. Kaltaminor madaniyati xususiyatlari
4. Hisor madaniyati makonlari
5. Sharqiy Kasbiy bo'yi va Farg'ona neolit madaniyati

Adabiyotlar:

1. Kabirov J., Sagdullaev A. S. O'rta Osiyo arxeologiyasi T. 1990. 26- betlar
2. Sagdullaev A.S. Toshkent. 1997. 32-47- betlar
3. Холматов Н.У. Ўзбекистон неолит даври жамоалари. Самарқанд. 2007. 221-225-бетлар.
4. Avdusin D. A. Osnovi arxeologii M. 1989. Стр 30.
5. Джуракулов М.Д. Холматов Н.У. Мезолит и неолит Среднего Зарафшана. Т. 1991 Стр 41.
6. Толстов С.П. Хорезмская археологическая экспедиция 1940 год. 1946 б. С.34.
7. Гуламов Я.Г. Археологическая работы к западу от Бухарского оазиса. 1956. Стр 14
8. Тереножкин А.И. Археологическая рекогносцировка в Западной части Узбекистана. 1947.-С.134

Tayanch iboralar: yangi tosh davri, quruvchilik, kulolchilik, tikuvchilik, parmalash, silliqlash, toshlarni teshish, ovchilik va baliqchilik.

Neolit (yangi tosh asri) neos —yangi, litos —tosh degan so'zlardan iborat bo'lib, tosh asrining so'nggi bosqichidir. Neolit tushunchasini fanga ingliz arxeologi Lebbok olib kirgan.

Neolit davrida iqlim hozirigiga nisbatan ancha yaqin bo'lib, kishilar yer yuzi bo'ylab keng tarqala boshlagan. Tabiiy geografik jixatdan qulay va issiq iqlimli o'lkalarda kishilar xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shakliga o'tib o'troqlasha boshlagan bo'lsalar, shimol axolisi esa tabiiy sharoitning noqulayligi tufayli orqada qolib ketgan.

O'rta Osiyoda neolit mil. av. VI — III (ehtimol II) asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrga kelib O'rta Osiyoda iqtisodning yangi shakli taraqqiy zta boshlaydi, ba'zi bir xududlarida esa mezolit davridayoq uning ko'rtaklari paydo bo'la boshlagan. O'rta Osiyoning qadimgi sharq tsivilizatsiyasiga yaqin bo'lganligi va mezolit davridayoq qadimgi SHarqdan O'rta Osiyoga qator xo'jalik yutuqlarining tahsir etib turishi, bu o'zgarishlarning yasalishiga sabab bo'ldi. O'rta Osiyoning janubiy xududlaridagi issiq iqlim, tabiiy geografik sharoit xam o'z navbatida yangi xo'jalik shakllari (dexqonchilik va chorvachilik)ga o'tish uchun imkoniyat yaratadi. Ammo, bu jarayon O'rta Osiyoning barcha xududlarida bir vaqtda sodir bo'lmadi.

Dexqonchilik odatda motigaga asoslangan bo'lib, yumshok, tuproqda, liman (ko'rfaz) sug'orish usulida rivojlanishi mumkin edi. Dastlab dexqonchilik va chorvachilik Turkmaniston xududida vujudga kelib, yovvoyi boshqoli o'simliklarning mavjudligi, ba'zi bir o'simliklarni qayta ishlash tajribasi, yovvoyi echkilarning mavjudligi bunga zamin yaratgan.⁷

Shunday qilib, mil. av. VI ming yillikka kelib Turkmanistonning janubida Ko'etdog' tizmalari yonbag'rida qadimgi dehqonchilik madaniyati o'choqlaridan biri Joytun madaniyati vujudga keladi. Bu madaniyat shimoliy Eron xududlariga xam yoyilgan.

Joytun manzilgoxi mil. av. VI —V ming yilliklarga oid 5,5 metr balandlikdagi tepalikdan iborat 2,5 metr qalinlikda

5 ta madaniy qatlam aniqlangan. Manzilgoxda kvadrat shaklidagi 30 ta uylar aniqlangan bo'lib, ularning xar birida 5 — 6 kishi yashagan. Manzilgoxda betartib qurilgan uylar yagona rejaga asoslangan: kichkina xona, o'rtasida o'choq joylashgan, xona atrofida xo'jalik xonalari va kichkina xovli mavjud. Uylar 60 — 70 sm xajmdagi g'ishtlardan, xamda paxsadan ko'tarilgan.

⁷ Джуракулов М.Д. Холматов Н.У. Мезолит и неолит Среднего Зарафшана. Т. 1991 Стр 41.

Paxsa va g'ishtlarga somon qo'shilgan. Uylarning satxi va devorlari loysuvoq qilingan va oxra bilan bo'yalgan. Hovlida joylashgan o'rnalarda g'alla saqlangan. U yerdan to'lg'an quyidagi xo'jalik va uy —ro'zgor buyumlari guruxi ajralib turadi:

1. Mehnat qurollari.
2. Uy —ro'zgor buyumlari.
3. Taqinchoqlar va g'oyaviy tasavvurlar bilan borliq ashyolar.

1 — gurux. Asosiy materiali — chaqmoqtosh. Yorma tosh, tosh boltalar, parrakchalar, o'roqlar qurol sifatida foydalanilgan turtsh o'tkir uchli toshchalar, teshkich parmalar, qirg'ichlar, segment qurodlar, trapetsiyalar, nukleuslar, kamon o'qlarining uchlarini xamda suyakdan yasalgan igna va pardozlagichlar.

2 —gurux. Sopol buyumlar. Sopol buyumlar qo'lda (lentasimon shaklda) dagal, siltshq tagli qilib ishlangan. Idishlarning yuqori qismi obdon silliqlangan (ba'zilari silliqlanmagan). Sopol idishlar rangdor va rangsiz guruxlarga bo'linadi. Rangli Sopol idishlar: jigar va kashtan rangli bo'yoqlar bilan bo'yalgan bo'lib pishirish jarayonida turli belgilar paydo bo'lgan. Rangsiz Sopol buyumlar: pastki qismi qirra xumchalar, kosachalar. Joytunning qadimgi Sopolari Sopolchilikning eng qadimgi bosqichlariga, xususan paydo bo'lgan davridagiga o'xshash. Joytunliklar Sopol idishlardan olovda ovqat tayyorlashda foydalanmaganlar.

3 —gurux. Munchoqlar, taqinchoqlar. Munchoqlar tosh va suyakdan yasalgan, shuningdek chiganoqlardan xam munchoq sifatida foydalanganlar. Tosh munchoqlar odam, xaivon va to'g'ri to'rtburchak shaklida yasalgan. Joytun xo'jaligining asosini dexqonchilik, chorvachilik, baliqchilik yordamida oziq —ovqat maxsulotlari ishlab chiqarish tashkil etgan. Dexqonchilik yetakchi o'rin tutgan. Bug'doy va arpa yetishtirilgan. Sug'orish limanli (ko'rfaz) bo'lgan. Dexqonchilikda ketmonchadan foydalanilgan. Don xumcha va xo'jalik o'ralarida saqlangan. Ko'rinishdan boshqoli o'simliklar donidan non pishirilmagan, maydalab bo'tqa sifatida istehmol qilishgan. Joytun madaniyatining ilk davrlarida go'sht maxsulotlari yetishtirishning asosini tashkil etuvchi ovchilikning mavqei baland bo'lgan. Chorvachilik yaylov (xaydama) shaklida bo'lib o'rganilgan qo'ton va molxonalarning o'rmi fikrimizni to'liq tasdiqlaydi. qo'y va echki xonakilashtirilgan. Ovchilikda jayron, yovvoyi cho'chqa, tulki ov qilingan. Asosiy ov qurollari o'q — yoy, shuningdek paloxmondan xam foydalanilgan. Uyda mehnat qurollari tayyorlash, teriga ishlov berish va charmdan buyumlar tayyorlash, yog'ochga ishlov berish, Sopol buyumlar tayyorlash, taqinchoqlar yasash keng tarqalgan. Ona urug'iga asoslangan juft oilalar ko'rinishdan tashqi xavf paydo bo'lganda, yerga ishlov berish va xosilni yigishtirish davrlarida, ovchilikni tashqillashtirishda, qurilish ishlarida yagona jamoaga birlashganlar.⁸

Qadimtepa manzilgoxi. Mil. av. V ming yillik Joytun madaniyatining o'rta bosqichiga to'g'ri keladi bu yerda 1000 metr kv. joy ochilib o'choqli to'g'ri to'rtburchak uylar va xo'jalik xonalari ochib o'rganilgan. Uy devorlari paxsadan qurilgan. Pollari oxaklangan, ularda qizil oxra izlari xam mavjud. Pollari xatto ganch bilan xam suvalgan. qadimtepa yodgorligida quyidagi xo'jalik va uy — ro'zgor buyumlari mavjud.

1. Mehnat qurollari: o'roq —randa, retush liparraklar, xavvoncha va uning dastasi, uchrindi, nukleus, teshgichlar, o'roq qadamalari, tosh pichoq, yorg'uchoq.

2. Sopol buyumlari: qo'dda yasab pishirilgan idishlar: kosalar, tog'oralar va boshqalar.

⁸ Толстов С.П. Хорезмская археологическая экспедиция 1940 год. 1946 б. С.34.

3. Suyakdan yasalgan igna, so'zana.

4. Odam va xayvon xaykalchalari, oxakli marmardan yasalgan taqinchoqlar xamda loy va Sopoldan yasalgan shaxmat donasini eslatuvchi buyumlar. shaxarlari barpo qilinadi. SHuningdek Xorazmda xam mo'g'ullardan so'ng xuvillab qolgan Urganch sharida qurilish ishlari jonlanadi.

Qadimtepa idishlarining bezaklari Joytzshdan topilgan idishlarning bezaklariga o'xshab ketadi.

Qadimtepa to'ilmalari o'z xususiyatlariga ko'ra bu yerda yashagan kishylar dexqonchilik bilan shug'ullanishib, chorva boqqanlar degan xulosaga kelish mumkin.

CHagil tepa manzilgoxi. Mil. av. V ming yillikka oid manzilgox. Joytun madaniyatining so'nggi bosqichiga to'g'ri keladi. CHagil tepada 6,5 metrdan iborat 13 ta madaniy qatlam aniqlangan. Bu yerda 12 ta uy QOLDIRI joylashgan. Asosiy qurilish materiali to'g'ri to'rtburchak shaklidagi xom g'ishtlardan iborat. Uylari o'choqli kvadrat va to'g'ri to'rtburchak shaklida. Uylarning poli loysuvoq qilinib, bahzan bo'yalgan, bahzan bo'yra to'shalgan. Xo'jalik xonalari, o'ralar va xovlilarning o'rni saqlanib qolgan.

CHagiltepaning markaziy qismida kattaroq xajmdagi uy joylashgan. Ko'rinishdan bu jamoatchilik imorati bo'lgan. Ikkita qabr (xonalarda) xam topilgan.

CHaqmoqtoshga ishlov berishning inqirozi ko'zga tashlanadi. Nukleuslar uchrindilar, trapetsiyalar, pichoq, o'roq, randa va yorruchoqlar to'ib o'rganilgan.

Sopol buyumlar rangdor va rangsiz. An'anaviy rangdor Sopollar bilan birgalikda yangi bezak shakllari xam paydo bo'ladi. Ular yuqoridan pastga (gorizontalg') to'lqinsimon chiziqlar, yotiq (vertikal) egri — butri chiziqlar xamda daraxt va o'simlik tasvirlaridan iborat.⁹

Xo'jaligining asosiy shakli dexqonchilik

Chagiltepaning mehnat qurollari turli shakldagi paloxmon uchun mo'ljallangan yadrolar, toshdan va loydan yasalgan munchoqlar taqinchoqlarning asosiy qismini tashkil etadi.

Pessedjiktepa manzilgoxi. Madaniy qatlami 3,5 metr. Uylari Joytunnikiga o'xshash. Bu yerda manzilgoxning boshqa uylarga o'xshash katta uy qoldig'i ochib o'rganilgan (maydoni 64 m. kv.). Uning poli alebastr suvoq qilingan. Uy ichida joylashgan o'choq qarshisidagi devorda oqsuvoq ustiga qora va q^{izil} bo'yoq bilan ishlangan (geometrik bezaklar qo'lon va boshqa bir o'tlovchi xayvon tasviri) suratlari mavjud. Bu yerda uy —ro'zgor buyumlarining uchramasligi o'zidan neolit davri qishlog'ining jamoatchilik uyi bo'lganligini ko'rsatadi.

Bulardan tashqari Bomi, To'g'aloq tepa, Munjukli tepa, CHo'on tepa, Pomaj tepa va boshqalar xam Joytun madaniyatiga taalluqlidir.

Joytun madaniyati tashqaridan kelgan bo'lsada, Kaspiy bo'yi neolit davri madaniyati bilan mahlum aloqalarda bo'lgan. Jebel va Damdamchashma g'orlari chaqmoqtoshdan yasalgan ba'zi bir mehnat qurollarining o'xshashliklari Joytun madaniyati tasodifan yo'q bo'lib ketgan bo'lsada, bu xududda dexqonchilik yo'q bo'lib ketmaydi, aksincha keyinchalik rivojlanishni davom ettiradi.

Sharqiy Kaspiy bo'yi. Bu xududda mezolit davri madaniyatining davomini ko'rish mumkin.

Jebel g'or —makoni. Mil. av. V ming yillik oxiri va IV ming yillikka oid g'or —makon. Neolit davrida o'zidan oldingi davrga nisbatan toshga ishlov berish texnikasining yangi pog'onaga ko'tarilganligini ko'rish mumkin. Jebeldan nukleuslar, mikrolitlar, yorma toshlar, qirg'ichlar, tarashlagich tosh qurollar topilgan. Bu madaniyat vakillari bronza

⁹ Гуламов Я.Г. Археологическая работы к западу от Бухарского оазиса. 1956. Стр 14

davrigacha g'orda yashaganlar. Bu yerda yormatoshlarning mavjudligi voxadadexqonchilik madaniyatining shakllanayotganligidan dalolat beradi. Bu yerdan o'tkir taglik Sopol buyumlarining qoldiqlari topilgan. Bu madaniyat vakillari joytunliklar bilan bir davrda, yashaganlar va ularning chaqmoqtoshdan yasalgan mehnat qurollarida o'xshashliklar mavjud. Joytun va Jebel ko'rinishdan bitta madaniyatning ikki tarmog'i bo'lib, Joytunda xo'jalikning asosini dexqonchilik, Jebelda esa chorvachilik rivojlangan. Bu yerdan chuchuk suvda yashovchi baliqlar suyaklarining to'ilishi jebelliklarning baliqchilik bilan xam shug'ullanganliklaridan dalolat beradi. Chunki qoraqumning janubi — g'arbiy etaklari bir vaqtlar sersuv bo'lib, bu yerdan qadimda Amudaryoning o'zanlaridan biri — O'zboy o'tgan, unda baliqlar serob bo'lgan.

Xorazm, O'zboy, Orol bo'yi, quyi Zarafshon xududlarida xo'jalikning ovchilik va baliqchilik turlariga asoslangan Kaltaminor madaniyati keng tarqalgan bo'lgan. Ayniqsa, Amudaryoning quyi oqimi va Xorazm viloyatlaridan bu madaniyatga oid ko'plab manzilgoxlar to'ib o'rganilgan. Ular ichida ayniqsa Yonboshqalha diqqatga sazovordir. Yonbosh 4 da ikkita madaniy qatlam aniqlangan. Asosiy to'ilmalar pastgi madaniy qatlamda uchraydi. Bu yerdan 290 m. kv. xajmli (24 x 17) turar joy Qoldig'i topilgan. Bu chayla shaklidagi makon bo'lib, yog'och ustun, sinchlar bilan ko'tarilgan. Tomiga ko'ndalang bag'ozlar tashlanib, usti qamish bilan berkitilgan. Ustun va sinchlarning joylari chuqur bo'lib qolgan. Chayla o'rtasida katta markaziy o'choq, uning atrofida esa kichik o'choq izlari, chayla atrofida esa kulga aylangan qamish va yog'och qoldiqlari topilgan. Ko'rinishdan bu yerda urug jamoasi istiqomat qilgan.

Tosh qurollari: nukleuslar, nayza paykonlar, qirg'ich, kamalak o'q — yoylarining uchlari va boshqa tosh qurollar. Suyakdan yasalgan to'ilmalar: taqinchoqlar, kamalak o'qlarining uchlari, Sopol buyumlari, ularning barchasi qo'lda lentasimon shaklda ishlangan. To'g'ri chiziqli va to'liqinsimon shakldagi bezatilgan rangli Sopol idishlar xam mavjud.

Yonboshqal'a chaylasining markazida o'choq bo'lib, uning atrofida xo'jalikka oid to'ilmalar uchramaydi. Boshqa o'choqlarning atrofidan Sopol bo'laklari, xayvon suyaklari mavjud. Markaziy o'choq tagidagi tuproq 50 sm.gacha kuigan. Bundan ko'rinib turibdiki, o'choqda doimo olov bo'lgan. Bu O'rta Osiyoda keyingi davrlarda mavjud bo'lgan olovga sig'inish odatidan dalolat beradi.

Zarafshonning quyi oqimi hududlarida neolit davriga oid ko'plab makonlar to'ib o'rganilgan. Bular ichida Darvozaqir, Kichik tuzkon, qorong'i SHO'r makonlari ajralib turadi.

Darvozaqir I makoni. Bu makonning yuqori qismi buzilib ketgan, pastki qismidan 3 ta madaniy qatlam ochib o'rganilgan. Bu yerdan 81 m. kv. (7 x 11,6) hajmdagi to'g'ri to'rtburchak shaklidagi uy o'rni saqlanib qolgan bo'lib, uning har joy — har joyida chuqurchalar uchraydi. Bu chuqurchalar yog'och ustunlarning o'rni bo'lib ustunlar ustiga yog'och tashlanib qamish bilan yo'ilgan bo'lgan. Chaylada o'choq izlari to'ilmagan, lekin madaniy qatlamda kul qoldiqlari uchraydi.

Mehnat qurollari: tosh bolta, qirg'ich, teshgich, o'roq — randa, parma, Sopol buyumlarning bo'laklari mavjud.¹⁰

Darvozaqir II makoni. Me:Snat qurollari: tosh qirg'ichlar, pichoqlar, parraklar, o'choq — randalar, nukleuslar, parma, teshgich, o'roq qadamalari, yorg'ichoq, qayroqtosh, tosh bolta. qurollar: nayza uchlari, paykonlar, o'q uchlari. Bulardan tashqari tosh munchoqlar va taqinchoqlar ham mavjud. Suyakdan yasalgan qurollar uchramaydi.

¹⁰ Тереножкин А.И. Археологическая рекогносцировка в Западной части Узбекистана. 1947.-С.134

Sopol buyumlar: rangli va rangsiz, og'zi keng, tag tomoni esa pastga qarab dumaloq Kichik Tuzkon. To'ilmalar: qirg'ich, teshgich, o'roq qadamalari, nukleuslar, parrakchalar. Sopol buyumlari qo'lda rangli va rangsiz qilib yasalgan quyi Zarafshonda yashagan aholi ovchilik va baliqchilik bilan kun kechirganlar

O'rta Osiyoning tog' va TOG' oldi hududlarida Xisor madaniyati nomi bilan yuritiladigan qabilalar yashagan. Bu madaniyat so'ziblari Tojikiston hududida keng tarqalgan. Bu madaniyatga o'xshash qabilalar to'g'rirog'i kam o'rganilgan bo'lsa — da, SHimoliy Tojikiston, Farg'ona, Issiqko'l atrofida uchraydi. Mehnat qurollarining asosiy qismi chaqmoq toshdan yasalgan. O'rta Osiyoda bunday qurollar yo'qolib boradi. Sopol buyumlar uchramaydi.

To'rtqovul makoni. Mil. av. 5150—1400 ming yilliklar. Bu davrga oid ikkita madaniy qatlam aniqlangan. Makondan cho'qichlar, qirg'ichlar, cho'ping, cho'per, ug'atgichlar, teshgichlar, tosh pichoqlar, o'roq qadamalari topilgan. To'rtqovulliklar tulki, bo'ri, buqa, yovvoyi eshak, qo'y, echki kabi uy hayvonlarini boqishgan degan fikrimizni, bu yerdan topilgan ushbu hayvonlarning suyak qoldiqlari bilan isbotlash mumkin. To'rtqovul axolisi yana termachilik, ovchilik, keyinchalik esa chorvachilik bilan shug'ullanishgay.

To'rtqovul makoni (Norak shaxri yaqinida) Hisor madaniyatining ilk davriga, qo'y Bulok, (Kulob shaxri yaqinida) o'rta davriga, G'oziyontepa esa so'nggi davriga mansubdir.

Neolit davrining Sazag'on madaniyati makonlari (Sazag'on 1,2, Tepako'l 3) Zarafshon daryosining o'ita xavzasida Samarqanddan 30 km janubi-g'arbda joylashgan. Sazag'on makonlaridan neolit davriga oid ko'plab tosh qurollari va hayvon suyaklari topilgan. Sazag'on madaniyati axolisi tog'li hududlarda yashab, asosan hayvon ovi bilan shug'ullanganlar. Shu sabab makonni qazish vaqtida ovchilikka aloqashgan mehnat qurollari bilan birgalikda, uning yuqori qatlam- laridan yovvoyi va uy hayvonlarining suyak qoldiqlari ham topilgan. Mehnat qurollari asosan tosh parchalari va qo'pol paraqalar asosida yasalgan. Uning tosh qurollarining ishlanish texnikasi Markaziy Farg'onaning mehnat qurollariga o'xshaydi. Turli qurol aslahalar tarkibida silliqlangan tosh boltalar, qadama toshlar, yog'uchoqlar, kamon poykonlari bor. Sopol idishlari naqshlangan. Shuningdek, makondan eneolit davri qabrlari ham topib o'rganilgan. Ma'lum bo'lishicha, bu odamlar evropoid irqiga mansub bo'lgan. Shunday tipdagi odamlar va dafn marosimlari Tojikistondagi Tutkovul makonida kuzatilgan. Makondan topilgan tosh industriyasi va boshqa topilma- larning umumiy xususiyati Sazag'on 1 manzilgohining ilk neolit davriga taalluqli ekanligini asoslash bilan birgalikda Markaziy Farg'onadagi shu tipdagi yodgorliklarga o'xshashligini ko'rsatdi.

Markaziy Farg'ona neolit yodgorliklari ilk neolit bosqichiga oid yodgorlik bo'lib, u XX asrning 50- yillarda tadqiq qilingan. Ular markaziy Farg'onaning cho'llarida topilgan bo'lib, bugungi kungacha 80 dan ortiq makon aniqlangan. Ular umumiy tarzda Markaziy Farg'ona niadaniyati deb nomlanadi.

Neolit makonlari Qoraqalpoq dashtida, Mingbuloq, Sariqsuv, Oqqum, Damko'l va Qiziltepa hududlaridan topilgan. Ular jumlasiga Zambar 1,2, Yangiqadam 12,14, 16,19, 35, Mingbuloq, Sariqsuv, Uzunko'l, Dorozko'l, Madyor va boshqalarini kiritish mumkin.

Makonlarda madaniy qatlamlar saqlanmagan. U erdan prizma, qalam shaklidagi tosh o'zaklar, qirg'ichchalar, randa, burg'u, keskich quroilari, paykonlar topilgan. Paykonlar asosan bargsimon shaklda bo'lgan. Qurollarning ko'pchiligi paraqa va tosh siniqlari asosida yasalgan. Geometrik shakldagi qurollar topilmagan.

Ibtidoiy odamlar ko'l, darvo va buloqlar atrofida o'z makonlarini qurib, ovchilik, baliqchilik va termachilik bilan shug'ullanganlar.

Markaziy Farg'onaning shimoliy qismida joylashgan Madyor 3,4 va boshqa makonlari so'nggi

neolit davriga, ya'ni mil.aw. IV - III ming yilliklarga oiddir.

Uchitit yodgorligi chaqmoqtosh qazib olish va birlamchi ishlov berish ustaxonasi bo'lib, Navoiy viloyati Uchtut hududidan topilgan. Uni Ya.G'.G'ulomov rahbarligidagi ekspeditsiya 1960 yilda topgan. Yodgorlikni 1966-1967 yillarda T.Mirsoatov o'rgangan va neolit davrga oid o'ra(shaxta)lami ochgan. Shuningdek, bu erdan tosh davrining turli bosqichlariga oid moddiy buyumlar ham topilgan.

Dastlabki davrlarda ibtidoiy odamlar qoyalarda ko'rinib yotgan chaqmoqtoshlarni sindirib olganlar. Keyingi davrlarda chaqmoqtoshni qidirib, tog' yonbag'irlarida 4.5 va 5 metrli o'ralar kovlaganlar. Kerakli xom ashyoni olish uchun o'ralaming pastki qismidan bar tomonga qo'shimcha yo'laklar ochib borganlar. O'ralar maxsus tosh suyak va yog'ochdan yasalgan kurakchasimon qurollar yordamida qazilgan. O'ralar devorlarida kurakchalar izlari mavjud. Chaqmoqtoshni konchilar tosh boltalar yordamida kovlaganlar. Shuningdek, u erda o't yoqib toshni qizdirishgan va sovuq suv quyib, portlatganlar. Ular keragicha xom-asliyodan olib, keyinchalik o'ralar og'zini harsang toshlar bilan yopib qo'yganlar. Arxeologlar bu erda 100dan ortiq bunday o'ziga xos o'ralarni topganlar, ulardan faqat 35tasi o'rganilgan.

Uchtut yodgorligi singari shaxtalar faqat neolit davri yodgorliklarida uchraydi. Neolit shaxtalari Angliya, Fransiya, Daniya, Shimoliy Germaniya va Belorussiya kabi davlatlarda ham topilgan.

Neolit davrining asosiy xususiyatlari

- Miloddan avvalgi VI ming yillikdan IV ming yillikkacha davom qiladi.
- Dehqonchilik va chorvachilik vujudga kelgan.
- Kulolchilik, to'quvchilik, zargarlik paydo bo'lgan.
- Tosh qurollarini silliqlash, parmalash uslublari vujudga kelgan.
- Odamlar o'troq hayot tarziga o'tganlar.
- Ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tilgan.
- Boltalar ixtiro qilingan.
- Makrolit qurollar keng tarqalgan.
- Juft oila vujudga kelgan.

5- MAVZU: Eneolit davri metallurgiya taraqqiyoti jarayonlar(2soat)

1. O'rta Osiyoning eneolit davriga umumiy tavsif.
2. O'rta Osiyo xududidagi eneolit davri manzilgoxlarining o'rganish darajasi.
3. Eneolit davri manzilgoxlari va ularning davrlari.
4. Qurilish va memorchilik.
5. Haykalchalar va tasviriy san'at.
6. Kulochilik.
7. Eneolit davri manzilgoxlarining vujudga kelishi.

Adabiyotlar:

1. Авдусин А. Д. Основы археологии. М. 1989. Стр 10-13
2. Egamberdiyeva N.A. Arxeologiya. T. 2011. 61-66 betlar
3. Kabirov J. Sagdullaev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. T. 1990. 56-59-betlar
4. Mirsoatova S. O'zbekistonning tosh davri arxeologiyasi va antropogenezi masalalari. T. 2019. 110-bet.
5. Мирсоатов Т.М. Горные разработки в эпохе камня. 1977. – С.9

6. Мирсаатов Т.М Древние шахты Учтута. 1973. – С.7
7. Мозийдан садо//Тарих тилга кирганда” Тошкент 2012. 6-7 бетлар

Tayanch iboralar: Mis-tosh davri, kulolchilik, memorchilik, tasviriy san’at, sug’orma dexqonchilik, igna-bigiz, zargarlik, Namozgoxtepa, Anov tepa, Sarazm.

Eneolit (mil. av.IV— III ming yilliklarning boshlari.) — bu dastlabki metal (enus — grekcha «mis» litus — lotincha «tosh») davri bo’lib, mis tosh davri deb, xam ataladi. Bu davrning katta yutug’i kishilarning dastlabki metal bilan tanishib, tosh qurollari bilan birgalikda mis qurollaridan xam foydalana boshlanishidir. Mis qurollari tosh qurollariga nixtsbatan ancha takomillashgan bo’lsada, misdan kuchli va og’ir qurollar yasab bo’lmas edi.

Shuning uchun mis korishmasidan yasalgan qurollar kishilar ijtimoiy xayotida yuqori mavqega ega bulmadi, tosh qurollar o’z axamiyatini saqlab qoldi.

Bu davrda kishilarning xo’jalik va ijtimoiy xayotlarida yirik o’zgarishlar sodir buldi.qadimgi SHarq (Mesopotamiya va Old Osiyo)da shaxar— davlatlarning vujudga kelishi va sinflarning paydo bo’lishi kuzatiladi.

O’rta Osiyoning janubiy xududlarida esa o’zlashtiruvchi xo’jalik o’rnida vujudga kelgan dexqonchilik va chorvachilik xo’jalik shakliga aylanib, xududiy jixatdan kengayib boradi. Lekin bu jarayon O’rta Osiyo.ning turli xududlarida bir xilda kechmagan. Tabiiy geografik jixatdan noqulay bo’lgan shimoli — sharqiy xududlarda yashovchi qabilalar xo’jaligida ovchilik va baliqchilik ustunlik qilar edi. Demak, eneolitning ilk va rivojlangan bosqichlarida O’rta Osiyo qabilalarining ijtimoiy va iqtisodiy va madaniy rivojlanishida tafovut va notokesliklar saqlanadi.¹¹

Ishlab chiqaruvchi xo’jalik asosida rivojlangan Turkmaniston axolisi qadimgi SHarq madaniyati rayonlari bilan doimiy aloqada bo’lganlar. O’rta Osiyoning shimoliy va sharqiy xududlarida esa Kaltaminor va Hisor madaniyatlariga mansub madaniy xo’jalik shakllari davom etadi. Ushbu xududlarda topilgan ashyoviy dalillarga ko’ra axolining iqtisodiy xayotida ovchilik va baliqchilik asosiy manba bo’lganligidan dalolat beradi. SHu bilan birgalikda dasht axolisi tarixida chorvachilikning ilk bosqichi boshlangan deyish mumkin. Lekin, bu davrda neolit zamonani an’analari o’z axamiyatini yo’qotmadi. Axolining asosiy qismi kichik daryo soxillarida va ko’llar atrofida yashaganlar.

O’rta Osiyoning eneolit davri Janubiy Turkmaniston xududida yaxshi o’rganilgan. Bu xududda eneolit davrini o’rganish amerika ekspeditsiyasi tomonidan Anovda olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlaridan boshlanadi. Bu yerda keng ko’lamda olib borilgan ilmiy tekshirishlar 50 — yillarda YUTAKE faoliyati bilan bog’liq. Yodgorliklarni tekshirishda B.A. Kuftun, V.M.Masson, V.I.Sarianidi, O.K.Berdiev va I.V. Xlo’pin va boshkdlarning xizmatlari kattadir. Bundan tashqari Yuqori Zarafshonda Panjikent shaxri yaqinidagi Sarazm manzilgoxi xam o’rganilgan bo’lib, uning quyi qatlami so’nggi mis —tosh davriga oiddir.


Arxeologlar ilmiy tekshirishlar natijasida turar joylar, sug’orish tarmoqlari va ulardan o’rin olgan moddiy to’ilmalarni o’rganib, mis —tosh davri madaniyati va tarixini mavafaqiyatly yoritdilar. O’rganish jarayonida Janubiy Turkmaniston qadimgi dunyo madaniyati rivojida munosib o’ringa ega ekanligi ravshan bo’ldi.

¹¹ Мирсаатов Т.М. Горние разработки в эпохе камня. Т.1977. – С.9

Eneolit davri manzilgoxlarining nisbiy davri stratigrafik asosda aniqlanadi. CHeksiz davri esa Eron va Meso'otamiyadagi manzilgoxlar bilan shaklan solishtirib taxlil qilish va radiokarbon taxlillari asosida aniqlanadi.

O'rta Osiyodada eneolitning asosiy 3 davri ajratib ko'rsatiladi: ilk, o'rta va so'nggi. SHu bilan bargalikda xar bir manzilgox xududiy belgilariga ko'ra davrlar ichida guruxlarga bo'linib, ularga u yoki bu komplekslar kiradi.

ENEOLIT DAVRI



Ilk eneolit davriga Anov! va Namozgox! manzilgoxlari kirib, ikki bosqichi mavjud. Anov manzilgoxi xududiy jixatdan g'arbiy va sharqiy guruxlarga bo'linadi. Namozgox! esa xududiy jixatdan g'arbiy, markaziy va sharqiy guruxlarga bo'linadi. Rivojlangan eneolit davriga Anov 2, Namozgox 2 manzilgoxlari kiradi. Namozgox 2 xududiy jixatdan garbiy va sharqiy xududlarga bo'linadi. So'nggi mis —tosh davriga esa Namozgox 3 oid bo'lib, u xam g'arbiy va sharqiy xududlarga bo'linadi. Yuqori Zarafshon daryosi bo'yida joylashgan Sarazm (Sarazm!) so'ngi mis —tosh davriga oid bo'lib, moddiy to'ilmalar uni aloxida guruxlarga ajratish imkonini bermaydi.

Bu davrga kelib qurilishda paxsa bilan birgalikda to'g'ri to'rtburchakli xom rishtlar xam ishlatila boshlaydi. kurilishda toshdan deyarli foydalanilmagan.

Maxalliy mehmorchilik an'analarning shakllanishi keskin mo'htadil iqlim sharoiti muxim o'rin tutadi. Kam yogin bo'lganligi tufayli uylarning tomi bolorlar bilan tekis qilib yo'ilgan. Bundan yashash (yoz kunlarida) uchun xamda xo'jalik maqsadlarida foydalanilgan.

Eneolit davriga kelib dexqonchilik bilan shug'ullanuvchi axolining yangi yerlarni o'zlashtirishi natijasida ko'p sonli yangi manzilgoxlar paydo bo'ladi.

Ularning ba'zilar (Nomozgoxtepa, Oltintepa, qoratepa) ning xajmi ancha katta. Ba'zi bir manzilgoxlar paloxida qirqim ko'rinishidagi aylanma devorlar (bunday inshootlar Geoksyur voxasining o'rta eneolit davriga oid manzilgoxlarida) aniqlanib, qo'shni devorlar bilan qo'shilgan. Bular ko'rinishidan yashash uchun foydalanilgan.

Eneolitning ilk bosqichida ba'zi bir manzilgoxlarning qurilish rejasi Joytun an'analarni saqlab qoladi. Tartibsiz qurigan uylardan tashkil to'gan qishloqni markaziy ko'cha ikkiga bo'lib turadi (Munjikli— tepa). Mehmorchilikda axoli uy —joylari imoratlarining asosini tashkil etadi. Ilk eneolit davri uylari qo'shimcha o'zgartishlar kiritilgan neolit davri uylarini eslatadi. Rivojlangan va so'nggi eneolit davri uchun muntazam va rejali qishloqlar xosdir. qishloqlar

mudofaa devorlari bilan o'ralgan (Mullalitepa). Bu davrda ko'p xonali uylar paydo bo'ladi. Ayniqsa rivojlangan eneolit davriga kelib, ko'chalar, maydonlar, katta jamoa uylari tartib bilan aniq reja asosida quriladi. To'rtburchak va aylana shakldagi uylar 12—15 xonadan iborat bo'lib, ularning ichida to'rtburchak va xalqa shaklida o'choqlar o'rnatilgan. Uylar yonida don saqlanadigan xonalar va molxonalar bo'lgan (Geoksyurtepa). Ilk eneolit davriga oid uylarning devorlari naqshlar bilan bezatiladi, poli suvalgan, bo'yalgan yirik xajmdagi uy ajralib turadi (Yassitepa va Dashlijitepa). Ko'rinishidan bu imorat jamoani uyushtiruvchi ibodatxona bo'lgan. Bu uyda jamoa boshlig'i xam yashagan bo'lishi mumkin. So'nggi eneolit davri manzilgoxlarining (Geoksyur!) ko'p xonali uylarida o'choq joylashgan aloxida xonalarning mavjudligi xos. Bahzan bunday uylarda tutatqi solinadigan idish va odam kuygan suyaklari uchraydi. Bu xonalar ko'rinishdan katta patriarxal oilaga tegishli kichik ibodatxona bo'lgan.¹²

So'nggi eneolit davriga kelib xom g'ishtdan aloxida joylashgan kvadrat (qoratepa) yoki cho'ziq (Geoksyur I) shakldagi jamoa sag'analari paydo bo'ladi. Ularning usti xom g'ishtdan aylana qilib yo'ilgan. Yakka xolda ko'milganlari xam mavjud. qablardan chaqmoq tosh qurollar, Sopol idishlar mis buyumlar va toshdan ishlangan marjonlar, xaykalchalar qo'yilgan.

Eneolit davri manzilgoxlaridan xaykalchalarning ko'plab to'ilishi uning ommaviy tayyorlanganligidan dalolat beradi. Ulardan xayvon (yovvoyi va xonaki) xaykalchalari (neolit davri an'alarining davom etishi) ko'pchilikni tashkil etadi. Ammo ayol xaykalchalari muxim o'rin tutadi. Haykalchalarda xosildorlik va ona mahbudalarining qiyofalari yorqin tasvirlangan. Ilk va qisman o'rta eneolit uchun tik turgan nufuzli ayol xaykalchalarining tasvirlanishi xosdir. Haykalcha bo'ynidagi rangli munchoqlar va tanasidagi ramziy shakllari uning tabiat bilan xamnafas ekanligini ko'rsatib turibdi. So'nggi eneolit davriga kelib ayollarning o'tirgan xoldagi nafis xaykalchalari keng tarqalib, bo'yoqlar o'niga o'yma xamda yo'ishtirilgan naqshlar bilan bezatiladi. Tik va o'tirgan xoldagi erkaklarning xaykalchalari xam paydo bo'ladi. Erkaklarning xaykalchalarida soqol — mo'ylovi xamda bosh kiyimi aniq tasvirlangan. Erkaklarning xaykalchalari mahbudaning iloxiy sherigi yoki uning turmush o'rtogi yoxud iloxiy qaxramon sifatida izoxlanadi.

Eneolit davrida devoriy naqshlar paydo bo'ladi. Yassitepa ibodatxonasining naqshlari geometrik shaklda bo'lib, ularga qora va qizil bo'yoqlar berilgan. Naqshlarning motivi ancha sodda va naqshli Sopol idishlarnikiga o'xshaydi: to'r shaklidagi kvadrat va uchburchaklar. Lekin shuni alohida tahkidlash kerakki, eneolit davrida bir necha ming yillardan so'ng O'rta Osiyo mehmorchiligida muxim o'rin tutgan geometrik shakllar bilan bezash usuli vujudga keladi.

Eneolit davri kulolchilik soxasida sezilarli yutuqlarga erishiladi. Mahlum issiqlikni saqlaydigan xumdonlar paydo bo'ladi, xom ashyo sifati oshadi, kulolchilik buyumlarining ko'pligida bir rangli va ko'p rangli bezaklar bilan bezatila boshlaydi. Asosan kosalar va xumchalar naqshlar bilan bezatiladi. Asosan ikki xil bo'yoqlar: qizid va qora va jigger ranglar ishlatiladi. Dastlab idishlarning yuqori qismi uchburchak va parallel chiziqlar bilan naqshlangan. Asta —sekin idishlar o'zgacha ko'rkka ega bo'lib, bezaklari ko'payib boradi. Idish atrofidagi aylana chiziqlar, uchburchak shakllarning orasi gox chiziq, gox kvadrat shakldagi xoch, gox to'liqinsimon chiziqlar bilan to'ldirilgan. Keng tarqalgan motivlaridan biri xoch shakli bo'lib, ko'p sonli shakllarni vujudga keltiradi. Mahlum uslubga solingan va aniq geometrik shaklga keltirilgan xayvon va qush tasvirlari paydo bo'ladi. Ular echkilar, mushuk zotiga o'xshash

¹² Мирсоатов Т.М. Древние шахты Учтута. Тошкент 1973. — С.7

olachipor xayvon (qo'lon bo'lishi mumkin), yirik qanotli burgut va kichik qushlardan iborat. Odamlar juda kam xollarda tasvirlangan. Masalan, Sopol idish bo'lakchalaridan birida bir — biriga qarab turgan kishilar tasvirlanib, ular o'rtasida Janubiy Turkmanistonning eneolit davri manzilgoxlaridagi ayol mahbuda xaykalchasiga o'xshash ayol mahbuda tasvirlangan. Ko'rinishdan rassom ayol mahbudaga sig'inish xarakterini tasvirlagan. Kishilarning obrazi va xayvonlar tasviri bahzan ramziy belgi bilan uyg'unlashgan. Agar ilgari xayvonlar tasviri totemizm bilan bogliq bo'lgan bo'lsa, keyinchalik qadimgi dexqonchilik axolisi afsonaviy tafakkurdan chiqib, ular boshqacha bir mahvoli tasvirlarni to'a boradi.

Eneolit davri manzilgoxlarida ko'p sonli tosh qurollari topilgan. Bular asosan dexqonchilik mehnat qurollari: yorg'unchoq, hovoncha, o'roq, dasta, kelidasta, tagkurs va boshqalar. Marmarsimon o'aktoshdan sirti qat — qat burma qilib ishlangan idish ko'rkam qilib yasalgan. Tosh va gipsdan zeb — ziynat buyumlari, asosan munchoqlar yasalgan. So'nggi eneolit davriga kelib bo'yinga osish uchun mo'ljallangan xoch yoki bir necha tishli xoch ilk bor paydo bo'ladi (qoratepa, Geoksyur I). Ular qattiq bo'lmagan toshdan yo'nib yasalgan. Suyakdan bigiz, sanchqi yasalgan. Keyingi davrida misdan yasalgan qurollar uchraydi. Ular pichoq, sanchqi, to'rnog'ich, dastasiz aylana shakldagi oyna.

Olimlar Janubiy Turkmanistonning eneolit davri komplekslarini quyidagicha talqin qiladi.

a) Ilk eneolit davriga oid Anov I SHimoliy va Markaziy Eron xududlaridan kelgan bir gurux qabilalar ta'sirida shakllanadi.

b) Ilk eneolit davriga oid Namozgox I neolit davri ilk dexqonchilik manzilgoxlari asosida shakllanadi.

v) Namozgox II kompleksi Namozgox I ta'sirida shakllanib, ba'zi xolatlarda Mesopotamiya va Elam an'alarining tahsiri seziladi.

g) O'rta eneolit davri Yalang'och shaklidagi komplekslar maxalliy ilk eneolit an'analari ta'sirida shakllanadi, ammo sodda varianti xam mavjud bo'lib, Namozgox II va Mesopotamiya an'anasining aloxida tahsiri natijasi bo'lsa kerak.

d) So'nggi eneolit qoratepa usulidagi kompleksi Eron komplekslari bilan chambarchas aloqada bo'lgan xamda Janubiy Mesopotamiya tahsiri seziladi.

e) So'nggi eneolit davri Geoksyur uslubi Mesopotamiya va Elam naqsh an'analari bilan aloxida va chambarchas bog'langanligini o'zida aks ettiradi. Shunday qilib, Sharqiy rayonlarda tashqi madaniyatning tahsiri ko'rinadi. Ko'rinishdan, bu to'lqin Eron tomondan aloxidaajralib turuvchi tahsir bo'lgan. Geoksyur bilan bir qatordaqoratepada xam maxalliy an'analarning o'rni yuqori bo'lgan. Tashqi madaniy tahsirning aniq xududi mahlum bo'lsada, ilkeneolit davridagiga nisbatan asta —sekin kamayib boradi.

Shunday qilib, eneolit davrida Janubiy Turkmaniston taraqqiyot darajasiga ko'ra teng bo'lgan xozirgi Eron va Afg'onistonning qo'shni viloyatlari bilan yagona tilda gaplashib, u yerda qabilalarning siljishi sodir bo'ladi.

Eneolit davrining oxirida Janubiy Turkmanistonda ilk shaxar madaniyatining shakllanishi kuzatiladi.

Eneolit davrining so'nggi bosqichlariga kelib, Yuqori Zarafshon xududida o'troq dexqonchilikka asoslangan Sarazm manzilgoxi shakllanadi. Sarazm bir necha madaniy qatlamdan iborat bo'lib, uning quyi qatlamidan topilgan naqshli Sopol buyumlar Anov II, Geoksyur shaklidagi moddiy buyumlarga ancha o'xshash. Idishlarning sirtida qora va qizilp bo'yoqlar bilan ishlangan turli geometrik naqshlar bor. Madaniy qatlamda misdan yasalgan

quR^{olla}R topilgan. Bu qatlamning yoshi radiokarbon usulida tekshirilib mil av.1U ming yillik oxiri — III ming yillik boshlari belgilangan. Bu yerdan ko'p xonali uylar ochib o'rganilgan. Uylar katta jamoa uylari bo'lgan. 2 — 3 xonali kichik oilalarga mo'ljallangan uylar xam mavjud. Ulardan turar joydan tashqari ro'zg'or va xo'jalik maqsadlarida xam foydalanganlar. Turar joyga mo'ljallangan uylarda dumaloq shakldagi o'choqlar xam mavjud. Bunday o'choqlar Anov II da xam keng tarqalgan edi.

Arxeologik ma'lumotlarning guvohlik berishicha bu yerda dexqonchilik madaniyati geoksyurliklarning ta'sirida rivojlangan. Bundan tashqari, Eron, Afg'oniston va Kaltaminor madaniyatlariga mansub to'qilmalar xam mavjud. Bu eneolit davri qabilalari o'rtasida doimiy madaniy — iqtisodiy aloqalar bo'lganligidan dalolat beradi.

O'rta Osiyoning boshqa xududlarida eneolit neolit davri ko'rinishda bo'lgan. O'tkir uchli yoki dumaloq taglik Sopol idishlar an'anasi saqlanib qoladi. Sopol idishlar to'liqinsimon, to'g'ri chiziqlar bilan keyinchalik uchburchak va romb shakllari bilan naqshlangan.

6- MAVZU: Bronza davri tarixiy jarayonlar va moddiy madaniyat (2soat)

1. O'rta Osiyoning bronza davri umumiy tavsifi.
2. Janubiy Turkmaniston bronza davrida (Namozgoh IV, Namozgoh V, Namozgoh VI).
3. Janubiy O'zbekiston bronza davrida (Sopolli madaniyati)
4. Zamonbobo, Suyargan, Tozabog'yob madaniyatilari.
5. Qayroqum va Chust madaniyati va Janubiy Tojikiston yodgorliklari.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston tarixi (1 qism) mualliflar jamoasi. A. S. Sagdullaev taxriri ostida. Toshkent 1997. 35-42 betlar.
2. Sagdullaev A. S. qadim O'zbekiston ilk yozma manbalarda. Toshkent 1996 y. 23-25 betlar.
3. Annaev.T, Shaydullaev.Sh. Surxondaryo tarixidan lavxalar. T. 1997. 68-73 betlar.
4. Egamberdiyeva N.A. Arxeologiya. T. 2011. 66-79 betlar.
5. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко архелогического исследования. Масква 1948г. 23-27 betlar.
6. Каримова Д.О., Юнусова Б.А.//Бронза даври Бишкент ва ва Вахш маданияти этник гурухларининг тарихий илдизлари хакида мулохазалар//Илмий хабарнома 2019 йил 1-сон//Андижон 2019 йил//54-56 бетлар

Tayanch iboralar. Bronza davri, qo'rg'oshin, qalay, rux, g'ildirak, ishlab chiqaruvchi xo'jalik, o'zlashtirma xo'jalik, ilk shaxarlar, bronza mexnat qurollari.

Bronza asri metalchilik taraqqiyotining yangi bosqichga ko'tarilishi va kishilik jamiyati taraqqiyoti yangi davrining almashinuvi bilan belgilanadi. O'rta Osiyoda bronza davri nafaqat bronza qotishmasining paydo bo'lishi, balki mehnat qurollari xamda bronza qurol— yarog'larining paydo bo'lishi va keng tarqalishi shu bilan birgalikda boshqa qator belgilar: patriarxal munosabatlarning qaror to'vdpi, chorvador qabilalarning ajralib chiqishi, qadimgi tsivilizatsiyaning shakllanishi mulkiy tengsizlikning paydo bo'lishi, qabilalar o'rtasida aloqalarning kuchayishi bilan belgilanadi.

Ammo, tarixiy taraqqiyot O'rta Osiyoning barcha xududlarida birdek kechmagan, janubiy xududlarga nisbatan shimoliy xududlar xususan cho'l zonalar ancha orqada qolib ketgan. Xo'jalikning aynan dexqonchilik yoki chorvachilik shakli bilan shug'ullanuvchi axoli to'plangan xududlar paydo bo'ladi. Buning natijasida bir — biridan farqlanuvchi iqtisod vujudga keladi. O'rta Osiyoning janubiy xududlarida yuqori darajada rivojlangan dexqonchilik bilan shug'ullanuvchi axoli yashasa, shimoliy va sharqiy xududlarda esa andronova madaniyati degan umumiy nomga ega bo'lgan chorvador qabilalar yashagab, ular bir — birlaridan farq qilganlar. SHunga qaramay ular doimiy va mustaxkam aloqada bo'lishgan.

Shunday qilib, Turkmanistonning janubiy xududlarida dexqonchilik yuqori darajada taraqqiy etgan. Bu yerda bronza asri mil. av. III —II ming yillarga to'g'ri keladi. Bu xududda bronzaga ishlov berish texnikasi rivojlanadi, sug'orish tizimi rivojlanadi, ketmon dexqonchiligi o'rmini xayvonlarga omoch qo'shilgan xaydama dexqonchilik egallaydi. qadimgi shaxar madaniyati shakllanadi, maxalliy boshqaruv apparati vujudga keladi, metal eritish, kulolchilik, toshni qayta ishlash, to'qimachilik, qurilish ishlari rivojlanib, ularning ixtisoslashuvi aniq ko'rinadi. Monumental mehmoorchilik qaror to'adi, kulolchilik yanada rivojlanib, ularga bezak berish texnikasi murakkablashib boradi. Terrakotik xaykalchalar, zargarlik ishlariga e'tibor kuchayadi.¹³


Janubiy Turkmanistonda bronza davri madaniyati Anov III bosqichi bilan belgilanib, ilk bosqichiga (Namozgoh IV — mil. av. 2750-2300 yy) o'rta bosqichiga (Namozgoh V - 2300-1850 yy) va so'nggi bosqichiga (Namozgoh VI — mil. av. 1850—1100) manzilgoxlari kiradi. Bu xududda bronza davriga oid kichik, o'rta (10 gacha maydonga ega bo'lgan mas. Oltindepa) va juda yirik (50 ga, mas. Namozgoh) manzilgoxlar xosdir.

Bronzaning ilk bosqichi. Manzilgoxlarda shaxarsozlik qurilishi usulining murakkablashishi va yanada taraqqiy etganligi seziladi. Oltindepa fortifikatsiyasi takomillashib, manzilgoxga uchta bo'ylama yo'lakcha orqali kirilgan. Diniy markaz bo'lgan Oltindepa minora shaklidagi imorat bo'lib, gishtdan to'rt tomoni o'rtiq qilib qurilgan (Messo'otamiya zikkuratlar shaklida). Yonida dafn qilish marosimlari uchun mo'ljallangan xonalar joylashgan. Xonalarning birida marosimlar o'tkazilgan, qolganlarida murda va suyaklar saqlangan. Bu yerdan turli xildagi sig'inish buyumlari va bezaklar topilgan. San'at buyumlar yulduz, belgilarining mavjudligi diniy kompleksning Oy xudosiga taaluqli ekanligidan darak beradi.

Rivojlangan bronza bosqichi. Manzilgoxlarning xajmi kattalashadi. Uylar tartibli qurilib, o'rtadan asosiy yo'l o'tadi. Bir necha shakddagi uylarning paydo bo'lishiga ko'ra axolining bir necha tabaqqa ajralganligini ko'rish mumkin. Oltindepadagi diniy inshoot qayta qurilib, zinasimon minoraning balandligi oshiriladi va maydoni kengaytiriladi. Binoning ibodat qilinadigan xonalaridan birida muqaddas ichimlik saqlangan idishi topilgan. Devor yonida muqaddas olov yonib turgan. Bu yerda xam yulduz belgilari uchraydi. Xonalardan biri jamoa daxmasi bo'lib, u ko'rinishdan koxinlar uyushmasiga tegishli.

Bronzaning so'nggi bosqichi. Bu davr yirik manzilgoxlarning kichik manzilgoxlarga aylanishi bilan xarakterlanadi. Oltindepa tashlab ketiladi. Nomozgoxtepaning maydoni esa keskin qisqaradi. Ilk shaxar madaniyati Murg'ob voxasiga ko'chib, u yerda bir necha dexqonchilik voxalari shakllanadi. Bu yerdagi markaziy manzilgoh atrofida xajmi kichik bo'lgan manzilgoxlar qaror to'adi.

¹³ Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко архелогического исследования. Масква 1948г.23-27.



Bronza davri sapol buyumlarini yasashda kulolchilik charxidan keng foydalaniladi va ularni yasash usullari murakkablashib, sifati oshadi. Ko'rinishdan kulolchilik charxidan foydalanish xamda ixtisoslashgan kulollar tomonidan iste'mol mollarinig ko'plab ishlab chiqarilishi naqshli Sopollarning inqirozi va keyinchalik ularning butunlay yo'qolib ketishiga olib keldi.

Kulolchilikka nisbatan metalchilik taraqqiyoti ancha orqada edi. Ammo, turli xil buyumlar yasashga ixtisoslashgan mis quyish ustaxonalari mavjud bo'lgan. CHaqmoqtoshga ishlov berishning ba'zi bir ko'rinishlari saqlanib qoladi. Toshdan dexqonchilik uchun kerakli bo'lgan mehnat qurollari, taqinchoqlar tayyorlanadi. To'qimachilik keng rivojlangan bo'lgan. Bu davrda bronza, keyinchalik kumush va oltinlar aso.sida zargarlik san'ati shakllanib, bronza davrining oxirida yetilgan xunarmandchilik turiga aylanadi. Zargar ustalar turli taqinchoq, iloxiy buyumlar tayyorlashgan. Masalan, Oltindepa ibodatxonasidan buqaning oltin boshi (mil. av. II m. y.) topilgan bo'lib, u ko'rinishdan axolining diniy marosimlar va an'analari bilan bog'liq bo'lgan. Bronza va misdan qilingan muxrlar kishida katta qiziqish uyg'otadi. Bular esa ko'rinishdan jamoa yoki umumoilaviy mulkning shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan. Ular orasida toshdan yasalgan muxrlar ko'pchilikni tashkil qiladi. U yoki bu muxrlardagi tasvirlarning shakli va uslubi Messo'otamiya muxrlariga o'xshash. Dastlab muxlarda aniq xayvonlar yoki fantastik

mavjudotlarning tasviri kam uchragan bo'lsa, keyinchalik ko'payib ularning ramzlari murakkablashadi va guruxiy tasvirlar ko'payib boradi.¹⁴

Bronza davri xaykalchalariga yangi shakldagi ayol mahbudalari obrazining paydo bo'lishi xosdir. Beldan pastki qismi qayta qilingan bo'lib, ularning bosh qismini qaytadan ishlashga asosiy e'tiborni qaratishgan. Erkaklarning xaykalchalari esa kam uchraydi. Rivojlangan bronza davrida bir necha shakldagi ayol xaykalchalari paydo bo'ladi, bu esa janubiy Turkmaniston axolisi yagona xudoga emas, aksincha bir necha ayol mahbudalarga sig'inganliklaridan dalolat beradi. Bu davrda xam erkaklarning xaykalchalari ayollarnikiga nisbatan juda kam uchraydi. So'nggi bronza davrida Murg'ob voxasida diniy maqsadlarda foydalanish uchun yasalgan Sopol idishlar paydo bo'ladi. Bu idishlarning atrofi odamlar va- turli xayvon shakllari bilan bezatilgan.

Bronza davrida janubiy Turkmaniston O'rta Osiyodagi yuksak darajada rivojlangan va yuksak madaniyat yaratgan xudud xisoblanadi. Bu xudud nafaqat qadimgi sharqning taraqqiy etgan shaxar madaniyati ta'sirida, balki dexqonchilik madaniyatiga ega bo'lgan qo'shni Eron va Afg'oniston ta'sirida xam rivojlanadi va aksicha bu madaniyat O'rta Osiyoning boshqa xududlariga xam o'z tahsirini o'tkazmasdan qolmadi.

Mil. av. II ming yillikka kelib Amudaryo o'rta oqimining o'ng qirgog'ida xam ilk shaxar madaniyati shakllana boshlaydi. Hozirgi O'zbekiston janubiy xududlarida bu davrga oid qator manzilgoxlar aniqlanib, ular quyidagi guruxlarga bo'linadi: qalha qishloqlar, mudofaa devorlariga ega bo'lgan xamda ega bo'lmagan qishloqlar. Bu yerda bronza davri madaniyati Sopolli madaniyati nomi bilan mashxur bo'lib, uning quyidagi bosqichi ajratib ko'rsatiladi:

1. Sopolli bosqichi (mil. av. II ming yillikning ikkinchi choragi)
2. Jarqo'ton bosqichi (mil. av. II ming yillikning o'rtalari)
3. Molali bosqichi (mil. av. II ming yillikning oxiri)

Oxirgi ikki bosqich oralig'ida Kuzali bosqichining ajralishi belgilangan. Sopolli bosqichi shu nomli maydoni 3 ga. dan iborat manzilgox to'ilmalari bilan belgilangan. Bu yerda axoli kvartallari aniqdangan bo'lib, ularda kichik ko'chalar va ko'chachalar bilan ajralib turgan uy — joy va xo'jalik imoratlari o'rin olgan.

Manzilgoxdagi qadimgi qabrlar kishida qiziqish uygotadi. qabrlar laxot yoki yorma shaklida, bahzan idish va devorlarga ko'mish xollari xam uchraydi. Yosh bolalar qabri kichik chuqurlardan iborat. Katta yoshdagilar qabri bir tomonga qaratilib, yonbosh xolda bukchaytirib ko'milgan. Bir necha kishilar xatto aloxida xayvonlar ko'milgan qabrlar xam uchraydi. qabrlarda mehnat qurollari mavjud. Ular Sopol buyumlar, metal buyumlar, tosh, charm va boshqalardan iborat.

Jarqo'ton davri shu nomdagi manzilgox to'ilmalari asosida o'rganilgan. Maydoni 90 ga. dan iborat manzilgoxning planirovkasi tarqoq xolda bo'lib, ark va mudofaa devorlariga ega. Bu yerdan ibodatxona qazib o'rganilgan. Ibodatxona to'ilmalariga ko'ra jarqo'tonliklar olov va suvga sig'inganlar.

Janubiy O'zbekistonning Jarqo'ton davrida yashagan dexqonlarning madaniyatini belgilovchi asosiy materiallar qabrlarni ochish jarayonida to'ib o'rganilgan.

Murdalar yon tomoni bilan bukilgan xolda yotqizib ko'milgan. Jarqo'tonda o'rganilgan qabrlar jarqo'ton, kuzali, molali davrlarini aloxida ajratib ko'rsatish xamda qadimgi dexqon jamoalarining mulkiy munosabatlari va sotsial—iqtisodiy taraqqiyoti xususiyatlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

¹⁴ Аскарлов А., Албаум Л. Поселение Кучуктепа Т.:1979 – С. 63

Sopoli bosqichiga oid kulolchilik buyumlari asosan kulolchilik charxida ishlangan uy — ro'zgor idishlaridan iborat. Barcha idishlar yuqori sifatga ega. Jarqo'ton bosqichida kulolchilik ishlab chiqarishda, ayniqsa mehnatni tashkil etishda bir qadar o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Barcha kvartallarda idishlarni pishirishga mo'ljallangan uchoq qoldiqlari topilgan. Ishlab chiqarish xajmini kengaytirish maqsadida kulolchilik uchoqlari kattalashtirilib, ularning qurilish usullari murakkablashtiriladi. Bu yuksak darajada taraqqiy etgan ixtisoslashgan xunarmandchilik malakali mehnatni tashkil etish bilan bog'liq edi.

Ko'zali va molali bosqichlariga kelib kulolchilik o'zining yuqori darajasiga ko'tariladi. Yuqori sifatli nafis kulolchilik buyumlari ishlab chiqariladi, ularning mahlum shaklga ega bo'lganligi seziladi, tez aylanadigan kulolchilik charxlari qo'llanila boshlandi xamda ularni pishirishda yangi usullardan foydalanila boshlaydi.

Hunarmandchilikning ixtisosliklarga ajralishi metal va metalga ishlov berishning yuqori darajada rivojlanishiga imkon berdi. Asosiy xom —ashyo bo'lgan bronzaga obdon ishlov beriladigan bo'ldi. Toshidan mehnat qurollari tayyorlash o'z axamiyatini yo'qotmadi.

Yuqorida keltirilgan tarixiy jarayonlarga ko'ra Jarqo'ton ilk davlatchilik shakllariga o'tish bosqichida bo'lib, Ko'zali va Molali davrlarida bu jarayon yanada chuqurlashady.

Sopollitepa o'troq dexqonchilik manzilgoxdan o'rganilgan to'ilmalar janubiy Turkmaniston, shimoli — sharqiy Eron, shimoliy Afg'oniston qisman janubiy Afroniston manzilgoxlari to'ilmalari bilan yaqin o'xshashlikka ega. Biroq, qadimgi Baqtriya xududi uchun bu to'ilmalar yagona madaniyat majmuasidan iborat.

Bu xuddagi o'troq dexqonchilik madaniyati tashqi madaniyat ta'sirida shakllanib, uning negizini ishlab chiqarish xo'jalik shakliga ega bo'lgan qadimgi madaniyat o'choqlaridan izlash kerak. Sopollitepa to'ilmalari Murg'ob voxasidagi Namozgoz^V va Namozgoh VI larning ilk bosqichiga oid to'ilmalariga, Jarqo'ton to'ilmalari rivojlangan Namozgoh VI, ko'zali va molali to'ilmalari esa so'nggi Namozgoh to'ilmalariga aynan o'xshash. Ko'rinishdan janubiy Turkmaniston madaniyati Sopoli madaniyatining shakllanishi va taraqqiyotida asosiy markaz bo'lib xizmat qilgan. Taxminan II ming yillikning ikkinchi choragidan boshlab qadimgi Baqtriyaning qator xududlari shimoli — sharqiy Eron yoki Janubiy Afg'oniston xududlarida yashovchi o'troq dexqonchilik qabilalari tomonidan egallana boshlanadi. Natijada bu yerda bronza davrining turli bosqichlarida yangi dexqonchilik voxalari shakllana boshlaydi. Keyinchalik bu yerdagi dexqonlar o'ziga xos maxalliy taraqqiyot yo'nalishiga ega bo'lganlar.

Zarafshonning quyi oqimida Zamonbobo madaniyati shakllanadi. Zomonbobo manzilgoxi mil. av. III ming yillik oxiri — II ming yillik birinchi yarmiga oid. Bu yerdan yarim yerto'la va chayla —uy qoldiqlari ochib o'rganilgan. Uylar loysuvoq qilingan. Zamonboboliklar sodda dexqonchilik, chorvachilik shu bilan birgalikda ovchilik va baliqchilik bilan xam shurullanganlar. Sopol idishlar va xumdonlarning qoldiqlari xam to'ib tekshirilgan. Kulolchiligida Kaltaminor madaniyati tahsiri mavjud.

Xorazm xududida Suyurgan madaniyati (mil. av. II ming yillik) tarqalgan. Uylari ustunlar asosida yassi va keyinchalik to'rt to'rtburchak shaklida qurilgan chaylalar va yarim yerto'la — uylardan iborat. Kulolchilik idishlarining tagi yassi bo'lib, ba'zilar o'yma naqshlar bilan bezatilgan. Mehnat qurollari va qurol—aslaxalari tosh va bronzadan yasalgan. Suyurgan madaniyati ko'rinishdan Kaltaminor madaniyatining davomi bo'lsada, Anov madaniyati bilan bo'lgan aloqalar ko'p jixatdan o'z tahsirini o'tkazgan.

Mil. av. II ming yillikning o'rtalarida Zarafshon voxasiga Andronovo (Qozog'iston va Sibir) va yog'ochband madaniyati soxiblari kirib kelib, maxalliy axoli bilan aralashib ketishi kuzatiladi.

Mil. av. II ming yillik o'rtalarida Xorazmda maxalliy Suyurgan madaniyati yogochband soxiblari va Andronovo madaniyatlari ta'sirida Tozabog'yob madaniyati shakllanadi. Bu yerdan 50 ta makon to'ib o'rganilgan. Ular yarim yerto'la shaklidagi uy —joylardan iborat bo'lib, atrofidan kanallar va qadimgi suTog'ish inshootlari to'ib o'rganilgan. Kulolchilik idishlarining tagi yassi bo'lib, qo'lda yasalgan va geometrik shakldagi o'yma naqshlar bilan bezatilgan. Mehnat qurollari va qurol — yarog'lari bronzadan, qisman toshdan yasalgan. Bronza quyish ustaxonalarining izlari xam mavjud.

Shimoliy Tojikiston, Farg'onaning bir qismi, Toshkent voxasi va Zarafshon daryosi vodiysi xududlarida qayroqum madaniyati (mil. av. II ming yillik o'rtalari) paydo bo'ladi. Bu madaniyatda Hisor, Tozabogyob va Andronovo madaniyatlarining tahsiri ko'rinadi. Bu madaniyat soxiblari CHust va janubdagi o'troq dexqonchilik madaniyatlari bilan xam yaqin aloqada bo'lishganlar. Kichik xajmdagi manzilgoxlari !eir necha cho'ziq shakldagi uylardan iborat. Axoli chorvachilik xamda dexqonchilik bilan shutullanganlar. Xo'jalikda metal quyish ishlari muxim axamiyatga ega bo'lgan. Kulolchilik idishlari yassi taglik bo'lib, quyma naqshli bezaklar bilan bezatilgan.

Fargona vodiysida qayroqum madaniyati bilan birgalikda Chust madaniyati (mil. av. II ming yillik oxirlari) rivojlangan. Chust madaniyatiga oid mudofaa tizimi qoldiqlari, uy —joylar, qabrlar va xo'jalik o'ralari o'rganilgan. Kulolchilik buyumlari naqshli. Bronza, tosh, suyaklardan yasalgan buyumlar xam mavjud. Chustliklar dexqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanganlar xamda kulolchilik, to'qimachilik, bronza quyish ishlari bilan xam yaxshi tanish bo'lganlar. Farg'ona o'troq dexqonchilik manzilgoxlaridan to'ib o'rganilgan to'ilmalar bu madaniyat soxiblarining O'rta Osiyoning janubi — g'arbiy va shimoli — sharqiy xududlari bilan yaqin aloqada bo'lganliklaridan guvoxlik beradi.

Janubiy Tojikiston xududida mil. av. II ming yillikning o'rtalari va ikkinchi yarmiga oid bir —biriga o'xshash va o'ziga xos tomonlari bilan ajralib turadigan jixatlariga ega makonlar to'ib o'rganilgan.

Bu yerda axoli chorvachilik va dexqonchilik bilan shug'ullangan. Bronzadan yasalgan mehnat va jangovar qurollari xamda tosh qurollar to'ib o'rganilgan. Sopol idishlari qo'lda yasalib, o'yma naqshlar bilan bezatilgan. Surxondaryo, shimoliy Afg'oniston va janubiy Turkmaniston Sopol buyumlariga o'xshash buyumlar uchraydi. Bu yerga mil. av. II ming yillikning ikkinchi yarmida janubi — g'arbdan dexqonchilik bilan shug'ullanuvchi qabila kelib o'rnamashgan.

Shunday qilib, bronza davrida O'rta Osiyoda turli xo'jalik shakliga ega bo'lgan ayrim xalqlar yashab, ular o'zaro madaniy aloqalarda bo'lganlar.

7- MAVZU: O'RTA OSIYONING TEMIR DAVRI XUSUSIYATLARI (4soat)

1. O'rta Osiyoda ilk temir davri xususiyatlari.
2. Janubiy Turkmaniston ilk temir davrida.
3. O'zbekiston ilk temir davrida (SHimoliy Baqtriya, So'g'd, Farg'ona)
4. O'zbekiston ilk temir davrida (CHoch, Ustrushona, Xorazm).
5. Qadimgi ko'chmanchilarning moddiy madaniyati.

ADABIYOTLAR

1. Anorboyev, U. Islomov, B Matboboyev O'zbekiston tarixida qaimgi Farg'ona T. 2001 86 bet
2. Eshov B. O'rta Osiyoda dastlabki shaxar markazlarining rayonlashuvi masalalari (mil av

- III-I m y o'rtalari) "Buyuk ipak yo'li va Farg'ona vodiysi" mavzusidagi respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari//T 2004 y. 384-390 betlar
3. Sagdullayev A.. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi T 2004 y. 56-60 betlar
 4. Eshov B. So'g'diyona tarixidan lavhalar T 2002 y. 45-52 betlar
 5. Matboboyev B. O'zbekiston tarixida qadimgi Farg'ona T 2004 y. 76-86 betlar
 6. Mirsoatov T. O'rta Osiyo arxeologiyasi Farg'ona 2002 y
 7. Sagdullayev A. Tarix taraqqiyot va davlatchilik. Jamiyat va boshqaruv №1. 2000 y

Tayanch iboralar: xetlar, xunarmandchilik zargarlik, temirchilik, omoch, ilk shaxarlar, bozorlar, mexnat unumdorligi, temirdan mexnat qurollari

O'rta Osiyo xududidan topilgan dastlabki temir buyumlar mil. av. I ming yillikning boshlari (Anov —IX —VIII, Daratepa — mil. av. VII —VI, Quvisoy — mil. av. VII —VI, Dalvarzin— mil. av. VIII —VII) bilan sanaladi. Lekin ularning keng tarqalishi mil. av. VI —V asrlarga to'g'ri keladi. SHuning uchun xam O'rta Osiyoda ilk temir davrining boshlanishi sanash to'g'risida ilmiy munozaralar mavjud. Ba'zi bir olimlar O'rta Osiyoda ilk temir davri Eron va Hindistonga zamondosh bo'lib, mil. av. X —VIII asrlarda boshlangan deb xisoblaydilar. O'rta Osiyo xududidan topilgan barcha temir buyumlarning sanalaridan xulosa qilib, bu yerda ilk temir davrini mil. av. VII —IV asrlar deb xisoblash maqsadga muvofiq. Mil. av. X —VIII asrlarni esa bronza davridan ilk temir asriga o'tish davri, deb xisoblash mumkin.

Umuman, mil. av. I ming yillikning boshlarida O'rta Osiyo xududida yashagan qadimgi dexqon, dexqon — zarvodor va chorvador qabilalari ijtimoiy — iqtisodiy va madaniy xayotida qator o'zgarishlar sodir bo'ladi. O'troq dexqonchilik voxalarida sugorish tizimi yanada takomillashib, dexqonlar tomonidan yangi yerlar o'zlashtirildi. Manzilgoxlarning soni ortib, ularning maydoni kengayadi, xamda ichki strukturasi murakkablashib, yirik shaxarlar qaror to'adi. Shaxar va qishloqlarda mehmorchilik va xunarmandchilik takomillashadi. Bu esa ikkinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti — dexqonchilikdan xunarmandchilikning ajralib chiqish jarayonini tahminlaydi. Yirik davlat birlashmalari paydo bo'ladi.

Cho'l, tog' va TOG' oldi xududlari ko'chmanchi chorvadorlar tomonidan egallanib, chorvachilik qabilalarining ajralib chiqish jarayoni o'z poyoniga yetadi.

O'rta Osiyoda mil. av. I ming yillikning boshlariga oid ko'plab yodgorliklar o'rganilgan. Ular ichida Yozdepa, Aravalilidepa, Ko'xnatapa, Uchdepa, (Turkmaniston), Kuchuktepa. Bandixon, Qiziltepa (Surxon voxasi), Sangirtepa, Uzunqir, Daratepa, CHiroqchitepa, Yerqo'rg'on (Qashqadaryo), Afrasiyob. Ko'ktepa, (Samarqand) Dolvarzintepa, CHust va Ashkoltepa

(Fargona) lardan topilgan moddiy manbalar diqqatga sazovordir.

Ushbu yodgorliklarning quyi qatlamlari ,Yoz I bilan belgilanib, ularning sanasi mil. av. 900 — 650 yillar doirasida bo'lgan.¹⁵

So'ngi bronzadan ilk temir asrga o'tish davriga xos bo'lgan belgilaridan biri bu—Sopol buyumlarni qo'lda yasash, xamda ularga angob berib naqshlar solish an'anasining uchayishidir. Bu davrda, Sopol buyumlarni qo'lda yasash an'anasi saqlangan xolda, kulolchilik charxidan keng foydalanila boshlanadi.


¹⁵ Коробкова Г.Ф Изучение каменной индустрии и проблема вы деления культур и локальных вариантов – ТД совещания «Каменный век Средней Азии и Казахстана». Т.: 1972

O'rta Osiyoning janubiy xududlari, xususan, Janubiy Turkmaniston (Ko'etdog' yonbag'irlari, Serexs va Murg'ob voxalari) Surxon, Janubiy Tojikiston, Qashqadaryo, Zarafshon voxalari xamda Farg'ona vodiysi xududlarida muxim o'zgarishlar: dexqonchilikning rivojlanishi va yangi dexqonchilik voxalarining o'zlashtirilishi xamda sug'orish tizimining takomillashishi kuzatiladi. Manzilgoxlar soni ortib, muxim madaniy — iqtisodiy markazlar paydo bo'ladi.

Qadimgi Choch va Ustrushona xududlarida xam o'zgarishlar bo'ladi. Bu yerda axolining o'troqlashuvi va dexqonchilik xo'jaligi shaklining vujudga kelish kuzatiladi.

Dexqonchilik voxalari atrofida, xamda shimoliy va sharqiy mintaqalarida xo'jalikning muxim shakli — ko'chmanchi chorvachilik paydo bo'ldi. Ko'chmanchi — chorvador qabilalarining moddiy madaniyatiga oid to'ilmalar Orolbo'yi, Sirdaryoning quyi oqimi Janubiy Tojikiston xududlaridan to'ib tekshirilgan. Ular o'troq dexqonchilik axolisi bilan doimiy aloqada bo'lganlar. Ular o'rtasidagi aloqalar va o'zaro tahsir O'rta Osiyoning tarixiy taraqqiyotidagi muxim xususiyatlardan biri xisoblanadi.

Mil.av. I ming yillikning boshlarida O'rta Osiyoning barcha xududlarida yashovchi xalqlar ijtimoiy xayotida sodir bo'lgan o'zgarishlarning eng muximi temirdan yasalagan mehnat qurollari, qurol — yarog'lar va zeb —ziynat buyumlarining tarqalishidir.



O'rta Osiyo xududida qaror to'gan umumiy va o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turuvchi bir necha dexqonchilik madaniy markazlari axolisining ijtimoiy munosabatlari, diniy tushunchalari, tarixiy viloyatlar, • ilk davlat birlashmalari, tabiy — geografik joylar, aloxida joylar va ularning chegaralari bilan bog'liq bo'lgan qisqa ma'lumotlar «Avesto», axamoniylarning mixsimon yozuvlari va yunon —rim tarixchilarning asarlarida o'z aksini to'gan.

«Avesto»da O'rta Osiyodagi qadimgi davlat birlashmalari, tarixiy viloyatlar: Ariyonam Vayjo yoki Arieyshayona, Mouru, Sug'da, Baxdi, Xvarizam xamda qadimgi ko'chmanchi chovador qabilalari «Tur» lar xaqida ma'lumotlar mavjud.

Qadimgi fors yozuvlarida ushbu viloyatlar Margush, Sug'uda, Baqtrish, Xvarazmish, Parsava, xamda yunon tarixchilarining asarlarida esa Marg'iyona, So'g'diyona, Baqtriyona, Xorasmiya, Parfiyona nomlari bilan tilga olinadi. Fors yozuvlarida O'rta Osiyoning shimolida yashovchi ko'chmanchi chorvador qabilalari saklar, yunon tarixchilarining asarlarida skiflar va massagetlar deb atalgan. Shimoli —sharqiy xududdagi dexqonchilik voxalari: Ustrushona, Choch va Farg'ona vodiysi to'g'risida ma'lumotlar keyingi davrlarga oid Xitoymanbalarda uchraydi. Asrimizning ikkinchi yarmidan boshlab olib borilgan keng qamrovli arxeologik dala— tadqiqot ishlarining natijalari O'rta Osiyo xududi doirasida tashkil to'gan ushbu tarixiy — madaniy viloyatlardagi yodgorliklarning yuqori sanasini mil. av. 1 ming yillikning boshlariga

doir ekanligini ko'rsatadi. Lekin, ushbu tarixiy viloyatlarning to'liq shakllangan davrini mil. av. VII—VI asrlar deb xisoblash mumkin.

O'rta Osiyo xududida ilk temir davri yodgorliklari yaxshi o'rganilgan voxalardan biri — Marv voxasidir. Bu voxadagi dastlabki yodgorlik (Yozdepa, Aravali depa, Ko'xnadepa va Uchdepa)lar amerikalik tadqiqotchi R.Pompepi tomonidan ochilgan. Tadqiqot ishlarini esa janubiy Turkmaniston kompleks arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan 1946 yil boshlanib, 1954 — 56 yillarda esa keng ko'lamli qazish ishlari olib borilgan. Natijada Yozdepa manzilgoxiyning ilk temir asri sanalari belgilab olingan: Yoz I mil. avv. 900 — 650 yillar, Yoz II mil. avv. 650 — 500 yillar, Yoz III mil. avv. 500 — 350 yillar deb belgilangan. Bu voxa Murg'ob daryosining irmoqlari bilan sug'orilgan. Bir necha dexqonchilik voxalariga bo'linadi.

1. Toxirboy (Toxirboy 1,11 va CHurnok)

2. Yozdepa. Marv voxasida yirik dexqonchilik voxasi xisoblanadi (SHimoliy Uchdepa, O'rta Uchdepa, Janubiy Uchdepa, Sulujidepa, O'tliyatan I—III, Ayrak I—IV, Odambasan va boshqalar).

3. Aravalidepa (Gyumishdepa, Ko'xnadepa, Aravalidepa va boshqalar).

4. Tolp. (Yoz I-III, Tolp II-VII).

5. To'g'aloq (o'ndan ortiq kichik manzilgoxlar). Yuqorida keltirilgan manzilgoxlarni uch tipga bo'lish mumkin.

1. TSitadel (ark) ga ega bo'lgan yirik manzilgoxlar.

2. TSitadelsiz yirik xajmdagi manzilgoxlar.

3. Kichik xajmdagi qishlalar (uy—qo'rg'onlar).

Keltirilgan manzilgoxlar ichida Yozdepa arxeologik jixatdan yaxshi o'rganilgan. Manzilgoxning quyi qatlami mil. av. 900 — 650 yillarga oid. Uning maydoni 16p ga. dan iborat bo'lib, uy —joy qoldiqlari, baland saxni ustiga qurilgan yirik imorat — qo'rg'on joylashgan. Imoratlar uzunchoq va to'g'ri to'rtburchak xonalardan iborat. Imoratlar to'rtburchak shakldagi g'ishtlardan g'urilgan bo'lib, devorlari xamda xonalarining saxni loysuvoq qilingan.

Marvliklarning asosiy xo'jaligi sug'orma dexqonchilikdan iborat bo'lgan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra hozirgi Gatiqor eni 5 —8 m, chuqurligi 2 — 3 metr va Guniyob (5 — 6 m, chuqurligi 1,5 — 2 metr) kanallari orqali qadimgi axoli dexqonchilik qilishgan. Kanallarning ikki tomonidan kichik ariqlar orqali dalalarga taqsimlangan. Kanallar atrofidagi qadimgi dala maydonlarining izlari aniqlangan.

Dexqonchilikda boshqoqli va poliz ekinlari ekilgan. Chorvachilik bilan qay darajada shug'ullanganliklari to'g'risida ma'lumotlar kam. Ko'rinishdan ular uy chorvachiligi bilan shug'ullanganlar.

Bu yerdagi Toxirboy 1 va CHurnok manzilgoxlaridan temir qotishmalarining chiqindisining to'ib o'rganilishi voxada temirchilikning paydo bo'lganligidan dalolat beradi.

Kulolchilik ishlab chiqarishi bog'liq masalalar yaxshi o'rganilgan. Bu yerdagi ko'pgina manzilgoxlardan kulolchilik pechlarining izlari topilgan. Ular ichida CHurnokdan topilgan ikkita pech diqqatga sazovardir. Ular qo'ng'iroq simon shaklga ega bo'lib, olovxona va idishlar joylashtiriladigan qismlardan iborat. Uchdepadan esa kulollar maxallasi o'rganilgan, undagi kulolchilik pechlari mil. av. V—IV asrlarga oid.

Mil. av. X —VII asrlarga (Ez 1) oid Sopol idishlar qo'lda yasalgan. Idishlar sariq angob bilan bo'yalgan, ustidan jigar va qizil bo'yoqlar bilan geometrik naqshlar berilgan. Mil. av. VII —IV asrlarga kelib, idishlarni kulolchilik charxida yasash an'anasi kuchayadi. Guldor idishlar

uchramaydi. Marv voxasidagi manzilgoxlardan tosh qurollar, yerqo'rg'ichoqlar, zeb —ziynat buyumlari. qurol — aslaxa va kamon o'qlarining uchlarini xam to'ib o'rganilgan.

Mil. av. IV asrning o'rtalariga (Yoz III) kelib voxalarning barcha manzilgoxlarda inqirozi kuzatiladi. Sug'orish tizimining murakkablashishi natijasida axoli yangi yerlarni o'zlashtiradi.

SHIMOLIY PARFIYA

Koptdog' tizmalarining yonbag'irlarida ilk temir davriga oid quyidagi tipdagi manzilgoxlar o'rganilgan.

1.Yirik xajmdagi tsitadelga ega bo'lgan manzilgoxlar. (Elkantepa, Ulug'depa). 2.O'rta xajmdagi tsitadelga ega bo'lmagan manzilgoxlar(may. 1 ga. dan ortiq), (Yassidepa, Agachlidepa) Z.Kichik manzilgoxlar (kichik qishloqlar may. 1ga. gacha), (Kraxandepa I,II,III, Yelandepa, Ovadandepa). Yelkandepa I va Ulug' III, so'ngi bronza davrda shakllangan. Yelkan II, Ulug' II lar mil. av. 650 — 500, xamda Yelkan III, Ulug' I lar mil. av. 500 — 350 yillar bilan sanaladi. Yelkantepa tsitadeli bronza davrida barpo etilib, atrofida 14,5 ga iborat joyda axoli manzilgoxi shakllanadi. Mil. av. X asrlarda mudofaa devorlari (umumiy qalinligi 10, 5 m; o'rtada— 6 m. dan iborat koridor mavjud) bilan o'ralib, imoratlarning asosiy ko'pchilik qismi kuriladi. Mudofaa devori atrofida chuqur xandaklar qazilgan. Mil. av. VII —VI asrlarga kelib esa manzilgox atrofida imoratlar barpo etiladi. Uning atrofi, xam mudofaa devorlari bilan o'rab olinadi. SHunga o'xshash Ulug'depa xam bronza davrida shakllanib, mil. av. X asrlarda baland saxna ustida qo'rg'on barpo etiladi. Yelkandepadan farqi o'laroq bu yerda axoli imoratlari joylashgan qismi mudofaa devorlarining izlari aniqlanmagan. Imoratlar to'rburchak g'ishtlardan qurilib, devorlari va uylarning saxni loy suvoq qilingan. Ba'zi bir imoratlarning devorlari ganch bilan suvalgan.

Axolining asosiy mashg'uloti sug'orma dexqonchilik va xunarmandchilik bo'lgan. Dexqonchilikda asosan bug'doy va arpa ekilgan. Sug'orish inshootlarining izlari o'rganilmagan bo'lsada, togdan oqib tushadigan kichik daryo suvlari dexqonchilikda asosiy manba bo'lgan. Suvga bo'lgan talabning yuqori bo'lganligini xisobga olib, qadimgi dexqonlar damba va tug'onlardan foydalangan, degan xulosaga kelish mumkin. Keyingi davrlarda bu yerda korizlar paydo bo'ladi.

Bronza va temirdan mehnat qurollari, qurol aslaxalar tayorlanganligi arxeologik jixatdan aniqlangan. Bulardan

tashqari toshdan qurollar xamda Sopol buyumlar o'rganilgan. Sopol buyumlari Marg'iyonaniqiga o'xshash. Mil. av. X —VII asrlarga oid Sopol buyumlarning asosiy qismini qo'ld^a yasalgan, xamda naqshli buyumlar tashkil etadi. Naqshlar geometrik shaklda. Ulug'tepaning mil. av. VII —IV asrlarga oid Sopol buyumlari Yozdepaning shu davrga oid buyumlari bilan o'xshash. Yoz 1 Sopollariga o'xshash Sopol buyumlarining bu yerda bronza davridayoq paydo bo'lishi o'ziga xos xususiyatlardan biridir.

Janubiy Turkmanistondagi Tajang daryosi atrofida Seraxs voxasida xam tadqiqot ishlari olib borilgan (Ko'xna Seraxs, Movlekdepa, Beshdepa, Akchadepa manzilgoxlari). Bu yerda xayot neolit davrida boshlanib, mil. av. I ming yillikning boshida qaytadan o'zlashtiriladi. Ko'xna Seraxs Yozidepali o'rnida manzilgox shakllanib, atrofi mudofaa devori bilan o'ralgan. TSitadeldan tashqarida imoratlarning o'rni saqlangan. Movlikdepada qadimgi kanal izlari o'rganilgan. Voxaning Sopol idishlari Marv Sopol idishlariga o'xshash. Tosh qurollari, yorguchoqlar, temir qotishmalarning chiqindilari topilgan.

QADIMGI DAXISTON.

Turkmanistonning janubiy — g'arbida qadimgi Daxiston voxasi o'ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi. Qadimgi Daxiston yodgorliklari Gurgen, Sumbar va Atrek daryo voxalarida

rivojlanadi. Qadimgi Daxiston yodgorliklari xam tsitadelga ega bo'lgan. Yirik manzilgoxlar yoki qadimgi shaxarlar (Modov, Izzatquli), yirik xamda kichik xajmdagi qishloqlardan iborat. Imoratlar xom g'ishtdan qurilgan, tomlari tekis yo'lgan. Bu yerda Atrek daryosida chiqarilgan qadimgi kanal izlari o'rganilgan. Ularning uzunligi 50 — 60 km. ni tashkil etadi. Kanallarning suvlari bir necha ariqlar orqali ekin maydonlariga taqsimlangan. Dexqonchilik axolining asosiy mashg'uloti xisoblanib, burdoy, arpa va boshqa dukkakli ekinlar ekishgan. CHorvachilik xam yaxshi rivojlangan. Sopol idishlar kulolchilik charxida ishlanib, naqshlar berilgan. Bu yerda temir bo'laklari, temir qotishmasining chiqindilari xam topilgan. Umuman, Daxiston to'ilmalar Janubiy Turkmanistonning I ming yillik boshlariga doir moddiy manbalardan keskin farq qiladi. Ko'rinishdan qadimgi Eron qabilalari bilan keng aloqada bo'lib, ular ta'sirida rivojlangan.

SHIMOLIY BAQTRIYA

O'rta Osiyoning janubida, xususan, Surxon voxasi va Janubiy Tojikiston xududlarida joylashgan Shimoliy Baqtriyaning ylk temir davriga oid yodgorliklarini o'rganish asrimizning 50— yillaridan, yahni Qalan Mir manzigoxida olib borilgan tadqiqot ishlaridan so'ng kuchayadi. Shimoliy Baqtriyaning mil. av. I ming yilliklarning boshlariga oid manzilgoxlari Surxon va SHerobod daryolarining irmoqlari atrofida Sopolli madaniyatining davomi sifatida rivojlangan bo'lsa, Surxon va Amudaryolarning o'rta oqimi, Kofirnigon, Vaxsh va Panj daryo voxalari esa qadimgi dexqonlar tomonidan mil. av. 1 ming yillikning o'rtalarida o'zlashtirilgan.¹⁶

SHimoliy Baqtriyada 1 ming yilliklarda quyidagi dexqonchilik voxalari va manzilgoxlari rivojlangan:

10. Sargandak — To'palang — (Xolchayonning qo'yi qatlami)
11. Xalqajar (Mirshodi) — (Qiziltepa, Qizilcha guruxidagi manzilgoxlari, Axatqul).
12. Urgulisoy (Bandixon) — (Bandixon, G'ozimulla).
13. SHerobod — (Jondavlat, Talashkan I, Pachmaktepa)
14. Ulonbuloqsoy — (Kuchuktepa, Pshaktepa, Dabilqo'rg'on)
15. O'rta Surxon — (Xayitobod, Nomsiztepa).
16. O'rta Amudaryo — (Ko'xna Termizning quyi qatlami, Kampirtepa yaqinidagi Nomsiztepa.)
17. Kuyi Kofirnigon — (Qalam Mir, Munchoqtepa, Xirmontepa). Vaxsh — Yavon — (Tomoshatepa, Boldoy I, SHo'rchitepa).
18. Boytudasht — (Boytudasht).

Ularning xar birining xududi tabiiy chegaralanib, markaziy manzilgox atrofida joylashgan. Bir necha manzigoxni o'z ichiga olgan.

Keltirilgan manzilgoxlarni quyidagi tiplarga ajratish mumkin.

11. Atrofi mudofaa devori bilan o'ralgan. TSitadeli yirik xajmdagi manzilgoxlar (shaxarlar) — (Qiziltepa, Hayitobod).
12. Qalha — Qo'rgonlariga (mudofaa devorlariga ega) imoratlartutush joylashgan manziloxlar Kuchuktepa (Bandixon, Talashkon I).
13. Yirik xajmdagi manzilgoxlar yoki qadimgi qishloqlar G'ozimullatepa).
14. Uy — qo'rg'onlari (Qizilcha gurux manzilgoxlari).
15. Aloxida vazifani bajaruvchi manzilgoxlar (diniy inshootlar) — (Pishaktepa, Pachmaktepa).

¹⁶ Исламов У.И. К вопросу о локальных вариантах эпохи мезолита и неолита в Узбекистане. Каменный век Средней Азии и Казахстана. Тез. Докладов. Т.:1972

Mil. av. II ming yillikning oxirgi va mil. av I ming yillikning boshlariga kelib, bu yerda o'ziga xos madaniyat shakllanadiki, buni biz Kuchuk I (mil. av. 1000 — 750) Qizil I (mil. av. 1000 — 700 yillar) moddiy to'ilmalari asosida o'rganamiz. SHuning uchun voxaning bu davrga oid madaniyati Kuchuktepa madaniyati nomi bilan mashxur. Bu davr yodgorliklarining xajmi ancha kichik (3 ga. Dan oshmaydi). Kuchuktepa manzilgoxi baland saxna ustiga qurilgan. qo'rshnchadan iborat bo'lib, atrofida imoratlar joylashgan. Hamda ular mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Bu davrga xos bo'lgan Sopol idishlar, qo'lda va kulolchilik charxlarida yasalgan. qo'lda ishlangan idishlarning sirtiga geometrik shakllarda naqshlar bilan bezatilgan. Ularning shakllari turlicha, ko'pchiligining tagi yassi. Tosh va bronzadan yasalgan mehnat qurollari xamda qurol asloxlari ko'plab topilgan. Keyingi davrda Kuchuktepa madaniyati o'rnida Qadimgi Baqtriya madaniyatining vujudga kelganligini xamda ilk shaxar madaniyati shakllanganligini ko'rish mumkin. Bu davrga oid Surxon voxasining moddiy madaniyatini, qolaversa shaxar madaniyatining bosqichlarini Kuchuk II (mil. av. 750 — 600) Kuchuk III (mil. av. 600 — 500), Kuchuk IV (mil. av. 500 — 350), xamda Qizil II (mil. av. 750 — 600), Qizil III (mil. av 600 — 350) doirasida o'rganamiz.

Voxadagi yirik madaniy markazlardan biri bu Qiziltepadir. Maydoni 22 ga. TSitadel, shaxar va shaxar atrofidan iborat. Manzilgox Qizil I o'rnida kengayib asosiy qismi shakAA.anadi. Manzilgox ish moli g'arbida ark barpo etilib, ularning atrofi mudofaa devorlari bilan o'rab olinadi. Mil. av. V—IV asrlarda mudofaa devori atrofi imoratlar barpo etiladi. SHaxar ichkarisi aloxida yangi imoratlar quriladi. Mudofaa devorlari ikki qatori bo'lib, o'rtasida koridor mavjud. (Ichki devor 2,5 m, tashqi devor 0,7 — 1,0 m, koridor esa 1,5 m)devorlar yarim aylana va to'rtburchak minoralar bilan kuchaytirilgan. Ularning xar birida jangovar shinaklar bor. Qiziltepaning voxadagi boshqa manzilgoxdan xar tomonlama va aloxida ajralib turish madaniy — iqtisodiy xamda mahmuriy markaz vazifasini o'taganligidan dalolat beradi.

Sherobod voxasidagi Talashkon I xam diqqatga sazovordir. U istexkom qalhadan iborat bo'lib, mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Devorlar minoralar bilan kuchaytirilib, ularda shaxmat shaklidagi ikki qator shinaklar aniqlangan. Qalhachaichidagi uylar uning devorlariga taqab qurilgan. O'rtasi xovli sifat ochiq qoldirilgan. Kichik voxalaridagi markaziy manzilgox atrofidagi manzilgoxlarda xam uy —joy va xo'jalik imoratlari aniqlangan. Ularning barchasi . xom g'isht va paxsadan barpo qilingan. Devorlar loysuvoq qilingan. Ba'zi imoratlarda yog'och ustunlarining o'rni aniqlangan. Imoratlarning tomi tekis yo'ilgan.

Axolining asosiy mashguloti suTog'ma dexqonchilik bo'lib kichik daryolardan anxorlar orqali suv chiqarilgan, yoki to'g'ridan — to'g'ri daryolardan ariqlar orqali suv chiqarilgan. Katta anxorlardan birining izlari Bandixondan to'ib tekshirilgan. Bu yerda boshqoli o'simliklar poliz va bog'dorchilik rivojlangan. Chorvachilikning xam yaxshi rivojlanganligi to'g'risida Kuchuktepa va Bandixondan topilgan xayyovon suyaklari yetarli ma'lumot beradi. To'ilmalarga ko'ra Shimoliy Baqtriyaning qadimgi axolisi qo'y. Echki, qoramol, ot, cho'chqa boqishganlar.

Shimoliy Baqtriyaning qadimgi axolisi kulolchilik charxida ishlangan, Sopol idishlar yasashgan. Ular konsussimon va bankasimon shakldagi turli idishlardan iborat.

Idishlarning atrofi to'g' jigar rangda angob berilgan. Bu davrda qo'lda yasalgan Sopol idishlar xam saqlanib qoladi.

Bu davrga oid topilgan tosh qurollari, xususan yorg'uchoqd.ar, temir va bronzadan ishlangan turli mehnat qurollari va quro —yarog'lar boy madaniyat namunalaridir.

8- MAVZU: Antik davr madaniyati va arxeologik yodgorliklar(4soat)

1. Antik davr ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.
2. O'rta Osiyoning antik davr yodgorliklar
3. Madaniy-tarixiy viloyatlarning yirik shahar markazlari.
4. Antik davr madaniyatining ahamiyati.
5. Antik davr keramikasidagi o'zgarishlar.
7. Antik davr madaniyatining o'zgarishlar.

ADABIYOTLAR

1. Anorboyev, U. Islomov, B Matboboyev O'zbekiston tarixida qaimgi Farg'ona T. 2001й. 14-20 betlar .
2. Eshov B. O'rta Osiyoda dastlabki shahar markazlarining rayonlashuvi masalalari (mil av III-I m y o'rtalari) "Buyuk ipak yo'li va Farg'ona vodiysi" mavzusidagi respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari T 2004 y 13 bet
3. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiya tarixi T 2004 y 33-38 betlar.
4. Eshov B. So'g'diyona tarixidan lavhalar T 2002 y 105-110 betlar
5. Matboboyev B. O'zbekiston tarixida qadimgi Farg'ona T 2004 y 9-16 betlar
6. Mirsoatov T. O'rta Osiyo Arxeologiyasi. Farg'ona 2002 y 87-98 betlar
7. Мухамаджанов А.Р.Қадимги Бухоро Т. 1991 йил. 19-24 бетлар.
8. Егамбердиева Н.А. Ўзбекистонинг энг қадимги давр тарихини жадваллар асосида ўргатиш. Тошкент 2008йил. 57-68 бетлар

Tayanch iboralar: ilk shaharlar, yodgorliklar, madaniy-tarixiy markazlar, antik davr, shaxriston, rabot, ark, manzilgohlar.

Qadimgi davrda ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotida tub o'zgarishlar sodir bo'lgan. Bunda, birinchi navbatda ishlab chiqarish usuli va mulkchilik shakllari tubdan o'zgargan. Bu temir davri jamiyatining rivojlanishi asosida vujudga kelgan bo'lib, jamiyatda shaharlar, davlatlar va jahon imperiyalari tarkib topgan. Aholi o'rtasida tabaqalanish kuchaygan. Zodagonlar, qohinlar, jangchilar, hunarmandlar, dehqonlar, chorvadorlar patriarxal oilaning kichik a'zolari - xizmatkorlar «qullar» - jamiyatning asosini tashkil etgan. Lekin qulchilik hamma mamlakat va halqlarda ham bir xil taraqqiy etmagan. Ular Yunoniston va Rimda o'zining eng rivojlangan-klassik shakliga ega bo'lgan. Bu mamlakatlarda ishlab chiqarish usulining asosini qullar mehnati tashkil etgan. Qullar xuddi jonli buyum tariqasida foydalanilgan. Ularning hech qanday huquqi bo'lmagan. Ular eng og'ir ishlarda betinim ishlashga majbur etilgan.

O'rta Osiyoda esa, ishlab chiqarishning asosini erkin dehqon janioalari tashkil etgan. Qul nomi ostida yuritilgan xonadon xizmat-korlari mehnatidan esa, faqat uy yumushlarini bajarishda foydalanilgan va ularga oilaning kichik a'zosi sifatida qaralgan. O'rta Osiyoda uy qulchiligining vujudga kelishini tabiiy iqtisodiy sharoit taqoza etgan. Bu asosan, sug'orma dehqonchilik xo'jaligi bilan bog'liq. To'g'onlar, ariqlar, kanallarni qurish va tozalab turish kabi ishlarni faqat jamoaning erkin, o'z mehnatidan manfaatdor aholigina bajara olgan. Bu ishlarni bajarishda sustkashlik, loqaydlik, beparvolikka yo'l qo'yib bo'lmagan.

Arxaik davr taraqqiyoti miloddan avvalgi VI asrda dunyodagi birinchi imperiyaga asos solgan Erondagi ahamoniylar sulolasi tarixida aks etgan. Ular o'zlariga qaram o'lkalar to'g'risida ko'plab ma'lumotlar qoldirganlar. Ular jumlasiga Bexistun qoya toshlaridagi tasvirlar, Naqshi Rostam va Persepol saroyidagi tasvirlarni keltirish mumkin. Ularga bo'ysungan mamlakatlarda ahamoniylar madaniyatiga xos bo'lgan moddiy madaniyat izlari topilgan. Shuningdek,

imperiya yagona pul tizimi(darik), yagona aloqa tizimi va diniy e'tiqod(zardushtiylik) shakllantirilgan. Buyuk ipak yo'lining dastlabki shahobchasi «Shoh yuli» xuddi shu davrda o'z faoliyatini boshlagan.

Ahamoniylar imperiyasi 200 yilcha hukmronlik qilgan. Mil.aw.IV asrda jahon sahnasida yunon-makedonlarning gegemonligi ko'rinda boshlaydi. Mil.aw.VII-IV asrlarda yuksak madaniyat yaratgan yunonlar, mil.avv.IV asrda Makedoniyali Aleksandr tomonidan bo'ysundiriladi va u boshqa xalqlarni, shu jumladan, ahamoniylar imperiyasini ham o'ziga bo'ysundirib, ikkinchi jahon imperiyasini tashkil etadi. Shu tariqa Aleksandr Makedonskiy tobe qilgan xalqlarda yunon madaniyati kirib kela boshlaydi.

Mil.aw.IV asrdan boshlab yunon tangalari jahon savdosida etakchi o'rinni egallaydi. Qadimgi davrda tanga mil.avv. VII asr boshida Kichik Osiyodagi Lidiyada paydo bo'lgan va shu davrdan tanga pullar ishlab chiqish Yunoniston, Mesopotamiya, Eron. Misr va boshqa davlatlarga yoyilgan. Qadimgi davrda tanga pullar uch xil metall-oltin, kumush va misdan ishlangan, ulardan kumush keng iste'molda bo'lgan. Lidiy halqi yaratgan tangalar dumaloq yoki tuxumsimon shaklda bo'lib, ularga davlat tamg'asi bosilgan. Yunonlarning pullarida esa, badiiy jihatdan tasvirlar mukammal bo'rttirib ishlangan. Ularga ko'proq mifologik suratlar ishlangan. Shuningdek. liar bir mamlakatning o'z tangalari ham bo'lgan. Ularda ko'pincha o'z podshosining surati, uning nomi va ular e'tiqod qiladigan xudolar tasviri bo'lgan.

Qadimgi davrda dehqonchilikning rivojiga alohida e'tibor bilan qaralgan. Erga asosan omoch va so'qa bilan ishlov berilgan. Pantikapcy tanga pullarida so'qaning tasviri ham saqlanib qolgan. Uning tishi yotiq, shoti egri va qo'l ushlaydigan dastasi tikka qo'yilgan. So'qa va omoch temirdan ishlangan.

Don dastlab yorg'uchoqlarda yanchilgan. antik avtorlarning ma'lu- motlariga ko'ra, yorg'uchoqlarda cho'rilar ishlagan. Neolit davridan to antik davrgacha yorg'uchoqlar deyarli o'zgartirilmagan. Mil.av. I V-III asrlarda qo'l tegirmoni tarqalgan. U Italiyada ixtiro qilingan. Qo'l tegirmon ustma-ust qo'yilgan ikkita yumaloq yassi toshdan iborat bo'lib, bu toshlarni aylantirib, un tortganlar. Uning pastki toshi qavariq, ustidagi botiq bo'lib, ikki tosh o'rtasiga don sekinlik bilan to'kib turilgan. Kichikroq tegirmonlar qo'l bilan aylantirilgan, kattalarini esa, cho'ri yoki hayvonlar aylantirganlar. Mil.avv. II asrga kelib, qo'l tegirmonlari deyarli barclia mamlakatlarga tarqalgan. Mil.avv. I asrda suv tegirmoni Rimda ixtiro qilingan, lekin u keng tarqalmagan.

U bizning davrimizgacha saqlanib qolmagan. Faqat antik davr muallif- lari asarlarida yozib qoldirilgan.

Qadimgi davrda sopol buyumlari ishlash texnikasi takomillashgan. Yunonistonda o'ziga xos idishlar ishlangan. Amfora (ko'za) eng ko'p ishlatadigan idish bo'lgan. Arnforaning og'zi tor, tagidan vuqoriga tomon kengaytirilib ishlangan, ikkita dastasi bo'lgan. Uning ichiga har xil narsalar solib tashiganlar. Ko'proq don, vino, yog', suv, baliqlar solingan. Kemalarning katta kichikligi ularga siqqan amforalar soni bilan belgilangan. Don, vino va suv saqlashda yana - pifos degan idishdan ham foydalanganlar. Bu katta sopol xum bo'lib, unga bemalol odam ham siqqan. Katta pifoslar erga ko'milib, undan ombor sifatida foydalanganlar.

Yunonlar sopol idishlarni kulolchilik charxida ishlaganlar. Ro'zg'orda ishlatadigan idishlar yaxshi pishirilgan, ularning rangi sariq va pushti rang bo'lgan. Sopol idishlarga turli badiiy bezaklar berilgan. Badiiy sopol buyumlar naqsh solishdan oldin va naqsh solingandan keyin ham ikki marta pishirilgan.

Mil.aw.VI asrda yunonlarda sopollarga qora lak bilan ishlov berish keng tarqalgan. Idishlarda mifologiyaga doir yoki hayotdan olingan turli xil manzaralar tasvirlari ishlangan. Mil.aw.V—IV asrlarda qizil suratli vazalar keng tarqalgan. Bunda idish butunlay qora lak bilan

bo'yolib, suratlar va atrofdagi naqshlar sopolning tabiiy rangida qoldirilgan. Mifologik va realistik mavzular nihoyatda aniq va nafis chiziqlar bilan ishlangan. Mil. av. IV asrdan sopol buyumlarni bezashda oq, qizil, yashil va ko'k bo'yoqlar bilan ham ishlov berganlar. Badiiy sopol buyumlar ayniqsa, olimpiada g'oliblariga taqdim etilgan. U oddiy amforaga o'xshatib ishlangan, lekin qaysi sport turi g'olibiga mo'ljallagan bo'lsa, shu sport turining tasviri tushirilgan. Juniladan. mushtlashish, yugurish, nayza otish o'yinlari va xk. Shuningdek, ularda ma'buda Afina tasviri ham tushirilgan.

Rim imperiyasi davrida sopol buyumlariga bezak berishda olzgarishlar kuzatiladi. Ular idishlarni qizil lak bilan qoplashgan. Naqsh va suratlar esa bo'rtma tarzda aniq ishlangan. Ko'pincha meva, gul va barglar tasviri berilgan.

Shisha buyumlari ishlab chiqarish ham qadimgi davrda rivojlangan. Shisha bronza davrida Misrda ixtiro qilingan. Mising shisha munchoqlari bu davrda ham haridorgir bo'lib, u suv yo'li orqali Evropa, Rossiya, O'rta Osiyo xudularigacha tarqalgan.

Yunonlar va rimliklarda kitoblar ko'pincha o'ram shaklida bo'lgan. Ular ikki xil materialga: papirus va pergamentga yozganlar. Papirus Misrdan keltirilgan. Papirus nil o'simligi bo'lib, uning poyasi qat-qat bo'lib, qatlarga ajralgan. Uning qatlamlari dumalatib silliqilgan. Natijada qog'ozga o'xshagan sarg'ishroq pishiq narsa hosil bo'lgan. Yozish uchun ishlatadigan materiallarning ikkinchi xili uy hayvonlari terisidan ishlangan. Bu Kichik Osiyodagi Pergam shahrida kashf qilingan va uning nomidan pergament so'zi kelib chiqqan. Keyinchalik Rimda o'ram shaklidagi kitoblar bilan birgalikda, hozirgi kitoblarga o'xshash kitoblar ham paydo bo'la boshlagan.

Qadimgi davrda murakkab geometrik bezaklarni ishlashda sirkul ishlatilgan. U dastlab ikki daryo oralig'ida kashf etilib, Yunoniston va Rimda keng ishlatilib, takomillashtirilgan. Italiyada esa, mashstablarni ko'paytirish va kamaytirish uchun ishlatiladigan proporsional sirkullar ham topilgan. Bu sirkullarning hammasi hozirgi zamon sirkullariga o'xshab ketadi.

Rim imperiyasi davrida baliqchilik, dehqonchilik, vinochilik, sohalari rivojlangan. Vino ishlab chiqarishda presslardan foydalanilgan. Rim avtorlaridan Vitruviy hurania va ricbagli presslar haqida yozib qoldirgan. Ular bulardan tashqari o'roq mashina va suv tegirmoni ham ixtiro qilganlar, lekin ularning qiymati qul mehnatidan qimmat tushganligini sababli, Rimdan tashqarida keng yoyilmagan. Mil. I asrda Italiyada deraza oynasi ixtiro qilinadi. U tezlik bilan ob-havosi yomon hududlarga tezlik bilan yoyiladi.

Qadimgi davr ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotida Eron, Yunoniston va Rim muhim o'rinni egallagan. Ularning madaniy sohada qo'lga kiritgan yutuqlar iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishi natijasida boshqa xalqlarga ham yoyilgan va bu ularning madaniy rivojlaniishda muhim o'rinni egallagan.

Qadimgi davrda O'zbekiston hududida ijtimoiy, iqtisodiy va inada- II|Y jihatdan katta o'zgarishlar sodir bo'ldi.

O'zbekiston tarixining qadimgi davri mil. av. VI asrdan - mil. IV Sacha davom qilgan. Bu davrda O'zbekistonning moddiy madaniyati nVojiga ahamoniylar, yunon-makedonlar, kushonlar madaniyati szilarli ^' sirko'rsatgan.

O'zbekistonning qadimgi davri ikki bosqichga bo'lib o'rganiladi:

1-bosqich miloddan oldingi VI-IV asrlar bo'lib, u arxeologik 3dabiyotlarda arxaik davr deb beriladi.

2- bosqich miloddan oldingi IV asrdan mil. IV asrgacha davom qiladi va antik davr deb aytiladi.

Qadimgi davrda O'zbekistonda yirik qal'a-shaharlar vujudga kelgan. Ularning markaziy binolari - ark va ibodatxonalar hisoblanib, ular turli haykallar va devoriy suratlar bilan bezatilgan. Ark va shahriston mudofaa inshootlari bilan mustahkamlangan. Diniy e'tiqodlar bilan bog'liq yangi tipdagi binolar - nauslar qurilgan. Qadimgi davrga kelib shaharlar nihoyatda tez o'sgan.

Ilk shaharlar dehqonchilik vohalari markazlarida ibodatxonalar atrofida shakllangan. Shaharlar ishlab chiqarishning markazi bo'lgan. U erda hunarmandchilik, savdo, diniy e'tiqod va boshqaruv bilan bog'liq bo'lgan binolar bunyod qilingan. Shu paytdan boshlab ilk shaharlarda davlatchilik elementlari shakllana borgan.

Shaharlar quyidagi tashqi xususiyatlariga ega bo'lishi kerak:

1. Baland binolar - ark, ibodatxonalar va aholining zich qurilgan uylari;
2. Burj, muslahkam darvoza, shinaklarga ega bo'lgan baland, qalin mudofaa devorlar;
3. Shaharda keng ko'chalar va kanalizatsiya sistemasi bo'lishi lozim.

Mil.avv. VI asrda O'zbekiston hududida ilk davlat uyushmalari «Kntla Xorazm» qabilalar konfederatsiyasi va Qadimgi Baqtriya podshohligi mavjud bo'lib, ularo'ziga xos madaniyatni shakllantirganlar. Ilk davlatlar keyinchalik Ahamoniylar imperiyasi tarkibiga kirgan bo'lsa ham, madaniy rivojlanishda mahalliy elementlar saqlanib qolgan. Faqat sopol idishlarining ishlash uslublari, arxitektura elementlari, davlatni boshqarish taitiblari va pul birliklari kirib kelgan.

Bu davrning madaniy rivojlanishi yozma va arxeologik manbalar asosida o'rganilgan. Arxitektura, hunarmandchilik, dehqonchilik, zargarlik, tikuvchilik va kulolchilik kabi solialar rivojlangan. Surxon- daryo, Qashqadaryo, Amudaryoning quyi oqimi, Zarafshon vodiylarida yirik hunarmandchilik markazlari vujudga kelgan. Arxeologlar shu hududlardan yirik qal'alarning izlarini topishgan. Shulardan biri qadimgi Samarqand - Samarqandning qadimgi markazi Afrosiyob yodgorligidir. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Afrosiyobdan mil. av. VI— asrlarga oid qadimgi shahar izlari topilgan. Lining umumiy maydoni 21[^] gektarni tashkil qilgan. Bu erdan sopol idishlar, temir va bronzada ishlangan ko'plab uy-ro'zg'or buyumlari va qurol-yarog'lar topilgan.

XX asming 60-70 yillarida V.A. Shishkin va Ya.G'ulomovlar rahbarligida keng ko'lamli arxeologik tadqiqotlar olib borilib, 1966 yil- da Afrosiyobni «arxeologik qo'riqxona» deb e'lon qildilar. Arxeologik tadqiqotlar natijasida shaharning yoshi, tarixiy topografiyasi, shahar tarkibi, shahar hayotining rivojlanish bosqichlari va saroy qoldiqlari ochildi. Tadqiqotlar natijasida 1970 yilda Samarqandning 2500 yillik yubileyi keng nishonlandi.

Mustaqillik yillarida arxeologik va ilmiy tadqiqot ishlarining samaradorligini oshirish maqsadida o'zbek arxeolog olimlari professor M. Isomiddinov, A. Anorboev va tadqiqotchi A. Otaxo'jaevlar fransiyalik arxeologlar Pol Bemar va Franc Grene bilan hamkorlikda ishladilar. Natijada Afrosiyobning eng quyi madaniy qatlamlarini o'rganish jarayonida er sathidan 10-15 m. chuqurlikda miloddan avvalgi IX-VU asr o'rtalariga oid ashyolar topildi; qo'lda yasalgan rangli naqsh berilgan sopol idishlarning parchalari. 7 metr qalinlikdagi guvaladan tiklangan mudofaa devori qoldiqlari va boshqalar. Topilgan ushbu namunalarda Fransiyada radiokarbon tadqiqot usulida o'rganildi va ular miloddan avvalgi VIII asr, ya'ni Samarqandning 2750 yoshga ega ekanligi isbotlandi.

Qadimgi Xorazm hududidan Ko'zaliqir, Qal'aliqir, Oybuyirqal'a va Dingilji qo'rg'onlari topib o'rganilgan.

Ko'zaliqir qal'asi mil.avv. VI-IV asrlarga oid yodgorlik bo'lib, u Amudaryoning chap sohilida qadimgi Xorazm hududida joylashgan. Yodgorlik 1938 yilda S.P. Tolstov rahbarligidagi

Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan topilgan. Umumiy may don i 25 ga dan ortiq. Yo'laksimon, burj va shinaklari bo'lgan mustalikam mudofaa devoriga ega bo'lgan. Ko'zaliqirda stansionar arxeologik tadqiqotlar 1953 yilda boshlanib, XX asming 80-yillarigacha davom etgan.

1877 yilda Vaxsh daryosining Ainudaryoga quyiladigan joyida Qo'bdiiyon bekligi (ianubiy Tojikiston) hududida maxalliy aholi tomonidan qadimgi davrlarga oid oltin va kuinush buyumlar ko'plab topilgan. Bu noyob buyumlar olimlar ko'liga tushgachgina, uni saqlab qolishga harakat qilindi. Ulardan faqat 180 taga yaqin zargarlik buyumlari va tangalar saqlanib qolindi. U «Amudai-yo xazinasini» nomini olgan bo'lib, ko'pchilikning qiziqishini e'ziga tortgan. Ular orasidan maxorat bilan ishlangan oltindan yasalgan ot- arava bo'Mib. uni kuinushdan yasalgan ikkita odam boshqarmoqda, odain tasvirlangan oltin plastinkalar, oltin bug'u haykali, feruza ko'zli buqaning bosh qismi, oltin bilakuzuklar va boshqalar. Bular qadimgi Baqtriyada zargarlik sohasi nixoyatda rivojlanganligini ko'rsatadi. Shuningdek, bu erdan Yunoniston, Kichik Osiyo. Axamoniylar va Salavkiylar davlatida qilingan 1300 ta tangalar ham topilgan. Buyumlar mil.avv.V-III asrlarga oid bo'Mgan. Olimlar fikricha, bu buyumlar Baktriyadagi Anaxita ibodatxonasiga tegishli bo'lib. Aleksandr Makedonskiy yoki Salavka 1 xujumi natijasida vayron qilingan. Bugungi kunda mazkur Xazina topilgan joy qadimgi Taxti-Kuvad shahri ekanligi o'z isbotini to'Pgan. Amudaryo xazinasini bugungi kunda Londondagi Britaniya otuzeyida saqlanmoqda. Bugungi kungacha ko'pgina davlatlarda •tamoyish etilgan. 1979 yilda Leningradddagi Ermitajda namoyish etilgan.

Shoshtepa yodgorligida dastlab 1896 yilda N.P.Ostroumov boshchi- ligida Turkiston havaskor arxeologlari qazish ishlarini olib boradilar. Toshkent arxeologik ekspeditsiyasi 1978-1979 yillarda qazish ishlarini olib boradi. Shoshtepada o'tkazilgan tadqiqot ishlari natijasida, uning quyidagi bosqichlarini aniqladi:

1. Shoshtepa I-miloddan avvalgi VI-IV asrlardavri bo'lib, Burg'uluk madaniyatining so'nggi bosqichi davri.
2. Shoshtepa II-mil.aw.II asr bo'lib. Qovunchi I madaniyatiga o'tish davri.
3. Shoshtepa III-mil.avv. II-I asrlar bo'lib, Qovunchi I mada-niyati davri.
4. Shoshtepa IV-Qovunchi II madaniyatining birinchi bosqichi, ya'ni milodiy II-III asrlar.
5. Shoshtepa V-Qovunchi II madaniyatining ikkinchi bosqichi, ya'ni milodiy IV-VI asrlar.
6. Shoshtepa VI-mil. VII-VIII asrlarga oid
7. Shoshtepa VII-X oxiri XII asrlardagi kulolchilik markazi sifatida faoliyat yuritgan

Shoshtepada yo'lakli aylanma devor qoldiqlari topilgan. Markaziy bino hochsimon shaklda qurilgan va unga kirish joyida ravoqli peshtoq aniqlangan. Yodgorlik zamonasining nodir me'moriy obidalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar fikricha, mil.aw. II-I asrlarda shahaming rivojlangan davri bo'lgan. Qadimgi davr me'moriy obidalarida tasviriy san'at keng qo'Ua- nilgan. Masalan, Dalvarzintepa ibodatxonasining Baqtriya xudolariga bag* ishlangan devoriy sur'atlari, Fayoztepa va Qoratepa Buddi ibodatxonalaridagi devoriy suratlar, Tuproqqal'a va Erqo'rg'on devoriy rasmlari bunga misol bo'la oladi. Lekin tasviriy san'at monumental san'atning ustivor yo'nalishi hisoblanmagan, u haykaltaroshlik bilan bog'liq holda rivojlangan. Haykaltaroshlikning asl namunalari Shinioliy Tohariston va Xorazm madaniyatida o'zining yorqin ifodasini topgan.

Baqtriya-Toharistonda eng qadimgi haykallar kompozitsiyasi Xolchayon saroyidan topilgan. Xolchayon Surxondaryo viloyati Denov tumanida joylashgan. U ikki qismdan iborat. Arxeologik tadqiqotlar Qorabog'tepa va Xanaqotepada olib borildi. Bu erdan 9 xonali xokim

saroyi topildi. U asosan xom g'ishtdan qurilgan. Mazkur saroyning to'rt ustunli ayvoni va katta zali tasviriy san'at va haykaltaroshlik namunalari bilan bezatilgan. Haykallarning asosiy qismi kushon podsholari (Geray)ga bag'ishlangan, ular tarkibida yuechjilar birga boshqa etnos vakillari boxtariylar ham bor. Xalchayon haykallari saroy devorining uch tomonini egallagan. Unda a'yonlar va kurash sahnasi, teatrlashgan mavzu, ya'ni og'ir gulchambariami ko'tarib turgan bolalar haykallari, aktyor byustlari, muzika asboblarini tutgau ayol haykallari va boshqalar. Kompozitsiya markazida podsholik xomiysi - Afina, Gerakl, Nika (Yunon xudolari)ning siymolari tasvirlangan.

Ayritom Tenuizdan 18 km sharqda Amudaryo soxilida joylashgan. 1932 yilda hu erda topilgan tosh rasmlari M E.Masson o'rgangan. 1933 Yilda maxsus ekspeditsiya uyushtirildi. Ayritom - ibodatxona harobasi bo lib. bu erda asosan oxaktoshdan yasalgan haykallar topildi. Haykallurda soz chalayotgan ayollar tasvirlangan, budda diniga oid haykallar ham topilgan. XX asming 60-70 yillarida O'zbekiston San'atshunoslik ekspeditsiyasi tadqiqot ishlarini davom ettirdilar. Natijada fort, buddizm dini kompleksi, qabr va baktriya yozuvi bo'lgan bavka liar guruhi topilgan.

Baqtriyada buddizm davlat dini darajasiga ko'larilgach, Budda haykaltaroshlik san'ati tna'naviy hayotning mazmuniga aylandi. Bularni Dalvarzimepa. Fayoztcepa, Ayrtom, Qoratepa va boshqa yodgorliklarda ko'rishimiz intimkin. Baqtriya-Toharistonda buddizmni qabul qilgan nialtalliy ustalarning professional maktabi shakllanadi

Shiinoliy Baktriyaning eng katta ibodatxonasi Termiz yaqinidagi Qoratepa yodgorligi hisoblanadi. Yodgorlik dastlab B.Ya.Staviskiy tonionidan o'rganilgan. Bugungi kunda bu erda turli soha mutaxassislari, Yapon olimlari tadqiqoti ishlarini olib borishmoqda. Bu erda sakkizdan o'ftiq inshootlar majmuasi ochib o'rganilgan. Har bir bunday inshoot Yo*lak - nyvonlar o'rab turgan to'g'ri to'rtburchakli katta hovli va er ostiga qurilgan inshootlardan iborat. Xonalardan Budda haykali, buddizmga xos inshoot-stupalar topilgan.

Barcha stupalar bir xil qurilgan. Ularning asosi to'rtburchak bo'lib, uning ustiga silindirsimon inshoot qurilgan, uning usti gumbazsimon tarzda bo'lgan. Ustiga yog'och yoki toshdan yasalgan langar o'matilgan. Langarda toshdan yasalgan bir necha soyabon bo'lgan. Soyabonlar muqaddas daraxt ramzi bo'lib, buddistlar uni chatra deb atashadi. Shu daraxt soyasi ostida Budda o'zining g'oyalarini ishlab chiqqan. Er ostiga qurilgan inshoot bilan er ustiga qurilgan inshoot bir biri bilan bog'liq bo'lgan. Ular zinalar orqali birlashtirilgan. Koratepa ibodatxo- nasining devorlariga diniy mazmundagi rasmlar va ibodatxonani qurilishda homiylik qilgan insonlarning rasmlari solingan. Rasmlar katta mahorat bilan chizilgan va o'sha zamonning diniy mafkurasini o'zida aks ettiradi.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida Qoratepaning shimoliy qismidan mahobatli stupa topildi. Uning faqatgina tagkursisi saqlanib qolgan.

1968 yili yuqoridagi ibodatxonadan 2-3 km shimoli-sharqda Fayoztcepa ibodatxonasi topilgan, hozirda u to'la o'rganib chiqilgan. Fayoztcepa vihara tipidagi ibodatxona ekanligi isbotlangan. U uch qismdan iborat bo'lib, har birida hovli bo'lgan, ularning atrofida uylar joylashgan. Ibodatxonaning markaziy qismida diniy marosimlar o'tkazilgan. Ikkinchisi qismi monastir, uchinchisi esa xo'jalik ishlariga mo'ljallangan inshootlar bo'lgan. Markaziy qismda yaxshi saqlangan stupa topilgan. Markaziy qismning ayvonidan loy va ganchdan yasalgan Budda, uning safdoshlari-badisatvalarning haykallari topilgan. Ular qizil rang va tilla suvi bilan bezatilgan. Devorlarga diniy marosim rasmlari tasvirlangan bo'lib, ularda hayotiylik izlari ko'rinadi. Oq mannar va alebastrdan ishlangan haykallar ham topilgan. 1972 yilda bu erdan oq

marmartoshdan yasalgan muqaddas Badxi daraxti tagida o'tirgan Buddha va tik turgan ikki ruxoniy haykali topilgan.

Qoratepa va Fayoztepa rasmlari Xindistondagi ibodatxonalar qurilishi va uning rasmlaridan farq qiladi, lekin Sharqiy Turkiston va Uzoq Sharqdagi ibodatxona va rasmlarga yaqin. Shuning uchun ham buddizm O'rta Osiyodan mazkur hududlarga tarqalgan degan xulosaga kelingan. Lekin, Xitoy va Olmon olimlari Buddha dini Sharqqa O'rta Osiyo orqali kirib bormagan, degan fikrdalar.

1971 yilda Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanida Dalvarzintepa yodgorligi ochildi. U ma'muriy bino qoldiqlari, kulollar yashaydigan

xonalar tadqiq etildi. Dalvarzintepadan ikki yarusli xumdonlar ham topilgan. Topilgan ashyolar kulolchilik yuksak darajada bo'Mganligini ko'rsatadi.

1972 yilda Dalvarzintepadan 115 ta oltin buyumlardan tashkil topgan xazina topilgan. Mil. II-III asrlarga oid mazkur xazinadan sirg'a, bilakuzuk, kamarband, uzuk, oltin shodasi, sopol idishlar, havkalchalar. taqinchoqlar, tangalar, shaxmat donalari topilgan.

Dalvarzintepa atrofta ibodatxonalar bo'Mib, ulaming harobalaridan buddizmga oid turli haykallar topilgan. Dalvarzintepadan ancha uzoq bo'lgan joyda Kushon davriga oid qabriston ochildi. Unda odam suyaklari, sopol idishlar, taqinchoqlar, tangalar olindi. Uning eng pastki qatlamida murdalar xumga ko'milgan. Tozalangan suyaklarning borligi uni zardushtiylarga xos ekanligini bildiradi. Bunga o'xshash qabristonlar Tojikistondagi Tulhar, Ko'kqum. Oriqtov, Turkma- nistondagi Babashov qabristonlaridir. Tulhar qabristonidagi 350 go'rdan 219 tasi o'rganilgan. Bu erdagi go'rlar laxad va yorma shaklida. OMiklami yasatib, boshlarini shimolga qaratib ko'tingalar. Qabrlarga sopol idish, taqinchoq. qurollar ham ko'yilgan.

1972 yilda Angor tunianidan 16 gektarni egallagan Zartepa shahar harobasi topildi. Uylaming devorlari paxsadan qilingan. Aholi yashash xonalarinng maydoni 4-15 nr ni tashkil qiladi. Bu erdan ibodatxona, Buddaning oltin suvi yuritilgan boshi va gavdasi topilgan. Buddist- larning saqlanib qolgan stupasidan bitta oltin plastinka ko'zacha va yunon tangalariga taqlid qilib ishlangan Vasudeva I tangalari (ular 500 dan ortiq tanga) topildi. Shuningdek, Zartepaning 100 metrli mudofaa devori ham o'rganildi. Topilgan ashyolar Zartepaning mil.av I asrga mansub ekanligini ko'rsatadi. Qadimda mazkur shahaming 4 ta darvozasi bo'Mgan. Mudofaa devorlarining 9 metr, IV-V asrlarda esa 2 metr bo'Mgan.

O'zbekistonning qadimgi davrida amaliy san'at ham yuksak darajada rivojlanadi. Xususiy muhr, tamg'alar, mahalliy hokimlik nishoni gemma va tangalar zarb qilina boshlandi. Diniy va dunyoviy harakterga ega bo'Mgan har xil terrokota haykalchalari ham ishlab chiqila boshlandi. Terrakota haykalchalarda ayoliar aks ettirilgan bo'Mib, ular ikki xil tuzilishda bo'Mgan. 1) Tik turgan holda, o'ng qo'Mi ko'krak ostida, chap qo'Mi qomi ustida qo'yilgan. 2) Tik turgan holda bo'Mib, qo'Mlarida oyna ushlab turgan holda tasvirlangan. Terrakota haykalchalarda maxalliy etnik tiplar va mahalliy ust-boshlarda tasvirlangan. Mil.avv. II asrlardan

III

boshlab, otliq chavondoqlar tasvirlangan terrakota haykalchalar keng larqalgan. Bular yuejilar faoliyati bilan bog'liq cdi.

Bu davrda mulkiy tabaqalanish protsessi ham jadal sur'atlar bilan kechdi. Natijada ilgari markazlashgan shaliar hokimiyati nufuzi pasayib, dehqonzodalar la'siri oshibbordi.

Yodda tuting! Qadimgi davr xususiyatlari

- Mil.av. VI- mil. IV asrgacha davom etgan.
- Yunoniston va Rimda klassik qulchilik rivojlangan.
- O'rta Osiyoda uy qulchiligi shakllangan.

- Tangalar Lidiyada paydo bo'lgan.
- Qo'l va suv tegirmoni ixtiro qilingan.
- Ilk qog'ozlar pergament va patirus bo'lgan.
- Hozirgi kitoblar Rimda paydo bo'lgan.
- Sirkul Ikki daryo oralig'ida kashf etilgan.
- Italiyada deraza oynalari ixtiro qilingan.

So'g'd. So'ngi bronza va temir davrining boshlariga kelib, So'rdiyoning janubiy xududlarida o'troq dexqonchilik madaniyati qaror to'adi. Ilk temir davrida So'rdiyoning barcha xududlari dexqonlar tomonidan egallanadi. So'g'diyona xududlarida ilk temir davriga oid yodgorliklar bir xil suratda rivojlanmagan. Bu davrga oid yodgorliklar ko'proq uchraydigan va yaxshi o'rganilgan voxa Qashqadaryo xisoblanadi. Zarafshon voxasida esa Afrosiyob, Lolazor va Ko'ktepalarning quyi qatlamlarida bu davrga oid moddiy to'ilmalar qisman saqlangan.

Umuman, So'g'diyoning ilk temir davri yodgorliklari xam daryo voxalarida aloxida shakllanadi. Bu an'anani Qashqadaryo voxasida aniq ko'rish mumkin. bu yerda ilk temir davriga oid bir nechta voxalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Manzilgoxlarini esa, xajmi va avzifalariga ko'ra quyidagi tiplarga ajratish mumkin.

1. Ark va mudofaa devorlariga ega bo'lgan yirik shaxar xarobalari (Afrosiyob, Uzunqir, Yerqo'rgon).

2. Qishloqlar (Daratepa, CHiroqchitepa, Beshqo'tontepa).

3. Mudofaa devorlari bilan o'ralgan aloxida vazifalarini bajaruvchi manzilgoxlar, ko'rinishidan ibodatxona (Sangirtepa).

Afrosiyob — Sug'dning markaziy shaxri Maroqandaning o'rni. Manzilgoxning mil. av. I ming yilliklarying o'rtalariga oid qatlamlari yaxshi o'rganilmagan. Mil. av. VI —IV asrlarda manzilgox butunlay o'zlashtirilib 219 ga. Dan iborat keng maydon egallanadi. SHaxar arki 0,5 ga maydonda aniqlangan. Yunon tarixchilarining asarlarida shaxar 11 km. uzunlikdagi mudofaa devori bilan o'ralganligi qayd etiladi. Bu yerda kulollar va to'qimachilarning ustaxonalari va xovuz o'rni aniqlangan.

Janubiy So'tddagi madaniy — iqtisodiy markazlardan biri bu Yerqo'rg'ondir. Maydoni 34 ga, manzilgoxning quyi qatlamida mil. av. VIII —VII asrlarga oid uy —joy va xo'jalik imoratlarining o'rni aniqlangan. Qo'rinishdan manzilgox ushbu davrda shakllana boshlagan. Mil. av. VI asrda ichki tomoni kengaytirilib, mudofaa devori bilan o'rab olinadi. Ichki tomondan xashamatli mahmuriy bino barpo etiladi, xamda temirchilar maxallasi paydo bo'ladi. Ushbu davrga oid ark izlari aniqlanmagan.

Uzunqir. So'g'diyoning (Qashqadaryo, Kitob tumani) ilk temir davriga oid madaniy markazlaridan biri maydoni 70 ga. Hozirgi paytda 450 metrdan iborat mudofaa devori saqlanib qolgan. Mudofaa devorining pastki qismi guvala, yuqori qismi esa paxsa va xom g'ishtda ko'tarilgan. Devorning qalinligi 1,85 metr bo'lgan. mudofaa devori tashqi tomonidan to'rri burchakli minora— burjlar bilan kuchaytirilgan. Burj va devorda jangovar va «aldamchi» shinaklar mavjud.

Mudofaa devoriga guvala va paxsadan qurilgan rismi taxminan mil. av. IX —VII asrlarda asos solingan. Asosiy devor va burjlar keyingi davrda bunyod etiladi. Keyinchalik esa birinchi devorga tutash qilib, 1,6 m. qalinlikda ikkinchi devor quriladi va umumiy qalinligi 3, 5 metrga yetadi. Uchinchi davrida 1,2 m. qalinlikda yana bir qo'shimcha devor quriladi. So'rdiyonaliklar sug'orma dexqonchilik xamda chorvachilik bilan shurullanganlar. Qashqadaryo voxasidan arpa, burdoy, javdar xamda xayvon suyaklari to'ib tekshirilgan. Qashqadaryo voxasida to'ib tekshirilgan Sopol idishlar ikki guruxga bo'linadi. Kulolchilik charxida yasalgan naqshsiz

idishlar. Ular kosa, tovoq, xumchalardan iborat. Qo'lda ishlangan idishlar geometrik va egri chiziqlar bilan naqshlangan. Naqshli idishlar Qashqadaryoning tog'oldi xududlaridan xam to'ib tekshirilgan.

Voxada xunarmandchilik, xususan temirchilik va to'gimachilik keng rivoj to'gan deyish mumkin. daratepadagi mil. av. VII—VI asrlarga oid temir buyumning to'ilishi fikrimiz dalilidir.

Farg'ona (CHust va Eylaton madaniyat) voxadagi 1 mingyilliklarda oid moddiy to'ilmalar 30—yillardan ma'lum. XX asrning ikkinchi yarmida ko'plab yodgorliklarda arxeologik qazish ishlari olib borildiki, voxaning ushbu davrdagi moddiy madaniyati xo'jaligi va dexqonchilik madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish imkoniyatini yaratdi. Farg'ona vodiysidagi I ming yilliklarga oid madaniyatining CHust va Eylaton bosqichlari ajralib turadi. CHust davridagi manzilgoxlar aloxida voxalarda rivojlanadi. Hozirgi paytda quyidagi voxalar aniqlangan: O'zgan, Qorasuv, Tava—Koson, Qoradaryo—Xo'jabod. Ularning ko'pchiligi markaziy manzilgoxga ega bo'lganlar. Ularda quyidagi shakldagi manzilgoxlar o'rin olgan. Yirik manzilgoxlar (Ashkol, Dalvarzin) O'rtacha manzilgoxlar (CHust, Dexqon, Kichik manzilgoxlar) bu yerdagi manzilgoxlarning asosiy ko'pchilligi.

Birinchi turdagi manzilgoxlar uch qismdan: TSitadel, imoratlar joylashgan qism va ular orasidagi ochiq joydan iborat. Ularning har biri mudofaa tuzumiga ega. Bu turdagi manzilgox sirasiga kiruvchi Dalvorzin yaxshi o'rganilgan. Ko'rinishidan u butun voxaning markazi xisoblangan.

Ikkinchi turdagi manzilgoxlar sirasiga chust oid bo'lib, u ikki qismdan iborat. Manzilgoxning shimoliy rariy qismi (1,5ga) mudofaa qilingan. Qot\an asosiy qismi esa mudofaa tizimiga ega emas. Kichik manzilgoxlar bir—necha xonadan iborat uylarni tashkil etadi. U ko'rinishdan katta oilaga tegishli bo'lgan.

Chustliklar dexqonchilik va chorvachilik bilan shurullanganlar. Dexqonchilikda arpa, bug'doy, dukkakli o'simliklar yetishtirganlar. Bu yerda sug'orma dexqonechilik asoslanmagan. Chorvachilikda qoramol, qo'y, echki boqqanlar. Daryo va ko'l bo'ylarida yashagan xalqlar baliqchilik bilan xam shug'ullanganlar. Chustliklarda bronzaga ishlov berish, ulardan mehnat qurol—yarog'lar tayyorlash yaxshi rivojlangan. Keyishgi davrlarga ular temir bilan tanishadilar. Tosh mehnat qurollari yasash o'z axamiyatini yo'qotmaydi. Chustliklarning Sopol buyumlari qo'lda yasalgan. Ularda bu davrga oid

kulolchilik charxi yasalgan Sopol buyumlar uchraydi. Sopol buyumlari dumaloq taglik. Ko'pchilik idishlar turli rangda naqshlangan. Naqshlarning asosiy qismi geometrik (romb, uchburchak) shaklida.

Chust madaniyatining davomi sifatida Farg'ona vodiysida Eylaton madaniyati (mil. av. VII—IV asrlar) rivojlanadi. Eylaton madaniyatiga doir yodgorliklar Farg'ona vodiysining deyarli barcha xududlarida aniqlangan. Ulardan Eylaton manzilgoxida to'liq bo'lmasdan keng ko'lamli qazish ishlari olib borilgan. Manzilgox uchburchak shaklda, mudofaa devorlari (eni 4 m) bilan o'ralgan. Mudofaa devorlari bir necha burjlarning o'rni aniqlangan. Manzilgox darvozasi burchaklarida xam burjlar mavjud. Manzilgoxda uy—joy qoldiqlari xam aniqlangan. Qurilishda paxsa, xom g'isht xamda guvaladan foydalanilganlar. Eylaton madaniyati soxiblari asosiy mashg'ulotlari dexqonchilik bo'lib, arpa, bug'doy ekanlar. Guruch xam shu davrdan ekila boshlaganligi shubxasizdir. Chorvachilik xam o'z axamiyatini yo'qotmagan. Kichik tuyoqli chorva mollari qoramollarga nisbatan ko'proq boqilgan.

Elaton Sopol idishlari qo'lda va kulolchilik charxida yasalgan. Bu davrda temirdan buyumlar yasashlar keng tarqala boshlaydi. Bronza xam o'z axamiyatini yo'qotmaydi. To'gimachilik xam rivojlanadi.

Toshkent vohasi (Burgulik madaniyati). Burgulik madaniyati Toshkent vohasida mil. av. I ming yillikning boshlarida shakllanadi. Bu madaniyatga oid dastlabki moddiy to'limlar 1940 yili Terepojkin A. I tomonidan Burguliksoydan to'ib tekshirilgan. Hozirgacha bu madaniyatga oid 10 ortiq yodgorlik aniqlangan.

Burgulik madaniyatining ikki bosqichi Burgulik I (mil. av. IX —VII asrlar) Burgulik II (mil. av. VII —III asrlar) mavjud. Bu yerdagi yodgorliklarning ko'pchiligi daryo bo'ylarida joylashib ba'zi bir tadqiqotchilarning fikriga ko'ra ulardan ba'zilarining atrofida chuqur va keng qandaklar qazilgan bo'lgan. Burgulik madaniyatiga oid yodgorliklar quyidagi shakllarda bo'lgan.

1. Chayla shaklidagi yengil uy —joylar.
2. Aylana va cho'ziq shaklidagi yer to'lalar.
3. Yirik xajmdagi yer to'lalar.

Uylari loydan ba'zilarida esa xom g'isht ishlatilgan. Yerto'lalarning eshigi daryo tomon qurildi. Yirik xajmdagi yerto'lalar paxsadan qilingan yupqa devorlar bilan xonalarga ajratilgan yoki bitta eshikdan kiruvchi bitta yerto'ladan iborat bo'lgan.

Burgulik madaniyatining so'ngi bosqichida urbanizatsiya jarayoni qayd qilinadi. Buning yaqqol misoli sifatida Oxangaron daryosi bo'yidagi Konxani ko'rish mumkin. Maydoni 6,5 ga iborat. TSitadelg' va shaxar mudofaa devori xamda xondaklarga ega. Ular daryoga tutashtirilgan. SHaxar mudofaasi o'ta murakkab. Mudofaa devorlari ikki qator (tashqi 2,7 m, ichki 4,5 m, koridor 2,2 m) dan iborat bo'lib, eniga 9 m. ni tashkil etadi. Devor yarim aylana shakldagi mudofaa burjlari bilan kuchaytirilgan. SHaxarga yagona darvoza orqali kirilgan. Darvozada xam burjlar mavjud. Yu. F. Buryakovning fikriga ko'ra Kanxaning qurilishi voxa ijtimoiy xayotidagi taraqqiyot ta'sirida emas, So'g'diyonaliklarning Toshkent vohasiga kelib joylashishi va tahsiri natijasidir.

Burgulik madaniyati soxiblarining asosiy mashg'ulot dexqonchilik va chorvachilik bo'lgan. Ular metallarga ilov beripshi xam bilganlar. Kulolchilik idishlari qo'lda qilingan. Tagi dumaloq, ba'zilarida naqshlar uchraydi. To'qimachilik xam mavjud bo'lgan.

Ustrushona. Ustrushona qadimda O'rta Osiyoning muxim viloyatlaridan biri bo'lgan. U Turkiston tizmasidan shimolda katta xududni: Jizzaxdan Xo'jandgacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olgan. Bu yerdan ilk temir davriga oid Nurtepa va Xo'jand manzilgoxda arxeologik jixatdan o'rganilgan Nurtepaning maydoni 18 ga. Dan iborat bo'lib, ark va shaxar qismlariga bo'linadi. Ular o'zlarining aloxida mudofaa devorlariga ega. Manzilgox mil. av VII asrlada shakllanib, mil. av. VI —V asrlarda mudofaa devorlari barpo qilinadi. Nurtepada 17,5 kv. m. xajmdagi yerto'la xam aniqlangan.

Mil. av. VI —V asrlarda Qadimgi Xo'jand o'rnida axoli manzilgoxi shag'sllanadi. Bu yerda mudofaa devori aniqlangan. Manzilgox arkiga ega. Ustrushonaliklar dastlab yerto'la shaklidagi uylarda yashb, keyingi bosqichda paxsa va xom gishtdan uy —joylar qurishni o'zlashtirganlar. Xo'jalikda dexqonchilik asosiy o'rin tutgan. Kulolchilik idishlari qo'lda va charxda yasalgan. Xo'jand xarobalaridan naqshlangan idishlar xam to'ib o'rganilgan. Bu davrda voxada metalga ishlov berish xam keng tarqala boshlaydi.

Xorazm. Xorazmning I ming yillikning boshlariga oid yodgorliklari Amirobod madaniyati misolida o'rganadi. Bu davrda aloxida kanal bo'ylarida dexqonchilik rivojlanadi. Yodgorliklarda yerto'la, yarim yerto'la, yer usti yengil qurilishlari tadqiq qilingan. Mil. av. VI —V asrlarda voxada atrofi mudofaa devorlari bilan o'ralgan manzilgoxlar tarqala boshlaydi. Ulardan Qalhaligir va Ko'zaligirlardan qazish ishlari olib borilgan. Manzilgoxlar mudofaa devorlari bilan o'ralib, burjlar bilan kuchaytirilgan. Ko'zaligirdan yirik imorat xamda uchta minora simon inshoot aniqlangan. Ko'rinishidan bu diniy xarakterga ega bo'lgan. Qalamgirda

katta xajmdagi saroy o'rnini aniqlangan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra bu inshoot axamoniylarning Xorazmdagi vakiliga tegishli bo'lgan.

Xorazmning Qadimgi qishloqlarini o'rganishda Bozorqalha xarobasi muximdir. Qadimgi Xorazm qishloqlarida imoratlar tig'iz qurilgan. Ayniqsa bu davrda uy qo'rg'onlar paydo bo'ladi. Bu davrga oid Dingelji uy — qo'rg'oni to'liq qazib ochildi.

Xorazmliklarning asosiy xo'jaligi dexqinchilik bo'lgan. Dexqonchilik Amudaryo va Aqchadaryo chiqarilgan anxor suvlari bilan sug'orilgan. Arpa bug'doy, tariq ekilgan. Sopol idishlari O'rta Osiyoning janubiy xududlariga o'xshash, so'ngi davrga oid Sopol idishlari tayyorlanishi va shakliga ko'ra farq qiladi.

Chorvachilik bilan shug'ullangan ko'chmanchi qabilalar Avestoda turlar, yunon tarixchilarining asarlarida skiflar va massagetlar axamoniylar davri yozuvlarida esa ular saklar nomi bilan keltirilgan.

O'rta Osiyoning dasht va tog'li rayonlarida yashagan saklarning yodgorliklari Quyi Zarafshon, Amudaryo, Orol bo'yi, pomir va Tyang' —shang' tog'larida topilgan. Ular asosan mozorqo'rg'onlardan iborat. To'ilmalar bronza va temirdan ishlangan xarbiy qurollar zeb —ziynat buyumlari, mehnat qurollari va Sopol idishlar uchraydi.

Saklarning mozor — qo'rg'onlaridan ot anjomlari uchraydi. Gerodotning ma'lumotlariga ko'ra saklarning xo'jaligida yilqichilik asosiy o'rin tutgan.

Qadimgi Yunon va Rim tarixchilarining asarlarida saklarni uchguruxi keltirilgan. Ularning ko'pchiligini saka — tigraxuada, yahni o'tkir uchli kigiz qalpoq kiyib yuruvchi saklar. Ular Toshkent viloyati va Janubiy Qozog'iston yerlarida yashaganlar. Saka — tiay — tara — daraya, yahni daryo orti saklari.

Ular Sirdaryoning quyi oqimi va Orol bo'yida yashaganlar. Uchunchi gurux saklar Pomir tog'lari va Farg'ona vodiysida yashab, saka — xoumovarka deb atalganlar.

Tagisken mozor qo'rg'oni. Bu mozor to'rt burchak va xalqasimon qo'rg'on shaklda. Ular ilk va so'ngi davrga oid ikki gurux qabrlardan iborat. Bugungi gurux qabrlar (mil. av. IX — VIII asrlar) xomg'ishtdan qurilgan bo'lib, ko'rinishidan qabila qabila oqsoqoliga tegishli bo'lgan. Marxum oltin va bronzadan ishlangan zeb —ziynat buyumlari, bronza paykonlari, qo'lda va kulolchilik charxida qilingan Sopol idishlari bilan birga qo'shilgan. So'ngi davrga qilingan Sopol idishlari bilan birga qo'shilgan. So'ngi davrga (mil. av. VII —V asrlar) oid ikkinchi gurux qabrlarda xam ko'pgina to'ilmalar uchraydi. Ularning ichida sarmatlarnikiga o'xshash qurollar, ot anjomlari, yirtqich xayvon shaklidagi to'ilmalar mavjud. Sarmatlar bilan yaqin aloqada bo'lganligidan dalolat beradi. Tagisken mozor — ko'rg'oni saklarga tegishli bo'lgan. Sirdaryoning quyi oqimida qadimgi irmog'i Inkar daryo bo'yida Uygarak qabristoni topilgan yodgorlik xalqa shaklida.

Kichik mozor — qo'rg'onlardagi oddiy kdbrlarda bronzadan yasalgan o'q uchlari, Sopoldan yasalgan idishlar uchraydi. Katta mozor — qo'rg'onlardagi sak urug' va qabila boshliqlarining qabrlarida qurol — yarog' anjomlari zeb —ziynat buyumlar topilgan.

Tomdi va Alichur mozor — qo'rg'onlari, (VI —IV asrlar) sharqiy Pomirdagi Alichur, Tomdi mozor qo'rg'onlaridan temirdan yasalgan xarbiy qurollar: qilichlar, xarbiy boltalar, xanjarlar, bronzadan yasalgan o'qlar topilgan. O'qlar bargsimon, ikki yoki uch qirrali. Bu davrda o'qlar bronzadan tashqari temirdan xam yasalgan. Bronzadan zeb —ziynat buyumlari xamda dumaloq tagli Sopol idishlari xam mavjud.

Saklarning ot anjomlari va jangovar qurollari skiflarnikiga o'xshash bronzadan yasalgan san'at buyumlarida xam katta o'xshashlik bor. Ular bir —birlari bilan doimiy madaniy aloqada bo'lganlar.

Qo'chmanchilarning uylari yerto'la va chaylasimon shaklda bo'lgan. ular chorva izidan doimo ko'chib yurganliklari tufayli doimiy o'troq xayot ular uchun muxim rolg' o'ynamagan.

Ko'chmanchi sak g'adilalarining mozor qo'rg'onlaridagi moddiy to'ilmalarga ko'ra ularga mulkiy tengsizlik mavjud bo'lgan. Lekin ularda chorva qachon sinfiy jamiyat paydo bo'lganligi noaniq. Olimlarning fikriga ko'ra, mil. av. VII —VI asrlarda ko'chmanchilar orasida xarbiy — siyosiy qabilauyushmalari mavjud bo'lgan.

Shunday qilib mil. av. 1 ming yilliklarning birinchi yarmi O'rta Osiyo tarixi o'ziga xos jarayonlar bilan belgilanadi. Janubdagi mintaqalar bilan xo'jaligi va madaniyatiga ko'ra bir — biridan keskin farq qilar edi. Janubda (Janubiy Turkmaniston va Janubiy O'zbekiston) ilk temir davrida mil. av. II ming yillikning o'rtalarida shimoldan siljigan ko'chmanchi — chorvador qabilalarining ta'sirida madaniyat taraqqiyoti kuzatilib, keyinchalik shaxar madaniyati qaror to'gan bo'lsa, shimoliy mintaqalarda bu jarayon ancha kech sodir bo'ladi. Bu mintaqalarda dexqonchilik ilgari o'troqlikka o'ta boshlagan axoli xududiga ko'chmanchi chorvador qabilalarning ikkinchi bor kelib joylashishi natijasida sodir bo'ladi.

Umuman, O'rta Osiyoning janubiy xududlarida mil. av. 1 ming yillikning birinchi yarmida dexqonchilik yanada taraqqiy etib, yirik shaxar markazlari qaror to'adi.- Bunday yirik shaxarlar qalin va mustaxkam mudofaa devorlari bilan (Urqo'rg'on, Uzunqir, Ko'zaliqir, Qiziltepa va boshqa shaxarlar) o'ralgan. O'rta Osiyo shaxarlarida qurilish, mehmorchilik, ixtisoslashgan xunarmandchilik va savdo xiyla rivojlangan. Malakali binokorlar tomonidan axoli yashaydigan uy —joylar, saroylar va diniy imoratlar aniq reja asosida, maxalliy sharoitga moslab barpo etilgan.

Shaxarlarda ixtisoslashgan xunarmandchilikning ko'pgina soxalari: kulolchilik, to'qimachilik, zargarlik, metalga ishlov berish va boshqalar xiyla rivojlangan. SHaxar xarobalarida xunarmandchilik ustaxonalari o'rmining to'ilishi fikrimizni isbotlaydi. Hunarmandchilik buyumlari tovar xarakterida bo'lib, qo'shni voxalar bilan savdo aloqalarini polib borganlar.

Yozma manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra O'rta Osiyo maxsulotlari Eron, Messo'atamiya va Qadimgi SHarqning boshqa o'lkalariga olib borilgan. Masalan, Badaxshon Lojuvardi Misrgacha olib borilgan.

O'rta Osiyo xududida eng qadimgi davlatlarning paydo bo'lishi muxim masaladir. Bu masalaga aniqlik kiritishda yozma va arxeologik manbalar muxim rolg' o'ynaydi. Ayniqsa, Avesto va antik davri avTog'lari qoldirgan ma'lumotlardir.

Ktesiyning «Persika» asarida Qadimgi Baqtriya davlati xaqida bir qancha uzuq —yuluq (istexkom va qalhalar, ularning ko'p sonli axolisi xamda Ossuriya podshosi Ninning Baqtriya tuprog'iga qilgan yurishlari to'g'risida) ma'lumotlar keltiriladi.

Olib borilgan arxeologik qazish ishlarining natijalari Ktesiyning ma'lumotlarida to'liq tasdiqlangan. Uning tahkidlashicha Baqtriyaning markazi Baqtro shaxri bo'lgan. U mustaxkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan yirik shaxar bo'lgan.

Lekin O'rta Osiyoda ilk davlatlarning shakllanish jarayoni ancha ilgari sodir bo'lgan. Bu jarayon O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarida bronza davridayoq namoyon bo'la boshlaydi. Mil. av. 1 ming yillikning boshlarida bu jarayon to'liq shakllanadi. Bunday davlatlar mahlum daryo voxasi doirasida bo'lib, ularning mahmuriy markazlari (Elkantepa, Yeztepa, Qiziltepa, Bandixontepa, Uzunqir) vujudga keladi.

Ko'rinishidan ushbu davlatlar asosida Qadimgi Baqtriya va Katta Xorazm kabi yirik davlatlar qaror to'gan.

9- MAVZU: O'rta Osiyoning ilk asrlar moddiy madaniyati(2soat)

Reja:

1. İlk o'rta asrlarda Sug'diyona
2. İlk o'rta asrlarda Ko'hna Xorazm
3. İlk o'rta asrlarda Toshkent voxasi
4. İlk o'rta asrlarda Farg'ona

ADABIYOTLAR

1. Egamberdiyeva N Arxeologiya T.2011
2. Annaev A. Shaydullaev SH. Surxandaryo tarixidan lavxalar. T. 1997. 123-130 betlar
3. Sagdullaev A. S. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. T. 1996. 45-48 betlar
4. Z.Muxammadjonov A. R. Qadimgi Toshkent. T., 1990. 6-10 betlar
5. Matboboyev B. O'zbekiston tarixida qadimgi Farg'ona T 2004 y 23-40 betlar
6. Mirsoatov T. O'rta Osiyo Arxeologiyasi. Farg'ona 2002 y 98-105 betlar
7. Мухамджанов А.Р.Қадимги Бухоро Тошкент 1991 йил. 27-32 бетлар.
8. Егамбердиева Н.А. Ўзбекистонинг энг қадимги давр тарихини жадваллар асосида ўргатиш. Тошкент 2008йил. 70 - 78 бетлар
9. Исамиддинов М.Х. Генезис городской культуры. Самаркандского Согда-Самарканд 2000. Ст 111-117 бетлар.

Tayanch iboralar: manzilgoxlar, rabod, shaxriston, qal'a, ark, rantasvir, oqteparlar, metalga ishlov berish, xaykalarooshlik, xunarmandchilik.

O'rta Osiyoning IV—V asrlar davri tarixi muxim ijtimoiy siyosiy o'zgarishlar, yahni quldorlik tizimi o'rnida feodal munosabatlarning aqror to'ishi 15 dan ortiq kichik feodal davlatlarning vujudga kelishi bilan xarakterlanadi.

Dastlab Xorazmda IV asrda afrig'iylar sulolasi Qang'lar davlatidan ajralib mustaqil feodal davlat qaror to'adi. Yozma manbalarda xususan Xitoy sayyoxlarning asarlarida quyidagi davlatlar tag'risida ma'lumotlar saqlangan. Toxariston 383 yilga oid Xitoy manbalarida Tuxola deb tilga olinadi. Uning xududi Baqtriya xududi doirasida bo'lgan. manbalarda keltirilishicha Toxariston 27 viloyatdan tashkil to'gan bo'lib ulardan 8 tasi SHimoliy Toxaristonda joylashgan. So'rd — Xitoy manbalarida CHu daryosidan Boysun tog' tizmalarigacha bo'lgan tushunilgan bo'lsa, ancha keyin (X —XIII asrlar) arab manbalarida

Samarqand va Buxoro Sug'dlari haqida ma'lumotlar saqlangan. Umuman So'g'dda Xitoy manbalarida keltirilishicha 8 ta mulk yoki tarixiy madaniy viloyat joylashgan.

Bulardan tashqari Turkiston tizmalarining Shimolidagi yerlar (Xitoy manbalarida Su—duy —sha —na —Ustrushona), Farg'ona vodiysi xamda (SHi — Xitoy, SHosh — Arab) — Toshkentning Chirchiq voxasi yerlari. Elok — Oxangaron voxasi yerlari to'g'risida manbalarida qimmatli ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Ilk o'rta asrlar davri feodal davlatlari avvaliga Eftaliylar, keyin Turk xoqonligiga bo'ysundirilgan bo'lsada, markaziy soliq to'lash bilan cheklanib, amalda to'laligicha tobe emas edi. VIII asrlarda O'rta Osiyo yerlari arablar tomonidan zabt etilib arab xalifaligiga tobe bo'lib qoladi.

V—VIII asrlar davomida olib borilgan uzluksiz xarbiy yurishlarga qaramasdan yerlik axoli yaratuvchilik faoliyatini davom ettirib, yuksak darajadagi madaniyat yaratadilar. Dexqonchilik voxalarida shaxarlar soni xiyla ko'payib, ularning maydoni kengaytirildi. Bu davr shaxarlarning bir qismi antik davri shaxarlarining davomi sifatida rivojlangan bo'lsa, qolganlari ilk o'rta asrlarda qaror to'adi. Shaxarlar madaniy — iqtisodiy markazga aylanib, xunarmandchilikning ko'pgina soxalari va savdo sotiqlik xiyla rivojlanadi. Irrigatsion tizimi takomillashib yangi yerlar o'zlashtiriladi.

Bir tomondan yer egaligi munosabatlarining chuqurlashuvi, ikkinchi tomondan axolining ko'payishi natijasida shaxar tevaragida oddiy dexqon qishloqlaridan Tog'tib, badavlat dexqon saroylari, qo'rg'onlari, qasr va ko'shklari soni ko'payadi. Ularning xarobalari arxeologik jixatdan yaxshi o'rganilgan bo'lib, ularning tashqari va mehmoniy — rejaviy xususiyatlariga ko'ra quyidagi shakllari ajralib turadi. 1. Yirik shaxarlar (Samarqand, Marv, Buxoro) Ark, SHaxriston va Kent maydondagi shaxar atrofi qisimlaridan iborat. 2. O'rta va Ichik xajmdagi shaxarlar (Termiz, Poykent Panjikent, faxsha, Kofirqalha va bosh.) Ular mudofaa devorlari va xandaklar bilan o'ralgan ark va SHaxristonlardan iborat bo'lib, shaxar atrofi maxallalari xam mavjud. 3. Aylana yoki kvadrat shakldagi ko'shklar. Ular mudofaa devorlari bilan o'ralib, burjlar bilan kuchaytirilgan. 4. To'g'ri to'rtburchak yoki kvadrat shakldagi saroylar. Ular ba'zi xollarda ikki qavatdan iborat bo'lgan ichki tomonida uy —joy va xo'jalik imoratlari xamda devroyi suratlar bilan bezatilgan mexmonxonalar joylashgan. 5. Kichik ko'chalar bilan ajratilgan axoli imoratlaridan tashkil to'gan oddiy qishloqlar. 6. Mudofaa devorlariga ega bo'lgan aloxida uy qo'rg'onlar. 7. Diniy xarakteridagi imoratlar.

Yuqorida keltirilgan birinchi qisman ikkinchi guruxdagi shaxarlar feodal davlatlar yoki tarixiy — madaniy viloyatlarning mahmuriy, madaniy — iqtisodiy markazi bo'lgan bo'lsa, ikkinchi guruxdagi shaxarlarning qolganlari esa, kichik dexqonchilik soxalarining markazi vazifasini o'tagan. O'rta asr yozma (fors, arab, Xitoy) manbalarida O'rta Osiyoning ko'plab shaxarlari to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi. Chunki ular o'sha davrdagi o'rta xarbiy yurishlar davomida buzilib ketgan yoki keyingi davrlardagi o'zlashtirishlar natijasida tagida qolib ketgan. O'rta Osiyoning yirik shaxarlaridan Marv va Samarqandda ilk o'rta asrlar davri o'rta biroz yaxshi saqlangan.

Marv shaxri hozirgi Erkqalha va Lurqalhalarda o'rnida bo'lib, antik davri shaxrining davomi sifatida rivojlanadi. Bu davrga oid maydoni 30 ga dan iborat. Ilk o'rta asrlar davrida Gyaurqalha maydoni ancha kengaytirilib, uy —joy imoratlar soni ko'payadi va kulollarning yirik maxallasi paydo bo'ladi. Bu yerdan 10 dan ortiq xumdonlar ochilgan.

So'g'dning markazi Samarqandning ilk asrlar davri xarobalari Afrosiyob o'rnida antik davri shaxri davomi sifatida o'z aksini to'gan. SHaxarning umumiy maydoni 219 ga shaxar IV —V asrlarda ikki qator qudratli mudofaa devorlariga ega bo'lgan. Mudofaa burjlari shaxmat kataklari shaklida joylashgan. VI —VII asrlarga kelib, shaxar ikki qatordan iborat yangi mudofaa devorlari bilan o'ralib, shaxar maydoni kengaytiriladi. SHaxarda bir necha darvoza bo'lgan. Ularning ba'zilarida mudofaa burjlari aniqlangan.¹⁷

So'g'diyonaning yirik markazlaridan biri —Varaxshadir. Varaxsha uch burchak shaklida, umumiy maydoni 6,5 ga dan iborat. Manzilgox shaxar sifatida V —X asrlar davomida mavjud bo'lgan. Manzilgoxning arkida buxor — xudatlarning yirik saroyi aniqlangan. Saroy bir —necha katta kichik xonalardan iborat bo'lib, ular mazmunan boy devroyi suratlar bilan bezatilgan.

¹⁷ Исамиддинов М.Х. Генезис городской культуры. Самаркандского Согда- Самарқанд 2000. Ст 111-117.

Panjikent xozirgi Samarqand shaxridan 60 km. sharqda Panjikent shaxri yaqinida joylashgan. Manzilgox ark, shaxriston qurilish imoratlaridan tashkil to'gan shaxar atrofi, Nikro'ollardan iborat. SHaxar arki shaxristondan soy bilan ajralib, baland saxni ustiga qurilgan. U yerda maxalliy xukmdorlarning saroyi ochilgan. SHaxriston parallel bo'lgan bir necha ko'chalar bilan bir necha maxallalarga ajralib, ko'cha bo'ylab uy —joy, xo'jalik va savdo — xunarmandchilik imoratlari joylashgan. Axoli yashaydigan maxallalarda bir necha o'nlab uy — joylar imoratlari mavjud bo'lgan.

Shuningdek So'tdda Kofirqalha, Varaxsha, Poykent va boshqa shaxar tipidagi manzilgoxlarda xam tadqiqot ishlari olib borilgan. Kofirqalha (may. 16 ga) baland saxni ustiga qurilgan ark tuproq devor bilan muxofazalangan. Devor tashqarisida Nauslardan tashkil to'gan. Boy zodagonlar qabri va kulolchilik ustaxonalari joylashgan. Manzilgox materiallari VI — VIII asrlarga oid.

Varaxsha (may. 6,5 ga) Buxorodan 30 km shimoliy — garbda joylashgan, So'g'dning yirik markazlaridan biri. Manzilgoz^ arkida buxorxudatlarning ikkita yirik saroy majmuasi, ibodatxona binosi va xo'jalik imoratlari aniqlangan. Katta — kichik xonalardan tashkil to'gan saroy majmuasi kishi diqqatini o'ziga jalb qiladi. uning ba'zi bir xashamatli xonalari devoriy suratlar bilan bezatilgan.

Poykent Buxorodagi o'ziga xos shaxarlardan biri bo'lib. Mudofaa devori bilan o'ralgan ark va shaxristonlardan iborat. Yeu yerda xam devor tashqarisida zardushtiylarning qabristoni joylashagan.

Shimoliy Toxariston xududida shaxar shakliga ega bo'lgan manzilgoxlardan Vaxsh voxasida Kofirqalha (may. 12 ga) o'rganilgan. SHaxar arki mustaxkam mudofaa tizimi (devor, burj va shinaklar) ga ega. Ark imoratlarining devorlarga naqshlar bilan bezatilgan.

Xorazmda shaxar shaklidagi manzilgoxlardan Berkutqalha, Kuyiqqalg'a va Tuqqalha maydoni boshqalaridan ancha katta (35 ga). Ular mudofaa Devorlari bilan o'ralgan ikki qismdan iborat. Ark baland saxni ustiga qurilib, mahumriy binolar joylashgan. SHaxristonda imoratlarining o'rni aniqlangan. Berkutqalha arkida o'ziga xos baland minorasimon imorat — donjon aniqlangan. U VI —VII asrlarga oiddir.

Toshkentning xar ikkala voxasi (CHirchiq,- Oxangaron) da xam shaxarsozlik taraqqiyotining yuksalishi kuzatiladi. Toshkent shaxrining o'zagini Mingo'rik o'rnida shakllanadi. Mingo'rik antik davrida shakllanib, ilk o'rta asrlarda arki, shaxrist qismlari ajralib, atrofi mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Mudofaa devori burjlar bilan kuchaytirilgan. Shaxriston imoratlar bilan tig'ishlashadi. Kulolchilik va temirchilik ishlab chiqarish rivojlanadi. Shaxar VIII asrning birinchi yarmida arab bosqinchilariga qarshi kurash natijasida inqirozga uchraydi.

Shuningdek Buxoro, Termiz, Kesh, Quva, Axsikent va boshqa shaxarlari taraqqiy etdi. Ularda xunarmandchilik va savdo xiyla rivojlandi.

Umuman bu davr shaxarlari asosan ark va shaxriston — ismlaridan iborat bo'lib, uchinchi rabot qismi (shaxar tashqarisi) xli to'liq shakllanmagan edi. Ular mustaxkam mudofaa devorlari va xandaklar bilan o'rab olingan. SHaxar barvozarida va tashqi devorlarda burjlar qurilgan. Burjlar yarim aylana va to'rri to'rtburchak shaklida bo'lib, ularda soqchilar uchun mo'ljallangan maxsus xonalar joylashgan bo'lgan.

Feodal munosabatlarining chuqurlashuvi natijasi qishloq mehmorchiligida xam o'z aksini to'gan. Bu davrda oddiy qishloq dexqon qishloqlaridan tashqari boy zodagonlarga tegishli ko'shklar, qo'rg'on va qo'rgonchalar paydo bo'ldi. Ularning atrofi mustaxkam mudofaa devorlari va xandaklar bilan o'ralgan. Devorlar mudofaa burjlariga ega. Boy dexqonlarga tegishli bir va bir necha qavatdan iborat imoratlar kambag'al va qaramdexqonlarning oddiy uylari, xatto

ularning ba'zilarida xunarmandlarning ustaxonalari joylashgan. Ularning muxtasham xonalari mazmunan boy bezakdar (ran —tasvir, xaykalchalar, yog'och o'ymakorligi) bilan bezatilgan.

Ular asosan shaxarlar atrofi gavjum bo'lgan. Yozma manbalarda shaxarlar atrofi yuzlab shunday ko'shklar bo'lganligi dyd etilgan. Arxeologik jixatdan. O'rta Osiyoning ko'pgina xududlarida aniqlangan. Hususan, Bolaliktepa, Kuyovqo'rg'on (Surxandaryo), Oqitepa (Toshkent) va boshqalar yaxshi o'rganilgan.

Ilk o'rta asrlarda asosiy qurilish materiallari tuproq bo'lgan. U xom g'isht, paxsa, blok sifatida ishlatilgan. Imoratlarning tomi tekis qilib yo'lgan. Yog'ochlardan tomini yo'ishda bolor, ustun va boshqa maqsadlarda xam foydalanilgan. Kichik xonali uy —joylar gumbaz shaklida yo'lgan. Gumbaz shaklida yo'lgan. Gumbaz shaklidagi uylarda asosan xom g'ishtdan foydalanilgan. Pishgan g'isht asosan uylarning saxniga to'shshda foydalanilgan. Saroylar, mexmonxonalar va boshqa xashamatli xonalarni bezash usullaridan biri bu —yog'och o'ymakorligidir. Xonalarning ustunlari va ravlariga turli geometrik va o'simliklar yoki ularning mevalarining shaklini o'yib ishlash an'anasi ancha kuchaydi.

VIII asrdan boshlab arab bosqinchilari maxalliy mehmorchilik an'analari izdan chiqaradi. Bu davrda arablar asosan xarbiy qurilish inshootlari, dastlabki machitlarni qurishga asosiy e'tiborni qaratadi. Ular maxalliy ustalar tomonidan maxalliy mehmorchilik an'anasi asosida barpo etiladi.

O'rta Osiyo axolisi orasida islomgacha bir necha din tarqalganligi manbalarda aniqlangan. Zardushtiylik dini an'analari bilan bogliq moddiy to'ilmalar O'rta Osiyoning ko'pgina joylarida aniqlangan. Ossuoriy qabrlar yirik shaxar markazlarida (Tanjakent, Varaxsha, Poykent, Kuyukqalha) xam kichik manzilgoxlarda xam aniqlangan. SHaxar atrofida joylashgan qabrstoJarda o'rganilgan Ossuariylar Noslarda saqlangan. Marxumlarning suyaklarini Ossuariylardan tashqari Xumlarga (Poykent) dafn qilish odati xam mavjud.

Yozma manbalarda Olov ibodatxonasi to'g'risida ma'lumotlar uchraydi. Olov ibodatxonalarini saqlanib qolganligi mahlum. Hususan, SHimoliy Toxaristonda muqaddas olov yonib turgan yirik Sopol idish (Bolaliktepa, Hayrobodtepa, Kofirqalha) lar topilgan.

G'udda dinining mavqei SHimoliy Toxariston va Farshna axolisi orasida yuqori bo'lgan. Yozma manbalarda ulardagi shaxarlarda bir necha ibodatxona va monostirlar qayd etiladi. Ulardan Tojikistnda Ajinatepa, Farg'onadagi Quva manzilgoxlarida joylashgan diniy inshootlar diqqatga sazovardir.

Ajinatepa VII —VIII asrlarga oid monastr bo'lib, kvadrat shakldagi ikki qismdan iborat. Ulardan bir bo'lgan xovlining atrofini xonalar band etgan. Ayvon orqali daxmezlardan xonalarga kirilgan. Xonalar odatda budda xaykalchalari bilan bezatilgan. Hovli o'rtasida stupa joylashgan.

Chilonzor Oqtepasida to'ib o'rganilgan «Olov ibodatxonasi» muxim axamiyatga egadir. Bu inshoot otashparaslarga tegishli bo'lib, islomgacha bo'lgan davrga oid. U paxsa va xom g'ishtdan qurilgan. Atrofi mustaxkam devor bilan o'ralib, to'rtburchagi mudofaa burjlari bilan kuchaytirilgan. Burjlarda ishnaklar mavjud. Bu yerda bir necha xonalar aniqlangan. Xonalarning birida kul qoldig'i uchraydi.

O'rta Osiyoning V—VIII asrlarga oid haykaltaroshligi bir necha manzilgoxlardan (Kuyovqo'rg'on, Ajinatepa, Quva ibodatxonasi) to'ib o'rganilgan xaykallar va xaykalchalarda o'z aksini to'gan. Bu davr xaykaltaroshligi antik davrining an'anaviy davomi sifati rivojlanib, ularda bir necha xalqlar san'ati, yahni Eroniylar va ko'chmanchilarning tahsir yaqqol sezilsada, ularning asosiy qismi, xusuSan, jismoniy tuzilishini aks ettirishda maxalliy an'analari saqlanib

qoladi. Ular bilan asosan xukmdorlarning saroylari, davlatmad kishilarning devorlarini bezashda keng foydalanilgan.

Shunday xaykalchalar majmuasi Surxondaryodagi Kuyovqo'rg'on qasrida to'ib o'rganilgan. U yerdagi nufuzli bir shaxs va uning yaqinlaridan bo'lgan kishilar tasvirlay xaykalchalar topilgan. Haykallarda o'z davri dunyo qarashi aksini to'gan bo'lib, tashqi belgilariga ko'ra bir —biridan farq qiladi.

Afrasiyob, Panjikent va boshqa joydan xam shox, ayol, erkak, otliq va boshqalarning xaykallari o'rganilgan.

Bu davrda juda yirik xaykallar xam paydo bo'ladi. Hususan, Ajinatepa (balandligi 12 metr) va Quva (balandligi 8 metr) dan topilgan budda xaykallari aniqlangan. Quva xaykalining tepasida 80 sm keladigan dishkataning boshi tasvirlangan. (dishkata — Budda dinining jangovar ximoyachisi). Bu xaykallar antik davrida uchramaydi. Haykallar tasvirida insonpravarlik qoyalaridan chekinish xiralashish va noaniqliklar ko'zga tashlanadi.

Tasviriy san'at namunalari Afrosiyob, Varaxsha, Panjikent, Bolaliktepa devoriy suratlarida o'z aksini to'gan. Bu suratlarda dunyoviy, diniy va afsonaviy syujetlar ajralib turadi. Ayniqsa, ularda yozma davr xayoti va mafkrasi o'z aksini aniq to'gan.

Afrosiyob devoriy sratlari o'zining realligi bilan ajralib turadi. Undagi tasvirlar aniq kishilar (erkak, ayol) xarakati, ko'p xollarda fil yoki tuya ustida ketayotgani, ular bilan birgalikda qushlar aks ettirilgan.

Panjikent va Varajsha tasvirlarida esa reallik bilan afsonaviylik mujassamlashganini ko'rish mumkin. Bir necha otliqlar yoki fil mingan kishining afsonaviy maxluq yoki ajdarxo bilan ko'rishayotganligi aks ettirilgan. Boshqa bir tasvirlar esa sig'inish odatlari bilan bog'liq.

Bolaliktepa devoriy suratlari dunyoviy mazmunda ishlanib, nufuzli kishilarning ba'zi marosimlari aks ettirilgan. U yerdagi kishilar tik va o'tirgan xolda oldinda o'tirganla esa qo'lida qadaq ushlagan xolda tasvirlangan. Ularning orqa tomonida xizmatkorla suratlari keltirilgan.

Umuman bu davrda. yaratilgan mazmunan va moxiyatan boy san'at namunalari arab bosqinchilarining xarbiy yurishlarida yo'q qilinib yuboriladi. Ilk temir davrda xunarmandchilik xiyla rivojlanadi. Kulolchilik, shishisozlik, temirchilik va to'qimachilik shaxar markazlaridan tashqari qishloqlarda xam rivojlanganligi arxeologik jixatdan aniqlangan.

Idishlar asosan charxlarda, qisman qo'lda yasalib, aylana shakldagi yirik xumdonlarda pishirilgan. Bunday xumdonlar Gyaurqalha, Kofirqalha, Yerqo'rgon kulolchilik maxallalaridan to'ib o'rganilgan.¹⁸

Idishlarning shakliga ko'ra antik davri an'analar davom etsada, shimoliy qabilalarga xos qo'sh baldoqli krujkalar va metal idishlarga taqlid qilib ishlangan. Sopol buyumlar xam keng tarqaladi.

Idishlarning sirti turli bo'yoqlar bilan naqshlar berish, o'yib chizish yoki yo'ishtirilgan bezaklar yordamida bezatilgan. Naqshlar geometrik shakllar, to'lqinsimon chiziqlar, o'simlik tasvirlari bo'lsa, o'yib chizilgan naqshlar esa oddiy to'g'ri yoki tumdinsimon chiziqlardan iborat. Yo'ishtirilgan bezaklar ko'p xollarda xayvonlar boshi yoki erkak kishining brsh qismi xamda yuz tuzilishidan iborat bo'lib, idish bo'g'zidan pastroqda yo'ishtirilgan. Bunday bezakli idishlarda nuqtasimon va to'g'ri chiziqlardar iborat bezaklar xam mavjud.

Bu davrga kelib shishasozlik xam qaror to'adi. Xitoy manbalarida Toxaristonliklar yuqori sifatli shisha buyumlari tayyorlaganliklari to'g'risida mahlumolar saqlangan. Bu davrga oid kichik xajmdagi shisha buyumlari (flakonlar) va qisman xo'jalik buyumlari yetib kelgan.

¹⁸ Сулайманов Р.Х Древний Нахшаб. – Т.:2000 – С. 55

Ularning namunalari Panjikent, Bolaliktepa va Tojikistondagi Munchoqtepa yodgorliklaridan to'ib o'rganilgan. VIII asrning oxirlaridan boshlab shishasozlik O'rta Osiyoning barcha xududlarida keng tarqala boshlaydi.

Shuningdek, O'rta Osiyoda temirchilik, to'qimachilik, zargarlik keng rivojlanadi. Temirchilikda uy —ro'zgor va xo'jalik buyumlari bilan birgalikda xarbiy qurollar yasash asosiy mashg'ulot xisoblangan. Moxlar zargarlar tomonida turli tuman buyumlar yasalgan.

O'rta Osiyoning IX —XII asrlar tarixi maxalliy mustaqil davlatlarning qaror to'ishi va feodal davlatlarning navbatma — navbat almashunuvi bilan xarakterlanadi. IX asr oxiri va X asrlar davomida Arab xalifaligidan mustaqil bo'lgan Somoniylar sulolasi xukumronlik qiladi. O'rta Osiyoning keyingi davr tarixi Qoraxoniylar, Saljuqiylar va Xorazmshoxlar davlatlari CHingizxon bosqiniga xukumronlik qiladi.

O'rta asrlarda erga egalik munosabatlarning shakllanishi jamiyatda tubdan o'zgarishlarga olib keldi. O'zbekiston tarixida o'rta asrlar davri mil. V-XVIII asrlarni o'z ichiga olgan. Rivojlanishi jihatidan 3 ta bosqichga bo'linadi:

1 bosqich-ilk o'rta asrlar, mil. V-IX asrgacha davom etgan.

2 bosqich - rivojlangan o'rta asrlar, IX-XVI asrgacha davom etgan.

3 bosqich -so'nggi o'rta asrlar, XVI-XVIII asrlarni o'z ichiga oladi.

Ilk o'rta asrlarda er egaligining vujudga kelishi dehqonchilikning rivojlanishiga, ko'plab yangi hududlarni o'zlashtirilishiga va aholining yirik er egalari atrofida to'planishiga, ya'ni ko'plab qishloqlar bunyod qilinishiga olib keldi. Yirik er egalari - dehqonlar ko'shklarda iste'qomat qilganlar. Bu yangi davrning yangi me'moriy binosi bo'lgan. Bugungi kunda ko'shklarning harobalari butun O'zbekiston bo'ylab, tuproq-qo'rg'onlar tarzida uchraydi. Ko'shklari ko'pincha to'g'ri to'rtburchak shaklida, baland platforma ustiga qurilib, atroll xandak bilan o'ralgan va mustahkam mudofaa devori bilan o'rab olingan. Ko'shk bitta feodal oila yashashiga moslab qurilgan, u alohida suv bilan ta'minlangan. Ko'shk xom g'isht, paxsa, yog'och va tog' toshlardan qurilgan. Xonalarning devorlari mayin somonshuvoq va maxsus ganch bilan sayqallangan.

Ilk o'rta asrlarda hunarmandchilik va savdo aloqalari rivojlandi. Bu o'z navbatida qadimiy shaharlarning yanada ta-aqqiy o'tishiga va yangi shaharlarning bunyod etilishiga imkon yaratdi.

Ilk o'rta asrlardagi shaharlar yozma manbalarda 3 qismdan iborat deb berilgan bo'lsada. arxeologik tadqiqotlar ularning 2 qismdan ark va shahristondan iborat ekanligini ko'rsatgan.

Ark barcha shaharlarda bo'lib, o'zning mahobatligi bilan ajralib turgan. Odatda arklar luproq va loydan ko'tarilgan tepaliklar ustiga qurilgan. Atrofi mudofaa inshooti sifatida chuqur handaklar bilan o'rab olingan. So'ng mustahkam poydevor ustiga xom g'isht va paxsadan qasr

qurilgan. Turar joy binolari esa, katta kvadrat tarzidagi xonadan va uning atrofi uzunchoq va to'rtburchak xonalardan iborat bo'lgan. Kvadrat xonalar gumbaz bilan yopilgan. Katta xonaning o'rtasida to'rtta ustun joylashtirilib, yog'och to'sinlar bilan yopilgan. Uning markazi esa, to'rtburchak shaklida ochiq qoldirilgan. Tadqiqotchilar fikricha, bu katta xonalar mehmonxona va hovli rolini bajargan.

Ilk o'rta asrlarda shahar hunarmandchiligi keng rivojlangan. Choch, Samarqand, Buxoro, Poykent va janubiy So'g'd shaharlari o'sha kezlardayoq yirik savdo-sotiq markazlari hisoblangan. Bu shaharlarda hunarmandchilikning kulolchilik, shishasozlik, metallurgiya va to'qimachilik sobalari yuksak darajada rivojlangan bo'lib, ular ko'p hollarda tashqi savdo uchun mahsulot chiqarganlar.

Mingo'rik - Toshkent shahrining Shimoliy Temir Yo'l vokzali yonidagi Salor kanaliga yaqin joylashgan. Mingo'rik yodgorligi I—XIII asrlarga oid qadimiy shahardir. Tarixiy manbalarga ko'ra, uning hududi 35ga bo'lganligi aniqlangan.

Mingo'rik nomi qadimiy obidaga nisbatan XIX asnda berilgan. Ilgarilari uni maxalliy axoli Afrosiyob nomi bilan atagan. Arab yozma manbalarida bu shahar «Madinat ash-Shosh» nomi bilan tilga olinsa, boshqa yozma manbalarda «Choch», xitoy yozma manbalarida «Dje-She» va «Shi» deb nomlangan.

Shahar qalin paxsa va xom g'ishtdan qilingan mustaxkam mudofaa devori bilan o'ralgan. Shahriston ichida ham mustahkam mudofaa inshootlariga ega bo'lgan baland ark-qasr bo'lgan. U zinapoyalar shaklidagi to'g'ri burchakli minoralarga ega bo'lgan. Ark-qasr 0.5 gektami, shahriston 15 gektar maydonni egallagan.

Mingo'rikda dastlab 1896 vil E.T.Smimov, N.S.Likoshin tomonidan, 1912 yilda esa Turkiston arxeologiya xavaskorlar to'garagi a'zolar tomonidan arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan. Keyinchalik 1920 yillarda M.E.Masson. 1968 yillarda Toshkent arxeologik ekspeditsiyasi tadqiqot ishlarini davom qildirganlar.

Shaharga dastlab mil.av.I asming oxiri va mil. I asming boshlarida asos solingan. Shu vaqtda uning dastlabki mudofaa devori tiklangan. Xom g'ishtdan tiklangan devoming qalinligi 9 metmi tashkil ctgan. Lekin shahaming tez o'sib borishi uning hududining kengayshiga olib kelgan. Natijada mil. VI asrga kelib, Mingo'rik shahri Toshkentning ilk o'rta asrlar davri shaharlaridan biriga aylangan markaz shahri o'mini egallagan va bu erda shahar hokimining qarorgohi — qasri bunyod etilgan.

Tadqiqotlar natijasida shaharda hayot uch asosiy davrda davom etganligi aniqlangan:

1- davr mil. I-IV asrlarga mansub bo'lib, bu davrga oid uzun yo'lakli, ikki qatorli qal'a devorlari qoldig'i topilgan. Devor tashqarisida to'rtburchak shaklda buij va mo'lalar bo'lib, ulaming orasi 12 metrga teng bo'lgan. Bu davrda shahar hunannandchilik va savdo sotiq markazi sifatida nom chiqargan.

2- davr V-VI asrlarga oid bo'lib, bunda shahar tez sur'atlarda rivojlanib, axoli soni oshib borgan. Shu davrda shahar ark va shahristonga cga bo'lgan yirik markazga aylangan. VI asr oxirlaridan esa shahar Chochning poytaxtiga aylangan.

3- davr VII-VIII asrlarga oid bo'lib, bu davr shahaming eng yuksalgan davri bo'lgan. Bu davrda muxtasham saroy barpo etilgan. Shu davr saroyi birmuncha to'liq o'rganilgan. Saroyda ko'plab xonalar, zal, keng daxlizlar va omborxonalaridan iborat bo'lgan. Xona devorlari turli bezaklar, haykaltaroshlik namunalari bilan bezatilgan. Bu erdan muqaddas olovga sig'inish bilan bog'liq buyumlar ham topilgan. Shahristondan axoli turar joylarining izlari, hunarmandchilik ustaxonasi qoldiqlari topilgan.

Shoxruxiya shaliri Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani Sultan Segizbaev jamoa xo'jaligi hududida Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan.

U dastlab 1876 yilda D.K.Zaccpin va N. Pandusovlar tomonidan qayd qilingan. 1934 yilda M.E. Masson, 1970-1980 yillardan Yu.F.Buryakov tomonidan keng arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan. Tadqiqot natijasida shaharda 3 ta shahriston borligi, ilk mada- niy qatlamlari Qovunchi 1 va Qovunchi 2 davrlarida shakllanganligi aniqlangan.

Shoxruxiya mil.avv. 111-11 asrlarda vujudga kelgan bo'lib, XVIII asrlargacha shaharda hayot davom etgan. Umumiy maydoni 400 ga. Shahar kvadrat shaklda qurilgan. Shahaming shimoli-g'arbiy burchagida ark joylashgan. Uning 25 metri saqlanib qolgan. Shahaming eng nvojlangan davri X-XII asr boshlariga to'g'ri kelgan. U yirik hunarmandchilik va savdo markazi bo'lib, savdo karvonlarining Sirdaryodan kechib o'tish faoliyatini nazorat qilib turganlar. XIII

asrda mo'g'ullar tomonidan vayron qilingan. 1392 yilda Amir Temur uni qayta tiklab, davlatning muhim mudofaa qal'aga aylantirgan. XVIII asrga kelib, uni Jung'orlar vayron qilgan. Keyinchalik uning shimoli-sharqiy qismida Qori Shamol Avliyo ziyoratgohi vujudga kelgan.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida shahar hududidan X-XI asrlarga oid hunarmandchilik buyumlari, kulolchilik pechlari, shishasozlik, temirchilik ustaxonalari topilgan.

Chilonzor Oqtepesi IV-XI asrlarga oid arxeologik yodgorlik bo'lib, Toshkentning janubi g'arbiy qismida Bo'zsuv anhuri bo'yida joylashgan. 1940 yilda A.I.Terenojkin qayd etgan. 1969-1971 yillarda Toshkent arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan. Oqtepaning 3ta qurilish davri aniqlangan:

1-davri IV-asrlarga tegishli bo'lib, bu davrda 4 minorali qasr qurilgan. Bino ichida 3ta xona bo'lib, uyar bir-biri bilan tor yo'lak orqali bog'langan. Bino 2 qavatdan iborat bo'lgan. U otashparastlarning istehkomli ibodatxonasi bo'lib, mudofaa devorlari qalin, minora va shinaklar bilan mustahkamlangan.

2- davri V-VI asrlarda dastlabki imorat atrofiga yangi xonalar, yordamchi xo'jalik xonalari va qo'shimcha shinakli devor qurilgan.

3- davri VII-VIII asrlarda dastlabki imorat qoldiqlari tuproq bilan to'lg'azilib shibbalangan va 9 metrli tagkursi qilingan. Ustiga tepasi ocliiq to'rtburchak (38x27m) hovli ko'rinishidagi bino qurilgan. Ochiq hovli sahnining to'rida to'rtburchak supa kursi joylashgan. Qazishmalar natijasida u erdan organik qoldiqlar, sopol buyumlar, yorg'uchoqlar, tangalar topilgan.

Arablar istilosidan so'ng Oqtepa zardushtiylar qabristoni vazifasini o'tagan, keyinchalik harobaga aylangan. X-XI asrlarga kelib, kichik bir qishloq bo'lib tiklangan.

Yunusobod Oqtepesi V-XIII asrlarga oid arxeologik yodgorlik bo'lib, Toshkentning shimoli-sharqiy qismida Oqtepa kanali bo'yida joylashgan.

Uni dastlab 1886 yilda V.P.Nalivkin qayd qilgan. 1940-41 yillarda A.I.Terenojkin qisman qazishmalar olib borgan. 1975-85 yil Jar davoniida Toshkent arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan. Oqtepa 100 ga dan iborat ark va qishtoqdan iborat. Ark qishloqdan chuqur jarlik bilan ajratilgan. Ark xom g'isht va paxsadan qurilgan. Unda 3 qurilish bosqichi aniqlangan:

1-bosqich V-VI asrlar bo'lib, bu davrda ark bunyod etilgan. Uning tarxi kvadrat (80x80m) bo'lib, perimetri bo'ylab ikki (ustki va pastki) qator tuynuksiz gunibazli yo'laklari bo'lgan.

2- bosqich VII asr boshlarida tor xonalar tuproq bilan ko'mib tashlanib, mustahkam tagkursi qilinib, ustiga binolarqurilgan.

3- bosqich VII asr oxiri -VIII asr boshlarida 3 qismga bo'lingan ark qurilgan. Bular minoradagi turar joy, diniy marosimlar o'lka/iladigan va yordamchi xo'jalik xonalriga bo'lgan. Bu esa arkning shahaming ma'muriy, diniy va mudofaa markazi bo'lganligini ko'rsatadi. Turar joy qismining devorlari rasmlar bilan bezatilgan. Diniy marosimlar o'tkaziladigan xonada sajdagoh bo'lgan. U erdan metallardan ishlagan mehnat qurollari, qurol-aslahalar, shisha, sopol buyumlar, bezaklar, o'yinchoqlar, tangalartopilgan. Qal'ada mudofoa devori bo'lmagan.

Qal'a arab qo'shinlari tomonidan vayron qilingan. IX-XII asrlarda qishloq bo'lib qayta tiklangan. XIII asr boshlarida inqrozga uchragan.

Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda to'qimachilik rivojlangan. Ayniqsa, ipak mahsulotlariga talab katta bo'lgan. Ipakchilik So'g'diyona va Farg'ona vodiysida ham keng yoyilgan. VI-VII asrlarda Buxoroning «zandanachi» ipak mahsulotlariga talab katta bo'lgan. Zandanachi ipak mahsulotlarining namunalari Afrosiyob devoriy suratlarida saqlanib qolgan.

Ilk o'rta asrlarda binolar devoriy suratlar va haykallari bilan bezatilgan. Qadimgi davrda binolar asosan haykallar bilan bezatilgan bo'lsa, ilk o'rta asrlarga ko'proq devoriy suratlar bilan bezatilgan. Ulardan saroylar, dehqon qasrlari, zardushtiylik va buddaviylik ibodatxonalarining inter'erlarini bezashda keng qo'llanilgan.

Arxeologik tadqiqotlar davomida Bolaliktepa, Varaxsha, Afrosiyob, Panjikentdan devoriy suratlar topilgan. Bu suratlarda ilk o'rta asrlardagi tarixiy voqealari, ajdodlarimizning urf-odatlarini, axloq normalari, xulq-atvorlari mohirona aks ettirilgan. Masalan, Bolaliktepa (V-VI asrlar) devoriy suratlarida moviy osmon fonida bazm tasvirlangan. Unda shohona kiyimdagi erkak va ayollarning qo'llarida oltin va kumush qadahlarni ko'tarib turgan holatlari aks ettirilgan. Afrosiyob devoriy suratlarida Samarqand ixshidi Varxumanning taxtga kelishi munosabati bilan mamlakatlararo diplomatik munosabatlar, diniy va dunyoviy mavzulardagi syujetlar va o'sha davr madaniy hayoti aniq tasvirlangan.

1948 yilda arxeolog A.I.Terenojkin Afrosiyobning ilk o'rta asrlarga oid qatlamlarini tekshirdi. Qazish ishlari natijasida VI asrga mansub Tolu Barzu yodgorligi, VIII asrga oid sopol idishlar, sasoniy tangalari topildi. 1958 yildan buyon Afrosiyobni o'rganilish ishlari davom etmokda va hozirgacha turli davrlarga oid bir qancha yodgorliklar topildi.

Tadqiqotlar natijada IV-V asrlarda Samarqandning tushkunlikka uchragan davri ekanligi aniqlandi. Uning rivojlanishi yangitdan VI asrdan boshlangan. Bu davrda ark yangi devor bilan o'rab olingan va uzunligi 1,5 km bo'lgan 4-devor qurilgan. Shahar janubga qarab kengaytirilib, uzunligi 3 km bo'lgan ichki devor qurilgan.

VII asrlarda Afrosiyobda maxsus sanoy devori quriladi va shaharning to'rtinchi tashqi devori butunlay qayta qurilgan. Saroy devorining ichida yirik inshootlar qurilgan. Shahar aholisi kasbiga ko'ra maxallalarga bo'lingan.

Varaxsha Buxoro xukumdorlarining qarorgohi bo'lib, bu erdan saroy qoldiqlari bilan bir qatorda devoriy suratlar ham topilgan.

Mazkur yodgorlik 1938-1953 yillarda tekshirilgan. Varaxsha devorlariga loy suvokdan so'ng elimli rang bilan suratlar solingan. Ularda podsho saroyi hayoti tasvirlangan. Shuningdek, Varaxshadan ganchdan ishlangan haykallar ham topilgan.

Varaxsha devoriy suratlarida (VII-VIII asrlar) buxorudodlarning hayot tarzi, ya'ni saroy hayoti, ibodat va ov manzarasi tasvirlangan. Saroyning sharqiy zali janubiy devorining o'ng tomonida qanotli tuya shaklida ishlangan taxtda podsho tasviri, devorning chap tomonida saroy ahlining altar qarshisidagi ziyorati, saroyning qizil zal devoriy suratlarida esa fil mingan ovchining yo'lbars bilan olishuv manzarasi tasvirlangan.

Panjikent harobasini tekshirish 1946 yildan buyon olib borilmoqda. Tadqiqotlar natijasida V-VII asrlarga oid bo'lgan turar joylar aniqlangan. Turar-joylar jumlasiga Divashtich saroyi, boy va oddiy shahar aholisi uylari kiradi. Boy xonadon uylari murakkab reja asosida qurilgan. Bu erda hain ijtimoiy uylar va 2 ta ibodatxona ochib o'rganildi. Saroy va yirik binolarning devorlariga hayotiy va diniy mavzudagi rasmlar solingan. Samarqand, Varaxsha, Panjikent rasmlari ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda tasviriy san'at yuqori darajada bo'lganligini ko'rsatadi.

Ilk o'rta asrlarda saroylar haykaltaroshlik namunalari bilan ham bezatilgan. Quva ibodatxonasi Buddha haykallari topilgan. Badisatvalar, farishta va jinlar birgalikda tasvirlangan bu Farg'ona haykaltaroshlik maktabining o'ziga xos tomonlari mavjudligini aks ettiradi. Uning shaklanishida hind ikonografiyasi bilan mahalliy, ilohiy sanamlari o'z aksini topgan.

Haykaltaroshlik san'atining izlari mil. IV-V asrlarga oid Toharistonning Kuyovqo'rg'on qal'adan topilgan. Kuyovqo'rg'on haykallari zeb-ziynatli bezaklarga boy engil kiyimlardagi erkak va ayol tasvirlaridan iborat.

Ilk oʻrta asrlar davri monumental meʼmorchiligida ganch naqshinkorligi keng qoʻllanilgan. Unda antik davr anʼanalari umuman uchramaydi, balki oʻz zamonasiga xos yangi uslubiy yoʻnalishi shakllangan. Buni Afrosiyob, Varaxsha va Dumaloqtepa (Tohariston) qasr bezaklarida uchratish mumkin.

Monumental sanʼat bilan birgalikda ilk oʻrta asrlarda amaliy sanʼatning barcha yoʻnalishlari rivojlangan. Ular shahariaring rivojlanishi va shahar hunarmandchiligining taraqqiyoti bilan uzviy bogʻlangan edi. Oltin va kumushdan liar xil idishlar yasash koʻlami kengayadi. Ayniqsa, bu masalada Xorazm maktabi, Tohariston va Soʻgʻd ustalari katta yutuqlarga erishadilar.

Arxeologik qazish materiallari va tasviriy sanʼat asarlari ilk oʻrta asrlar davrida zargarlik va tosh oʻymakorlik sanʼati yuksak darajada rivojlanganligini tasdiqlaydi. V-VI asrlarda oliy nasabli mulk egalari- ning shaxsiy muhri sifatida qimmatbaho tosh-serdolikdan gemmalar yasash davom etgan.

Ilk oʻrta asrlar madaniyatida sananilar yasash va ularga oilaviy sigʻinish keng tus olgan. Ular Baqtriyada, Soʻgʻdda, Choch va Fargʻonada mavjud boʻlgan. Arxeologiyada «koroplastika sanamlari» deb nom olgan badiiy sanʼatning markazi Soʻgʻdiyona boʻlgan. Koroplastika Samarqand, Rabinjon, halibarzu, Kofirqalʼa, Buxoro, Poykent va Erqoʻrgʻonda koʻplab uchraydi. Ular oilaviy kult obrazlari, qahramonlik epos va rivoyatlarining personajlari sifatida ilk oʻrta asrlar madaniyatida keng oʻrin olgan. Koroplastika bu haykalchalar boʻlib, koʻpincha sopoldan ishlangan, uning mum, gips va boshqa materiallardan ishlangani ham topiladi. Koroplastikada koʻpincha ayol- maʼbudalarniing xaykalchalari ishlangan. Lekin mil. av. II asrdan erkak kishi va hayvonlarning koroplastikalari ham uchraydi. Sopol koʻza va tutatkich dastalarini har xil hayvonlar shaklida ishlash anʼanaga aylandi.

Ilk oʻrta asrlarda hunarmandchiligida ostodonlar tayyorlash keng fivojlandi. Chunki zardushtiylik dinida murdalarni bevosita erga koʻmishni taqiqlagan va ulaming tozalangan suyaklarini ostodon deb atalgan maxsus sopol yashiklarda koʻmishni taqozo etgan. Bu sopol yashiklarning qopqoqlari va devorlarining tashqi tomoni har xil boʻrtma naqshlar- ilohiy personajlar va meʼmoriy kolonnalar, daraxt va oʻsimlik barglari bilan bezatilgan. Ostodonlarning ishlanishi turli joylarda hirlicha boʻlgan. Masalan: Xorazmda meʼmoriy va statuar ostodonlar,

Chochda chizma naqshli yashiksimon ostodonlar, Soʻgʻda esa otashparastlik ilohiyati eʼtiqodi bilan bogʻliq boʻlgan syujetli ostodonlar keng tarqalgan. Ostodonlar maxsus inshoot - nauslarda saqlangan.

VII asming ikkinchi yarmi va VIII asming boshlarida Oʻrta Osiyo hududlariga islom diniy matkurasining kirib kelishi mahalliy madaniyat rivojlanishida toʻsqinlikni keltirib chiqardi. Islom aqidashunosligi mahalliy muhitga majburan kiritildi, mahalliy anʼanaviy badiiy madaniyat va sanʼat olami islomiylashdi.

Yodda tuting! Ilk oʻrta asrlarda

- Erga egalik munosabatlari shakllangan.
- Yirik erezalari dehqonlar boʻlgan.
- Dehqonlar koʻshklarda yashagan.
- Shahar 2 qismdan iborat boʻlgan.
- Ark baland tepalikka qurilib, chuqur choh bilan himoyalangan.
- VI asrda Mingoʻrik Toshkent poytaxti boʻlgan.
- Chilonzor Oqtepassi otashparastlar ibodatxonasi boʻlgan.
- Buxoroning «zandanachi» ipak matolari dunyoga mashxur boʻlgan.
- Saroylar devoriy suratlar bilan bezatilgan.
- Koroplastika sopoldan ishlangan haykalchalardir.

- Ostodonda marhumlarning tozalangan suyaklari saqlangan.
- Xorazmda me'moriy va statuar ostodonlar tarqalgan.
- Chochda chizma naqshli yashiksimon ostodonlar tarqalgan.
- So'g'da otashparastlik e'tiqodi bilan bog'liq bo'lgan syujetli ostodonlar tarqalgan.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar

1. Bolaliktqa yodgorlilidagi devoriy suratlarda nimalar tasvirlangan?
2. Monumental tasviriy san'at deganda nimani tushunasiz?
3. Ilk o'rta asrlarda haykaltaroshlikning taraqqiy etishini misollar bilan tushuntiring?
4. Ko'shklar nima?
5. Ilk o'rta asrlarda Xorazmda shahar madaniyatining o'ziga xos tomonlarini ko'rsatib bering?
6. Koroplastika nima?

10-MAVZU: O'rta asrlar moddiy madaniyati xususiyati(2soat)

Reja:

- 1) O'rta asrlar davriga umumiy tavsif
- 2) Islom dini mafkurasiga xos madaniyatning shakillanishi
- 3) Yer egalik munosabatlarining qaror topishi
- 4) Qurilish va me'morchilik
- 5) hunarmandchilik turlari hakaltaroshlik

ADABIYOTLAR

10. Egamberdiyeva N Arxeologiya T.2011
11. Annaev A. Shaydullaev SH. Surxandaryo tarixidan lavxalar. T. 1997. 123-130 betlar
12. Sagdullaev A. S. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. T. 1996. 45-48 betlar
13. Muxammadjonov A.R. Qadimgi Buxoro. T., 1990. 24-28 betlar
14. Z.Muxammadjonov A. R. Qadimgi Toshkent. T., 1990. 6-10 betlar
15. Matboboyev B. O'zbekiston tarixida qadimgi Farg'ona T 2004 y 23-40 betlar
16. Mirsoatov T. O'rta Osiyo Arxeologiyasi. Farg'ona 2002 y 98-105 betlar
17. Мухамджанов А.Р.Қадимги Бухоро Тошкент 1991 йил. 27-32 бетлар.
18. Егамбердиева Н.А. Ўзбекистонинг энг қадимги давр тарихини жадваллар асосида ўргатиш. Тошкент 2008йил. 70 - 78 бетлар
19. Исамиддинов М.Х. Генезис городской культуры. Самаркандского Согда-Самарканд 2000. Ст 111-117 бетлар.

IX asrdan boshlab O'rta Osiyoning barcha xududlarida shaxarsozlik taraqqiyotida yangi o'sish davr boshlanadi. Mavjud shaxarlar ichki strukturasi murakkablashib, moydoni kengayadi. Ularda yangi qurilish inshootlari va mehmoriy obidalar qurish jadallashadi. SHuningdek yangi shaxarlar vujudga keladi. Bu jarayon mamlkatda osoyishtalikning tahminlanish, feodal, munosabatlarning yangi bosqichga chiqishi va natijadaiqtisodiy o'sishining tahminlanishi xamda shu kabilar bilan belgilanadi.

O'rta Osiyoda bu davrda uch qismdan iborat shaxarlar shakllanadi. SHaxarlar ark (qitadel), SHaxriston va rabot qisimlaridan iborat bo'lib, ularning ichki strukturasi ancha murakkablashadi.

Shaxristonda amaldorlarning uy — joylari va bozor, ravotda esa xunarmandchilik va savdo inshootlari joylashgan bo'lib, ularning xar biri aloxida mudofaa tizimiga ega bo'lgan. devorlar xam g'isht va paxsadan ko'tarilgan.

Bu davr shaxarlaridan Buxoro, Samarqand, Toshkent, Marv, Termiz, Kesh va boshqalar arxeologik jixatidan yaxshi o'rganilgan.

Buxoro shaxri IX asrning oxirida yangi mudofaa devorlari bilan o'rab olinib, uning 11 ta darvozasi mavjud bo'lgan. Registonda yangi qurilish inshootlari, xususan saroy barpo etilib, tashqi ko'rinishi o'zgaradi.

Samarqand shaxri bu davrda Afrosiyob o'rnida bo'lgan. Shaxar uch qismdan: ark, shaxriston va ravotlardan iborat bo'lgan. Shaxarlaning bu davrga oid o'rni yaxshi saqlanib qolmagan bo'lsada, uning maydoni ancha katta joyni egallagan bo'lishi kerak. Bu davrda saqlanib qolgan qismi shaxarning markazini tashkil etgan. Arab mualliflarining ma'lumotlariga ko'ra shaxarning o'tgan asrlardagi maydoni ancha katta bo'lib, bir necha (ba'zi manbalarda 10 dan ortiq darvozasi bo'lganligi tahkidlanadi) darvozaga ega bo'lgan. Bu yerdan kulollar maxallasi, devorlari rang — tasvirlar bilan bezatilgan ko'pxonli uylarning o'rni, shaxarni suv bilan tahminlovchi quvurlar va boshqalar aniqlangan.

Toshkent (Shosh) shaxrining bu davrdagi o'rni hozirgi eski shaxarga ko'chadi. Bu arab manbalarida Binket nomi bilan keltiriladi. Mingo'rik o'z axamiyatini o'yoqotmay axoliyashaydigan punkt sifatida yashashni davom ettiradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra shaxar (shaxrison) 16 ga iborat bo'lib, mudofaa devorlarining o'rni qisman aniqlangan. SHaxrison tashqarisida rabot joylashgan. Bu yerdan bir necha badrablar ochib o'rganilgan.

Termiz odam bu davrda uch qismdan iborat bo'lib, tadqiqotchilarning fikriga ko'ra shaxarning umumiy maydoni 500 ni tashkil etgan. Shaxar qismlari xar biri o'z mudofaa devorlariga ega. Shaxardan Termizshoxlar saroyi, xunarmandchilik va savdo inshootlar, axoli xonadonlari va boshqalarning o'rni aniqlangan. Termiz shaxri XI — XII asrlarda o'zining yuqori taraqqiyoti darajasiga ko'tarilib, XIII asrda mo'g'ullar bosqini tufayli inqirozga yuz tutadi.

Turkmaniston xududidagi yirik shaxarlardan Marv ilk o'rta asrlar davri o'rnida (Gyaur — qalha) o'rnida taraqqiy etib, o'zining taraqqiyot bosqichiga Saljuqiylarning poytaxti bo'lgan davrda chiqadi.¹⁹

Bundan tashqari Xorazmda, Urganch, Qashqadaryo, Nasaf va Kesh, Farg'ona vodiysida Quva va Axsikent shaxarlari va boshqa katta —kichik shaxarlar rivojlanadi.

Umuman, O'rta Osiyoning IX —XIII asrlarda shaxar yuksak darajada rivojlanib, ular mahlum davlat yoki viloyatning mahmuriy markazi bo'lish bilan birgalikda, savdo — iqtisodiy va madaniy markazlar xam bo'lgan. Bu davrda ularning xar birida boy mehmoniy obidalar qad ko'tariladi.

XIII asrning boshlarida mo'g'il tatarlarining bosqini tufayli ko'pgina shaxarlarda xayot orqaga ketadi va ba'zilari butunlay inqirozga yuz tutadi. XIII asrning boshlariga kelibgina O'rta Osiyo shaxarlarida xayot qaytadan tiklana boshladi. Bu davrda CHig'atoy ulusi xukmdorlarining qaorogoxi saroyida yangi shaxarlar (Qarshi, Andijon) shakAl.ana boshlaydi.

O'rta Osiyo shaharsozligining taraqqiyotining keyingi bosqichi Movaraunnaxrda Soxibqiron Amir Temur xokimiyatining o'rganilish bilan bogliq. Bu davrda asosiy ikkta shaxar: Samarqand va SHaxrisabz shaxarlariga pbo'lgan e'tibor kuchayib, hozirda saqlanib qolgan mehmoniy yodgorliklarning asosiy ko'pchiligi manashu shaxarlarda saqlangan.

¹⁹ Ртвеладзе Е.В., Лившич В.А. Памятники древней письменности. — Т.:1985

Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida Buxoroning ma'muriy markaz sifatidagi mavqei oshib shaxar ancha rivojlanadi va ko'plab mehmoniy obidalar barpo etiladi. Shuningdek Samarqand, Urganch, Toshkent, Shaxrisabz, Qarshi va boshqa shaxarlarning axamiyati ortadi.

Me'morchilik. Arablar bosqini davrida O'rta Osiyoning shaxar va qishloqlarida deyarli to'xtab qolgan. Qurilish ishlari IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab yana jonlana boshlagan X — XII asrlada kuchaygan. Bu davrda maxalliy xokimiyat vakillari oldida avval shaxar mudofaasini tahmirlash va uy —joy jamoatchilik imoratlari (bozor, karvon, saroy, sardoba), maxalliy amaldorlar uchun saroy, qasrlarni barpo etish vazifasi turar edi. shuningdek bu davrda maxalliy axoli uchun yangi imoratlar — machit, madrasa qurish talab qilinardi. Buyuk shaxslar qabrlari ustiga maqbaralar barpo etish an'anasi kuchaydi.²⁰

IX asrdan boshlab qurilishda pishgan gishtdan foydalanish boshlanib, X asrda undan keng foydalanilgan. Pishiq g'ishtdan qurilishda foydalanish nafaqat imoratning mustaxkamligini tahminlagan balki, ularning tashqi manzarasining ko'rkamligini xam tahminlagan. Shunday qurilish inshootlaridan biri Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi bo'lib, uni qurishda pishiq g'ishtdan turli usullarda foydalanilgan. G'ishtlar to'g'ri ko'ndalang, yon va qirra tomonlari bilan terilib, ular o'ziga xos bezak xosil qiladi. uning tashqi tuzilishi juda sodda. Kubik shaklidagi bino tomi kumbaz qilib yo'lgan. Maqbaraning sardevori bo'ylab ketma — ket kichik arkalar joylashgan. Burchaklaridagi minorasimon ustunlar devorlariga biriktirilgan. Eshiklarining tepasi xam arkasimon. SHuningdek Arabota, Karmanada Said Baxrom Uzunda, Oq ostonabobo, Termizda at — Termizy maqbaralari kabi mehmoniy obidalari saqlanganki, ular qurilish usuli va bezalishiga ko'ra umumiy va o'ziga xos xususiyatlari bilan bir — biridan ajralib turadi. Ularning devorlari murakkab o'yma ganchli naqshlar bilan bezatgan. Bu davr mehmonchiligida islmiy va shrix uslubidagi naqshlar bilan bezash keng tarqaladi. Shuningdek mehmonchilikda devorlarning sirtini koshinlar bilan bezash keng yoyilib, ularda ko'k va yashil ranglardan keng foydalanilgan. Mehmonchilik inshootlarini barpo etishda murakkab qurilish usullari (qubbalar, yoysimon arklar, gumbazlar, beshtoq) keng qo'llanilgan.

Bu davrda shaxar atrofi va tashqarisida qo'rg'onlar va qarorgoxlar xam barpo etilgan. Ulardan biri Buxoro yaqinidagi

Raboti Malikdir. Hovli ichkarisi qisqa xonalar bilan o'ralgan. Devorlari xam g'ishtdan ko'tarilib, pishiq g'isht bilan usti qo'langan. Tepasi asosi gumbaz bilan yo'ilib, atrofida kichik gumbazlar joylashgan. Hovli ichkarisida machit, xammom va boshqa xonalar xam mavjud. Asosiy xona bezatilgan.

Bu davrga oid masjidlar bizgacha deyarli yetib kelmagan. Buxoroda saqlangan. Ular asosiy xonalardan iborat bo'lib, gumbaz qilib yo'lgan. Masjidlarda aylana shakldagi minoralar bo'lgan. bu davr minoralari shakliga ko'ra turlicha. XII asrlarga oid Buxoroda kalom Vobkent tva Jarqo'rg'on minoralari saqlanib qolgan. Ular tashqi tomonidan bir —birini takrorlamaydi. Dastlabki ikkitasi silliq xolda ko'tarilgan bo'lsa, Jarqo'rg'on minorasi tagkursi ustida qator ustunsimon shaklda kurilib, tepada kichik arkalarga tutashgan. Tepa qismida ular davom ettirilib, ular o'rtasi belbog'simon shaklni xosil qilgan.

Bu davrning aloxida shaxslar uchun mavzoleylar qulish an'anasi kuchaydi. Mavzoleylarning ba'zilar to'liq pishiq g'ishtdan yoki xom g'isht bilan aralastirilgan xolda qurila boshladi. Ularga umbazli, bahzan ravoqli

Shulardan: Marvda Sulton Sanjar, Xorazmda (Urganch) El Arslon va Takashlarning maqbaralari diqqatga sazovardir. El Arslon va Takash maqbaralari kvadrat shaklida bo'lib,

²⁰ Центральная Азия. Новые памятники письменности и искусства: - М.: 1987 – С. 69

tepasida baland gumbaz joylashgan. Ular o'ziga xos mehmoniy uslubi va bezalish san'atiga ega bo'lgan xususiyatlari bilan ajram turadi.

XIV asrning oxirlaridan boshlab O'rta Osiyo mehmonchiligi mo'ru tatar bosqinidan so'ng o'zining yangi taraqqiyot bosqichiga kiradi. Gumbaz va qubbalar tuzilishi murakkablashadi. Mehmonchilikdagi eng katta yutuqlardan biri, ularga beriladigan bezaklar va bo'yoqlar mazmunining ortishidir. Koshinlar asosan ko'k, oq va xavo ranglarda bo'lib, gumbazlarga xavo rang berilgan. Bu davrga oid mehmoniy obidalar asosan Samarqand va Shaxrisabz Bu davrda Samarqandda Bibixonim, Go'ri Amir, Shoxizinda, Shaxrisabzda Oqsaroy va boshqa ko'plab mehmonchilik inshootlari barpo qilinadiki, ular Soxib Qiron Amir Temur davrida qurilgan boy mehmonchilik namunalari. Shuningdek Ulug'bek davrida xam bir necha mehmonchilik inshootlari barpo etiladi. Ulug'bek davrida Samarqand, Buxoro va SHaxrisabz shaxarlarida qurdirgan madrasa va masjidlar diqqatga sazovardir.

Shayboniylar davrida Samarqand shaxrida qurilish to'xtamagan bo'lsada asosiy qurilish inshootlarini barpo qilish an'anasi Buxoroga (Poytaxt ko'chirilgandan so'ng) ko'chadi. Buxoro shaxrida mudofaa devori bilan o'rab olinadi. Buxoro mehmonchiligida xususan diniy inshootlarda eski mehmonchilik ananalari yangi an'analar bilan uyg'unlashadi, jamoatchilik imoratlarida yangi mehmonchilik an'alarining ustunligi seziladi. Ayniqsa imoratlardagi gumbazlarning xonalariga mos tushishi mehmonlar izlanishining natijasidir.

Bu davrda xam jamoatchilik inshootlari; masjid, madrasa, xonaqo, sardoba, karvonsaroy va boshqalarni qurish an'anasi kuchayadi. XVI asrning mehmoniy bo'yoqlar Temuriylar davri an'anasi davom etsada, XVI asrning ikkinchi yarmidan so'ng eng sodda kam mehnat talab qiladigan bezaklardan keng foydalaniladi. Bu davrga oid Mir Arab madrasasi, masjidi, Kalon majmuasi, Abdullaxon madrasalari va boshqa mehmoniy obidalar o'z davrning ajoyib namunalari. SHuningdek Toshkentda Ko'kaldosh va Baroqxon madrasalari barpo etiladi.

XVII —XVIII asrlar davri mehmonchiligi o'tgan asr an'alarining davomi sifatida rivojlanadi. Buxoro, Samarqand va boshqa shaxarlarda ko'plab mehmoniy obidalar barpo qilinadi. Ayniqsa Xorazm mehmonchiligi o'ziga xos yo'nalishda rivojlanib, Xiva shaxrida bir necha madrasalar pishiq g'ishtdan barpo etiladi. XVII asr o'rtalarida Urganch shaxri xozirgi o'rniga ko'chirilib bu yerda xam yangi qurilish inshootlari barpo qilinadi.

Rivojlangan o'rta asrlar davri O'zbekiston tarixida Somoniylar davlati tashkil topishidan boshlanib, to temuriylar davlati inqirozigacha (IX-XVI asr) davom qiladi. Bu davmi ijtimoiy va iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan ikkita taraqqiyot va bitta inqiroz bosqichiga boMinadi. Birinchi taraqqiyot bosqichi IX-XIII asr boshlarini o'z ichiga oladi. Bu davr madaniy hayoti islom mafkurasi asosida shakllanib, o'ziga xos madaniy rivojlanish kuzatiladi. Markazlashgan davlat tashkil qilinib, unda awal somoniylar (IX-X), so'ng esa, uning hududlari uchta turkiy davlatlar- qoraxoniylar, g'aznaviylar va saljuqiylar o'rtasida (XI asrda) taqsimlanib, bu hududlarning katta qismida XII asr o'rtalarida buyuk xorazmshohlar davlati tashkil topadi.

XIII asr boshlarida mo'g*ullarning O'rta Osiyoga hujumi va bo'ysundirishi madaniy taraqqiyotga o'ta darajada salbiy ta'sir ko'rsatib, uning rivojlanishini bir necha yillarga to'xtatib qo'yadi. Bu jarayon to Amir Temurning hokimiyatni egallab, markazlashgan davlat tashkil qilgunicha davom etadi. Shu sabab XIII asr O'zbekiston tarixiga inqiroz davri boMib kirgan. Amir Temur va temuriylar davrida madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy hayot jonlanadi, o'ziga xos madaniy taraqqiyot kuzatiladi. Bu davr ikkinchi taraqqiyot bosqichi boMib, XIV-XV asrlarni o'z ichiga oladi. Buni tadqiqotchilar uyg'onish davri deb baholavdilar.

Rivojlangan o'rtta asming birinchi taraqqiyot bosqichida Somoniylar olib borgan markazlashtirish siyosati mamlakatning iqtisodiy jihatdan yuksak darajada rivojlanishiga sabab bo'ldi. Shaharlar o'sdi va ulaming iqtisodiy savdo aloqalari mustahkamlandi. Masalan, arab tarixchi va geograflarining ta'kidlashicha, birgina Choch va Iloqda 50 dan ortiq shaharlar bo'lgan. Shaharlarda hunarmandchilikning kulolchilik, shishasozlik, temirchilik, yog'och va terini ishlash hamda to'qima-chilik sohalari rivojlangan.

X asr oxirlarida Movarounnahrda qoraxoniylar hukmronligi o'rnatildi. Qoraxoniylar somoniylarning mamlakatni boshqarish, pul zarb etish va boshqa an'analarini davom ettirganlar. Ammo, oltin dinor zarb qilmaganlar. Arab tarixchilari Yoqut va Ibn Xavkalning yozishiga qaraganda, Buxoroda savdoda dirham ishlatilgan, dinor esa, tovar sifatida sotilgan. Bu davr madaniy hayotida katta o'zgarishlar yuz berdi. Ilm-fan, din va tasavvuf, me'morchilik va san'at, musiqa san'ati rivojlandi. XI asrdan boshlab shaharlarning ijtimoiy - iqtisodiy qiyofasi o'zgargan. Shaharlar hunarmandchilik va savdo-sotiq markaziga aylandi. Ular hunarmandchilikning ma'lum bir tarmog'i bo'yicha ixtisoslashdi. Aholisining soni ham oshib borgan. Shaharlarning tuzilishida ham o'zgarishlar kuzatildi. Ularning maydoni kengaydi. Ark avvalgidek, alohida istehkom ichida emas, balki shahar devori ichiga quriladigan bo'ldi. Shuningdek, rabotlarda ko'plab karvon saroylar, ulg'uj, tashqi savdo bozorlari bo'lgan. Shaharlarning qurilish rejasi avvalgidek saqlanib qolgan, ya'ni shaharlar to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, shahar markazida kesishib o'tgan ikki ko'cha bo'lgan.

Quva shahrining IX-X asrlarda eng rivojlangan davri bo'lgan. Shahami arxeologik jihatdan o'rganishda B.A.Latinin, V.D.Jukov,

A. N.Bemshtam, V.A.Bulatova, I.Ahrorov, Yu.A.Zadneprovskiy,

B. X.Matboboyevlarning xizmatlari katta. Shaharning eng quyi madaniy qatlami I-III asrlarga oid. Quvani muntazam ravishda o'rganish 1956 yildan boshlangan. 1996-1999 yillarda O'zRFA Arxeologiya instituti tomonidan tadqiqot ishlari olib borildi. Shaharning mil. av. V-IV asrlarga oid topilmalar topilgan. Bular charxsiz qo'lda yasalgan, osti qismi yumaloq idishlar va kulolchilik charxida ishlangan yupqa idishlar topilgan. Ularning sirtiga bo'yoq bilan geometrik naqsh berilgan. Ark va shahriston V-VII asrlarda mudofaa devori bilan mustahkamlangan. Shaharning 3 qismi ham mudofaa devori bilan o'ralgan. Uning maydoni 12 ga. bo'lgan.

X asrdan boshlab Quva to'g'risida ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Bu davrda Quva dahalarga bo'lingan va har bir dahada markaziy maydon va diniy marosimlar uchun maxsus xonalar bo'lgan. Quvada X-XI asrlarga oid zarbxona topilgan. Tangalarning bir tomoniga qur'onu Karimdan oyat, ikkinchi tomoniga, Ahmad ibn Ali nomi tushirilgan. U Quvaning X asr o'rtalardagi hokimi bo'lgan.

XI asrda Janubiy Farg'onada Marg'ilon shahrining rivojlanishi Quva shahri rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Quvada hayot mo'g'ullar istilosi davrigacha davom etgan.

Quva Arki yodgorlikning shimoli - sharq tomonida joylashgan. U mil. av. II-I asrlarda qurilgan. X asrgacha markaz faoliyatini bajargan. Undan keyin shahar markazi rabotga ko'chgan. Shahar shahristoni 12 gektami egallagan. U kuchli mudofaa devori bilan o'ralgan. Uning hozirda saqlanib qolgan qalinligi 12-15 metr, balandligi

6-8 metr, umumiy uzunligi 1330 metr bo'lgan. Devorda burjlar bo'lgan. Uning atrofi suv to'ldirilgan handaklar bilan o'ralgan. 1998 yilda olib borilgan tadqiqotlar jarayonida shahristonning yaxshi saqlangan darvozasi topilgan. Shahristondan hunarmandchilik sohalari asosida dahalarga bo'lingan va aholi uylari zich qurilgan. Rabot 150-200 gektami taslikil etgan.

Bugungi kunda u saqlanib qolmagan. Rabotda bozor, bog'lar, amirlar saroyi, qamoqxona, hunamiandlaming uylari bo'lgan. bo'lganligini yozma manbalarda yozib qoldirilgan.

Quva ustalari o'zlari ishlagan shishalari bilan mashhur bo'lgan. U erda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida ko'plab shisha buyumlar topilgan. Ular nihoyatda yupqa ishlangan qadah, atir sepkich, mushk-anbar taratkich, qon bosimini tushurgich-alambika, grafin, atir - upa idishlari, tibbiyot kolbalaridir. Shishasoz ustalar qurilish oynalari ham ishlab chiqarganlar. Ular yasagan oynalar derazalar va tuynuklarga qo'yilgan bo'lib, qora ranglilari ham uchraydi.

Rivojlangan o'rta asr shaharlarida yangi bino turlari vujudga kelgan. Jumladan, niasjidlar, minoralar, niaqbara, karvon saroy, sardoba, xonaqoh va boshqalar.

IX asr boshlarida binolami qurishda xom g'isht va paxsa ishlatilgan. Keyinchalik ma'muriy va jamoa binolarini qurishda pLshiq g'ishtdan foydalanila boshlangan. Turar joy binolarini qurish ishlarida esa, sinch va paxsa asosiy o'rinni egallangan. Pardoiz ishlarida esa, somonli loysuvoq, ganch, sirlanmagan koshin va sopol plitkalardan foydalan- ganlar. XII asrdan sirlangan koshin va mayolika ishlatisli usuli kashf etilgan.

IX—X asrlarda xom g'isht va paxsadan bunyod qilingan imoratlar turli holatda saqlanib qolingan. Afrosiyobda Somoniylar qasrining bir qismi saqlangan. U nafis o'ymakorlik usulida bezatilgan. Termiz yaqinidagi Qirqqiz qal'asi xom g'isht va paxsadan qurilgan hashamatli bo'lib, uning asosiy devorlari bugungi kungacha saqlanib qolgan. Bunday hoi nihoyatda kam uchraydi. Arxeologlar bu qalaning yaxshi saqlanishini loy qorish va uni ishlatish texnologiyasining niukammalligida deb bilishadi va bu uslub vaqt o'tishi bilan unitilib ketgan deb hisoblashadi. Qadimiy Xorazm hududidagi Qavat qala ham yaxshi saqlangan.

Bu davrda pishiq g'ishtdan dastlabki imoratlar bunyod qilina boshlangan. Bunga Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasini misol keltirish mumkin. Bu inshoot Ismoil Somoniy davrida (873-907 yy.) qurilgan. Bu maqbara nafaqat O'zbekiston, balki butun O'rta Osiyo nie'morchiligi durdonasi hisoblanadi. Imorat kubsimon shaklda bo'lib, •ashqi tomonlarining uzunligi 10 metrga yaqin, ichki tomoni 7,2x7,2 nietr bo'lib, usti gumbaz tarzida yopilgan. Binoning qurilishida ishlatilgan asosiy g'ishtning razmeri 23x23x3 sm, kichkina g'ishtlar 12x12x3 sm, yirik g'ishtlaming o'lchami 60x63x6,5 sm bo'lgan. Maqbaraning qurilish uslubi ilk o'rta asrlardagi otashparastlar ibodatxonasining olovxonasiga o'xshaydi.

Samarqand viloyati Tim qishlog'idagi Arab-ota maqbarasi ham bu davrga oid diqqatga sazovor binolardan biridir. Bu maqbarada dastlabki peshtoq namunalari uchraydi. Maqbaraga kirish bir tomonlama, peshtoq orqali bo'lib, u butun sharqiy devomi egallagan. Peshtoqning ustki qismi ravoqlar bilan bezatilgan. Arab-ota maqbarasi P.Sh.Zoxidov fikricha, oldin somoniylar qasrining bir qismi bo'lgan kevinchalik maqbaraga aylantirilgan.

Umuman, XI-XII asrlarga oid maqbaralar O'rta Osiyo hududida ko'p saqlanib qolgan. Ularning qurilish uslublari bir—biriga yaqin. Maqbaralar orasida chodirsimon gumbaz bilan yopilganlari alohida ajralib turadi. Bu turdagi gumbazlar Pokiston, Xindiston va boshqa mamlakatlarda «gumbazi turkistoni» deb nomlanadi. Gumbazi turkistoni bilan yopilgan maqbaralar turkumiga Qadimgi Toroz (hozirgi Jambul) yaqinidagi Bobaji Xotun, Ko'hna Urganchdagi Faxriddin Roziy va Sulton Tekesh maqbaralarini misol qilish mumkin.

IX-XII asrlarda masjidlar qurilishiga ham alohida e'tibor berganlar, chunki u islom dinining asosiy g'oyaviy markazi hisoblangan. Ular xuddi lurar joylardek, hovli atrofini o'rab olgan ay von ko'rinishiga ega bo'lgan. E'tirof etishlaricha, Muhammad payg'ambar, dastiab ibodatgoh sifatida onasining uyidan foydalangan ekan. Masjidlaming bir tomonida mehrob bo'lib, ular ham alohida bezatilgan. Shuningdek, masjidlar yonida azon aytilish uchun minoralar

bunyod qilingan. Lekin ulaming ko'pchilik qismi saqlanib qolmagan. Ko'hna Urganch, Termiz, Buxoro, Vobkent va Jarqo'tondagi minoralar bizning davrimizgacha etib keigan.

Jarqo'tondagi minora Seraxsluk ustoz Ali ibn Muhammad tomonidan qurilgan. Uning balandligi 21,6 m va ostki diametri 6,4 m ga teng. Devorlari yarim aylanasimon bo'rtmalar tarzida olinib, ulaming yuqori qismida ravoqchalar bilan tutashtirilgan. Buxorodagi Minorai Kalon 1127 yili qaraxoniy Arslonxon buyutmasi asosida qurilgan. Uning balandligi 45, 60 m bo'lib, 10 burchakli poydevor ustiga qurilgan, diametri 9 metr ga yaqin. Uni usta me'mor Baqo bunyod qilgan. Bu minora pishiq g'ishtdan bunyod qilingan bo'lib, uning ustki qismiga o'yma naqsh bilan nihoyatda go'zal, takrorlanmas bezaklar berilgan.

Vobkent minorasini Baqo ustozning shogirdi qurgan deb hisoblanadi. Uning balandligi 38,7m, 12 burchakli poydevor ustiga qurilgan, diametri 6,2 in. U ham pishiq g'ishtdan naqshinkor qilib bezatilgan.

Bu davrga oid madrasalar bizning davrimizgacha etib kelmagan. Faqat Shohi Zinda kompleksidagi Tamg'acli Bug'raxon madrasasining qoldiqlari saqlanib qolgan. Tarixiy manbalarda uning 1066 yilda qurilganligi aytib o'tilgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida uning tomonlari 44x55 m bo'lganligi aniqlangan.

Kirish tomoni sharqqa qaratilgan bo'lib, uncha katta bo'lmagan peshtoq bo'lgan. Uning o'ng va chap tomonlarida 2ta gumbazli darsxona bo'lgan. Hovli atrofida 10 ga yaqin hujralar, masjid va yozgi darsxonasi bo'lgan.

Bu davrga oid karvon saroylarning ham ko'pchiligi yaxshi saqlanmagan. Lekin nomlari xalq orasida saqlanib qolgan. Jumladan. Tosh-rabot, Qo'shrabot, Oq-rabot, Doya xotin va boshqalar. Odatda karvon saroylar rabotda joylashgan. Doya xotin va Raboti Malik karvon saroylari ma'lum darajada saqlanib qolgan.

Ular orqali biz o'sha davrlarda karvon saroylar kandy tarzda bo'lganligi to'g'risida xulosa chiqara olamiz. Raboti Malik karvon saroyi 1078-1079 yillarda Qoraxoniy Shams ul-Mulk tomonidan qurilgan deb hisoblanadi. Bu bino xom g'ishtdan qurilgan bo'lib, pishiq g'isht bilan pardozlangan. Devorlarining balandligi 12 m bo'lgan. Bugungi kunda uning peshtoqi saqlanib qolgan. Binoning old tomonining ikki burchagida minoralar bo'lgan. Minoralardan peshtoqqacha bo'lgan joylarda kungurador-yarim ustunlar joylashtirilgan. Uning usti ravoq toqlar bilan birlashtirilgan. Bino ikki qismdan iborat bo'lgan. Peshtoqdan ko'ngdalang joylashgan hovliga chiqilgan, uning to'rtala lomonida hovlilar bo'lgan. Hovlining to'rida katta gumbazli saroy va xonalar bo'lgan. Bir paytlar Raboti Malik karvon saroyi katta kompleksdan iborat bo'lgan. Uning qarama-qarshi tomonida sardoba bo'lib, u ham hozirgi kungacha saqlanib turibdi.

Sardobalar bu davr uchun muhim me'moriy obidalardan bin bo'lgan. U shaharlar oralig'ida joylashgan karvon saroylar - rabotlar yaqinida qurilgan. Ko'pincha sardoba shu erdagi yagona suv manbai bo'lgan. Bu inshootlar suv yig'gich bo'lib, unga qor, yomg'ir ba'zan quduq suvlari maxsus inshootlar orqali to'planib yo'lovchilar uchun uzoq muddatga saqlashga mo'ljallangan. Ular gumbazli aylanasimon hovuzlar tarzida qurilgan. U erdan suv sizib ketmasligi uchun g'ishtlar maxsus qorishma - qir bilan terilgan va pardozlangan. Qir - ohaq, qamish kuli va qipig'idan tayyorlangan maxsus suv o'tkazmaydigan qorishma. Sardobalarning ko'pchilik qismi bizning davrimizgacha saqlanib qolgan.

Movarounnahr shaharlari hayotidagi iqtisodiy va siyosiy tangliklar qoraxoniylar davlatida yuz bergan siyosiy tarqoqliklar bilan bog'liq bo'lgan. Mo'g'ullar istilosi Movarounnahr shaharlari hayotida yomon iz qoldirdi. Ko'pchilik shaharlarning maydoni qishloqlar darajasiga tushib qoldi, ba'zilar mutlaqo xuvillab qoldi. Movarounnahr tarixida XIII asming 20-yillaridan inqiroz davri boshlandi. XIV asming 20-30 yillarida ham mo'g'ullar tomonidan amalga

oshirilgan vayronagarchilik hali tugatilmagan, hunarmand- chilik, dchqonchilik va savdo-sotiq o'zining XIII asr boshlaridagi darajasiga ko'tarila olmagan. Faqat tarix sahnasiga Amir Temur ko'tarilgach, XIV asming 70- yillaridan Movarounnahming iqtisodiy va siyosiy, hamda madaniy hayotida jadal rivojlanish boshlandi. Temur istilolari bilan bog'liq holda Movarounnahr shahar hayotida, markazlashgan davlat sharoitida iqtisodiy xo'jalikning barcha tarmoqlarida, madaniy hayotning barcha jabhalarida gullash davri boshlandi. Yangidan-yangi shaharlar qad ko'tardi, ichki va tashqi savdo, bozor munosabatlari izga tushdi. Madaniy hayotda somo- niylar, qoraxoniylar, va xorazmshohlar davridagidek buyuk o'zgarish- lar yuz berdi. Natijada unium bashariyat sivilizatsiyasi yuksak cho'qqilarga ko'tarildi. Rivojlangan o'rta asming ikkinchi taraqqiyot bosqichi temuriylar davri bilan bog'liq. Amir Temur o'z davlatining poytaxti qilib Samarqand shahrini tanlagach, u erda obodonlashtirish va qurilish ishlarini boshlab yubordi. 1371-1373 yillarda hozir ma'muriy binolar joylashgan tepalik (Tepa qo'rg'on)da o'z arkini qurdiradi. Temur davrida, ark -»shahri damn«, shahaming devor bilan o'ralgan qolgan qismi esa «hisor» deb ataldigan. Samarqand shahri mustahkam va baland mudofaa devori bilan o'rab olingan. Mirzo Boburning ma'lumotiga ko'ra, uning ustida o'tliq bemalol yura olgan. Mudofaa devomining tashqi aylana qismi keng bo'lib, chuqur handaq bilan mustahkamlangan.

Ark hududi 34 gadan ortiq bo'lgan. Ark devorining balandligi 8 metr, pastdan eni 3 metrdan ortiqroq qilib tiklangan. Shahar arkida 2 ta darvoza bo'lgan. Ark va undagi binolari pishiq g'isht va xom g'ishtdan qurilib, bezashda mannar tosh, ganch, yog'och hamda turli xil sirlangan koshinlardan keng foydalanilgan.

Arkda hukumat idoralari, masjid va madrasalar, shohona uy-joylar, 15 ming jildli noyob kitoblarni o'zida jamlagan ulkan kutubxona, Amir Temuming xazinasi, taxti, zarbxona, aslahasozlik ustaxonalari, hammom, hovuz, zindon va boshqa binolar joylashgan. Shuningdek, unda madaniy-maishiy binolar, suv inshootlari, vashil zona, gulzorlar, hunarmandchilik ustaxonalari, do'konlar va savdo rastalari tartib bilan joylashtirilgan. Ark ichida davlatning asosiy qarorgohi bo'Mgan Ko'ksatoy hamda Bo'stonsaroy joylashgan.

Ko'ksaroy tuzilishi jihatidan to'rt qavatli bo'Mib, go'za! naqshlari betakror bo'Mgan. Ushbu saroyning bezaklarida ko'k zangori rangdagi sirkor koshinlar ko'p ishlatilganligi sababli Ko'ksaroy deb ataganlar. Unda saltanatning muhim tadbirlari o'Mkazilgan. Jumladan, xonni taxtga o'tqazish yoki uni taxtdan olish kabi marosimlar, elchilar, shahzodalarni, oliy maqomdagi mehmonlarni shu saroyda qabul qilganlar.

Bo'stonsaroyda asosan hukmdorlarning yaqin kishilari, vazirlar, ularning oila a'zolari yashaganlar. Shuningdek, bu erda turli tadbirlar - bazm va to'y-tomoshalar, oliy martabali kishilarning tantanali uchrashuvlari o'tkazilgan. Elchi va mehmonlar shu erda qabul qilingan.

Samarqand shahri darvozalari 6 ta bo'lgan. Ulardagi peshtoqlarning ikki tarafida mustahkam minoralar bo'Mgan, devorlari esa turli ranglar- dagi naqshlar bilan bezatilgan

Rabotda turli-tuman kasbdagi hunarmandlarning mahallalari bo'Mgan. Shahar tashqarisida Tenuir Bog'i Naqshi Jahon (Clio'pon-Ota yonbag'irlarida), BogM Baland(hozir shu nomli mahalla o'mida), BogM Shamol (hozir shu nomli daha o'mida), BogM Behisht, BogM Nav (qal'a yonida). BogM Chinor, BogM Dilkusho, BogM BoMdu. BogM Zag'on, BogM amirzodai Shohruh. BogM Davlatobod, BogM Jahonnoma kabi bog* va charbogMami bunyod qildirgan.

Shahar XVIII asming 20 yillarida shahar inqirozga uchrab, uzoq vaqt bo'shab qoldi. Shahardagi me'moriy yodgorliklar, jumladan, darvozalar tam harobaga aylangan.

Samarqandni arxeologik jihatdan o'rganish ishlari XIX-asming oxirlarida boshlangan. 1895 yilda sharqshunos olim V.V.Bartoldning tashabbusi bilan tuzilgan «Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi» a'zolari Samarqanddagi Afrosiyobni ko'p asrlar xazinasi deb qarab, «Hda

keng ko'Mamdagi arxeologik qazilma ishlarini olib bordilar. ^•L.Vyatkin, N.I.Veselovskiylar o'Mkazgan arxeologik qazilmalar ''atijasida turli holdagi qadimiy buyumlar topilib, niuzeyga berildi. 1908 yilda V.L.Vyatkin Samarqand chekkasida joylashgan Ulug'bek rasadxonasining o'mini aniqladi va qazish ishlarini o'tkazdi. Natijada rasadxona harobasi hamda lining er ostidagi butun qolgan qismi qazib ochildi.

Keyingi davrlarda ham Samarqand hududida arxeologik tadqiqot ishlari keng ko'lamda davom etdi. 2001 yilda YlfNESKOning Finliyandiyada o'tkazilgan 25-sessiyasida Jahon merosi ro'yxatiga kiritildi. Samarqandda 73 ta yirik tarixiy-me'moriy yodgorliklar mavjud bo'lib, bular; Registon ansambli, Shohi Zinda ansambli, Amir Temur maqbarasi, Ulug'bek rasadxonasi, Bibixonim jome masjidi, Ruhobod maqbarasi, Abdidarun majmuasi, Hoja Ahror masjidi, Hazrati Xizr masjidi va boshqalar.

Amir Temur davrida qurilgan bino va chorbog'laming ko'pgina qismi bizning davrimizgacha saqlanmagan. Saqlanib qolganlari ham o'sha davr me'morchiligining yuksakligini ko'rsatib turibdi. Bular jumlasiga, Shohi Zinda yodgorligi, Bibi Xonim masjidi, maqbarasi va madrasa qoldiqlari, Ruhobod (Shayh Burxoniddin Sag'orjiy maqbarasi), Go'ri Amir ansamblining asosiy qismi, Sharisabzdagi Oqsaroy, Jahongir maqbarasi, Shamsiddin kulol maqbarasi, Turkistondagi Xo'ja Ahmad Yassaviy xonaqohlarini kiritish mumkin.

Temuriylar davri shaharsozligini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ular ko'p asrlik me'moriy an'analami davom ettirganlar. Bu davrda ham shaharlar to'rtburchak shaklda qurilgan bo'lib, mustahkam mudofaa devoriga, burj va darvozalarga ega bo'lgan. Har bir shaharda ark va hisor bo'lgan. Lining markaziy qismida, ya'ni ko'chalar kesishgan joyda yopiq savdo gumbazlari bo'lgan. Juma masjidlari shahar bozoriga yaqin joylashtirilgan. Madrasalaming oldida ham keng maydon tashkil qilingan. Hunarmandlaming o'z sohalari bo'yicha ixtisoslashi va aholining tabaqalarga bo'linib yashashi shaharning daha va mahallalarga bo'linishiga olib kelgan. Bosh ko'chalarda hunarmandchilik va savdo rastalari bo'lgan.

Aholining turar joylari ilk o'rta asrlardagidan farqli ravishda hovlili, bolaxonali va darvozali qilib qurilgan. Qurilish materiali sifatida xom g'isht va paxsa ishlatilgan. Pishiq g'isht poydevorlariga va hovlining yuzasiga ishlatilgan. Bu davrlardagi turar joylaming tuzulishi ko'pincha o'sha davrda yaratilgan mo''jaz tasviriy san'at asarlaridan olingan. Shuning uchun oddiy aholining turar joylari haqida ma'lumotlar etarh emas.

Temur davrida bunyod etilgan qasrlardan Shahrisabzdagi Oq saroy bir muncha saqlanib qolingan. Bu qasr Shahrisabz arki hisoblanadi.

Saroyning qurilishi 1380 yilda boshlanib, pardozi ishlari 1404 bo'lgan. Uning ikkita tayanch qismi bugungi kungacha saqlanib turibdi. Shuning o'zi ham bu qurilgan imoratning salobatli bo'lganligidan darak yilgacha davom ettirilgan. Qasrga kirish qismida ulkan va bejirim peshtoq berib turibdi. Peshtoq ustunlari girih, islmiy va hattotlik naqshlari bezalilgan. O'ng ustunga Temurga bag'ishlangan tarixiy lavha oltin suvi bilan yozilgan.

Temuriylar davri shaharsozligida bozor va savdo inshootlari qurilishlariga ham katta e'tibor berilgan. Bular to'g'risida Ispaniya qiroli Karl (lining Temur saroyidagi elchisi Rui Gonzales Klavixo asarida, «Bobumoma» kabi o'sha davr qo'lyozma asarlarida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Ularda ochiq bozorlar bilan bir qatorda rasta, chorsu, tim va boshqa usti yopiq savdo inshootlari to'g'risida yozib qoldirilgan.

Temuriylar davrida bunyod etilgan eng noyob inshootlardan biri Ulug'bek rasadxonasidir. U 1424 yilda Obi Rahmat arig'i yonida, osti tog' jinsli toshlardan iborat tepalik ustiga qurilgan. Rasadxona dumaloq shaklda bo'lib, diametri 48 metr bo'lgan. Abdurazzoq Samarqandiy uni etti qavatli, Bobur esa, uch oshyonali deb yozadi. Arxeolog

V.L.Vyatkin tomonidan rasadxonaning poydevori va asosiy asbobi- Faxriy sektanti joylashtirilgan chohi qazib o'rganilgan. Bu chox aylananing oltidan bir qismi erga o'yib yasalgan. Uning ikki hoshiyasi marmar bilan pardozlanib gradus, daqiqa, soniyalar tushirilgan. Bino pishiqlik g'ishtdan ishlangan.

Temur davrida bunyod etilgan madrasalarning ma'lum bir qismigana saqlanib qolgan, ular to'g'risida tadqiqotchilar o'rtasida turli xil fikrlar mavjud. Ulug'bek davrida bunyod etilgan madrasalar yaxshi saqlanib qolgan. Samarqandda 1417-1420 yillarda qurilgan madrasa boshqa madrasalardan qurilishi va bezalishi jihatdan alohida ajralib turadi. Bu madrasaning tomonlari 81x56 metm tashkil etgan. To'rt burchagida minora bo'lgan Binoning old tomonida peshtoqlik qurilgan. Hovli atrofida 28 ta hujra ikki qavatli tarzda joylashgan va hujralarning har biri ikki bo'limli bo'lgan. Madrasa hovlisida 4ta ravoqli ayvon bor. Uning 3tasi yozgi darsxona vazifasini o'tagan. Bosh peshtoqlik tomonida joylashganlari esa, qishki darsxona vazifasini o'tagan. Hovli to'rida masjid joylashgan. Binoning tashqari qismi girih va hattotiy naqshlar bilan koshinlangan. Peshtoqlik 10 yulduzli girih, bosh ravoqli cheti morpechdan iborat. Hovli ichidagi ayvonlar, hujra peshtoqlari girih, islmiy va hattotiy naqshlar bilan bezatilgan.

Ulug'bek tomonidan 1417 yilda Buxoroda qurilgan madrasaning kompozitsion echiimi binnuncha oddiyoqlikdir. Unda bir qishki va ikkita yozgi darsxona mavjud. Hujralar ikki qavat qilib qurilgan bo'lsa ham, bosh peshtoqlik tomonidagi hujralar ko'cha tomonga qaratilgan. Binoning to'rt burchagida minora emas, guldastalar o'rnatilgan. Shu madrasaning darvozasida «Ilm olmoqlik har bir musulnon va musulnang burchi- dir» degan yozuv saqlanib qolgan. 1433 yilda Ulug'bek tomonidan G'ijduvonda bunyod etilgan madrasa bir qavatlidir. Uning hovlisi to'rida yozgi darsxona, o'ng tomonida masjid, chap tomonida maktab-darsxona joylashgan. Yozgi darsxonang ikki yon tomonida esa, 8 ta hujra joylashgan. Madrasaning to'rtburchagi guldastalar bilan yakunlangan.

Xonakohlar asosan darveshlarning toat-ibodati uchun mo'ljallanib qurilgan. U gumbazli katta xonadon va uning atrofida turli ko'rinishda xona va xujralardan iborat bo'lgan.

O'rta asrlar me'morchiligida jom'e masjidlari qurilishiga alohida ahamiyat berilgan. Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Toshkent va boshqa shaharlarda ular o'ta pishiqlik va ulug'vor tarzda bunyod etilgan. Jumladan, Bibixonim masjidi o'zining salobatini bugungi kunda ham namoyon qilib turibdi.

Sharofiddin Ali Yazdiy ma'lumotiga ko'ra, Bibixonim masjidining qurilishida Hindistondan kelgan tosh tarashlar ishlagan. Tosh ustunlarni tashish uchun fi liar ham olib keltirilganligini yozib qoldirgan. Shuningdek, 380 tosh ustuni yo'nilganligini va masjid asosiy binosining balandigi 90 gaz (1 gaz-60,8 smga teng) bo'lgan deb ko'rsatadi. Demak, binoning balandligi 55 metrga teng.

Bibixonim masjidining tashqi tomonlardagi burchaklaridan hisoblanganda 130x99 m. Hovlisi esa, 78x64. Masjidning to'rt burchagida to'rtta minora o'rnatilgan. Hozirgi kunda bittasi saqlanib qolgan. Bosh peshtoqlik ancha oldinga chiqarilib, kichrayib boruvchi uchta toqli tarzida ishlangan. Peshtoqlikning ikki tashqi chetida dumaloqlik minora burj shaklida ishlangan. Hovli to'rida maqsura joylashgan bo'lib, uning ham peshtoqlik mahobatli ishlangan. Masjidning xonaqoh va maqsuralari tomi ikki qavatli gumbaz qilib ishlangan. Gumbazning ichki tomoni lojuvard, til la va boshqa ranglar bilan ishlangan islmiy naqshlar izlari saqlanib qolgan. Tashqi bezaklari ham girih, hattotiy va ozroqli islmiy naqshlar bilan bezalgan.

1434-36 yillarda Shahrisabzda o'ziga xos me'moriy tarzda Ulug'bek tomonidan qurilgan Ko'k gumbaz junta masjidi ham diqqatga sazovordir. Uni Ulug'bek otasi - Shohruh Mirzo sharafiga qurdirgan.

Temuriylar maqbaralar qurilishiga alohida e'tibor berganlar. Ular marhumlarning ruhlari, agar ularga to'g'ri munosabat qilinsa, doimo sulolaga homiylik qilib, qo'llab quvvatlab turadi deb hisoblashgan. Amir Temur ham hokimiyatni qo'lga olgach, Kesh shahrini davlatning ikkinchi poytaxti sanab, u erda oilaviy xilxona bunyod qildirgan. U «Dorus-saodat» deb nomlanib, qurilishi 20 yil davom etgan. Dorus- saodatda madarasa ham bunyod etilgan. Klavixoning yozib qoldirilishicha, XV asming boshlarida, bu erda Amir Temur maqbarasi ham qurilgan. Bugungi kunda majmuadan faqat Hazrati Imom maqbarasigina qolgan. Arxeologik qidiruvlar jarayonida oq marmardan ko'rkam sag'ana va tosh tobut topildi. Qazuvlar natijasida Hazrati Imom maqbarasiga simmetrik tarzda qurilgan ikkinchi inshoot bo'lganligi ham aniqlangan. Ushbu inshootlar hashamatli peshtoqning katta gulustuni ustiga qurilgan bo'lib. Uning tarkaziy qismida sag'anali xon maqbarasi joylashgan. Lekin AmirTemurni uning nabirasi Halil Sulton bobosining qabriga xomiylik qilish unga vorislik uchun qo'shimcha asos bo'lib xizmat etadi deb hisoblab, Sohibqiron jasadini Keshga jo'natmasdan, Samarqandga dafn ettiradi.

Shohi Zinda qabristoniga 1372 yilda bevaqt vafot etgan Shodintulk xonim qo'yilgach, bu er xonning e'tiborida bo'ladi. Keyinchalik bu erga Qutlug' Turkon og'och, Shirinbekalar dafn qilinib, maqbaralari bunyod qilinadi. Amir Temurning nabirasi, valiyaxdi deb e'lon qilingan. Muhammad Sulton 1403 yilda to'satdan vafot etgach, buyuk saltanat •Mnzi sifatida Samarqandga dafn etishga qaror beradi. Sohibqiron nabirasi qabri ustiga yangi maqbara qurdiradi. Uning nomi bilan atalgan ntadrasa va xonakoh janubida marhuin xonzoda uchun sag'ana barpo qilinadi.

bq.maqbaralar). Ularning go'rxonalari ko'pincha er ostida bo'ladi. Ko'p xonali maqbaralar ham turli murakkab ko'rinishlarda bo'lib, ulanda qozonxona, go'rxona, masjid, kitobxona, quduqxona va turli xonalardan iborat bo'lgan (Shohi Zinda, Axmad Yassaviy va bq.maqbaralar).

Yodda tuting! Rivojlangan o'rta asrlarda

- X asrdan pishiq g'isht qurilishda ishlatila boshlangan.
- Pishiq g'ishtdan ishlangan dastlabki imorat Ismoil Somoniy maqbarasidir.
- XII asrdan sirlangan koshin va mayolika ishlatish usuli kashf etilgan.
- Arab ota maqbarasida ilk marta peshoq qurilgan.
- Maqbaralardagi chodirsimon gumbazlar «gumbazi turkistoni» nomini olgan.
- Masjidlar turar joylar tarzida qurilgan.
- Minoralar masjidlar yonida qurilib, ularda azon aytilgan.
- Sardobalar suv yig'adigan inshootdir.
- Amir Temur davrida ark-shahri damn, shaxriston-hisor deyilgan.
- Samarqand hududida 73 ta me'moriy yodgorlik saqlanib qolgan.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar:

1. Rivojlangan o'rta asrlar qanday bosqichlarga bo'lingan?
2. Qanday yangi tur binolar vujudga kelgan?
3. Pishiq g'ishtdan qachondan foydalana boshlangan?
4. Sardoba nima?
5. Temuriylar davri shaharsozligining o'ziga xos tomonlarini ko'rsating?
6. O'rta asrlarda Rossiyada qanday madaniy yodgorliklar saqlanib qolgan?

II – smestr Etnologiya fanidan ma’ruza

1-Mavzu. Etnologiyaga kirish va tarixi

Reja:

1. Etnologiya fani predmeti.
2. Etnologiyaga fani manbalari
3. Etnologiyaga fani metodlari.
4. Etnologiyani mustaqil fan sifatida shakllanishi.
5. Etnologik terminlar turli maktablardagi talqini.

Tayanch iboralar: Xalqshunoslik, etnologiya, “etnik birlikka”, “etnonimi”, muzey fondlari, yozma manbalar, arxiv manbalari, kuzatish asosida to‘plangan ma’lumotlar, dala materiali, folior manbalari, arxeologik, lingvistik .

I. Etnologiya fani predmeti.

Taniqli tadqiqotchilar fikriga ko‘ra etnologiya fanining asosiy o‘rganish predmeti bu xalq va xalqlarning madaniy o‘ziga xosligini o‘rganish bo‘lib kelgan. Shundan fanning umumiy etnologiya bo‘limi mavjud xalqlar hayotini, tarixiy etnologiya bo‘limi esa tarix sahnasidan yo‘qolib ketgan (masalan 1876-yilda tugatilgan tasmanlar, yoki qadimiy xetlar, midiyaliklar) turmushini tadqiq etadi. Etnologiya fanida odatda “turmush” degan tushuncha ostida insonning ananviy shaxsiy yoki ijtimoiy hayoti tushuniladi. Turmush tarzi har bir xalqda o‘ziga hos, qo‘shni xalqlardan farqli shakllanadi.

Xalqlar turmush tarzidagi o‘ziga xoslikni tadqiq etish uchun avvalo fandagi xalq tushunchasini aniqlashtirib olish muhim. Bilamizki etnologiya fanida “Xalq” tushunchasi fanning asosiy va muhim tushunchasi hisoblanib, xalq tushunchasi muayyan etnik belgilarga ega “Etnik birlikka” nisbatan qo‘llaniladi. Jumladan, xalqga hos etnologik belgilar: etnik birlikka xos umumiy til, umumiy etnik hudud, turmush va madaniyatdagi o‘ziga hoslik, kelib chiqish umumiyliigi, etnik o‘zlikni anglash, o‘zining nomi “Etnonimi” ga ega bo‘lish tashkil etadi. Taniqli tadqiqotchilar fikriga ko‘ra taraqqiyotning turli davrlarida ulardan biri yoki bir nechtasini aniqlovchi omil hisoblanishi mumkin. Talabalar e’tiborini shu o‘rinda ba’zi istesnolar ham mavjudligiga e’tiborlarini qaratish zarur deb hisoblaymiz. Xususan, a) Til-ko‘pincha bir xalqga xos etnik mansublikni belgilab beradi. Masalan rus xalqi vakili uchun rus tili, yapon xalqi vakili uchun yapon tili shunday belgi xususiyatiga egadir. Lekin ispan tili Meksikalik, Kubalik, Chililik kabi etnik birliklar uchun shunday belgi bo‘la olmaydi. Lekin til etnik belgisi etnoslar etnik qiyofasini belgilashda asosiy mezonlardan ekanligini inkor etmaymiz. Yoki etnik hudud – ham etnik mansublikni belgilashi mavjud.. Masalan: So‘g‘diylar yurti bu Amudaryo va Sirdaryo oralig‘i, Germanlar uchun esa Reyn va Elba daryolari oralig‘idagi hududlar azaliy ona yurt bo‘lib hisoblangan. Shunga qaramay lekin Buyuk Britaniya orollari inglizlar uchun azaliy etnik makon yerlari bo‘lsada, bugungi kunda inglizlar Avstraliya, Kanada va hakoza hududlarda o‘tmashganlar. Ularda etnik hudud tushunchasi yagona emas, turmush o‘ziga xosliklari shakllangan.. Aksincha ayrim etnoslar azaliy vatanlaridan uzoqlashsalarida etnik mansublikni saqlab qolganlar. Masalan: Lo‘lilar, Yaxudiylar. Lekin etnik hudud belgisi etnoslar etnik qiyofasini belgilashda asosiy mezonlardan ekanligini inkor etmaymiz. Demak etnologiya fani turli xalqlar etnogenezi va etnik tarixi, an’anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar, moddiy va manaviy madaniyat muammolarini o‘rganadi deb aytish mumkin.

Etnologiya fan sifatida qaror topar ekan yuqorida aytilganidek, XIX asr oxirida etnologiyaning asosiy tadqiqot mavzusi madaniy jihatdan qoloq xalqlarni o'rganish bo'lsa, XX asr oxiridan boshlab esa asosiy etibor zamonaviy jamiyatlardagi etnik jarayonlarga qaratila boshlandi. Hozirga kelib etnologiya fanini g'arbiy yevro'aning qator mamlakatlari da yangi yo'nalishlari ya'ni: Ijtimoiy etnologiya, xuquqiy etnologiya, siyosiy etnologiya, diniy etnologiya, iqtisodiy etnologiya kabi yangi yo'nalishlari shakllandi.

Etnologiya manbalari va metodlari. Ma'lumki har bir fan o'z manbalari tarkibiga ega bo'ladi. Etnologiya fanining asosiy manbalari bo'lib muzey manbalari, yozma manbalar, arxiv hujjatlaridagi etnologik ma'lumotlar va etnoslar hayotiga oid olingan "dala materiallari" hisoblanadi.

II. Etnologiyaning asosiy manbalari:

1. Muzey fondlaridagi etnologik manbalar.
2. Hududdagi etnoslar hayoti aks etgan yozma manbalar.
3. Etnoslar turmushini yorituvchi arxiv manbalari.
4. Xalqlar turmushini bevosita kuzatish asosida to'plangan ma'lumotlari tashkil etadi.

Tadqiqotchi muayyan etnos turmushini ilmiy jihatdan to'g'ri tadqiq etishi uchun bu manbalarni avvalo sinchiklab o'rganishi zarur. Bunda izlanuvchilar turli xil etnologik metodlardan faol foydalanadilar. Shunday muhim metodlardan biri etnoslar turmushini dala materiallari asosida o'rganish hisoblanadi. "Dala materyallari" etnos hayotni kuzatishda suhbatni yozib olish, fotosurat, avdio va video yozuvi olish tizimi orqali to'planadi. Ekspozitsiyalar olinadi. Masalan taniqli tadqiqotchilardan G.Morgan Amerika Irokez qabilalari, M.Maklay esa Yangi Gviniya papuaslari orasida uzoq muddat yashab shunday noyob dala materiallari to'plaganligi ma'lum. Dala materiallari to'plash uchun o'tkaziladigan ekspeditsiya o'z mazmuniga ko'ra stossionar (uzoq muddatli) va qisqa (3-28 kun) bo'lishi mumkin. Metodlardan biri: yozma manbalarni o'rganish bo'lib, xalq hayotini o'rganishda: yorliqlar, farmonlar, asarlar, rasmiy hujjatlar, safarnomalar, kundaliklar o'rganilishi lozimdir. Etnologiyaning muhim metodlaridan yana biri xalq og'zaki ijodi namunalarini chuqur taxlil qilish hisoblanadi Chunki qadimgi Turon o'lkasi qabilalari etnologiyasini o'rganish uchun Suvoyish, To'maris, Al'omish kabi folklor manbalarini izchil o'rganish tadqiqotchiga yangi muhim ma'lumotlar beradi. Talabalar ham o'z hududlari etnologiyasini tadqiq etganlarida ishni mahalliy folklor manbalarini tahlil qilishdan boshlashlari ularni to'g'ri yo'ldan borishlarini ta'minlaydi. Etnolog uchun hududga xos arxeologik, tilshunoslik, statistik malumotlarni o'rganish ham asosiy metodlar bo'lib hisoblanadi.

III. Etnologiyaning asosiy metodlari:

1. Etnos hayotini ular orasida yashab tadqiq etish.
2. Hudud folklor manbalarini o'rganish.
3. Mintaqa arxeologik izlanishlari materiallarini tadqiq etish.
4. Xalqlar lingvistik xususiyatlarini o'rganish.
5. Hudud aholisi tarixiga oid statistik materiallar tahlili.

IV. Etnologiyani mustaqil fan sifatida shakllanishi.

Yangi tarix davri: XIX asrning birinchi choragiga kelib bir tomondan ko'p etnografik bilimlarning to'planishi, ikkinchi tomondan Buyuk davlatlarning mustamlakachilik manfaatlari asosida bu o'lkalardagi xalqlar hayoti haqidagi bilimlarni bir tizimga solish ehtiyoji tugildi. Shu

tarzda Etnologifani yuzaga keldi. **1. Evropa mamlakatlarida:**Dastlab *Fransiyada* 1839-yil Parijda **“Etnologiya jamiyati”** tuzildi, ilmiy jurnallar chiqa boshladi.

XVIII asr oxirida *Germaniyada* nemis tilida so‘lashmaydigan xalqlarni o‘rganuvchi **“Volkerkunde”** maktabi, shuningdek, nemis xalqlarini o‘rganuvchi **“Volkekund”** nomli maktab yuzaga keldi. XIX asr 30-yillaridan nemis sayyohlarining faoliyati jamlanib **“Etnologiya”** termini ham ko‘roq qo‘llanila boshlandi.

Angliyada XIX asr ohorida **“orqada qolgan”** xalqlarni o‘rganuvchi antropologik jamiyat tuzildi. 1906-yil J.Frezerning **“Ijtimoiy antropologiya”** kitobi chiqishi bilan u fan yo‘nalishi nomiga aylandi.

Rossiyada 1846-yil **“Rus geografiya jamiyati”** tuzildi. Etnografik tadqiqotlariga asos solindi. M.Maklayning Yangi Gvineyadagi tadqiqotlari fanni rivojlantirdi. Hozirgi Rossiya FA.ning Etnologiya va antro‘ologiya instituti uni markazi hisoblanadi.

2. Amerika mamlakatlarida:AQShda etnologik jamiyatlar 1842-yil tuzila boshlandi. Fan asoschisi G.L.Morgan hisoblanadi. XX asr boshlarida F.Boas tadqiqotlariga asosan **“Madaniy antropologiya”** yuzaga keldi. Bu maktab vakillari xalqlar madaniyatidagi farqlanishlarni o‘rganadi.

3. O‘zbekistonda Etnologiya fanini vujudga kelishi: O‘zbekiston hududida ham qadimdan etnologik ma‘lumotlar to‘planib kelingan: **“Avesto”**, qadimiy turkiy va so‘g‘diy tosh bitiklar, Beruniyning **“O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar”**, M. Qo‘shg‘ariyning **“Devonu lug‘atit-turk”**, **“Nasatnomayi o‘zbek”**, Z.M. Boburning **“Boburnoma”**, M. Solihning **“Shayboniyнома”** asarlaridagi ma‘lumotlar bunga misol bo‘ladi.

O‘zbekistonda ilk bor 1870-yil Samarqand, Buxoro, Urganchda rus tadqiqotchilari N.N. Karzin, N.E.Simonyovlar ilmiy ekspeditsiya uyushtirdilar.

1895-yil Toshkentda **“Arxeologiya havaskorlari Turkiston to‘garagi tashkil etildi”**. Unda Sattarxon Abdug‘affor, Mirzo Barot, Mulla Qosimov, Muhammad Vafo kabi ilk o‘lkashunoslar ishladi. 1921-yil **“Turkiston tub aholisining maishiy tuzilishini o‘rganish ilmiy kamissiyasi”** faoliyat yuritdi. 1930-yillarda ilk mahalliy etnograflar yetishib chiqishi soha rivojiga ta‘sir etdi. Keyingi yillarda K.Shoniyozov, T.Fayziyev, B. Ahmedov, M.Ermatov, O.Suhareva, I.Jabbarov, A.Asqarov, S.To‘xtayeva kabi olimlar ishladilar.

V. Etnologik terminlar turli maktablardagi talqini.

1.**“Etnos”** so‘zi ilk bor mil av VI-V asr Yunonistonda kelib chiqqan bo‘lib u yunon bo‘lmagan urug‘ va qabilalarga nisbatan qo‘llanilgan. XIX asr bu termin **“xalq”** ma‘nosida qo‘llanila boshlangan.

2.Bu terminni **“Etnografiya”** holida XVII asr boshlarida nemis yozuvchisi Iogani Zumner, **“Etnologiya”** tarzida 1784-yil, A.Shavann qo‘llagan. 1808-yillarda Fransiyada **“Etnografiya”** nomli jurnal chiqandi. Lekin bu terminni alohida fan sohasiga qo‘llashni 1830-yil olim J.J. Amper taklif etgan.

3.Fan XIX asr oxirida Fransiyada **“Etnografiya”** deb atalgan bo‘lsa, keyin **“Etnologiya”**deb atala boshlandi. XX asr 30-yillaridan etnologiya jahonga keng yoyildi. (**“Madaniy antropologiya”**, **“Ijtimoiy antropologiya”** atamaları ham uchraydi.)

Etnografiya xalqlarga daxldor materyallarni to‘plab tizimlab va uni tasvirlab bersa, Etnologiya –etnos haqidagi barcha malumotlarni nazariy metodologik jihatdan tahlil , talqin qiladi va bu hususda umumiy xulosalar chiqaradi.

Demak etnografiya-etnologiya fanining bir bo‘limidir.

VI. Etnologiyaning boshqa fanlar bilan aloqalari.

Etnologiya boshqa gumanitar fan yutuqlaridan foydalanib o‘z xulosalarini beradi.

1. Qadimgi davr xalqlari hayotini o‘rganishda arxeologiya yutuqlaridan, xalqlardagi tashqi belgilarini o‘rganishda antro‘logiya bilimlaridan keng foydalaniladi.
2. Etnik til xususiyatlarini o‘rganishda lingvistika yutuqlaridan foydalanadi. Tillarning kelib chiqishi, o‘zgarishi, qarindoshlik aloqalari e‘tiborga olinadi..
3. Xalqlar turmushini o‘rganishida xalq og‘zaki ijodi –folklor manbalari o‘rganiladi.
4. Etnoslar ma‘naviy madaniyatini o‘rganishda sa‘atshunoslik, musiqashunoslik, Geografiya-iqlimi, reliefi, o‘simlik, hayvonot dunyosi ma‘lumotlarini o‘rganadi..
5. Sotsiologiya- odamlarning ijtimoiy hayotini o‘rganuvchi fan bo‘lib, etnosotsiologiya-zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy va etnik jarayonlar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganadi.

VII. Etnologiyaning tarixiy va bugungi dolzarb muammolari.

1. Dastlabki davrlarda (XIX asr) yevropada etnologiyaning asosiy o‘rganish mavzusi ibtidoiy sharoitda yashayotgan xalqlar hisoblangan. Ularni qaysidir ma‘noda ozlarining uzoq o‘tmishdagi “Tirik ajdodlarimiz” deb his qilingan.

M: L.G.Morgan “Qadimgi jamiyat” (Ironez qabilalari), E.Teyler “Ibtidoiy madaniyat” (Angliya), T.Voits, A. Bastian (Germaniya) asarlarida aks etgan.

2. Lekin bugungi kunga kelib tadqiqotchilar faning organish mavzusi madaniy kam rivojlanishga ega xalqlar bilan birga, zamonaviy industryal jamiyatdagi o‘ziga hosliklarni ham asosiy o‘rgabish mavzusi deb hisoblaydilar.

Nazorat savollari:

1. Etnologiya fanini vujudga kelishi qay tarzda amalga oshgan?
2. Etnologiya fanini maqsad va vazifalari nimadan iborat?
3. Etnologiya fanining asosiy manbalari nimalardan iborat?.
4. Etnologiya fani asosan qanday metodlardan foydalanadi?
5. Jahon xalqlarining etnogenezi haqida ma‘lumot bering.
6. Dunyo xalqlarini o‘rganishda etnologiya qanday uslub va manbalardan foydalanadi?
7. Etnologiya fani qanday tushuncha va atamalardan foydalanadi?
8. Etnologiya fani hozirda o‘z oldiga qanday muammolarni ko‘ndalang qo‘ygan?
9. Etnologik faktlar qanday to‘plana borgan?
10. Etnologiya fani qanday shaklda mustaqil fanga aylandi?
11. Etnologiya fani qanday terminlardan foydalanadi?.
12. Etnologiya boshqa yondosh fanlar bilan qanday aloqada bo‘ladi?.

2-Mavzu. Dunyo xalqlari klassifikatsiyasi

Reja:

- 1.Geografik tasnif.
- 2.Lingvistik tasnif.
- 3.Xo‘jalik-madaniy tiplari
- 4.Antropologik tasnif.

Tayanch iboralar: Geografik tasnif, “Afrika xalqlari”, oykumena, migratsiyasi, tub joy aholi, lingvistik tasniflash, gramatik tuzilish, geneologik tasnif, hind-yevropa til oilasi, ho‘jalik-madaniy tasnif, antropologik tasnif.

I. Geografik tasnif

Har bir xalq o‘z etnik hududiga ega. Etnografik haritalar ham shunga asoslanadi. Xalqlar shu etnik hududlarga ko‘ra: “Afrika xalqlari”, “YEvropa xalqlari” yoki yanada kichikroq ko‘rinishda “G‘arbiy yevropa” xalqlari kabi guruxlanadi. XIX asr oxiri boch. Qilishgan.

Xalqlarni bunday joylashuvi uzoq tarixiy jarayon – insonni yer yuzasini o‘zlashtirib borishi, etnik aralashuvi natijasida vujudga kelgan. YErni inson tomonidan egallangan qismi “oykumen” deb atalgan (yunoncha oykeo - yashamoq). Oykumenalar tarixan o‘zgarib turgan masalan: odamzod paleolit davrida janubiy-sharqiy Osiyo va sharqiy Afrikaga neolit davrida shimoliy yevropa, Amerika, shimoliy Osiyo, Afrika ichkarisi, Avstraliya, G‘arbiy Okeaniyani ham o‘zlashtirdi.

Shuningdek qabilalarnish qo‘shni hududlarga ikkilamchi ko‘chishi ham xalqlarning joylashuvini doimo o‘zgartirib turgan. Masalan: Eramizning II ming yillikda Indoneziya xalqlari negr-astroloid ichiga Hindixitoydan yangi axolining ko‘chib kelishi, avvalgi aholini siqib chiqargan, assmliyatsiya qilgan. Eramizdan avvalgi II-I ming yilliklarda YEvropaga hind-yevropa qabilalarini kirib kelishi mahalliy aholi o‘rmini egallaganlar. Eski qabilalardan tog‘li pireniydagi basklar kelgan xolos.

Ayniqsa buyuk kashfiyotlardan so‘ng aholi migratsiyasi juda kuchaydi. Amerika, Avstraliya etnik tarkibi o‘zgarib ketdi.

Demak xalqlarni geografik tasnifi bizga yer yuzasini inson tomonidan o‘zlashtirilishi, ko‘chishi to‘g‘risida ma’lumotlar beradi.

Biz bunda muayyan davlat ahollisining qaysi qismi tub joy aholisi, qolgani kelgindi etnoslar ekanligi ham ahamiyat berish kerak masalan: Amerikada eskimoslar va hindular esa mahalliy aholi, yevropaliklar, negr (qullar avlodi) kelgindi guruh. Shunday hindular bu yerga azaldan yashab keladi, eskimoslar esa 2000 yil avval ko‘chib o‘tganlar. Hindistonda dravidlar qadimgi mahalliy aholining avlodi, oriylar esa 3-4 ming yil avval kelganlar. Musulmonlar yanada kechroq, ingliz eng kech kelganlar.

Lekin kelib chiqishi uzoq bo‘lgan xalqlar ham uzoq davr birga yashasa o‘xshashlik yuzaga keladi. Masalan: Kavkaz xalqlar.

Lekin geografik tasniflash odatda katta mintaqalar misolida qo‘llaniladi. Ichki viloyatlar hususiyati xisobga olinmaydi. Lekin xalqlar etnogenizida va tarixiy aloqalar, muammolarini o‘rganishda to‘la javob bermaydi. Bundan boshqa tasniflash usullari qo‘llaniladi.

I. Lingvistik tasniflash.

Til xalqlarning eng muhim etnik belgisi bo'lib, xalqlarni shu belgi asosida tasniflash to'g'ri. Odatda dunyo xalqlari ikki xususiyat: morfologik va genisologik tuzulishga ko'ra farqlanadilar.

Morfologik tasnifda xalqlar tili – gramatik tuzilishiga qarab guruhlanadi. Lekin bunda kam ma'lumot olinadi. Chunki gramatik tuzulish yaqin tillar misol: Vetnam va Sudan tillari, Ingliz va Polineziya tillari bu xalqlarni hech qanday yaqinligini bildirmaydi. Aksincha kelib chiqishi bir bo'lgan nemis va ingliz tillari tuzilishiga ko'ra farqlanadi.

Genesologik tasnif – bu tilning tarixan kelib chiqishiga asoslanib xalqlarni to'g'ri tasniflashga yordam beradi. Masalan: o'zbek va uyg'ur tili bir-biriga juda yaqin. Oltoy til oilasiga kiruvchi bu xalqlar tili kelib chiqishi bir o'zakka borib taqaladi. Rus va polyak xalqlari tili esa bir-biridan uzoqroq. Ular Angliyaga uzoq qarindosh “umum slavyan” davrida yaqin bo'lganligini ko'rsatadi. Rus va nemis tillari juda uzoq. Ularning qarindoshligi hind-yevropa xalqlari davri bilan bog'liq. Rus va vetnam tili umuman bir biriga yaqin kelmaydi. Shu sabab lingvislar uzoq darajada bo'lsada kelib chiqishida yaqinligi bor tillarni, “til oilalari” ga birlashtirdilar. Til oilasi ichidagi o'zaro kelib chiqishi yaqin tillar “til guruhlariga” kiritiladi. “Til guruhleri ” mayda tillarga bo'linib ketadi

Dunyoda 6 mingdan ortiq tillar bo'lib, asosan u 15 ta til oilasiga:

1.Hind-yevropa; 2.Afroosiyo-(semit hamit); 3.Oltoy; 4. Hitoy-tibet; 5.Avtroneziya; 6.Drauid; 7.Avtraliya; 8.And; 9.Kavkaz; 10.Kartvel (gruzin); 11.Niger-kordofa; 12.Nil-sahro; 13.Avtroosiyo; 14.Myao-yao; 15.Paratay;

a) Hind-yevropa til oilasi: (dunyo aholisining 45%). Bu til oilasida so'zlashuvchilar hind yevropagacha yoyilishi uchun shu nomni olgan. Lekin bu tillarning hozirgi shakllangan joyi, vaqti aniq emas. Tadqiqotchlar III ming yillikda u shakllanganligini bildiradilar. Olimlardan bir qismi bu yerni Kichik Osiyo desa, qolgani Dunay bo'yi yoki shimoliy Qora dengiz bo'yi deb ko'rsatadilar. YEvropa guruhi: Slavyan, letto-litva, german, roman, kelt, alban, grek til guruhiga kiradi.

b) Semit-hamit til oilasi: Dunyo aholisining 5%. Yaqin sharq, Shimoliy Amerikaga tarqalgan. Til oilasi nomi Nuh payg'ambar o'g'illari Som va Hom nomlaridan olingan. Tahminan mil. av. IV-III ming yillik Osiyo va Afrika oralig'ida shakillandi. 3 til guruhi: semit, berber, kushit, chad til turkumi. Samid til turkumiga: bobil, ossuriya, yahudiy, finikiya, suriya, arab tillari kiradi. Etnologik qadimgi yodgorlik mil. av. IV ming yillika oid.

v) Oltoy til oilasi. Qadimiy yozma ma'lumotlar I ming yillika oid 5 ta til guruhi: turkiy, mo'g'il, tungus, manjur, koreys. Oltoy tillari (Dunyo aholisining 6%). Turkiy tillar eng keng tarqalgani bo'lib Kichik Osiyo, Koliman yaqutlari, Markaziy Osiyo xalqlari, ayrim Kavkaz, Volga bo'yi, janubiy Sibir xalqlari kiradi.

4. Xitoy-tibet til oilasi: Dunyo aholisining 23%. Janubiy-sharqiy Osiyo. Xitoy tillari: kachin, midju, tibet-birma, jimal tillari kiradi. Eng qadimgi yozma yodgorliklar II mingyillika oid. 13 ta tillar turkumi.

5. Avstroneziya til oilasi: Dunyo aholisining 5%. Madagaskardan to Tinch okeanidagi pasxagacha bo'lgan orollar xalqlar tillari kiradi. Bu tillarning kelib chiqishi janubiy –sharqiy Osiyo bilan bog'liq. Qadimgi yodgorliklar yo'q.

6. Drauid (4%) Janubiy Hindiston, Seylonda. Qachonlardir butun Hindistonni egallaganlar. Mil. av. II mingyillikda Oriylar kelib ularni janubga siqib chiqarishganlar. Tamil, teluk. Kannara, Malayali til guruhleri bor.

7. Niger-Kordofa til oilasi: Butun Janubiy Afrikaga tarqalgan. Tahminlarga ko'ra Sudan hududidan janub tomonga yoyilgan.

8. Kavkaz tillari (0.1%) Abxaz-adigei, nax-dog'istonliklar.
9. Avstroosiyo tillar oilasi. Olimlar bu til oilasi janubiy-sharqiy Osiyo va Avstraliya tillarini bog'lovchi ko'pri deb hisoblaydilar.
10. Amerika hindulari tillari to'liq o'rganilmagan.
11. Shimoliy Osiyoning "paleosiyo" xalqlari chukcha, koriyak, yukagirlar tillari kichik tillar guruhini tashkil etadi. Afrikaliklar koysan tillari-bushmanlar, guttentotlar tillari ham.
Hozirgacha boshqa xalqlar tillari bilan qarindoshlikni aniqlanmagan: yaponlar, ayin (shimoliy yapon), koreys, andaman, (Bengal bo'g'oz), ketlar (Yenesey), perenad basklari tillari ham bor. So'ngi yillarda yirik tillar kichik tillarni sindirib yubormoqda.

II. Ho'jalik-madaniy tasnif:

Lingvistik tasnif xalqlarning o'tmishdagi kelib chiqish tarixida ko'p malumot bersada, lekin zamonaviy a'loqalar haqida ma'lumot bermaydi. M: kelib chiqishi yaqin vengerlar va quyi Obdagi hanti-mansilar bilan tili o'xshash bo'lsada yashash tarzi umuman o'zgacha. Xalqlardagi shakllanish xayot tarzini boshqa belgi xo'jalik ukladiga ko'ra tasniflash kerak. Inson yer yuzasining turli tabiiy geografik sharoitlaridagi yerlarga joylashar ekan shu joyga hos xo'jalik yo'nalishini vujudga keltirganlar. Shu tarzda turli ishlab chiqarish pog'analarida turgan xo'jalik-madaniy tiplar vujudga kelgan.

Eng arxaik XMT tropik va subtropik mintaqadagi qoloq qabilalar xo'jaligida aks etadi: ular ovchilik va terib-termachilik bilan shug'ullanuvchi Avstraliya abarigenlari, Janubiy Amerika botukadalar. Ular doimo ozuqa izlab ko'chi yuradilar. Qurollari nayza, bumerang (Avstraliya), o'q-yoy. Uylari chaylalar, kiyimi oddiy. Urug' jamoachilik munosabati. Bu xo'jalik tipi paleolit davrida paydo bo'lib, faqat sharoit og'ir hududlarda saqlangan. Nisbatan rivoj XMT shimoliy o'rmon ovchilariga (Atapask, algonkin) postir XMT neolit davrida shakillangan. Asosan yirik tuyoqli hayvonlari konusimon-o'tov. Ishtimoiy tartibi urug' jamoachilik. Kapital munosabat kirib kelishi bilan mo'yna tovar holiga kelgan.

XMT. Namli tropik va subtropikdagi ichki issiq iqlimdagi asosan motiga dexqonchiligi, yordamchi ovchilik, termachilik, baliqchilik.

XMT: Motiga dexqonchilik bilan chorvachilikning qo'shilishidan yuzaga keladi.

XX asrga kelib fan texnika rivoji tovar dexqonlarni, intensiv chorvachilikka, plantatsiyali qishloq xo'jaligini vujudga keltirdi. Tarixiy XMTlar yo'qoldi.

IV. Antropologik tasnif.

Irqiylar belgilarga ko'ra olib borilsada, xech qachon xalqlar tasnifiga mos kelmaydi.

1. Irqiylar tasnif kishining tashqi belgilari: fizik tana tuzilishi kabi meros o'tuvchi belgilari bo'yicha tasniflanadi. Bu belgilar- soch tuzilishi, yuzdagi mo'ylar, soch, teri va ko'zning rangi-tizmentatsiyasi, bo'y, kalla suyyagi shakli, yuz suyaklarini tuzilishiga ko'ra.
2. Inson irqiylari so'ngi paleolit davrida turli mintaqalardagi tabiiy sharoit ta'sirida vujudga kelgan.
3. Xozir to'rta irq: yevropoid, mangoloid, negroidlar, avstroloid bor.
 - a) Mongoloid – to'g'ri, qattiq soch, yuz mo'ylari kam, yassi yuz, yanoqlar bo'rtgan, yuqori qovoq rivojlangan, ko'zning ichki chegaralarini berkituvchi maxsus qavoq qo'lami "Ekipantus" bo'lishi, sarg'ish tana.
 - b) Avstroloid – to'qinsimin soch, qosh va yanoqlari bo'rtib chiqan, qalinroq lab, qoramtir teri, katta burun, tanasi tuklidir

- c) Negroid – burama soch, to‘q qora teri rangli, qalin lab, keng burun.
- d) YEropoid – yengil to‘lqinsimon, turli rangli soch, mo‘ylar rivojlangan, qirra burun, oq va bug‘doy rang tana.

Ushbu irq belgilari yana kichik irqiy guruxlariga ajraladi. M:Mo‘g‘il irqi: shimoliy Osiyo, uzoq sharq, janubiy Osiyo, Arktika, Amerika, Kipir bo‘linadi.

Ko‘p irqiy tuzilishlar ikki irqiy belgilar uchrashgan joyda shakillangan. M: Janubiy Xindiston (YEvroQAvstro), Efiop (NegroQYEvro), Ural (YEvroQMo‘g‘il), Polineziya (Mo‘g‘ilQNegroQYEvro).

Irqi belgilar tabiiy muhit tufayli yuzaga kelgan: Mo‘g‘illardagi qovoq qatlami Markaziy Osiyo cho‘llaridagi kuchli shamollar, issiqdan saqlanishga moslash tarzida vujudga kelgan.

Negroit: to‘q teri rangi, qalin burma soch-tropik iqlim tasiridir. Lekin keyingi irqiy belgilarini shakillanishida ayrim etnik guruxlarning aloxida yashashi yoki aralashuvi o‘z tasirini ko‘rsatdi.

25 ta kichik irqlar bor.

Nazorat savollari:

1. Xalqlarni geografik jihatdan tasniflash deganda nimani tushinasiz?
2. Geografik tasniflash usulining kamchiligi nimada?
3. Aborigan aholi va kelgindi aholiga misol keltiring?
4. Dunyo xalqlarini tillarini grammatik tuzilishiga ko‘ra tasnifi qanday?
5. Dunyo xalqlarini tillarini kelib chiqishiga ko‘ra tasnifi qanday?
6. Dunyo xalqlarini antropologik tasnifi to‘g‘risida ma‘lumot bering?
7. Qanday XMT larini bilasiz?.

3-Mavzu. Dunyo xalqlarining etnologik tavsifi. Avstraliya va Okeaniya xalqlari

REJA

1. Avstraliyani ma‘muriy-hududiy bo‘linishi va demografik jarayonlari
2. Avstraliya va Tasmaniya xalqlarining etnogenezi va etnik tarixi
3. Avstraliya va Tasmaniya xalqlarining moddiy va ma‘naviy madaniyati.
4. Polineziyaning geografik joylanishi, tabiati va aholisi.
5. Melaneziya xalqlarining geografik joylanishi, xo‘jaligi va madaniyati.
6. Mikroneziya xalqlarining geografik o‘rni, tabiati va aholisi.

Tayanch iboralar: Arxaik ibtidoiy. Avstraliya, Tasmaniya Ekvatorial, Vedda-avstroloid, negritoslar, vadyakkyeylar, aranda, evkalipt, bunya, Ekzogamiya, Endogamiya, Fratriya, Seksiya Totemizim, fetishizm, animizm, orro-bori, Melaneziya, Papuas, Negritos, Initsiatsiya, Koko qabilasi, Mana, Mikroneziya, Palau, Maori

Avstraliya qit‘asi, Tasmaniya oroli hamda Hind va Tinch okeanlarining bir qancha orollaridan tashkil to‘gan davlat bo‘lib, u Britaniya millatlar hamkorligiga kiradi. Maydoni 7,7 mln km Aholisi 18 mln (1995). ‘oytaxti-Kanberra Shaxri. Hozirda Avstraliya ma‘muriy jihatdan oltita Shtatga Ya‘ni Yangi Janubiy Uels, Viktoriya, Kvinslend, Janubiy Avstraliya, G‘arbiy Avstraliya va Tasmaniyaga bo‘linadi. Eng yirik shaharlari: Sidney, Melburn, Ashezzitva Bresben. Davlat tuzumi-Konstitutsiyali monarxiya

(konstitutsiyasi 1900 yilda qabul qilingan) Davlat boshlig'i Angliya qirol (1952 yildan boshlab qirolicha Yelizaveta II. 2000 yili 100 yoshga kirdi) Hokimiyatni (arlament tavsiya etgan va qirol tayinlagan) general-gubernator boshqaradi.

Avstraliya va Tasmaniya aholisining 90% ini Buyuk Britaniya, qolganlarini Italiya, Gresiya va Germaniyadan ko'chib kelganlarning avlodlari tashkil etadi. Yerlik aholi 1%ni tashkil qiladi, ko'chiligi qirib tashlangan, qolganlari esa mamlakat ichkarisidagi cho'llarga quvg'in qilingan. Tasmaniya orolining tub aholisi-tasmanlar XIX asrning 1-yarmida umuman qirib Yuborilgan.

Avstraliya aholisining kelib chiqishi hozirgi kunda fanda juda murakkab muammo bo'lib kelmoqda. Chunki bu yerning tub aholisi juda qadimgi ibtidoiy madaniyat ildizlarini hozirga qadar saqlab kelgan. Ayniqsa Tasmaniya orolidagi xalqlarni jismoniy tuzilishi, tili va madaniyati dunyoning biron bir xalqiga qiyos qilish imkoniyati yo'q. Shu munosabat bilan bu xalqlarning kelib chiqishi hozirga qadar fanda muammo bo'lib kelmoqda. Lekin Avstraliya qit'asi antro'ogenezga kirmasligi, Ya'ni odamzodning vatani emasligi ma'lum. Sababi bu yerda hech qanday Yuksak sut emizuvchilar yashamagan. Natijada avstraliyalik va tasmaniyaliklarning qadimiy ajdodlari kelgindilar bo'lgan, degan xulosaga kelingan. Rus tadqiqotchisi Ivan Simonov o'tgan asrning 20-yillarida Sidneyga sayohat qilib avstraliyaliklarni ko'rganda, ular Janubiy Hindistonliklarning avlodlari, degan taxmini ma'lum qilgan edi. Hozirda ham antro'ologiya fani Avstraliyaning tub aholisi Janubiy Osiyoning qadimiy xalqlari bilan tarixan bog'liq ekanligini tasdiqlamoqda.

Shu bilan birga ayrim o'tgan asr sayyohlari (E.Eyr, J.'richard) avstraliyaliklarni Afrikaliklarni avlodlari degan bo'lsa, ba'zilar Malayya arxi'elagi va Yangi Gvineya yerlaridan ko'chib o'tgan degan fikrlarni ma'lum qilganlar. Lekin 1870 yilda buyuk rus tadqiqotchisi va sayyohi N.N.Miklexo-Maklay o'zining jiddiy kuzatishlari asosida beshinchi qit'a aholisini mustaqil irq degan xulosaga kelgan.

Shundan so'ng olib borilgan antro'ologik tadqiqotlar ham bu fikrni ma'lum darajada tasdiqlab, Avstraliyaliklar o'ziga xos irqni tashkil qiladi, degan xulosaga to'htalgan. Ya'ni qit'aning tub aholisi negroid va yevro'eoid irqlar oralig'ida aydo bo'lgan deyishsa, ayrim olimlar ularni katta negraavstraloid «ekvatorial» irqning maxsus ti'i, deb hisoblaydilar. Masalan, ularning sochlari qora, yevro'eoidlarnikidek to'lqinsimon, soqol-moylovlari va badan tuklari qalin, terisining rangi negroidlarnikiga o'xshashroq tuk jigarrang, kalla suyagi uzunchoqroq, 'eshonasi nishoblik, qosh usti suyagi chiqqan, labi qalin va burni kengroq, bo'yio'rtacha yoki balandroq bo'ladi. Bunga o'xshash ti'larni Avstraliyadan tashqari Indoneziyada, Hindistonning janubidagi qabilalarda (masalan, Shri Lankadagi veddalar) uchratish mumkin. Shuning uchun ham mazkur ti'ni fanda ba'zan «vedda-avstroloid» deb ham Yuritiladi. So'nggi antro'ologik klassifikatsiyaga binoan katta avstroloid irqiga Avstraliyaning tub aholisi, 'aduaslar va melaneziyaliklar, negrotoslar va veddioidlar kiradi. Bundan hulosa qilinadigan bo'lsa, avstraliyalik va tasmaniyaliklarning ajdodlari bir zamonlar Janubiy-Sharqiy Osiyoda ayniqsa Indoneziyada yashaganlar. Yava oroli (Vadyak)da to'lgan avstroloid ti'idagi ikkita kalla suyagining qoldiqlari bunga dalil bo'la oladi.

Bundan tashqari Avstraliya hududining Sharqiy va Janubiy-Sharqiy qismlaridan to'lgan qadimiy kalla suyagi qoldiqlari Vadyak to'ilmalariga o'xshashligi etnogenez masalalariga ancha aniqlik kiritgan edi. Ayniqsa, Keylar (1940 y) makonidagi kalla suyagi tuzilishi jihatidan hozirgi avstraliyaliklarga yaqin turadi.

Tasmaniyaliklarning kelib chiqishi fanda hali to'liq aniqlanmagan. Ular sochini jingalakligi, badanining tuki jigarrangligi, 'ast bo'yligi bilan avstraliyalardan farq qilganlar. Ular antro'ologik tuzilishi jihatidan melaneziyaliklarga, ayniqsa, Yangi Kalidoniyaliklarga o'hshab ketadi. Aniqrog'i esa hozirda ularni Avstraliyadan siqib chiqarilgan tub aholining avlodlari deb qaralmoqda.

Beshinchi qit'aga aqolining ko'chib kelishi so'nggi ma'lumotlarga qaraganda Yuqori 'oleolit davrida amalga oshgan. Taxminan bundan 10 ming yillar muqaddam Avstraliya Osiyo bilan qo'shilgan bo'lib eng qadimiy avstraliklar Janubiy-Sharqiy Osiyodan quruqlik orqali ko'chib o'tganlar. Keyinchalik esa okean suvlarining ko'tarilishi natijasida beshinchi qit'a aydo bo'lgan. Shuning uchun ham bu yer aholisi o'sha davr ijtimoiy tuzumi va madaniyatini to o'tgan asrgacha mustahkam saqlab kelganlar.

YEvropa mustamlakasi davrida (XVIII-XIX asrlar) Avstraliya va Okeaniya xalqlari o'zlarining xo'jaligi va ijtimoiy tuzumida, tili va irqiy qiyofasida qadimiyliklarini yana bir bor namoyon etdilar. Ayniqsa mahalliy tillarida yorqin bu xollar isbotlangan. Avstraliyaliklarning tillari, hech bir boshqatillarga o'xshamaydi va yaqinlashmaydi ham. Ular da har bir qabila o'z tili yoki shevasiga ega bo'lib, irqiy va madaniy jihatdan yaqin bo'lsa ham bir-birini tushunolmaganlar, ba'zi tillar esa bir necha shevalardan iborat bo'lib, mahsus turkumni hosil qilgan. Shuning uchun ham avstraliya tillarining soni qabilalar singari 500 dan ortiq deb belgilangan. Masalan, araida tilida 10 mingdan ortiq so'z mavjud. Yana bir tomoni Shuki Avstraliyaliklarda og'zaki so'zlardan tashqari qo'lni har maqomda qimirlatish yo'li bilan ifodalovchi imo-ishora tili ham mavjud bo'lgan. Bundan tashqari, «signallar tili» ham mavjud bo'lib, biron narsani aniq belgilar yordamida ifodalaganlar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bu qit'aga XVIII asr oxirlarigacha YEvropaliklar oyoq bosmagan. Aekin bu qit'a XVI asrlarda ma'lum bo'lsada, uni mustamlakaga aylantirish 1770 yildan boshlangan. Bu yer dastlab Angliya josuslarini surgun joyiga aylangan. XIX asrningo'rtalaridan esa turli yer ostki qazilma boyliklar to'lgandan so'ng bu yerga erkin «oq tanlilar» ko'lab kela boshlagan. Tasmaniya yerlariga YEvropaliklar 1803 yildan kela boshlaganlar. Shunday qilib, qisqa muddat ichida asosan Britaniya va Irlandiyadan kelgan mustamlakachilar tub aholiga nisbatan hukmronlik mavqeyiga ega bo'lganlar. Yaqin davrlargacha avstraliyaliklar va kirilib ketgan tasmaniyaliklar ovchilik va terib-termachilik bilan shug'ullanib kelganlar. Ularning xo'jaliklari asosan «o'zlashtirish» xarakteriga ega bo'lib, tabiat mahsulotlarini ishlab chiqarmasdan tayyor holicha iste'mol qilganlar.

Hayvonot dunyosi ancha kambag'al bo'lgan Avstraliyada tub aholisi neki jonzod bo'lsa, hammasini ov qilib, tanovul qilganlar. Masalan, ular yirik xaltali hayvonlar (kenguru) va tuyaqush (emu) dan tortib to mayda chualchanggacha ovlashgan. Ular baland evkali't daraxtlariga tirmashib chiqishda jahonda birinchi o'rinda turganlar. Avstraliyaliklar go'sht va baliqni hom xolda iste'mol qilmaganlar, albatta o'tda yoki cho'g'da qovurib yeganlar. Bu xududlarda turli tariq, yams va boshqa ildiz mevali o'simliklar, non daraxti (bunya) yovvoyi holda o'sgan.

Ular chorvachilik, qo'lolchilik va metallni bilmaganlar. Ammo tosh, suyak, yog'och, o'simlik tolasidan turli qurol, buyum va idishlar yasashni yaxshi bilganlar.

Avstraliyaliklarning kiyimlari nihoyatda kambag'al bo'lgan. Ko'chilik qabilalar mutlaqo kiyimsiz, yalang'och Yurganlar. Ammo bayram vaqtlarida erkagu ayol turli

bezaklar-boshiga toladano'rov, qo'liga i', bilakuzuk, bo'yniga munchoq, burniga buloqi, sirg'a taqishib, badanlarini bo'yab har xil 'atlar yo'ishtirib Yurganlar. Ko'chilik qabilalar daydib Yurganlari uchun muayyan qishloqlarga ega bo'lmaganlar. Ya'ni ular tayyor mahsulotlari tugaguncha bir yerda, so'ng esa ikkinchi joyga ko'chib o'tganliklari uchun ular vaqtinchalik Shox-butoqlardan chaylalar tiklab kun kechirganlar.

Shimoliy hududlarda esa tro'ik yomg'irlar ko'ch bo'lganligi uchun qoziqoyoqlargao'rnatilgan uylarda 12-15 kishi yashaganlar. Daryolar va dengizga aholi sodda qayiqlar va sollardan foydalanganlar.

Bu qit'ada xonakilashtiriladigan hayvon ham bo'lmagan. Yarim yovvoyi it-dinko ham bu yerga odamlar bilan kelib qolgan. Avstraliyalik va tasmaniyaliklarning ijtimoiy tuzumi ham nihoyatda oddiy, ibtidoiy darajada bo'lgan. Urug' ichida nikohga yo'l qo'yilmagan, Ya'ni ekzogamiya tartibi hukm surgan. Urug'lar qabilalarga birlashib, muayyan hudud doirasida bir-biridan ajralgan holda ko'chib Yurganlar.

Har bir qabila joylanishiga qarab ayrim lokal gru'alarga bo'lingan. Ilk qabila tuzilishining ikki shakli Fratriya sistemasi deb atalgan. Fratriya (grekcha «birodarlik» degan ma'noni anglatadi). Ular orasida iqtisodiy tabaqalinish bo'lmagan. Har bir lokal gru'a bir avlod sifatida yoshiga va jinsiga qarab bo'lingan va mehnat taqsim qilingan. Masalan, erkaklar ishlab chiqarish qurollari yasaganlar, ov qilganlar va oilasini qo'riqlaganlar, ayollar esa terimchilik qilib bola boqqan va tarbiyalagan.

Nikoh va oila munosabatlarida Fratril va urug' cheklanishlardan tashqari turli seksiyalarga bo'linishi mavjud bo'lgan. Masalan, Avstraliyalik aborigen yozgan biografiyasida «Mening dadamning aka-ukasi mening tog'am emas; ular ham menga dada. Ularning g'arzandlari ham menga qarindosh, aka-uka va o'a-singillarim hisoblanadi, yoki dadamning o'a-singlisini men amma deyman, ularni bolalarini ammavacha deyman. Oyimning o'a-singlisini esa men oyi deyman, ularning bolalarin aka-uka va o'a-singil deyman. Oyimning aka-ukalari menga amaki bo'lib, meni erkaklar qatoriga o'tkazish (initsiatsiya) marosimiga tayyorlash va tarbiya qilishga javob beradi» deydi. Shuning uchun ham ularda faqat ammavachcha va amakivachcha singillariga uylanishi mumkin bo'lgan. Shunday qilib, Avstraliyada yigit aka tomonidan aka-ukasining qiziga uylanishi mumkin bo'lgan, ammo dadasining singlisi qiziga uylanishi qat'iyman man etilgan.

Bunday tartibni buzgan juda katta gunoh qilgan bo'lib, uni yo qatl qilishgan, yoki urug'dan haydashgan edi. Voyaga yetgan o's'irinlarni kattalar qatoriga o'tkazishda mahsus initsiatsiya marosimi orqali amalga oshirilgan. Bunday marosimlarni o'tkazishda tajribali va hurmatli, yoshi katta muysag'idlar rahbarlik qilganlar.

Avstraliyaliklarning ma'naviy madaniyati, diniy e'tiqodi ishlab chiqarish kuchlarining darajasi ularning ijtimoiy tuzumiga mos kelgan. Ularning tasavvurida butun tevarak-atrog' g'ayri tabiiy kuchlar, turli mahluq va arvohlar bilan to'la. Shuning o'zi ham Avstraliyani totemizm vatani deydilar. Bu din ibtidoiy dinlardan biri bo'lib, odamlar ayrim jonivorlar yoki o'simliklar bilan yaqin qavm-qarindosh, degan tasavvurni o'zida mujassamlashtirgan. Har bir totemistik gru'a o'zining cho'ringi (Markaziy Avstraliyada afsonaviy ajdodlarning arvohlari muqaddas buyumlarga ko'chirilgan, buyumlar odatda, sehrli belgilar chizilgan taxtacha) si yashiringan muqaddas joyga ega bo'lgan. O'sha yerda yilda bir marta maxsus marosim (ingichkuma) o'tkazilgan.

Avstraliyaliklar orasida turli sexrgarlik, duoguylik, ziyon yetkazish magiyasi ham keng tarqalgan, Animizm esa kam tarqalgan. Bu yerda xalq og'zaki ijodi dastlab rivoyatlar,

afsonalar va ertaklar, ashula va raqslarda namoyon bo'lgan. Afsona va rivoyatlar asosan totemistik tasavvurlar bilan bog'liq bo'lgan.

Ularning raqslari ko'roq jamoa shaklida (orro-bori) bo'lib, turli ma'noni tasvirlagan. Avstraliyaliklarning bilimlari tevarak-atrog'dagi tabiiy Sharoitga moslashgan bo'lib, ishlab chiqarish tajribasiga buysundirilgan. Masalan, ular ibtidoiy tibbiyot qo'lga kiritgan barcha bilimlardan keng foydalanganlar, maxsus tayyorlangan tarkibiy dorilarni ham, o'simlikdan qaynatilgan dorilar tayyorlab, qon oqishni to'xtatish, singan joyni tuzatishni bilganlar. O'z vatanining flora va faunasini juda yaxshi o'zlashtirganlar.

Polineziya-Tinch okeanining markaziy qismidagi bir necha katta-kichik orollardan iborat bo'lib, Shimolda Gavay arxi'elagi, janubda Yangi Zelandiya va Sharqda 'asxa uchburchagi bilan chegaralanib turadi. Yuqoridagideqbu yerdagi orollari ham vulqon va marjonlardan 'aydo bo'lgan.

Taxminiy ma'lumotlarga qaraganda bunday mayda orollar 26 ming kv.km.ni tashkil etadi. Shundan 17 ming kv.km. qismi Gavay arxi'elagiga tegishlidir. (Bunga Yangi Zelandiya kirmaydi) Bundan tashqari Shunday orollar borki, ularning xududiy maydoni 1 kv.km.ni tashkil etadi. (220 ta orol) ('olineziya xududiga Yangi Zelandiyadan tashqari 9 ta katta arxi'elag-Gavayya, Samoa, Jamiyat 2025 yilda aholi soni 5,5 mln. bo'lishi mumkin.o'rtacha yosh 'olineziyani turli orolida har xildir. Masalan, Yangi Zelandiyada 73G'79. Samoada 65G'70, boshqa orollarda 68G'72. deb ma'lum qilingan. 'olineziyaning tabiati va hayvonot dunyosi ham mikroneziyaga o'xshash ancha qashshoq bo'lib, xududining ko'' qismlari abadiy yashil tro'iko'rmonzorlar va savannalarni tashkil etadi.

Okean havzasida minglab mayda orol varig'lar davr o'tishi bilan 'aydo bo'lib ba'zan esa yo'qolib ketadi. So'nggi yillarda 'olineziyaliklarning Okeaniya orollariga joylanishlari to'g'risida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ma'lum darajada aniqliklar kiritdi. Antro'ologik jihatdan ular asosan mongoloid, avstrolo-negroid va oz miqdorda yevro'eoidlar aralashmasiga oiddir. Eng ko'' tarqalgan fikrga ko'ra mazkur ti'lar 'olineziyaga Fidji arxi'elagi, so'ngTonga va Samoa orollari orqali mil.avv. II ming yillikningo'rtalaridan boshlab ko'chib kelganlar. Ulardagi maishiy turmush tarzi va madaniyati 'olineziya etnik birligini yaratib eramizning birinchi va ikkinchi ming yilligi davomida butun 'olineziyani egallab olganlar. Bunday xulosaga uzoqyillar 'olineziyaliklarning rivoyatlari, tili, madaniyati va irqinio'rgangan olim TeRangi Xirao bo'lgan. Bundan tashqari ayrim YEvropa olimlari masalan,norveg olimi Tur Xeyerdal ham izlanish olib borib, 'olineziyaliklarniJanubiy Amerikadan Ya'ni And tog'laridan kelibo'rnanashgan degan g'oyani ilgari surib uni isbotlashga harakat qilgan. Mustamlakachilar kelguniga qadar, (XVI asr boshlarida) orolliklarning asosiy tirikchiligi dehqonchilik bilan dengiz ovchiligi orqali o'tkazganlar. Lekin keyinchalik hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralib, unda kemasozlik rivojlangan edi. 'olineziyaliklar nihoyatda mohir dengizchilar hisoblangan. Masalan, Maori, Gaiti, Tongan vaFidjilar yasagan yelkanli katta kemalar 10-100 lab kishilarni uzoqsag'arga chiqishiga bardosh bera olar edi.

Uy hayvonlaridan tovuq, cho'chqa va it ko'' saqlangan. chorvachilikda Yangi Zelandiya dunyoda Yuqorio'rinni egallab olgan. Masalan, saryog' ishlab chiqarishda dunyoda birinchio'rinda, go'sht ishlab chiqarishda esa ikkinchio'rinni egallab kelgan.

'olineziyaliklar kiyimida ham boshqa Okeaniya xalqlariga o'xshash turli o'simliklardan bo'ya to'qib foydalanganlar. Masalan, Gavay aholisi qushlarning teri va 'atlaridan 'lash kiyib, bosh va oyoqlariga hech nima kiymaganlar. Hozirga kelib noqulay bo'lsada yevropacha kiyinishga odatlanib bormoqdalar.

Ularning ijtimoiy hayotida qushnichilik va qishloq jamoasi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Asosiy ishlab chiqarish vositalari-er, o'rmon va dengiz boyliklari, katta kema to'rlari jamoa mulki hisoblangan. Mehnat burch va huquq, jins va yoshiga qarab taqsimlangan. 'og'onaning eng Yuqorisida oila jamoasi 30-40 kishini tashkil etib, jamoa mulkiga ega bo'lganlar.

Jamoa va qabilalar o'rtasida turli moddiy buyumlarni ayirboshlash yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. Ularda 'ul vazifasini chifanoqlar tizmasi, 'aket to'z, cho'chqaning so'yloq tishi, tosh bolta va boshqalar bajargan.

Polineziyaliklarning ma'naviy madaniyati ham o'ziga xos boy bo'lgan. Ular tevarakatrog'ni yaxshi bilganlar, dengiz oqimi, shamol, quyosh, oy va Yulduzlarga qarab uzoq masofaarga bemalol sayohatga chiqqanlar. Ularda 1 sutka hisobi kechaga qarab belgilangan. 'asxa orolida 20 ta taxtaga bitilgan hieroglyf yozuv saqlangan. Maxsus maktablarda asosan zodagonlarning bolalari o'qitilgan. Ularga astronomiya, dengiz oqimlari, ota-bobolarining ilmtajribalari, mig'ologiya. Kema haydash mahorati va boshqa amaliy bilimlar o'rgatganlar.

Butun 'olineziyada to'rtta xudo-Tane, Tu, Rongo, Gangaroa-tabi'at kuchlarini ifodalaydi. 'olineziyada-har bir inson tufilishi bilan g'ayri tabiiy kuch-Managa ega bo'lar edi. "Mana"-tushunchasi "tabu" so'zi bilan bog'liqdir. Ya'ni Managa tegish juda xavfli hisoblanib, unga tegish man etilgan edi. Tabu so'zi asli 'olineziyada 'aydo bo'lib, uni dastlab YEvropaga dengiz sayyohi Kuk keltirgan. Bu sistema jamiyatda Kasta (tabaqalanish) tuzumini ifodalaydi.

Badiiy san'at namunalari yog'och o'ymakorligi, haykaltaroshlik, tatuirovka qilish, qurollar, uy buyumlari va qurilishi, naqshlari har xil afsonaviy rivoyatlar, ashula va raqslar, 'antomima, marosimlar va og'zaki ijod keng rivojlangan.

Yuqorida ta'kidlanganidek Melaneziya Tinch okeanining janubiy-g'arbiy qismida joylashgan tarixiy-etnografii region hisoblanadi. Bu hududga Yangi Gvineya, Bismark arxi'elagi, Yangi Gebrid, Yangi Kaledoniya, Fidji va boshqa mayda orollar kiradi. 1995 yilgi ma'lumotlarga asosan xududiy maydoni 192 ming km.kv. ni aholisi esa 5,5 mln. dan oshiqroqni tashkil etadi.

Hozirgi tadqiqotchi olimlarning fikricha Melaneziyaga dastlabki odamlar bundan 10-15 ming yillar muqaddam joylasha boshlaganlar. Ya'ni Melaneziya dastlab «'a'uas irqi»ga xos xalqlar tomonidan egallanib, so'ng Okeaniya xovzasiga tarqalganlar. Ularning eng qadimiy qismi negritos va 'a'uaslar hisoblanadi. Ularning uchog'i Yangi Gvineyaning markaziy qismi bilan Yangi Gebrid orollaridir.

Melaneziyaliklar o'rta bo'yli, negritoslarga qaraganda qoraroq tanli bo'lgan. Shuning uchun ham bu yer «Qora orollar» deb atalgan. Ularning xo'jaligida asosiy soha tro'ik ti'dagi dehqonchilik va dengiz baliqchiligi bo'lgan. Hayvonot dunyosi qashshoq bo'lganligi uchun ovchilik sust bo'lgan.

Tirikchilikda dehqonchilik mahsulotlari-ildizmevali o'simliklar va mevali daraxtlar o'stirishdan iborat bo'lgan. Masalan, kokos xurmosi, non daraxti, banan, keyinchalik 'aydo bo'lgan kofe, kakao, Sholichoy boshqalardan iboratdir. Uy-ro'zg'orlarda asosan yog'och va bambukdan kokos, qovoqdan yasalgan idish-tovoqlar qo'llanilgan. Uy-joylari har xil ti'dagi yengil ustunlarga qurilgan, tomlari 'alma yoki boshqa daraxt ya'roqlaridan foydalangan.

Oddiy turar uylardan tashqari bo'sh vaqtlarini o'tkazadigan erkaklar uyi bezatilgan jihozlangan. Trans'ort kemachalar bo'lib ular 2 kishidan 40 kishigacha sig'adigan hajmda bo'lgan. Ularning kiyimlari tro'ikiqlimga moslashgan holda turli o'simliklardan 'eShband, g'artuq

Yubkalar to‘qib kiyilgan. Mustamlaka arag‘asida bu yer aholisi ona urug‘ining oxirgi davri tuzumini saqlab qolgan edi.

Bu yerda ham Avstraliyaga o‘xshash initsiatsiya marosimlar turli shaklda o‘tkazilgandir. Masalan, o‘s‘irinlar faqat «erkaklar taomi»-banan, shakarqamish vao‘rmon mevalarini iste‘mol qilishlari Shart bo‘lgan. O‘fil bolani onasidan ajratib, erkaklar davrasida tarbiyalashgan. Koko qabilasida marosim oxirida turli nasihatlar berilgan. Ya‘ni «O‘g‘irlama, g‘ohishalik qilma, birovning ‘olizidan meva olma, adolatli bo‘lsang-uzoqyashaysan» deyilgan. Yoki: Torresova orollaridagi qabilada: Ota-onangga qo‘‘ollik qilma, ota-onangsening qorningdagi taoming, agar ular o‘lsa, sen och qolasan! Yana biri erkaklar qatoriga o‘tkazishda individual tartibda, ona qonidan qutulish uchun burundan qon oqizish, tilni sal kesish, hatna qilish ham g‘arz ham qarz bo‘lib kelgan.

O‘lim marosimlarda ham turli odatlar o‘tkazilgan. Ya‘ni eri o‘lgan xotin ancha vaqt motam qilgan, keyin erini jasadini qabrdan olib ariqda Yuvgan, kalla suyagini maxsus to‘r xaltaga solib o‘zi bilan olib Yurgan. Ayrim qabilalarda bolasi o‘lgan ayol bir barmog‘ini motam belgisi sifatida kesib bo‘yniga osib Yurgan.

‘a‘uas va Melaneziyaliklarda diniy e‘tiqod “Mana” bo‘lgan. Unda turli tabiat hodisalariga arvohlar, boy kishilar, qabila boshliqlari, erkaklar ittifoqi rahbarlari sig‘inganlar.

Yangi Kaledoniya Melaneziyaning janubida joylashgan. 1995 yil ma‘lumotiga binoan xududiy maydoni 18 ming kv.km. aholisi 200 ming kishini tashkil qiladi. 26G‘6-2025 yilda 300 ming, o‘rtacha yosh 71-77. Markazi Numeya. Bu yerga odamlar bundan 10 ming yil muqaddam borib joylashgan. Mil.avv. III ming yilda bu yerga Melaneziyalik qabilalar kelib joylashganlar. XXIII asr oxirida ‘olineziyaliklar urug‘laridan bir guruhi Luayote oroliga kelib joylashgan. Shuning uchun ham ularni tili bu yerda asos bo‘lib qolgan.

Orolni 1774 yilda ingliz dengiz sayyohi J.Kuk kashf etgan. 1853 yildan buyon Fransiya hukmronlik qildi. U yerga Fransiyadan maxbuslar va ‘arij kommunachilari surgun kilingan. Rasmiy til fransuz tilidir.

Yangi Kaledoniyani hozirgi aholisi uch guruhga bo‘linadi:

1. Aborigen-Melaneziyaliklar 30,8%
2. Fransuzlar-32,2%
3. So‘ngti yillarda Osiyo va Okeaniyadan ko‘chib o‘tganlar.

Aholining asosiy qismi katolik-xristianlardir. Shu bilan birga ‘rotestant-kolvinistlar ham bor. Ular Luayote orolida. Fidji 1970 yil 10 oktyabrdan mustaqil davlat, bungacha Britaniyaga mustamlaka bo‘lgan, lekin hamdo‘stlik a‘zosi hisoblanadi. Xududi 18 ming kv.km. aholisi 800 ming, 25G‘5 2025 yilga borib aholisi 1,1 mln.ga etishi mumkin. o‘tracha yosh 64G‘65 yosh. Ma‘lumotlarga qaraganda bu yerlarga odamlar mil.avv. II ming yillikda Yangi Gebrid orollaridan kelib joylashgan. Bu orol 1643 yili Golland va Tasman tomonidan kashf etilgan. 1874 yildan Britaniyaga mustamlaka bo‘lgan. 1879 yilda esa bu yerlarga hindular olib kelib ishlatish avj olgan va u 1916 yilga qadar davom etgan. Keyinchalik YEvropaliklar va xitoylar ham ko‘‘lab kirib kelganlar. Shuning uchun ham Fidji aholisi ikki guruhga bo‘linadi. 46,3 % fijalar, 50,0 % hindulardir. Qolganlar mayda elatlar. Davlat tili – ingliz tili. Bundan tashqari Fidji va hindu tillari ham bor. Dini xristian-‘rotestantlar. Hindular 40 %, musulmonlar 8 % ni tashkil etadi.

Yuqorida ta‘kidlanganidek Mariana orollari, Karolina orollari va MarShall orollar (AQSh vasiyligida), Gilbert orollari va Oshen oroli (Buyuk Britaniyaga qaram), Nauru

(1968 yildan mustaqil davlat) va boshqa orollar kiradi. 1995 yilgi ma'lumotga asosan xududiy maydoni 3,2 ming kv.km. aholisi esa 220 ming kishini tashkil etadi.

Orollarning aksari qismi marjon orollaridir, qolganlari vulqon natijasida hosil bo'lgan. Eng yirik oroli-Guam (AQSh mulki) Marianna orollarida otilib turadigan vulqonlar bor.

Mikroneziya-mikro-mayda va Yunoncha ness-orol demakdir. U Okeaniyadagi 1500 ga yaqin orollar arxi'elagidan iborat bo'lib, Tinch okeanining g'arbiy qismida joylashgan.

Mikroneziyani iqlimi ekvatorial va subekvatorial iqlim. oylik o'rtacha harorat Yanvarda 26°, iYunda 28°. Yog'ingarchilik yil davomida bir me'yorida yog'adi. Karolin orollarida tez-tez kuchli tro'ik dovullar bo'lib turadi. Tabiiy o'simliklar vulqon orollarida doim yashil tro'iko'rmon, qisman sovannalardan iborat. Hayvonlardan kalamush, kaltakesaq ko'rsha'alak, timsoh, ilonlar ko'roqdir.

Mikroneziya aholisi antro'ologik jihatdan Melaneziya va 'olineziya hamda qisman Indonezionaliklarning aralashuvi natijasida 'aydo bo'lgan deb ta'rig'lanadi. Ular o'rta bo'yli, jigarrang tanli va bir oz jingalak sochli bo'lgan.

Mikroneziya tillari-avstronez tillari oilasining, Malay-'olinez tillari guruhiga mansub. Hozirda bu tilda 214 ming kishi ga'lashadi. Bundan tashqari bu til Sonsorol, Ya', Truq 'onache kabi o'nlab mayda tillarga ham bo'linadi.

Mikronezliklar YEvpopalik mustamlakachilar kelguniga qadar (XVII asr) tarixiy taraqqiyotining matriarxat bosqichida turgan. Masalan, 'alau orollarida uruh va qabilaviy munosabatlari kuchli bo'lgan. Ayniqsa, ona urug'i tortib qoldiqlari saqlangan. Ya'ni ayollar erkaklar bilan teng huquqli bo'lgan. (Ayrim orollar da esa sinfiy munosabatlar elementlari shakllana boshlagan edi.)

Mikroneziyada XVII asrdan-XX asrningo'rtalarigacha is'an, nemis, ingliz, Ya'on mustamlakachilari zulmi ostida yashadi va keskin kamayib ketdi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng bu xududlar AQSh vasiyligiga o'tdi. Ular xo'jaligida serunim yerlar kam bo'lganligi tufayli u yerda faqat kokos 'almasi shakarqamish, non daraxti O'stirilgan. Aholisi asosan baliqchilik bilan kun ko'radilar. 'alau orollarida esa sholikorlik va qulolchilik bilan shug'ullanganlar.Diniy e'tiqodda ular qadimiy animistik tasavvurlarga sig'inganlar. Shu bilan birga g'olbin va koinlar ham bo'lgan.Hozirda ko'' yerlarda xristian dinining katolitsizm oqimi keng tarqalgan.

Nazorat savolari :

1. Avstraliya va Tasmaniyaning kashf etilishi haqida.
2. Avstraliya va Tasmaniya xalqlarining shakllanishi haqida.
3. Avstraliya va Tasmaniya xalqlarining antropologiyasi to'g'risida ma'lumot bering?
4. Avstraliya va Tasmaniya xalqlarining asosiy xo'jalik mashg'ulotlari qaysi sohalar edi?
5. Avstraliya va Tasmaniya xalqlarining madaniyati haqida?
6. Avstraliya va Tasmaniya xalqlarining diniy e'tiqod shakllari?
7. Melaneziya haqida umumiy tushuncha
8. Melaneziyada joylashgan yirik orollar aholisining tili, irqi, madaniyati.
9. Melaneziyada hozirgi etnik jarayonlar haqida.
10. Mikroneziyaning ma'muriy-xududiy bo'linishi.
11. Mikroneziya orollaridagi xalqlarning etnogenezi haqida.
12. Mikroneziya xalqlarining madaniyati.
13. Polineziya aholisini tarkibi va joylanishi haqida.

14. Polineziyaliklarning turmush tarzi va oilaviy Sharoitlari.
15. Polineziya xalqlarining madaniyati.

4-Mavzu. Osiyo xalqlari aholisi

Ryeja:

1. Osiyoning tabiiy gyeografik o'rni va u yyerda joylashgan davlatlar.
2. Osiyo xalqlarining etnik tarkibi, antropologik tuzilishi va tiplari.
3. Xo'jaligi va asosiy mashg'ulotlari.
4. Moddiy va ma'naviy madaniyati

Tayanch iboralar: Gominidlar, sinantrop, pitikantrop, xind – evropa til oilasi, evropoid, ko'chmanchi, yarim – ko'chmanchi, arab, turk, xitoy.

Osiyo qifasi jahonda eng katta hududga ega bo'lgan, tabiati ni-hoyatda rang-barang, eng ko'p va zich joylashgan aholiga ega. Bu yerda odamzod paydo bo'lgach, eng qadimiy madaniyatlar yaratil-gan. Oxirgi ma'lumotlarga qaraganda Osiyoning hududi 32 mln.kv km ga yaqin, aholisi 3 mlrd.dan ortiq, ya'ni jahon aholisining yarmidan ko'pini osiyoliklar tashkil qiladi.

Odatda Osiyo fanda geografik va tarixiy-etnografik jihatdan olti qismga bo'lib o'rganiladi: g'arbiy yoki Old Osiyo xalqlari, Markaziy Osiyo va Qozog'iston xalqlari, Janubiy va Markaziy Osiyo xalqlari, Janubi-sharqiy Osiyo xalqlari, Sharqiy va Shimoliy Osiyo yoki Sibir xalqlari.

Tabiiy-geografik jihatdan butun Osiyo qifasi nihoyatda notekis va xilma-xil. Uning iqlimi va tabiatiga qifa sohillarini har tomondan yuvib turgan Shimoliy Muz, Tinch va Hind okeanlari, Atlantika okeaniga tegishli Yapon, Sariq, Sharqiy va Janubiy Xitoy dengizlari, Qora va o'rta dengizning suvlari ancha ta'sir qiladi. Osiyoning ko'p qismi baland va yassi tog'liklar, adir va bepoyon cho'lu biyobondan iborat bo'lib, bu uning kontrast iqlimi bilan bog'liq. Osiyoda jahondagi eng baland tog'lar - Qora Qurum va Himolay (eng baland cho'qqi - Jomolungma - 8848 m) va quruqlikning eng quyi joyi -o'lik dengiz (o'rta dengiz sathidan 392 metr pastlik)da joylashgan.

Shimoliy Muz okeani tomonidan keladigan arktika havosi Sharqiy Osiyo tomon cheksiz pasttekisliklarga yoyiladi va qish paytlari g'arbiy Osiyoga nisbatan (bu yerda baland tog'lar to'siq bo'ladi) ancha sovuq bo'ladi. Qifaning Tinch va Hind okeanlariga yaqinligi eng katta musson iqlimli hududni hosil qilgan. Agar ba-land tog' tizmalari bir tomondan Janubiy Osiyoni qutb havzasidan saqlasa, ikkinchi tomondan o'sha to'siq, Markaziy va Janubi-sharqiy Osiyoning ichki dasht va yarim dasht hududlariga namlik keltiradigan dengiz havosini o'tkazmaydi. Oqibatda bir yoqda qalin tropik va subtropik o'rmonli tog' ekinlari yastanib yotsa, ikkinchi yoqda qarama-qarshi iqlimli bepoyon sahro va yarim dasht hududlar o'ziga xos tabiati bilan ajralib turadi. Qifaning okean sohillariga yaqin joylari, ayniqsa, janubiy qismidagi nam yerlarida yashil o'rmonlar go'zal manzara kashf etadi. Aksincha, yozgi jaziramada bir xil rangdagi qurg'oq, cheksiz dashtu biyoban kishini garang qiladigan darajada ma'yus ko'rinishga ega bo'ladi. Umuman, Osiyo beshta mintaqa; mo'tadil yoki o'rtacha, subtropik, tropik, subekvatorial va ekvatorial bog'lamalarda joylashgan.

Osiyo juda ham ko'p qazilma boyliklariga ega. Ammo bu qazil-ma boyliklar juda kam tekshirilgan. Bu yerda neft va gaz, ko'mir va qo'rg'oshin, volfram va boksit, kumush va oltin, nikel va kobalt, xrom va mis, fosfat, temir, surma, simob, grafit, oltingugurt, uran, asbest, magniy kabi foydali qazilmalar topilgan. Masalan, 80-yillarning o'rtalarida jahonda ishlab chiqarilgan

neftning yarmidau ko'pi Osiyodan olingan. Agar dengiz tubidan ham neft chiqarilishini hisobga olsak, bu ko'rsatkich yana ham ortadi. Ko'pchilik hududlar, ayniqsa, namligi haddan ortiq ekvator hududlar va nihoyatda keng qurg'oq, suvsiz yassi tog'lik va tekisliklar dehqonchilik uchun noqulaydir. Shuningdek, nam tropik joylar ham dehqonchilik va ; chorva uchun noqulay, u yerlarda faqat daraxtzor plantatsiyalari | tashkil qilingan. Musson iqlimli yerlarda sholi, qisman texnik ekinlar 1 (jut, shakarqamish), salqinroq tog'li hududlarda choy, kofe va tungal daraxti ekiladi. Sug'oriladigan quruq yerlarda paxta, tamaki, arpaw iliq namli subtropik hududda bug'doy va arpa; tog'larda esa sitruj ekinlari, uzum, zaytun daraxti o'stiriladi. Jahonda eng ko'p sug'oriladigan yerlar Osiyodadir. Bu yer hatto ayrim ekinlarning vatani hamdir. Hozirgi davrda jahondagi natural kauchukning 91 foizi, sholining 84 foizi, choyning 70 foizi Osiyo qifasida yetishtiriladi.

Osiyo suv resurslariga ham boy. Bu yerda har yili 20 ming kub km yomg'ir yog'adi. Eng katta Yenisey, Lena, Amu va Sir, Tigr, Yefrat, Hind, Ganga, Braxmaputra, Xuanxe, Yanszi daryosi suvi-ning ko'pligi jihatidan (yiliga 1000 kub km) faqat Amazonka va Kongo daryolaridan keyingi o'rinda turadi. Ganga bilan Braxma-putra daryolarining bir yillik suv hajmi 800 kub km.dan oshadi. Daryo suvlarining ko'p qismi asosan, dehqonchilikka sarflanadi. Masalan, Hindistonda iste'mol qilinadigan chuchuk suvlarning 95 foizi, Yaponiyada 70 foizdan ko'pi irrigatsiya ishlariga sarflanadi. Butun jahonda sug'oriladigan maydonning to'rt dan uch qismi Osiyoda joylashgan bo'lib, har bir kishiga taxminan 84 ga sug'oriladigan yer to'g'ri keladi. Ayrim joylarda esa dehqonchilikda yer osti suvlaridan foydalaniladi, qurg'oq yerlarda ariq qazilib suv chiqariladi, tog' etaklarida kariz sistemasi joriy etilib, u hozirgacha ham saqlangan.

Osiyoning o'simlik dunyosi ham rang-barang. Bu yeraing juda keng hududlarida shimoldan janubga qarab har xil bargi qalin o'rmonlar, yashil subtropik o'rmon va butazorlar, pichanzor va dasht o'simliklari, daraxti siyrak subtropik va tropik dashtlar, savanna va xazonrez o'rmonlar, tog' o'simliklari mavjud. Osiyoning sernam sharq va qurg'oq g'arb manzarasi bir-biridan farq qiladi. Masalan, sharqiy qismning o'simlik dunyosi nihoyatda boy bo'lib, 20 mingdan ortiq o'ziga xos turga ega. Janubi-sharqiy mintaqalardagi o'rmonlarda sanoat uchun zarur qimmatbaho daraxtlar o'sadi. Masalan, ko'pgina o'rmonlardan teri oshlashda ishlatiladigan po'stloq, konifol, qatron (smola), kauchuk, sariq mum, spirt, dorivor o'simliklar va turli yemishli mevalar yig'ib-terib olinadi. Bambuk va palma daraxtlaridan turli-tuman mahsulotlar ishlab chiqariladi. Afsuski, o'rmonlarning aksariyat qismi yiqitilib o'tin sifatida ishlatilib yuborilmoqda.

Atoqli rus olimi N.I. Vavilovning fikricha, Osiyo ko'pgina madaniy ekinlarning vatanidir. Bu yerda jahon dehqonchilik markazlarining o'ndan olti qismi joylashgan (Markaziy Osiyo, Old Osiyo, Qora dengiz, Hindiston, Indoneziya va Xitoy) bo'lib g'alla, poliz, sabzavot va texnik ekinlar o'stirilgan va boshqa qifalarga yirik miqdorda eksport qilingan. Masalan, Hindiston sholi va bug'-doyning ayrim turlari, loviya, bodring, shakarqamish, jut va ba'zi kanop xillarining vatanidir. Choy daraxti, apelsin, non daraxti, bananning ayrim turlari, kokos, qand va sago palmalari, yams va taro vatani Janubiy Osiyodir. Arpaning ayrim turlari, chumiza, turp, so'ya, olma va nok, shaftoli va o'rikning ko'p turlari, tut daraxti, ingichka tolali paxta va boshqa o'simliklarning vatani esa Sharqiy Osiyodir. Bug'doyning ko'p turlari, arpa va sulining ayrim navlari, javdar, no'xat va zig'ir, ayrim mevali daraxtlar (olcha, qorali, behi, gilos) va boshqa o'simliklarning vatani Janubi-g'arbiy Osiyo hisoblanadi.

Osiyoning hayvonot dunyosi ham boy. Bu yerda faunaning ja-hondagi eng qadimiy vakillari saqlangan. Ayniqsa, Hind-Himo-lay, Markaziy Himolay va Himolay-Xitoy mintaqalari, janubda Araviya yarim orolidagi Efiopiya faunasi juda boy. Osiyo mintaqasida eng keng tarqalgan hayvonlar sutemizuvchilar oilasi-ga mansub tapir, hind fili, gayal ho'kizi, karkidon, yo'lbars, lor, tupayi, orangutan, gibbonlar; qushlardan tovus, har xil turdagi tustovuqlar; sudralib

yuruvchilardan ko'zoynakli zaharli ilon (kobra), turli pitonlar, uchar ajdarho (maxsus yon terisi bilan daraxtlar oralab uchib o'tadigan kaltakesak)lardir. Osiyo sohilla-riga yaqin bo'g'oz va dengizlarning hayvonot dunyosi ham rang-barang. Turli xildagi baliqlar, yemishli suv o'simliklari mahalliy aholini oziq-ovqat sifatida ta'min qiladi.

Yevropoid irqining Old Osiyo va hind-pomir guruhleri qatoriga butun Janubi-g'arbiy va Janubiy Osiyo Arabiston, Araviya yarim oroli va Turkiyadan tprtib to Afg'oniston, Pokiston, Shimoliy Hindiston va Bangladesh xalqlarigacha kiradi. Maxsus armanoid guruhiga o'zining katta burni va badanining serjunligi bilan ajralib turadigan Osiyo arablari, yahudiylar, armanlar, turklar, kurdlar va greklar kiradi. Yamanda armanoidlar bilan Afrikadan kelgan negroidlar aralashib, o'ziga xos guruhni tashkil qiladi. hind-pomir guruhiga eronlik (fors)lar, tojiklar, turkmanlar, ozarbayjonlar, pushtunlar va Afg'oniston, Pokiston, Shimoliy Hindiston xalqlari kiradi. Yevropoid va avstraloid oralig'ida paydo bo'lgan «Janubiy Hind» yoki «dekan» irqiy tipi Janubiy Hindiston, Shri-Lankada uchraydi. Janubiy yevropoid va mongoloidlarning duragaylashishi natijasida uyg'urlar va boshqa turkiy elatlar, xitoy musulmonlari xuey (dungan)lar o'ziga xos irqiy tipni hosil qilgan. Osiyo xalqlari-ning ayrim yevropoid belgilari Birma va Indoneziya xalqining ba'zi elatlarida uchraydi. Qisman avstraloid irqining maxsus guruhini Shri-Lanka veddalari, Hindixitoy, Indoneziya va Janubiy Xitoyning ayrim mayda elatlari, pakana bo'yli negritoslar (Janubi-sharqiy Osiyodagi andamaliklar, malakkadagi semanglar va Filippindagi aetolar) tash-kil qiladi. Yaponiyaning qadimiy aholisi hisoblangan aylar ham o'ziga xos tip hisoblanadi. Butun Sharqiy va Markaziy Osiyodagi mongoloidlar janubiy, sharqiy va Tinch okean guruhlaridan iborat.

Hozirgi Osiyoning etnolingvistik qiyofasi asosan, eramizdan avvalgi I ming yilliklardan boshlab shakllana boshlagan. o'sha davrda Kichik Osiyoning g'arbida ellin tillari, sharqida kartvel va arman tillari, o'rta dengiz sharqida esa aramey tillari hukmronlik qilgan. Shimoliy Hindistonga Markaziy Osiyodan kelgan hindariy xalqlari Ganga tekisliklarida yashagan aholi bilan qisman aralashib, ularni butunlay siqib chiqarib (ayniqsa, dravid va munda tillarida so'zlashuvchi xalqlarni) qadimiy xarappi madaniyati negizida yangi etnolingvistik guruhlariga asos solganlar. Eroniy tildagi xalqlar ham markaziy osiyolik etnoslar bilan mahalliy hindariy xalqi bilan aralashib, butun Eron va Afg'onistonda, g'arbda Mesopatamiyagacha, sharqda Shimoliy Hindistongacha tarqalgan. Yangi etnoslarni paydo qilgan Xuanxe vohasida dastlabki davlat yaratgan in va chjou qabilalari janub tomon tarqalib mahalliy tan va indoneziya qabilalari bilan aralashib qadimiy xitoy xalqining shakllanishiga sabab bo'lgan. Mazkur etnik guruhlar eramizning boshlanishi arafasida Hindixitoy yarim oroliga borib vet qabilalari negizida eng qadimgi Vetnam davlat birikmasi (Aulak)ni yaratgan. Hozirgi Manchjuriyadan oltoy til oilasiga oid, janubdan indoneziya tillariga oid xalqlarning Koreya va Yaponi-yaga kelib mahalliy tub aholi (Koreyada paleosiyoliklar, Yaponi-yada asosan, aylar) bilan aralashib ketishi natijasida o'ziga xos yangi etnoslarga asos solingan.

Shunday qilib, eramizning boshlarida Janubiy va Sharqiy Osiyoda eng yirik etnolingvistik guruhlar - semit, eron, hindariy, oltay, dravid, munda, mon-kxmer tillaridagi qabila va elatlar, xitoy, vetnam, qadimiy koreya va yapon xalqlari shakllana boshlagan yangi erada mazkur jarayon davom etib, xalqlarning etnik qiyofasi uncha o'zgarmagan. Ammo VII asrdan boshlab arablarning keng hududlari joylashuvi va islomning tarqalishi oqibatida semit xalqlari arab tiliga o'tgan va hozirgi etnoslarning shakllanishiga sabab bo'lgan. Markaziy Osiyo dashtlaridan g'arbga va janubi-g'arb tomon ko'plab ko'chib kelgan turk qabilalarining qadimdan dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi bilan aralashib ketishi, natijasida turkiylashish hodisasi ro'y bergan. Markaziy Osiyoning o'zidan esa ko'chib ketgan turkiy qabilalar o'rnini Sharqiy Mo'g'ulistondan kelgan qabilalar egallagan.

Hozir Osiyoda etnik taraqqiyot jihatidan turli pog'onada turgan mingdan ortiq xalqlar yashaydi. Ular har xil til oilasi va guruhlariga oid bo'lib, son jihatdan eng ko'p sonli -100 mln. kishidan ortiq aholiga ega to'rtta xalq - xitoylar, hindistonliklar, bengalliklar, yaponlar yashaydi. Bir mln.dan ortiq 90 xalq 2400 mln. kishidan iborat bo'lib, butun Osiyo aholisining 97,4 %ini tashkil qiladi. Shulardan oltitasi 50 mln.dan ortiq, 21 tasi 10 mln.dan to 50 mln.ga yaqin aholiga ega bo'lgan xalqlardir. Osiyo etnolingvistik jihatdan qancha rang-barang / bo'lmasin, aholisining uchdan ikki qismi dunyoda eng ko'p sonli bir; tilda so'zlashadigan etnoslarni tashkil qiladi (xitoy, hind, yapon, i bengal,~arab va forslar). Umuman, xitoy-tibet til oilasiga oid xalqlar I soni 990,7 mln.dan ortiq (shulardan xitoy guruhi 938,6 mln., tibet-J birman guruhi 52 mln. kishi); hind-yevropa oilasi 700,1 mln. kishisj (hindariy guruhi 637,5 mln., eron guruhi 60,5 mln. Qolgani armanJ grek, german va slavyan vakillari), avstroneziya oilasi 196 mln.,| dravid oilasi 161,6 mln., yaponlar 114,2 mln., avstroosiyo oilasii 73,3 mln., oltoy oilasi 63 mln. (shulardan turkiy guruhi 55 mln.), semit-xamit oilasi 46,2 mln., tay oilasi 60 mln., koreyslar 56,4 mln.kishidan iborat. Qolgan elatlar kavkaz, papuas, andaman til oilalariga kiradi.

Osiyo mamlakatlari aholisining milliy tuzilishi va etnik xarakteriga qarab to'rt guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga milliy jihatdan bir xil bo'lib, tub xalqi umumiy aholining 95 %ini tashkil qiladigan Yaponiya, Koreya, Bangladesh va ko'pchilik Arab mamlakatlari kiradi. Ikkinchi guruhga tub xalq butun aholiga nisbatan 70 %ni tashkil qiladigan Vetnam, Birma, Kambodja, Turkiya, Suriya, Iroq, Xitoy, Shri-Lanka, Singapur singari davlatlar kiradi. Uchinchi guruhga aholisining yarmidan ko'pi tub xalq, qolgani boshqa turli etnoslardan iborat mamlakatlar kiradi (Eron, Afg'oniston, Pokiston, Malayya, Laos). To'rtinchi guruhga esa ko'p millatli mamlakatlar kiradi. Masalan, bunday mamlakatlarda Hindiston va Indoneziyada 150 dan ortiq. Filippinda IOOga yaqin turli xalq va elatlar yashaydi. Ba'zi davlatlarning etnik tuzilishi shunchalik murakkabki, ayrim xalqlar bir necha mamlakatlarga bo'linib ketgan. Masalan, kurdlar Turkiya, Eron, Iroq va Suriyada, belujiylar Afg'oniston, Eron va Pokistonda, panjobliklar Pokiston va Hindistonda yashaydilar. Butun Janubi-sharqiy Osiyo mamla-katlari bo'ylab yirik guruh bo'lmish xitoy immigrantlari joylash-gan.

Osiyo mintaqasida xitoy-tibet til oilasiga oid xalqlar butun aholining 40,2 %ini, hind-yevropaliklar 28,4 %ini, avstroneziya til oilasi 7,9 %ini, dravidlar 6,6%ini, yaponlar 4,6%ini, avstroosiyo oilasi 3%ni, oltoy oilasi 2,6%ni (shu jumladan, turkiy tildagilar 2,2 %ni), tay oilasi 2,4%ni, koreyslar 2,3%ni, semit-xamitlar 1,9 %ni tashkil qiladi. Oltoy til oilasiga oid turkiy, mo'g'ul va tungus-manchjur tillarida so'zlashadigan etnoslar g'arbda Bosfor bo'g'ozi va Marmar dengizidan tortib, sharqda Tinch okeanigacha cho'zilgan hududlarda joylashgan. Osiyoda aholi zichligi ham notekis: serunum tuproqli daryo vohalarida va qulay tabiatli dengiG' sohillarida bir kvadrat km.ga 500 kishi (Hindistonning ayrim hududlarida hatto ming kishi) to'g'ri kelsa, yashashga noqulay tog'li va dasht-biyobon yerlar ko'p bo'lganligi tufayli umumiy aholining yarim qismi butun Osiyoning o'n foiz hududini egallaydi, xolos. Skuni ham aytish lozimki, bu yerda azaldan xalqlar va elatlar migratsiyasi nihoyatda kuchli bo'lgan. Qadimgi davrlardan juda katta hududda eng qadimgi til oilalari: dravid, munda, mon-kxmer, xitoy-tibet, avstroneziya va malayya tillari shakllanib kelgan. Yuqorida qayd qilinganidek, hozirgi Mo'g'uliston va Shimoliy Xitoyda oltoy til oilasi paydo bo'lgan, keyinchalik boshqa joylar-ga ham tarqalgan. Semit tillari ham Osiyoda eng qadimiy davrlarda paydo bo'lgan. III-II ming yilliklarda bu yerga hind-yevropa tilla-ri kirib kelib mahalliy tillar bilan aralashib ketadi. Hozirgi elatlar-ning etnolingvistik qiyofasining shakllanishida mana shu jarayon-lar asosiy zamin bo'lgan.

Osiyoning xo'jalik-madaniy tiplari ham juda qadim - tosh asridayoq paydo bo'lib, tabiiy sharoitga moslashgan. Tog'li va tog' etaklaridagi nisbatan qurg'oq issiq hududlardagi aholi

yuqori paleolit davrlaridan yirik hayvonlarga ov qilishdan mayda jonivorlarni ovlashga va yemishli o'simlik va mevalarni, ildizmevali ekinlarni terib-termachlashga o'tadi. Bu madaniyatga xos ishlab chiqarish qurollari uzunchiq chaqmoq toshlardan sindirib olingan turli shakldagi yassi tosh parchalaridan iborat bo'lgan. Janubi-sharqiy Osiyoning namli tropik va subtropik hududlarida (Hindixitoy, Janubiy Xitoy, Malayziya) tosh qurollariga qaraganda bambukdan yasalgan qurollar muhim rol o'ynagan. Tabiati issiq va namli changalzor (jungli)da yirik tosh qurollar ishlatilgan. Shimoliy qurg'oq dasht hududlarda va qisman dengiz sohillarida (g'arbda Eronning sharqida, Xuanxe vohasigacha) dasht hayvonlarini ov qilish, terib-termachilik va baliqchilik kabi xo'jalik tiplari shakllana boshlagan, aholisi o'troq va yarim o'troq terimchi ham baliqchilarga, ikkinchi-dan daydi ovchilarga bo'lingan. Sibirda bug'uchilik va ovchilik aso-siy xo'jalik tiplari bo'lgan.

Eramizdan oldingi VII-VI ming yilliklarda Janubiy Osiyo Hindixitoy, Xitoyda dehqonchilik va chorvachilik mustaqil xo'jalik sohasiga aylanib, sun'iy sug'orish, metallurgiya va savdo rivojlana boshlagan, sinfiy jamiyatlar paydo bo'la boshlagan. Keyingi davrda (ayniqsa, IV-II ming yilliklarda) bu yerda quldorlik tuzumiga asoslangan ilk davlatlar tuziladi, yozuv, ilm-fan, badiiy hunarmandchilik, momimental qurilish, haykaltaroshlik kabi sohalar rivoj topadi. Osiyo qifasi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, ayniqsa, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik xo'jaligining takomillashuvi, har tomonlama ravnaq topa boshlagan shahar-davlatlarning paydo bo'lishi tufayli jahonning qadimiy madaniyat o'choqlaridan biriga aylanadi.

Mazkur madaniyat markazlari qadimgi davrda paydo bo'lib hozirgacha saqlanib kelgan. Iroqdagi dabdabali Bobil xarobalari, Hindistondagi Adjanta va Ellora ibodatxonalari, keyingi yillarda kashf etilgan Maxendjodaro va Xarappi madaniyati, Suriyadagi kishini hayajonga soladigan Palmira ayronalari, lordaniyadagi monolit tog' qoyalarida o'yilib qurilgan hashamatli Petro inshootlari, Kambodja changalzor(jungli)laridagi afsonaviy Angkor - Vata ibodatxonalari, Nepaldagi gumbazli Svayambunaxt va Bodiaxt muqaddas budda inshootlari va boshqa noyob obidalar bunga yorqin dalil bo'la oladi. Anuno noqulay tabiiy sharoit (baland tog'liklar, changalzor to'qaylar va hokazo)da joylashgan ayrim etnik guruhlar mazkur madaniyat markazlaridan chekkada qolib, bir necha ming yillar davomida juda sekinlik bilan rivojlanib hozirgacha qoloq ibtidoiy ijtimoiy tuzum darajasida yashab kelmoqdalar.

Ko'chmanchi chorvachilik xo'jaligining dehqonchilikdan ajra-lib chiqib keng dashtu biyobonlariga tarqalishi va yirik ishlab chiqarish sohasiga aylanishi yangi yerlarni egallashda muhim rol o'ynagan edi. Lekin bu hodisa texnik-iqtisodiy jihatdan intensiv dehqonchilik xo'jaligidan orqada qolgan chorvachilikni oqibatda o'troq aholiga qarama-qarshi qilib qo'yadi va ikkita yirik soha orasida katta ziddiyatlar tug'diradi. Madaniy-iqtisodiy qoloq ko'chmanchi qabila va elatlar vohalarga tez-tez hujum qilib turib, awaliga talon-toroj va qirg'in keltirib turganlar. Qadimiy davrlardan XVIII asrga qadar davom etib kelgan Dashti Qipchoqdagi sakmassaget, keyin ko'chmanchi arab va mo'g'ul qabilalarining bosqinchilik yurishlari sharqda Xitoydan to g'arbdagi arab davlatlarigacha katta hududda yuksak madaniyat yaratgan o'troq xalqlarning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga ancha putur yetkazgan.

Osiyo aholisining hozirgi diniy qiyofasi qadimiy davrlarda, ayniqsa, o'rta asrlarda shakllangan. Hozirgi davrgacha yetib kelgan dinlarning ko'pchiligi (iudaizm yoki yahudiylik, zoroastrizm, induizm, jayнизм, buddizm, daosizm, konfutsiylik, nasroniylik, sintoizm, islom, sikkizm) Osiyoda paydo bo'lgan va keyinchalik butun jahonga tarqalgan. Masalan, miloddan avval shakllangan yahudiylik, yangi erani rasmiylashtirgan nasroniy dini, yoki o'rta asr boshlarida kirib kelgan islom dini ham paydo bo'lgan vatanidan tashqari juda ko'p mamlakatlarga, bir qancha qifalarga yoyilib ketgan.

Shunday qilib, Osiyo dinlari o'rta asrlarga kelib asosan, shakllanib bo'lgan. Hozirgi davrda islomning shia mazhabi Eron, Iroqning janubiy qismida, zeydizm nomi bilan Yaman Arab respublikasida hukmron din hisoblanadi. Sunniy mazhab butun Janubi-g'arbiy va Markaziy Osiyo mamlakatlarida (Isroil, Livan va Kiprdan tashqari) ko'pchilik aholining diniy e'tiqodi hisoblanadi.

Afg'oniston, Pokiston, Bangladesh, Malayziya va Indoneziya aholisining ham ko'pchiligi musulmonlardir. Hindistonda (ayniqsa, Kashmir shtatida) va Xitoyda (Sinszyan viloyatida uyg'urlar, Nineya - Xuey avtonom hududida dunganlar) musulmonlar ko'p. Maldiv orollarida, Shri-Lanka (mavrlar) va Birmada (arakanlar), Kambodja va Vetnamda (chama), Filippinda (moro) va Janubiy Tailandda ham qisman musulmonlar yashaydi.

Nazorat savollari:

1. Osiyo hududining etnografik tahlili?.
2. Osiyo xalqlarining antropologik tuzilishi qanday?
3. Osiyo xalqlarining lingvistik tuzilishi qanday?
4. Osiyo xalqlarining xo'jalik mashg'ulotlari qanday?
5. G'arbiy Osiyo xalqlarining madaniyati qanday ko'rinishga ega?
6. Osiyoda joylashgan davlatlarini aniqlang
7. Osiyo xalqlarini etnogenezi va etnik tarixi.
8. Osiyo xalqlarini xo'jalik sohalari qanday?
9. Osiyo xalqlarini madaniyati to'g'risida ma'lumot bering?

5-Mavzu. O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari

REJA:

1. Markaziy Osiyoning geografik o'rni, antropologiyasi, til tuzilishi.
2. Xo'jalik yo'nalishi, madaniyati, dini.
3. O'zbeklarning qadimiy ajdodlari, qadimiy qaqbilalar.
4. Bu qabilalarning xo'jaligi va madaniyati.

Tayanch iboralar: oltoy til oilasi, hind-yevropa til oilasi, o'zbeklar, qozoqlar, turkmanlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar va uyg'urlar, belujiylar, kurtlar va forslar, mongoloid irq, Markaziy Osiyolik maxsus antropologik tipi, turkiy til, dehqonchilik va chorvachilik, sun'iy sug'orish, hunarmandchilik.

Markaziy Osiyoda tili va madaniyati turli bo'lgan har xil elat, xalq va millatlar yashaydi. Bu regionda qadimgi yuksak madaniyat yaratgan Markaziy Osiyo xalqlari uzoq murakkab tarixiy taraqqiyotni bosib o'tib, asrlar mobaynida yaqin munosabatda bo'lib umumiy tarixiy etnografik oblastni tashkil qilganlar.

Markaziy Osiyo 4 mln. kv.km. maydonni egallaydi. Mazkur territoriyada O'zbekiston (12 viloyat va bir Avtonom Res'ublika bilan) Qozog'iston (20 viloyat), Tojikiston (3 viloyat), Qirg'iziston (6 viloyat) va Turkmaniston

Regionning geografik sharoyiti xilma-xil. Uning ko'pchilik qismi qurg'oq dashtlar va jazirama issiq iqlimli sahro, janubiy-Sharqiy va janubiy tomondan 'omir, Tyan-Shan va Kepetog' tog' tizmalari bilan o'ralib turadi. Tog'li rayonlari, ayniqsa, vohalari, yumshoq iqlimli tabiatga ega, o'simlik dunyosi juda boy bo'lib, qadimiy davrlardan odam yashash uchun qulay. Hozir bu yerda hatto subtropik o'simliklar yetishtirilmoqda.

Tabiati va iqlimiga ma'lum darajada ikkita dengiz-Kaspiy va Orol ta'sir qiladi. Butun Markaziy Osiyoga hayot bag'ishlab turgan Amudaryo va Sirdaryo Pomir tog'laridan boshlanib ko'hna Orol dengiziga kelib quyiladi. Boshqa katta-kichik daryo va soylar tog'lardan keltirilgan suvlarni vohalarga tarqatib qum va sahrolarda shimilib ketadi. Serunum tuproqli vohalarida qadimiy davrlardan sug'orma dehqonchilik paydo bo'lib, daraxtzorlar va bog'u rog'lar yaratilgan. Tog'li rayonlar, to'qayzorlar, dashtlar hayvonot dunyosiga boy.

Mahalliy aholi asosan ikki til turkumiga: o'zbeklar, qozoqlar, turkmanlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar va uyg'urlar oltoy til oilasining turkiy til turkumiga, belujiylar, kurtlar va forslar esa hind-yevropa til oilasining eroniy til turkumiga kiradi. Boshqa etnoslardan kelgindi ruslar, ukrainlar, tatarlar, dunganlar, mahalliy yahudiy va lo'lilar yashaydilar. Ular ayrim, bir necha turkumga oid xalqlarning avlodi. Regionda hozirgi aholining 60 %i turkiy tilda gaplashuvchi xalqlar, 21 %i slavyan xalqlari, 7 %i eroniy til oilasining vakillari. O'rta Osiyoda 150 dan ortiq turli xalq va millatlarning vakillari yashaydi.

Antropologik jihatdan ham Markaziy Osiyoning tub aholisi ikkita katta irqa: mongoloid irqga asosan qozoq, qirg'iz va qoraqalpoqlar; O'zbek, tojik, turkman va boshqa xalqlar esa qadimgi yevro'oid irqiga mansub. Ammo ayrim etnik gruppalarda aralash tiplar ham uchraydi. Asl Markaziy Osiyo xalqlarining antro'ologik qiyofasi eramizdan avvalgi birinchi ming yillikdan shakllana boshlagan va eramizning XIII asrdagi mo'g'ul istilosidan keyin tugagan. Antropologlarning ta'rificha, tub aholi ikkita katta irq-yevropoid va mongoloid oralig'idagi bog'lovchi ko'prik vazifasini bajarib o'ziga xos Markaziy Osiyolik maxsus antropologik tipni tashkil qilgan. Qadimiy yevropoid belgilar g'arbdan sharqqa tomon kam seziladi.

Mug'ul istilosidan keyin turk tili ta'siri ancha kuchaygan va XVIII asrda butun Markaziy Osiyoda (Tojikistondan tashqari) to'liq g'alaba qozongan. Bu davrning eng muhim tarixiy ahamiyati shundan iboratki, Markaziy Osiyo xalqlarining etnik jihatdan shakllanish jarayoni tugallangan. Ammo ularning etnogenezi va etnik shakllanishi uzoq mudatda va ancha murakkab sharoitda ro'y bergan. Buni to'g'ri tasavvur qilish uchun ayrim xalqlarning etnik tarixiga bir nazar tashlash maqsadga muvofiq.

Markaziy Osiyoda odam 'aleolit davrida paydo bo'lib mezolit (neolit) davridan boshlab butun regionga tarqalgan. Qadimgi ibtidoiy ajdodlar ovchilik, baliqchilik va terimchilik bilan shug'ullanganlar. Arxeologik tadqiqotlarga qaraganda ular urug' jamoa bo'lib birgalikda ov qilib tirikchilik o'tgazganlar, katta uylarda yashaganlar. Neolit makonlarida O'rta Osiyoning ko'p joylarida topilgan.

Eramizdan avvalgi V ming yillikdan boshlab janubiy rayonlarda eng qadimgi dehqonchilik madaniyati 'aydo bo'lgan. I ming yillikka kelib chorvachilik dehqonchilikdan ajralib chiqdi, ikki mustaqil o'zaro bog'liq xo'jalik sohalari tashkil to'di. Bu davrda vohalarda yuksak madaniyatga ega bo'lgan Xorazm, So'g'd-Baqtriya, Marg'iyona kabi yirik davlatlar tuziladi.

Qadimgi O'rta Osiyoning uzoq davr ichida turli qabila va elatlardan iborat Ahmoniyalar, Kushon, Yunon-baqtriya, Turk hoqonligi va Arab davlatlari hukmronligida bo'lishi uning etnik tarkibida chuqur iz qoldirdi. Ayniqsa V asrlarda ko'plab paydo bo'lgan turkiy qabilalarning ta'siri kuchli bo'ldi. Ular o'z tillarini singdirib, bir necha asr davomida ko'pchilik aholining turkiylashtirgan. Bu jarayon arab istilosidan keyin ham davom etdi. Ammo dastlab turkiy tildagi gun qabilalari eramizdan avvalgi I ming yillik ohirlarida kira boshladi. O'sha davrlardayoq hozirgi o'zbek, tojik, turkman xalqlarining ajdodlari ancha mustahkam etnik birikmalarni tashkil etgan. XIII

asrda bostirib kirib madaniy markazlarni talon-taroj qilgan mug‘ullar ham mahalliy aholining etnik tuzulishiga jiddiy ta’sir o‘tkazgan va turli-tuman xalq elatlarining aralashib ketishiga sabab bo‘lgan. XVIII asrga kelib turkiylashtirish jarayoni tugaydi va hozirgi O‘rta Osiyo etnik qiyofasi to‘liq shakllanadi. Mazkur jarayonning naqadar murakkab ekanligini tasavvur qilish uchun ayrim xalqlarning qiskacha etnik tarixi bilan tanishib o‘tish zarur.

O‘zbek xalqning shakllanishi uzoq davr davomida antropologik va til jihatdan turli xil ko‘chmanchichi chorvador aholining o‘troq dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi yuksak madaniyatli elatlar bilan aralashish jarayoni asosida ro‘y beradi. O‘zbek etnogenezida qadimiy so‘g‘diylar, xorazmiylar, baqtriyaliklar, farg‘onaliklar va sak-massaget qabilalari muhim rol o‘ynagan. Turkiy qabilalar o‘rta Osiyoga eramiz arag‘asida kela boshlaydi va VI asrda turk hoqonligi davrida nacha ko‘‘ayadi. Ayniqsa bu jarayon XI asr o‘rtalarida Qoraxoniylar davlati davrida va mug‘ullar istilosidan keyin juda kuchaygan. o‘sha vaqtda O‘zbek adabiy tiliga asos qo‘yilgan edi. Eng ohirgi yirik turkiy qabilalar dashti qi‘choqqa bosib kirib qadimgi madaniyat markazlari-Movarounnaxr, Xiva, Urganch va Toshkent, Surxon va Qashqadaryo vohalarini o‘ziga bo‘ysundiribgina qolmay, hatto «o‘zbek» nomini tarqalishiga sabab bo‘ladi. Istilo qilingan joylarda ko‘chmanchichi o‘zbeklar ozchilikni tashkil qilsa ham zo‘r siyosiy va harbiy kuchga ega bo‘lganlar. Ular asta-sekin o‘troq dehqonchilikka o‘ta boshlaganlar. Ammo hozir ham janubiy O‘zbekistonda yashovchi o‘zbeklar uzoq o‘tmishdagi ko‘chmanchilikning ayrim belgilarini va qisman urug‘ qabilaviy nomlarini saqlab qolganlar.

XX asr arafasida O‘zbeklar asosan uchta katta etnografik gru‘‘adan iborat bo‘lgan:

1. *Vohalarda joylashgan qadimiy o‘troq aholi;*

Markaziy Osiyoning ikki daryo oralig‘ida yashagan qabilalar bilan kelgindi turk-mo‘g‘ul hamda keyingi O‘g‘uzlar bilan aralashib ketgan yarim ko‘chmanchichi turmush tarzi va urug‘ qabilaviy nomlarini saqlagan avlodlar;

2. *Dashti qi‘choqdan kelgan qabilalar (qi‘choq, nayman, qO‘ng‘irot, mang‘it va hokazo) ning endi o‘troq holatga o‘tib bo‘layotgan elatlarning avlodlari.*

Eng qadimiy qabilalarda eramizdan avvalgi I ming yilliklarida Qozog‘iston teritoriyasida joylashgan saklar, usunilar, alanlar, kangyuy qabila ittifoq va hokazo qozoq etnogenezining dastlabki etnik qatlami edi. VI-VII asrlar mazkur teritoriyada G‘arbiy turk hoqonligiga oid turgesh, qarluq kabi qabilalar ‘aydo bo‘ldi. Keyingi 3-4 asr davomida kimak, qipchoq va o‘g‘uzlar kirib keladi. X-XII asrlarda qozoq eli Qoraxoniylar davlatiga qo‘shilgan mahalliy qabilalarning birikishiga ancha turtki bo‘lgan. o‘sha davrlarda bu yerga kidanlar ham bosib kirgan. Turli qabila va elatlarning Yana ham aralashib ketishiga mo‘g‘ul istilosi sabab bo‘lgan. Qozoq xalqning shakllanishidagi oxirgi kom‘onenti XIV asr oxirlarida Oltino‘rdadan kelgan ko‘chmanchichi kabilalarning katta to‘lqini bilan bog‘liq

XV asr oxiri-XVI asr boshlarida Qozoq xonligi ‘aydo bo‘ladi va bu xonlik doirasida qozoq xalqining shakllanishi tugaydi. XIX asrning 60 yillarida qozoq yerlari Rossiyaga qo‘shilib, o‘sha davrdan qozoqlarning birligi kuchayadi va ular asta-sekin o‘troq turmush tarziga o‘tadilar. Qozoqlarning tarkibida xududiy jihatdan 3 ta mustaqil qabilalar guruhi ‘aydo bo‘lgan: Katta juz (Etti suvda), o‘rta juz (Qozog‘istonning dasht rayonlarida, Sirdaryo, Tobol va Ishim vohalari) va Kichik juz (G‘arbiy Qozog‘iston).

Markaziy Osiyoning eng qadimiy xalqlaridan biri hisoblangan qirg‘izlar Qirg‘iziston Res‘ublikasida 5 mln (2001 yilgi ma‘lumot), qo‘shni O‘zbekistonda va Tojikistonda, qisman Shimoli-G‘arbiy Xitoyda va Sharqiy Afg‘onistonda yashaydi. Res‘ublikaning umumiy

aholisi 5 mln. dan ortiq Shundan qirg'izlar 47,9 %, ruslar-25,7 %, O'zbeklar-12,1 %, ukrainlar-3,1 %.

Qirg'izlarning ilk etnik tarixi qadimiy gunn, sak, dinlin, usun qabila ittifoqlari bilan bog'liq. Eramizdan avvalgi I ming yillikning o'rtalarida Yuqori YEnisey vohalarida qirg'iz davlatini tuzganlar. VI-X asrlarda qirg'izlarga qo'shilgan turkiy qabilalar dastlab Irtish bo'ylarida, Sayan-Oltoy rayonida va Tyan-Shan etaklarida joylashgan. Hozirgi xududlarga IX-X asrlarda ko'chib kelgan YEnisey qirg'izlarining ayrim gru'alari qadimiy davrlarda eroniy tilda ga'iradigan keyin turklashgan mahalliy elatlar, qarluqlar va uyg'urlar bilan aralashib ketgan. Xronologik ma'lumotlarga binoan XIII asrgacha Tyan-Shan aholisi antro'ologik jihatdan yevro'oid bo'lgan. Qirg'izlarning mongoloid irqiga o'tishi va turklashtirish jarayoni asosan mo'g'ul istilosidan keyin ro'y bergan. XVI-XVIII asrlarda qirg'iz etnosiga qozoq-no'g'oylaridan chiqqan qabilalar ham kelib qo'shiladi. o'sha davrdan boshlab Tyan-Shanda qirg'iz xalqi shakllanadi. Ammo keyingi ikki asr davomida jungar xonlari qirg'iz elini to'xtovsiz talon-taroj qilib turgan. XIX asrning birinchi yarmida qo'qon xonligiga bo'ysunadi. 60-70 yillarga kelib qirg'iz yerlarining ko'chiligi Rossiyaga qo'shiladi va etnik jarayoni tezlashadi.

Rossiyaning rjevalsk rayonida qirg'izlarga ko'shib ketgan g'arb mo'g'ul o'lat gru'asi-sart-kalmaq yashaydi. XX asrda barcha qabila va elatlar qirg'iz xalqi bilan birikib millat hosil bo'ldi.

Turkmanlar hozirgi territoriyasida qadimdan shakllanib kelgan. Ularning soni 5.5 mln. dan ortiq (2001 yl ma'lumoti) asosan Turkmanistonda, qo'shni O'zbekiston va Tojikiston res'ublikalarida, Shimoliy Kavkazda va Astraxan oblastida joylashgan. Chyet ellarda ham turkmanlar ko'. Masalan, Eronda 550 ming, Afg'onistonda 300 ming, Turkiya, Iroq va boshqa Old Osiyo mamlakatlarida 1,2 mln. yaqin turkmanlar g'uj holda yashaydi.

Turkman xalqining etnogenezi xali to'liq aniqlanmagan. Uning eng dastlabki etnik tuzilishida qadimiy dax-massaget va sarmat-alan qabilalarining roli katta. Qadimiy Marg'iyona, arfiya va Xorazm davlatlarining aholisi ham mazkur jarayonda qisman ishtirok etgan. Turkmanlarning etnik shakllanishi Orol-Kas'iy dashtlarida yashovchi eroniy tillarda ga'iradigan qabilaviy birikmalarning IV-V asrlarga kelib turklashtirish jarayoni bilan bog'liq, degan fikr mavjud. Keyinchalik mazkur turklashtirilgan qadimiy qabilalarga O'g'ular qo'shib turkman xalqiga asos solgan. Ikkinchi fikr antro'ologik dalillarga asoslanib turkmanlar asli eramizdan avval, turklashtirilgan ko'chmanchichi skiflarning avdloli, deb hisoblaydi. Ammo, ikki fikr ham to'liq isbotlanmagan. Ma'lumki, «Turkman» nomi dastlab X asr oxirlarida aydo bo'ladi. Ko'etdog' etaklarida dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi bilan Kas'iy va Sirdaryo qirg'oqlarida yashovchi qadimgi ko'chmanchichi qabilalar negizida XI asrlarda aydo bo'lgan yirik O'g'uz turklarining birikmasi-saljuqiylarning turkman xalqning shakllanishida muhim rolni o'ynaganligi Shubhasiz. Saljuqiylar hatto ozarbayjon xalq va yaqin Sharq turklarining shakllanishida ham g'aol ishtirok etganlar. Asli turkman xalqlarining shakllanishi mo'g'ul-turk istilolaridan keyingi davrda, asosan XV asrlarda tugaydi. o'sha davrda turkman etnosiga ayrim no'g'uz turkiy qabilalar (chunonchi, qi'choqlar) ham qisman qo'shilgan.

O'tgan asrning 80-yillarida Turkmaniston Rossiyaga ko'shilgandan keyin etnik birikish (konsolidatsiya) jarayoni kuchaygan bo'lsada, qabilaviy bo'linishi mustahkam saqlangan. Eng yirik qabilalardan taka turkmanlari axial, murg'ob havzasi va Tajanda, yovmutlar Kas'iy bo'ylarida va Xiva xonligida, ersarilar Amudaryo vodiysida, salirlar, sariqlar, guklanlar va choudurlar Xiva xonligida yaxlit holda yashaganlar. Xo'jalik-madaniy jihatdan ham barcha turkmanlar, ko'chma (Chorva) va o'troq dehqon (cho'mur) qismlarga bo'lingan. Ular to'liq o'troq

turmush tarziga o‘tdilar. Chyet ellardagi vatandoshlari esa hozirgacha urug‘-qabilalarga bo‘lingan holda ko‘chmanchichi va yarim ko‘chmanchichi bo‘lib yashamoqdalar.

Qoraqal‘oqlarning ham etnogenezi murakkab Sharoitda o‘tgan. Ular hozir o‘zining avtanom res‘ublikasiga ega. Res‘ublikadan tashqari qoraqal‘oqlar O‘zbekistonning Farg‘ona, Xorazm va Buxoro viloyatlaridan, qisman Turkmaniston va Qozog‘istonda hamda qo‘shni Afg‘onistonda yashaydi. Qoraqal‘oqlarning soni 1979 yilgi aholi ro‘yhatiga binoan 303 ming kishi. Avtonom res‘ublikaning umumiy aholisi 906 ming bo‘lib qoraqal‘oqlar 31,1 %, O‘zbeklar 31,5 %, qozoqlar 26,9 %ni tashkil qiladi.

Qoraqal‘oqlar qadimiy eroniy tildagi Orol bo‘yi sak-massaget qabilalari (eramizdan avvalgi VII-II asrlar), gunnar (eramizning II-IV asrlari) bilan turkiy tildagi elatlarning (VIII-X asrlar) aralashishi natijisida ‘aydo bo‘lgan. o‘sha davrda orol bo‘ylarida ‘achanak va O‘g‘uz qabilaviy gru’alar ‘aydo bo‘lib qalmiq etnosiga asosiy kom‘onent bo‘lib kiradi. Qoraqal‘oq xalqining so‘nggi etnogenezida muhim rol o‘ynagan dashti qi‘choqlar O‘z tilini bergan. Ularning shakllanish jarayoni va nomining ‘aydo bo‘lishi XVI-XVIII asrlarga to‘g‘ri keladi. XVIII asrlarda qoraqal‘oqlarning bir qismi Farg‘ona vodiysiga ko‘chadi, ko‘chiligi esa XIX asr boshlarida quyi Sirdaryodan qozoqlarning siqishi va Xiva xonlarining zulmi natijasida Amudaryo quyi oqimiga ko‘chib kelib joylashadi. Keyingi davrda Qoraqal‘oqlar millat bo‘lib shakllanadi.

Turkiy til turkimiga oid Yana bir xalq-uyg‘urlarning kelib chiqishi aslida Markaziy va qismano‘rta Osiyo bilan bog‘liq. Ular asosano‘rxun daryosi havzasida VII-IX asrlarda O‘z yozuviga ega bo‘lgan Yuksak madaniyatli katta davlat tuzganlar. Uyg‘urlaro‘rta Osiyoda XVIII asrningo‘rtalaridan to XX asr boshlarigacha Xitoy-manjur hokimiyati quvg‘inidan qochib kelganlar. Uyg‘ur etnonimio‘rta Osiyoda faqat XX asrda ‘aydo bo‘lgan. Mahalliy uyg‘urlarning turar joyiga qarab, masalan, qashqarlilar, yorqandlar yoki taranchilar deb ataganlar. Hozir MDH mamlakatlarida 210 mingdan oshiq uyg‘ur yashaydi.

Sharqda eroniy til turkimiga kiruvchi eng katta etnos tojiklardir. Ular ham nihoyatda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va geografik Sharoitda shakllanganlar. Tojiklarning umumiy soni MDH mamlakatlarida 3 mln. ga yaqin yetgan bo‘lib, asosan Tojikistonda, qisman ko‘shni O‘zbekiston va Sirg‘izistonda joylashgan. Chyet ellarda ham tojiklar ko‘. Eng katta tojik aholisi Afg‘onistonda (3 mln. dan ortiq kishi), kichikroq gru’alar Shimoliy-Sharkdy Eron va Shimoliy-g‘arbiy Xitoyda yashaydi.

Tojiklarning etnogenezi eramizdan avvalgi II ming yillikning oxiri va II ming yilliklarning boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu davrdao‘rta Osiyoga YEvroosiyo dashtlaridan eroniytillarida so‘zlashuvchi qabilalar kelib mahalliy tub aholi bilan aralashish (assimilyatsiya) jarayoni ro‘y bergan. Tojiklar shakllangan territoriyada (qadimgi Baqtriya, Sug‘diyona, Farg‘ona vodiysi) dehqonchilik bilan shug‘ullangan elatlar bilan yonma-yon ko‘chmanchichi saklar ham yashagan. Eramizdan avvalgi II asrda Baqtriyada Yuejilar va sak qabilalari bostirib kiradilar va kudratli Kushon davlatiga asos soladilar. Keyin bu yerga eftalit («oq gunn») lar, turklar va arablar kirib keladi.

Hozirgi tojik xalq somoniylar hukmronlik qilgan davrda (IX-X asrlarda) qadimgi sug‘d va baqtriya tili asosida shakllanib kelgan. o‘sha davrda tojiklarning adabiy tili (doriy) paydo bo‘lgan. Ammo so‘nggi davrlargacha tojiklarning orasida turli etnografik gruppalar mavjud edi. Hozir ham tog‘li tojiklar bilan vohada yashovchi tojiklar orasida xo‘jalik va madaniy jihatdan ba‘zi etnik tag‘ovutlar saqlanib qolgan. Masalan, ilgari mustaqil xalq hisoblangan pomir tojiklari-ishkoshimlar, vohanlar, yozg‘ulomlar, shug‘nonlar hozirgacha ba‘zi etnik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Boshqa mayda millatlarning etnogenezi Markaziy Osiyo territoriyasidan tashqari o'tgan. Hozir O'rta Osiyo va Qozog'istonda eroniy til turkumiga oid kurtlar (asosan Turkmanistonning Ashxobod va Mari oblastlarida), belujilar (Mari oblasti va Tojikistonning janubida), forsiy-eroniyalar (O'zbekistonning Buxoro va Samarqand shaharlari va atrog'idagi rayonlarida) yashaydilar.

O'zbekistonning Toshkent va Qozog'istonning Olmaota oblastlarida koreyslar joylashgan. XIX asr o'rtalarida bu yerda Xitoyning shimoliy rayonlaridan xitoy shevasida gapiradigan dunganlar kelib joylashadi. Ular hozir Qirg'iziston va Qozog'istondagi Chu daryosi vodiysida o'rmashtirganlar. Asosan O'zbek va tojiklar bilan aralashib ketgan arablar Zarag'Shon daryosining o'rta va 'astki oqimida, Qashqadaryoning etagida va Tojikistonning janubida kichik gru'nalarni tashkil qilgan.

Markaziy Osiyo (Buxoro) yahudiylari ko'pincha O'zbekistonning yirik shaharlari: Toshkent, Samarqand, Buxoro va Qo'qonda yashaydi. Keyingi O'n yilliklar ichida mahalliy yahudiylarning bir qismi Tojikistonga, asosan Dushanbega ko'chib o'tgan. Ular tojik tili shevalaridan birida ga'iradi, turar joydagi tillarini ham biladi. O'zbekiston va Tojikistonning turli rayonlarida uchraydigan O'rta Osiyo lo'lilari ham mahalliy tillarini yaxshi egallaganlar, ammo tojik tilini ona tili deb hisoblaydilar. Etnografik jihatdan ayrim gru'nalarni bir oz O'zaro farq qiladilar (lo'li, jo'gi mazang va hokazo).

Barcha mazkur mayda millatlar XX asrga kelib turar joydagi asosiy millat (O'zbek, qozoq, tojik, turkman yoki qirg'iz) ning tili, urg'-odati, moddiy va ma'naviy madaniyatini egallab asta-sekin qo'shib ketmoqdalar. Assimilyatsiya jarayoni umumiy iqtisodiy cotsial, madaniy va ideologiya birligi negizida ixtiyoriy ravishda ro'y bermoqda.

Butun Markaziy Osiyoda boshqa yerdan kelgan etnoslardan eng ko'pchiligini tashkil qilgan Shariqiy slavyan xalqlari (ruslar, ukrainlar va qisman beloruslar) ning vakillari etnografik xususiyatlarining ko'roq saqlab qolganlar. Ular dastlab XVIII asrning oxirlaridan Qozog'istonning Shimoliy rayonlariga, XIX asrning ikkinchi yarmida o'rta Osiyoga kela boshlagan. Hozir ruslar Qozog'istonning 19 oblastidan to'rtasida absolyut ko'pchilikni, 7 oblastda qozoqlarga nisbatan ko'pchilikni tashkil qiladi. Qozog'iston qishloq aholisining ham ko'pchiligi ruslar va ukrainlardan iborat. Boshqa res'ublikalarda ruslar, ukrainlar va beloruslar asosan shaharlarda joylashganlar. Qozog'istonning qo'riq yerlarida Qirg'iziston va Tojikistonning ayrim rayonlarida nemislar yashaydi.

Sharqda yashovchi elatlarning xo'jaligi umumiy geografik Sharoitga moslashib maxsus xo'jalik-madaniy ti'ni tashkil qiladi. Asrimiz boshlarida o'rta Osiyoda uch xil an'anaviy xo'jalik ti'lari ma'lum bo'lgan, vohalarda yashovchi o'troq dehqonchilik xo'jaligi, dasht va dashtlarda ko'chib Yurgan chorva xo'jaligi, vohalarga yaqinva katta daryolarning quyi oqimida joylashgan yarim o'troq chorva-dehqonchilik xo'jalik. Xo'jalik-madaniy ti'larni chegarasi etnik territoriyaga to'g'ri kelmaydi ammo tarixiy jihatdan etnik birlik ham uzoq davr ichida shakllanib kelgan.

Dehqonchilik va chorvachilik o'rta Osiyoning janubiy rayonlarida eramizdan avvalgi VI-V ming yillikda neolit davridayoq rivojlana boshlagan. II ming yilliklarga kelib dehqonchilik madaniyati ancha kengayib butun janubga tarqaldi. Tejen va Murg'ob vohalari O'zlashtiriladi. Bronza (jez) davrida sun'iy sug'orish paydo bo'ladi, yarim ko'chmanchichi va ko'chmanchichi chorva xo'jaligi rivojlana boshlaydi. Eramizning I ming yilliklarida o'rta Osiyodagi dehqonchilikka mos yerlarning deyarli hammasi o'zlashtiriladi, Qozog'iston dashtlarida asosan ot va qo'y boquvchi ko'chma chorvachilik xo'jaligi keng tarqaladi. Dasht va yarim dasht rayonlarida o'sha davrlarda

ham chorvachilik taraqqiy qila boshlagan, chorva qabilalari asosan tuya, echki va qisman ot saqlaganlar. Vohalarda I ming yillikning ikkinchi yarmida dehqonchilikning intensivlikatsiyalashi va sug'orish sistemalarining takomillashishi asosida o'zlashtirilgan yerlar ancha kamaygan edi. 'omir tog'larining vodiy va terrasalarida dehqonchilik bilan birga aylovda boqiladigan chorvachilik paydo bo'lib, u yerda qo'y va qoramol parvarish qilingan. Molni jazirama yoz faslida baland tog' yaylovlariga haydab sovuq qish faslida vohalarga haydab tushganlar.

Dashtlarda ko'chma chorvachilik bilan asosan qozoqlar shug'ullangan bo'lsa, turkmanlar qumlik va yarim sahro rayonlarda quduqdan quduqqa chorva bilan ko'chib yurganlar. Tyan-Shan tog'larida qirg'izlar, Pomir tog'larida tojiklar ham asosan chorvachilik bilan shug'ullanganlar.

Har bir xalqning turmush tarzi uning xo'jalik faoliyati bilan bog'liq. Asrlar davomida ko'chmanchilik qilib yurgan chorva aholisining turmushi o'ziga xos moddiy madaniyatni yaratgan. Masalan chorva bilan shug'ullanuvchi ko'chmanchichi xalqlarda yengil tiklanadigan va ko'chirib yurishga qulay bo'lgan konussimon yoki gumbaz shaklida yog'och panjalardan tiklangan va kigiz bilan yopilgan o'tov uylar keng tarqalgan. Uy jixozlari ham ko'chmanchilik turmushiga moslashgan teri, yog'och va metallardan yasalgan buyumlardan iborat. Kiyimlar esa asosan teri va jun matodan tikilgan, ovqatlari go'sht va sut mahsulotlaridan tayyorlangan. Tog'li rayonlardagi chorvachilik bilan shug'ulanuvchi elatlar o'troq holda yashagan. Faqat yoz paytlarida chorva mahsulotlarini ishlab chiqarish va g'amlash uchun butun aholi yaylovga ko'chib chiqqan, chodirlar tikib yashagan.

Ko'chmanchichi chorva qabilalari uzoq o'tmishdan boshlab dehqonchilik bilan shug'ulanuvchi o'troqaholi bilan bog'liqbo'lganlar, chorva mahsulotlarini dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlariga almashib turganlar. Ba'zi ko'chmachilar esa o'troq xolatga o'tib, dehqonchilik bilan shug'ullanganlar,

Markaziy Osiyoda dehqonchilik sun'iy sug'orishga asoslangan bo'lib, quldorlik davridan boshlab murakkab sug'orish inshootlari va sistemalari qurilgan. O'rta Osiyo dehqonchiligiga XIII asrdagi mo'g'ul istilosi juda katta zarar keltirgan. Istilochilar sug'orish inshootlarini yemirgan, aholining ancha qismini asir qilib olib ketgan, oqibatda butun bir oblastlar huvillab qolgan. O'rta asr oxirlariga kelib dehqonchilik biroz tiklangan, sug'orish sistemasi yo'lga qo'yilgan. Ammo ilgarigi xolat to'liq tiklanmagan, aksincha, eski konservativ dehqonchilik mustahkamlangan. Tog' etaklari kariz usuli bilan «zina'oya» shaklida ishlangan dalarlarga suv chiqarilgan. Suv kam joylarda quduqdan 'aqir bilan suv chiqarilib, qadimgi vohalarda turli mexanizmlar-chig'ir va charx bilan suv yoki hayvon kuchidan foydalanib suv tortilgan.

Erga ishlov berishda oddiy ishlab chiqarish qurollari-temir yoki cho'yan tishli omoch va mola, ketmon va bel, hosilni o'rishda o'roq ishlatilgan. G'alla o'rilgandan so'ng ot yoki eshak bilan yanchilgan, suv tegirmonida, mol kuchi yoki qo'l bilan harakatga keltiriladigan tegirmondan don tortilib un chiqarilgan. Sholi yanchadigan maxsus tegirmon va so'q bo'lgan. Bu oddiy qurollar to kolxoz qurilishi davrigacha saqlanib kelgan. Ketmon, bel va o'roq hozir ham ishlatiladi. Hozir kolxoz va sovxozlarda ilg'or agrotexnika, ximiyalashtirish va mexanizatsiyasi asosida ko'l mehnatidan kam foydalanib Yuqori hosil olinmoqda. Assosiy an'anaviy ekinlardan bug'doy, ar'a, Sholi, mosh, loviya, 'axta, 'oliz ekinlari keng tarqalgan. Bog'dorchilik, uzumchilik, pillachilik ham muxrm rol o'ynagan. pomidor, kartoshka, karam kabi ekinlar paydo bo'lgan.

O'troq aholining orasida turli hunarmandchilik rivojlangan. Barcha ishlab chiqarish qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak va bezaklar, qurilish materiallari shahar va qishloqlarda ishlab chiqarilgan. Katta shaharlarda kosiblar hatto sexlarga birikkan, ayrimlari maxsus mahallalarda yashaganlar. chorva rayonlarida kigiz bosish, gilam va polos to'qish jun mahsulotlari ishlab chiqarish keng tarqalgan.

Markaziy Osiyo xalqarining moddiy madaniyati hususiyatlari ularning xo'jalik faoliyati bilan bevosita bog'liqbo'lgan. o'troq dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan aholi qishloqlarda istiqomat qilgan. Ularning uylari inqilobgacha (paxsa, xom g'isht, guvaladan) yoki sinchdan tiklangan, asosan 1-2 xonali, dahlizli va tekis tomli qilib qurilgan. Kamabag'allarning uylari oynasiz, bir xonali, o'rtasida o'choq va tuynukli, bo'yra va eski kigiz bilan jihozlangan. Tog'li rayonlarda hatto oynasiz faqat tuynukli toshdan yoki guvaladan bir xonali kulbalar tiklangan.

Boylarning katta xovlilari ko'p xonali uylar, dabdabali ko'shklar, rang-barang galam va to'shaklar bilan bezatilgan. Ko'chmanchi xalqlarning o'tov uylari ham bir-biridan tubdan farq qilgan: boylarning o'tovlari yangi kigizlar bilan yooyilgan, har xil gilam va to'shaklar bilan bezatilgan, kambag'allarniki eski, huvillagan. Odatda o'tovning ikki xili farq qilinadi: konus shaklidagi mo'g'ul tipi va gumbaz shaklidagi turk tipi. Qozoq, qirg'iz, O'zbeklarda ikkita tip ham uchraydi, turkmanlarda faqat turk tipi tarqalgan.

Mahalliy xalqlarning milliy kiyimlari juda rang-barang bo'lgan. Har elat o'ziga xos kiyimga ega, ammo umumiy belgilari ham mavjud. Erkaklarning ma'naviy kiyimlari asosan yaxtak-ko'ylak, ishton, cho'on, belbog', po'stin, do'ppi, teri telpak, maxsi-kavush, choriq yoki etikdan iborat. Ayollar keng tikilgan ko'ylak, uzun ishton, yengsiz nimcha va uzun chopon (peshmat), maxsi-kavush, kiygan, boshiga lechak, ro'mol o'ragan, do'ppi kiygan va hokazo. Ko'pincha kiyimlar rangi va guli bilan farqlangan. Inqilobgacha O'zbek va tojik ayollari paranji (chachvon) yoopinganlar. Turkman, qirg'iz qoraqalpoq ayollarining bosh kiyimlariga qarab qabilaviy belgilarini aniqlash mumkin bo'lgan. Barcha O'rta Osiyo xalqlarining ayollarida turli-tuman uzuk, sirg'a, mis va kumush bezaklar, tumor osish, kosmetika keng tarqalgan. Hozir ular rejalashtirilgan zamonoviy mebel, gilam va turli buyumlar bilan bezatilgan ko'p xonali yorug' uylarda yashaydilar. Ularning ko'pchiligi hozirgi shaharliklarga xos kiyimlarga o'tganlar. Milliy kiyimlarni asosan qariyalar kiyadi, badiiy havaskorlar to'garagida undan keng foydalaniladi. Marakalarda O'zbek va tojik erkaklarga chopon va do'ppi kiyish odat tusiga kirgan. Ammo uy va jamoat inshootlaridagi qurilish ishlarida va ba'zi kiyimlarda, ayniqsa ayollarning kiyimlarida go'zal an'anaviy milliy belgilar saqlanib qolgan ham yangi shakl kasb etgan. An'anaviy dekorativ san'at namunalari, o'ymakorlik, kashtachilik san'ati so'nggi yillarda yana ham ravnaq topdi.

Mahalliy elatlarning ijtimoiy va oilaviy-maishiy turmushida jamoalashtirish davrigacha feodal-'atriarxal va an'analar saqlangan, ko'' ukladli xo'jalik faoliyatida ijtimoiy tashkilotlarni turli g'ormalarini Yuzaga keltirgan edi. Dehqonchilik vohalarda ijtimoiy munosabatlar, mulk formalari, jamoa an'analari (suv jamoasi, qishloq va ko'shnichilik jamoasi) nihoyatda murakkab bo'lgan. boy tabaqalarida ko'p xotinlik, ota hukmi, itoatgo'ylik, butun aholi orasida qalin to'lash, xun olish kabi ibtidoiy sarqidlar keng tarqalgan edi. Jamoatchilik munosabatlari chorva aholisi orasida ancha mustahkam saqlangan. Ayniqsa barcha huquqlardan mahrum bo'lgan aellarning axvoli og'ir bo'lgan. 'atriarxal oilaviy munosabatlar eski odat va Shariat orqali boshqarilgan. Nikoh, ota-ona istagi bilan hal qilingan. Ko'p xalqlarda levirat, sororat, yosh kelinning ota-onasi uyiga qaytib kelish kabi ibtidoiy odatlar saqlangan.

Chorvachilik sohasida boy-kambag'allarga bo'linishdan tashqari cotsial turkumdan ajralib turgan. Masalan, qozoqlarda xon va sultonlar hamda qabila boshliqlari «oq suyak» larga qolgan

butun g'ugaro «qora suyaklar» larga ajratilgan. Turkmanlarda ham cotsial tabaqalanish bo'lgan, Yuqori tabaqaga oid iglar va ularga bo'ysungan qullar farq qilingan. Qirg'izlarda hukmron qabila «zodagon» larga manaplar kirgan. O'z navbatida manaplar ham «bosh» va «kichik» gruppalariga bo'lingan. Asli mazkur tabaqalanish chorva ahlida mulk tengsizligi bilan bevosita bog'liq edi. Yuqori tabaqa vakillari ananaviy o'zaro yordam («hashar» «ko'mak») odatiga tayanib o'z qabiladoshlarini ekspluatatsiya qilganlar.

O'tmishda butun O'rta Osiyo xalqlariga xos umumiy madaniy meros mavjud edi. Ayniqsa, xalq ijodida, e'ik dostonlarda umumiy qahramonlar, syujet va rivoyatlar ko'p uchraydi. Bunga yorqin misol o'zbek va qoraqalpoqlardagi «Alpomish» dostoni, turkman, tojik va o'zbeklardagi «Go'ro'g'li» epik poemasi yoki «Shoxsanam» dostoni. Eng qadimgi davrlarda Avestoda va sak eposida tilga olingan syujet va obrazlar butun O'rta Osiyo xalqlarida tarqalgan «Shirin va shakar» dostonida aniq saqlangan. Nasriddin Afandi va Aldarko'sa latifalari, qahramoni afsonaviy ertak va rivoyatlar, turli mazmundagi lirik ashullalar va jozibador laparlar hozirgacha kishiga zavq bag'ishlaydi.

Xalq ijodi namunalari yozma adabiyotga zo'r ta'sir qilib kelgan. Rudakiy, Alisher Navoiy, Turdi, Umar Xayyom, Maxtumquli kabi buyuk mutafakkir shoir va adiblar juda ko'p syujet va obrazlarni serchashma xalq ijodidan olganlar. Xalq baxshi, shoir va oqinlari qadimiy klassik adabiyot namunalari avlodma avlod so'ylab yetkazib kelganlar va jozibador xalq kuylarini ham bizgacha yetgazgan.

Musiqqa san'ati ham uzoq tarixiy davrlarda paydo bo'lgan. Arxeologiya tadqiq etgan turli antik davr obidalardagi o'yima va rangli rasmlarda surnay, nay, nog'ora, har xil turli asboblarni tasvirlangan. Hozirgi o'zbek, tojik, qozoq va turkmanlarning musiqqa asboblari juda ham xilma-xil. To'y va tomoshalarda, bayram va sayirlarda doimo musiqqa kuylari Yangraydi, raqslar ijro etiladi, masharabozlar va darvozlar o'z san'atini namoyish qiladilar. Xalq teatri va ko'g'irchoq o'yini ham qadimdan ma'lum. Tasvriy san'at, o'ymakorlik, koshinchilik, badiiy kashtachilik, naqshli sopol buyumlar yasash, gilamchilik va boshqa amaliy san'at butun Osiyo va Qozog'istonda qadimdan mashhur bo'lib mustaqillik davrida Yangi dan yashnadi va professional kasb darajasiga ko'tarildi. Hozirgi davrda xech bir milliy arxitekturani, jamoat inshootlarini, madaniyat saroylarini yog'och, ganch va tosh (marmar) ga o'yilgan ajoyib milliy ornamentalsiz tasavvur qilish qiyin. Mohir xalq ustalari yaratgan go'zal sopol buyumlar, nozik naqqoshlik bezaklari, zar tikilgan kiyimlar va ajoyib so'zanalar keng mehnatkash ommaning uy jihoziga aylangan.

Nazorat savollari:

1. O'zbek xalqning kelib chiqishi haqida ma'lumot bering?.
2. Tojik xalqining moddiy madaniyati haqida ma'lumot bering?..
3. Turkmanlarning ma'naviy madaniyati haqida ma'lumot bering?..
4. Qozoqlarning oila va nikoh marosimlari haqida ma'lumot bering?..
5. Qirg'izlarning urg'-odat va marosimlari haqida ma'lumot bering?..
6. Nega o'zbek xalqi 11-12 asr oralig'ida uzil kesil shakllandi deb aytiladi.

6-Mavzu. Afrika xalqlari

Ryeja:

1. Afrikaning tabiiy gyeografik o'rni va tarixiy etnografik xududlarga bo'linishi.
2. Afrika xalqlarining etnik tarkibi va antropologik qiyofasi.
3. Xo'jaligi va asosiy mashg'ulotlari.

4. Moddiy va ma'naviy madaniyati.

Tayanch iboralar: Negroid, saxroi – kabr, nil – saxara, misrliklar, semit tillari, bushmenlar, guttentotlar, zuluslar.

Ba'zan ilmiy va siyosiy adabiyotlarda Afrikani «Qora qit'a» deb ataydilar. Aslida turli irq va elatlar joylashgan bu qifa o'zining tabiati va iqlimi bilan ham xilma-xil, o'simlik va hayvonot dunyosi bilan ham rang-barangdir. Afrika yer kurrasidagi qifalardan kattaligi jihatdan Osiyodan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Uning hududi 30,3 mln.km² bo'lib Yevropadan uch hissa katta.

Afrikaning aholisi 1983-yilgi ma'lumotlarga qaraganda 518 mln. kishidan ortiq (1955-yil 220 mln.). Bu yerda eng katta ko'p millionli millatlar (misrliklar, jazoirliklar, marokashlar, amxara va hk.), katta xalq va elatlar (xausa, fulbe kabilar) bilan birga mayda terimchilik va ovchilik bilan kun kechiruvchi daydi ibtidoiy qabilalar ham yashaydi. Hozirgi Afrikada taxminan 300-500 ta xalq va elatlar mavjud. Shulardan 111 tasi bir mln. kishidan ortiq aholiga ega bo'lib butun qit'a aholisining 87,1 foizini tashkil qiladi, 11 tasi 10 mln.dan ortiq aholiga ega.

Afrika qifasini to'rt tomondan Tinch va Atlantik okeanlari hamda o'rta yer dengizi suvlari yuvib turadi. Uni Yevropadan Gibraltar bo'g'ozini (eni 14 km.), Osiyodan Suets kanali ajratib turadi. Qifani ekvator teng o'rtasidan kesib o'tib uning eng janubiy va eng shimoliy qismlari subtropik iqlimli, serunum, kishi yashashga qulay joylardir. Asli Afrikaning relyefi katta yassi tog' shaklida bo'lib, chekkalarida baland tog'lar mavjud. Uning shimolida Atlas, sharqida Abissin va Sharqiy Afrika tog' tizmalari joylashgan. Qifaning 30 % hududi baland tog'lar va onda-sonda uchraydigan o'ziga xos buta o'simlik-laridan iborat savanna, qolgan qismi changalzorlar, tropik o'rmonlar va bepoyon sahrolar egallaydi. Afrikaning eng katta daryosi Nil, Niger, Kongo, Zambezi sohillariga yaqin joylashgan baland tog' tizmalaridan boshlanib qifaning ichki qismiga katta-kichik irmoqlarini yoygan. Ko'llar asosan, sharqiy qismida joylashgan bo'lib, eng yiriklari Viktoriya, Tanganika, Nyasa, Mveru va markazdagi Chad ko'lidir. Boshqa ko'llar yozga borib jazirama issiqda qurib qoladi. Kabir sahrolar shimolida Saxara, janubda Kalaxari va Namibdir.

Afrika qifasining rang-barang tabiati singari aholining etnik qiyofasi, joylashuvi va zichligi ham turlichadir. So'nggi ma'lumotlarga qaraganda, bu yerdagi 500 milliondan ortiq aholining etnik joylashuvi quyidagicha: g'arbda 137 mln., sharqda 130 mln., markaziy qismida 52 mln., janubda 32 mln. kishi yashaydi. Nil vodiysida bir kv.km. hududga 700 kishi to'g'ri kelsa, qifaning umuman boshqa qismiga o'rtacha 2-10 kishi, Saxara qismiga esa 0,3 kishi to'g'ri keladi. Umuman yer kurrasidagi aholi zichligi Afrika qifasida ikkihissakam bo'lib, o'rtachaharkm²ga 13-14kishito'g'ri keladi.

Antropologik jihatdan Afrika aholisi uchta yirik irq, o'rta va aralash tiplardan iborat. Qifaning shimolida Saxaraning janubigacha yevropoid irqiga oid qora ko'z, to'lqinsimon qora soch, bug'doy mayiz tanli, uzunchoq yuzli bir oz burgutsimon qirra burunli arablar, barbarlar yashaydi. Efiopiya va Somali yarim orolida o'rta irq hisoblangan terisi biroz qoramtirroq, yuzi kichikroq, labi qalinroq, o'rta yoki novcha bo'yli amxara, galla, tigre va boshqa xalqlar joylashgan. Afrikaning asosiy aholisi hisoblangan ko'psonli asl negroidlar Saxaradan janubda g'arbiy va Markaziy Sudanda, Nilning yuqori qismida, Kongo vohasida, Sharqiy tropik Afrikada va qifaning janubida katta hududga tarqalgan. Ular qop-qora tani, qora ko'zi va spiral (burama) sochlari, iyagi biroz oldinga cho'zilgan (pragmatizm), qalin labi, keng va puchuq burunli, ko'sa soqol va kamtuyli belgilari bilan ajralib tuadilar.

Afrika qifasi til jihatdan kam o'rganilganligi tufayli hozir bir necha tizim va klassifikatsiyalar mavjud. So'nggi tadqiqotlarga binoan eng keng tarqalgan klassifikatsiya asosida afrika tillari to'rtta katta til oilasi: semit-xamit yoki afroasiyo, niger-kordofa, nil-saxara va koysan tillariga bo'lingan. o'z navbatida ular ham katta-kichik turkum va guruhlarga bo'lingan. Shulardan eng ko'psonli semit-xamit til oilasiga oid xalqlar semitlar, barbarlar, kushitlar, chadlar qifaning 3|1 qismini tashkil qiladi va butun Shimoliy va Shimoli-sharqiy Afri-kani egallab olganlar.

Mazkur til oilasiga kirgan arab tilida gapiradigan aholi (misrliklar, jazoirliklar, tunisliklar, liviyaliklar va hk.) XII-XIII asrlarda Arabiston yarim orolidan ommaviy ko'chib kelib mahalliy ko'psonli tub elat va xalqlar (qadimiy misrlik va barbarlar) bilan aralashib ketishi natijasida paydo bo'lgan. Ular hozir 100 mln. kishidan ortiq bo'lib, Afrika aholisining 5(1 qismini tashkil qiladi. Eng qadimiy tub aholi avlodlaridan barbarlar faqat Mag'rib tog'liklarida va Saxara vohalarida saqlanib qolgan. Ammo ularning ko'pchiligi (kabillar, tuareglar, rif va hk.) hozir asl tillarini yo'qotib, arab tilida gapiradilar.

Nil-saxara til oilasi uchta yirik guruh — songai, saxara va shari-nilga bo'linadi. Mazkur oilaga uchta o'ziga xos tilga ega kichik elatlar — maba, fur va koma kiradi. Songai turkumidagi xalqlar Niger daryosining o'rta oqimidagi davlatlar — Mali, Niger, Yuqori Volta va Nigeriyada, Saxara turkumiga oid xalqlar Chad ko'li atrofida va Markaziy Saxaraning cho'l qismida hamda qisman Nigeriyada yashaydilar. Shari-nil til turkumidagi xalqlar Yuqori Nil vohalarida, Viktoriya va Rudolf ko'llari atrofi (Sudan Respublikasi, Uganda, Keniya)da joylashgan.

Afrika qifasida miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda muhim geologik o'zgarishlar ro'y bergan. o'sha davrda Saxarada qurg'oqchilik paydo bo'lib, ulkan hududdan butun elat va xalqlarni ko'chishga majbur qilgan. Oqibatda Saxaradan janubda Shimoliy Afrika mamlakatlaridan, chunonchi, Misrdan farq qiladigan yangi bir o'ziga xos madaniyat shakllana boshlaydi. Nigeriya va Benue daryosining shimolida paydo bo'lgan nok madaniyati vakillari (miloddan avvalgi IX milodning II asrlari) temir va boshqa metallarni ishlab chiqarishni bilgan va dastlabki temir qurollarini yasaganlar.

Afrika xalqlari qadimiy davrlardan to hozirgacha ijtimoiy taraqqiyotdan chekkada qolmay, tadrijiy rivojlanishda bo'lganlar. Ammo keyinchalik ijtimoiy-iqtisodiy ancha orqada qolib ketishiga mustamlakachilarning zulm va ta'qibga qurilgan siyosati, qul savdosi va quldorlik sabab bo'lgan. Ayrim mamla-katlarning va elatlarning ibtidoiy va ilk feodalizm darajasida saqlanib qolishida boshqa o'lkalardagi singari obyektiv va subyektiv omillar ham ta'sir qilgan. Mustamlaka arafasida Afrika xalqlari turli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasida turganlar, yuksak madaniyat yaratgan yirik davlatlar bilan bir qatorda, hali ibtidoiy-jamoa tuzumi munosabatlari kuchli bo'lgan qabilalar ham mavjud edi.

So'nggi klassifikatsiyaga asoslanib butun qit'a aholisi tabiiy sharoiti, etnik qiyofasi, tarixiy taqdiri va ijtimoiy-iqtisodiy darajasi jihatdan Shimoliy Afrika, g'arbiy va Markaziy Afrika, Sharqiy va Janubiy Afrika xalqlariga bo'lingan.

1. SHIMOLIY AFRIKA XALQLARI

Afrikaning shimolida asosan, arab tilida gapiradigan xalqlar yashaganligi uchun uni Arab afrikasi deb ataganlar. Aslida bu yerdagi xalq va elatlar qadimiy aborigen aholisining avlodlaridir. Hozirgi davrda Shimoliy Afrika xalqlariga Misr, Sudan va katta Mag'rjb (Tunis, Jazoir, Marokash, Liviya, Mavritaniya, g'arbiy Saxara) aholisi kiradi.

Qadimiy yunon mualliflarining asarlarida Mag'rib aholisini liviyaliklar, deb tilga olinadi. Ularning bir qismi ko'chmanchilik bilan tirikchilik qilib kelgan qabilalardan, ikkinchi qismi dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholidan iborat bo'lgan. Eramizdan avvalgi I ming yillikda finikiyaliklar Shimoliy Afrika sohillarida asos solgan Utiku, Karfagen kabi davlatlar bilan o'z

mustaqilligi uchun urushlar olib borganlar. Liviyalik qabilalarning tinimsiz kurashlari Numidiya va Mavritaniya davlatlarini yuzaga keltirgan edi. Rim imperiyasi Karfagenni qo'lga kiritishi bilan (miloddan avval II asr o'rtalari) bu ikki podsholik ham yemiriladi. Shu bilan lotin manbalarida liviya va numidiya nomlari ham yo'qolib, mahalliy aholi mavrlar va keyin arablar kelishi bilan barbarlar deb atala boshlangan.

XI asrlardan boshlab arablarning sulaym va hilol qabilalarining Mag'ribga ommaviy ko'chishlari natijasida barbarlarni arablashtirish kuchayadi. Mag'ribni to'liq o'ziga bo'ysundirgan Arab feodal davlatlarining (xalifalik, idrislar, aglabiyalar, fatimiylar, almorobiylar va hk.) jiddiy soliq va diniy siyosatlarining amalga oshirilishi natijasida arab tili va islom keng tarqalgan edi. XIII asrda Shimoliy Afrikada (hozirgi Mag'rib chegarasida, ya'ni Marokash, Jazoir, Tunisda) uchta feodal davlati — Marinilar, Zayyaniylar va Xavsidiylar paydo bo'lib, to XVI asrlargacha, ya'ni turk istilosiga-cha saqlanib kelgan. Mazkur tarixiy jamoa negizida barbar va arab qabilalarining aralashishi natijasida mag'rib xalqlari — marokashlar, jazoirilar, tunislik va liviyaliklar keyinchalik mustamlakachilar-ga qarshi faol milliy-ozodlik kurashiga tortilib hozirgi millatlar shakllana boshlagan edi.

Shimoliy Afrika xalqlarining xo'jaligi jahondagi eng qadimiy dehqonchilik va chorvachilik bilan bog'liq bo'lib, uning ajoyib an'analari hozirgacha yetib kelgan. Ammo dehqonchilik bilan chorva xo'jaliklarining nisbati turli hududlarda o'zaro farq qiladi. Nil vodiysi va dengiz sohillaridagi serunum yerlarda, asosan, dehqonchilik, sahro va yarim dasht hududlarda yarim ko'chman-chilik asosiy xo'jalik tarmog'i bo'lib, daryo va dengiz sohillardan uzoqlashgan sayin chorva dehqonchilikdan ustun turadi. Agar misrliklar va sudanliklar uzoq davrdan beri sug'orish dehqonchiligi bilan shug'ullansa Janubiy Sudanda chopqi dehqonchiligi bilan baliqchilik, Mag'rib mamlakatlarida (ayniqsa, qirg'oq bo'yi Atlas tog'larida) dehqonchilik bilan bog'dorchilik va yirik chorvachilik, bepoyon sahro hududlarida faqat mayda chorvachilik bilan kun kechiradilar. Yirik chorva yaylovlar juda kam bo'lganligidan uncha rivojlanmagan, ko'p joyda yirik shoxli mol ishchi kuchi sifatida saqlangan xolos.

Shimoliy Afrikaning qishloq aholisi qadimdan turli uy hunarmandchiligi bilan ham shug'ullanadilar. Ular qo'lda va charxda sopol buyumlar yasaydilar, bo'yra va chipta to'qiydilar. Chorva aholisi esa jundan har xil mato, gilam to'qiydilar, kigiz, teri poyabzal, egar kabi zarur buyumlar ishlab chiqaradilar. Shaharlarda yirik hunarmandchilik, ayniqsa, temirchilik, misgarlik, zargarlik, ko'nchi, kulolchilik ancha rivojlangan. Sanoat keyingi yillarda o'sa boshlagan.

Arablarning moddiy madaniyati juda ko'p umumiylikka ega bo'lsa-da, ayrim o'lkalarda o'z xususiyatlarini saqlab kelgan. Misr falohlari kichik qishloqlarda Nil vodiysining sug'orma joylarida yashaydilar. Ular xomg'ishtdan yoki guvaladan bir qavatli tekis tomli uy quradilar. Dehqon uylari, asosan, bir xujrali to'g'riburchak, oynasiz va tuynuksiz, yarmisini supali pechka (mo'risiz o'choq, tezak bilan yoqiladi) egallagan bo'lib, shunga to'shalgan bo'yrada yotib turiladi. Boylar katta hovlilarda yashaganlar.

Shimoliy Afrika xalqlarining ijtimoiy tuzumida turli ukladlar mavjud. Ular quldorlik tuzumini bosibo'tib, mustamlaka arafasida feodalizmga erishgan edilar. Ammo Mag'rib va Sharqiy Sudandagi ko'chmanchi elatlar uzoq davrlargacha urug'chilik munosabatlarini saqlab kelganlar. Yevropa davlatlarining mustamlaka hukmronligi o'rnatilgandan keyin Shimoliy Afrika mamlakatlari bozor munosabatlariga tortilib, feodalizm tuzumi yemirila boshlaydi va uning o'rnida yangi bozor munosabatlariga asoslangan ishlab chiqarish kurtak otib chiqadi.

Faqat ikkinchi jahon urushidan keyin milliy ozodlik kurashi g'alabasi tufayli Shimoliy Afrika xalqlari, ayniqsa, Jazoir, Misr, Liviya mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tib katta yutuqlarga erishmoqdalar.

Shimoliy Afrika aholisining 94-95 % i musulmonlar (taxminan 87 milliondan ortiq kishi), 4 % i nasroniyalar (4,7 mln.) qolganlari ibtidoiy va boshqa dinlarga itoat qiladilar. Mag'rib va Sudan ko'chmanchi qabilalarida turli sehrgarlik urf-odatları va irimlari keng tarqalgan.

2. G'ARBIY VA MARKAZIY AFRIKA XALQLARI

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Afrika bo'yicha Iqtisodiy komissiyasi taklifiga binoan g'arbiy va Markaziy Afrikaga tabiati, etnik tuzilishi, tarixi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining umumiy xarakteriga qarab 24 ta mamlakat kiritilgan. Etnik jihatdan bu yerda yashovchi xalqlarning ko'pchiligi g'arbiy Sudan va Bantu xalqlari degan nom bilan atalgan. Bularning ko'pchiligi XX asr o'rtalariga qadar Yevropa davlatlarining mustamlakasi bo'lib kelgan. Ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan keyin butun Afrikani larzaga keltirgan milliy-ozodlik harakati juda ko'p xalqlarning mustaqil rivojlanishiga yo'l ochib berdi. Tarixiy «Afrika yili» nomi bilan kirgan 1960-yilda g'arbiy va Markaziy Afrikaning 15 ta mamlakati siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgan edi. Shulardan eng kattalari Nigeriya va Zoir, keyin Senegal va Mali, Mavritaniya va Benin (ilgarigi Dagomeya), Niger va Yuqori Volta, Fil suyagi sohili va Togo, Chad va Gobon, Markaziy Afrika va Kongo xalq respublikasi, Kamerun va S'erra-Leone. 1965-yilda Gambiya, 1968-yili Ekvatorial Gvineya, 1973-yilda Gvineya-Bisau, 1975-yil Yashil orollar buruni va Angola mustaqil respublika deb e'lon qilindi. Bu mamlakatlarda hozir muhim etnik jarayon ro'y bermoqda.

G'arbiy Afrikaning etnolingvistik qiyofasi juda rang-barang. Bu yerda hozir bir necha til oilalari va juda ko'p turkumlarga mansub etnoslar yashaydi. Afroosiyo til oilasiga kiradigan barbar va tuaregtar hamda chad turkumiga mansub xausalar bilan birga niger-kordofa, nil-saxara, benue-kongolez til oilalariga tegishli juda ko'p xalq va elatlar keng hududda joylashgan. Markaziy Afrikaning etnolingvistik xaritasi ancha yaxlit, umumiy-likka ega, asosan, bantu tillarida gapiradigan xalqlardan iborat. Bantu xalqlari miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalarida Markaziy Afrikada paydo bo'lib bu yerda qadimdan yashab kelgan pigmey va bushmenlarni siqib chiqarganlar. Hozir Markaziy Afrikada 32 mln. bantu xalqlari yashaydi. Shulardan eng yirigi baluba (4,4 mln., kishi), bakjongo (4,4 mln.), ovim bundu (2,3 mln.), bambundu (1,7 mln.) va hk. g'arbiy Afrikada xausa va unga yaqin tilda gapiradigan xalqlar 10 mln. kishi, benue-kongolez tilida ham 7 mln., volt tilida 8 mln. g'arbiy atlantik tilida 10 mln.dan ortiq xalq gaplashadi.

Xo'jalik jihatdan mazkur mintaqa Shimoliy Afrikadan keyin ancha rivojlangan. Bu yerda ham qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning negizini hosil qiladi. Okeandan uzoqda magistral transport yo'llari-dan chekkada joylashgan Markaziy Afrika xalqlarining an'anaviy mashg'uloti dehqonchilik va chorvachilik bo'lib, 80 foiz aholining hozirgacha asosiy tirikchilik jananbai hisoplanadi. Qishloq xo'jaligida jamoachilik munosabatlari saqlanib kelmoqda. Mahalliy dehqonchilik tropik iqlimga moslashgan, o'rmonlarni chopib, ochilgan yerga kul iralash yerga chopqi (butali yog'och xo-daga temir tish kiygizilgan) foilan ishlov berib ekin ekiladi.

Chorvachilik faqat shimoliy vajanubiy hududlarda fulbe, tuareg xalqlarida keng tarqalgan. Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turmush tarzida yashovchi bu xalqlar asosan, zebu, kichkina ho'kizdama, ot, tuya, qo'y va echki boqib kun kechiradilar. Janubiy ken-glikning 10 daraja pastida Gvineya savannasida yirik shohli mol boqish mumkin emas, chunki sese pashshasi molga qirg'in keltiradi. Shuning uchun fulbe xalqlarining ko'chish hududi ham mazkur kenglikning shimolida cheklangan. Yirik shoxli mollar, asosan, Sudan, sohil mamlakatlari — Mali, Yuqori Volta va Nigeriyada mavjud. Dehqonchilik xo'jaliklarida ham qisman mol saqlanadi, uni faqat bayramlarda va diniy marosimlarda so'yadilar.

Hozir g'arbiy va Markaziy Afrikaning iqtisodiy taraqqiyotida qazilma boyliklarning ko'pligi muhim ahamiyatga ega. Yaqin davrgacha bu yerda og'ir sanoat bo'lmagan. Mustaqillikka erishil-gandan keyin, ayniqsa, yirik port shaharlarida asta-sekin sanoat korxonalari paydo bo'la boshlaydi. Masalan, Dakara, Abidjon, Jantil, Luanda, Port-Xarkorte va Zarrida neft isfalab chiqarish zavodlari, Gvineyada alyumin uchun zarur loy t'uproq zavodi, Nigeriyada simob eritish zavodi, Gana va Kamerunda alyumin zavodi, Zoida tog' koni sanoati va olmos kavlab olidh korxonalari (jahonda eng katta olmos koni), Kongoda qo'rg'oshin va oltin konlari, Gabonda marganes va uran konlari, Kamerunda boksit, Gobon va Kongoda yuqori sifatli temir ishlab chiqarish korxonalari paydo bo'ldi. Nihoyatda boy va rang-barang mineral resurslarning topilishi mazkur mintaqada eng muhim sanoat tarmoqlarining rivojini ta'min qilmoqda. Markaziy Afrikada yog'och ishlab chiqarish, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati sohalari ham rivojlangan. Og'ir sanoatning asosiy mahsulotlari eksportga ishlaydi.

Mahalliy aholining kiyimlari ham tabiiy sharoitga moslashgan. Sudan sohilliklarining erkaklari keng ko'ylak va sharovar (cholvir), ayollari yubkaga o'xshash beldan pasti to'piqqacha bir necha marta o'ralgan rangli chitdan iborat kiyim kiyadilar. Tog' etaklarida yashovchi fulbe qabilalari sovuqdan ko'ylak-ishton, ustiga jun matodan tikilganplash yopinganlar. Tropik o'rmonlarda yashovchi aholining ko'pchiligi oddiy belbog' bilan cheklangan. Poyafzal deyarli kiyilmaydi, faqat sahroda issiq qumdagi qabilalar sandal kiyganlar. Tuareglarning erkaklari boshdan oyoq qora matoga o'ranadilar. Shaharlarda Yevropa kiyimlari tarqalgan.

Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholining taomlari, asosan, guruch, suli, manioka va sabzavotlar, guruch, qo'ziqorin, sabza-vot, go'sht yoki baliq bilan pishiriladi, sulidan atala, maniokadan non pishiradilar. Chorvador fulbe, asosan, sut mahsulotlarini iste'mol qiladilar, suli yoki makkadan atala pishirib, yog' qo'shib yeyiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi xilma-xil. Hatto eng rivojlangan Gvineya turkumiga kiradigan xalqlarda ham urug'chilik tuzumi qoldiqlari saqlangan. Masalan, XVI asrlarda paydo bo'lgan keyin ingliz mustamlakachilari tomonidan yemirilgan Ashanti davlati bir necha viloyatlarga bo'linib ularni podsho tomonidan tayinlangan urug'-jaraoa boshqarib turgan. Jamoa qon-qarindoshlik prinsipi asosida tuzilgan, taxt va oqsoqollar vazifasi ona urug'i tomonidan belgilangan, meros ham patriarxal tipda bo'lgan. Boshliq (rais) va-fot etsa, uning o'rniga opasining katta o'g'li tayinlangan. Diniy e'tiqodga binoan har bir kishiga otadan jon, onadan qon: nasl-nasab o'taremish.

G'arbiy va Markaziy Afrika xalqlarining badiiy hunarmand-chilik san'ati naqadar yuksak bo'lsa, uning og'zaki ijodi, o'yin va musiqa san'ati ham shunchalik rivojlangan. Ajoyib arxitektura namunalari, go'zal ko'shk va saroylar, afsonaviy obrazlar tasviri berilgan haykal va ustunlar, quyma metall va o'yma yog'och san'ati namunalari bilan bir qatorda, beqiyos og'zaki adabiy merosni avlodma-avlod saqlab kelgan baxshi (griot)lar, ashula-chi va raqqosalar jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shib kel-moqdalaf. Hozir ham xalq ijodi zaminida paydo bo'lgan professional arxitektorlar va adabiyotchilar, aktyor va raqqosalar, musiqachi va ashulachilar, rassom va haykaltaroshlar o'zlarining go'zal san'atlarini Xalqaro festivallarda, konsert dasturlarida namoyish qilmoqdalar, olqishlarga, hurmat-e'tiborga sazovor bo'lmoqdalar.

3. SHARQIY AFRIKA XALQLARI

Afrika qifasining sharqiy qismida har xil irqdagi o'ziga xos maishiy turmush va madaniyat yaratgan turli etnoslar yashaydi. Bu yerda mustamlaka bo'lmagan yagona davlat — Efiopiya, Jahon olmos bozorida yetakchilik qilayotgan Janubiy Afrika respublikasi va Namibiya joylashgan. Sharqiy Afrikaga (Efiopiyadan tashqari) Somali, Jibuti, Keniya, Uganda, Tanzaniya, Ruanda, Burundi, Zam-biya, Malavi mamlakatlari kiradi.

Qadimiy irqlardan Sharqiy Afrikadagi efioip, negroid, negril yoki pigmey va bushmen tiplari so'nggi 12-10 ming yillar muqaddam shakllana boshlagan. Bu yerda chorva va dehqonchilik madaniyati Nil vohasiga nisbatan keyinroq eramizdan avvalgi VI ming yilliklarda neolit davrida yuzaga kelgan. 4-5 ming yillar muqaddam Efiopiya tog' etaklarida uy hayvonlarini qo'lga o'rgatib, don eka boshlaganlar. Neolitik makonlar, dala va kanallar Sharqiy Afrikaning qurg'oq hududlarida, Buyuk ko'llar atrofida topilgan. Shimoli-sharqiy qismida kusht tilida gapiradigan qadimiy tub aborigen aholi, butun sharqda tarqoq holda dehqonchilikni bilgan bantu («ntu» — odam, «ba»—iar, ya'ni «odamlar» degan ma'noda) xalqlari yashagan.

Bushmanlar (asli ma'nosi «butazor odamlari» yevropaliklar bergan nom) na dehqonchilik, na chorvachilikni bilganlar, faqat ovchilik va terimchilik bilan kun kechirganlar. Ular muayyan hududlarga ega bo'lgan qabilalarga bo'linib, daydilikda kichik gu-ruh bo'lib, ovqat izlab ko'chib yurganlar. Erkaklar o'q-yoy, cho'qmor va nayzacha bilan ov qilganlar, ayollar esa uchi o'tkir tayoq bilan yer kovlab yemishli ildizlar, chuvalchanglarni topib tirikchilik qilganlar.

Guttentotlar bushmenlarga nisbatan biroz yuqpri madaniyatga ega bo'lgan. Ular faqat bir necha asr muqaddam chorvachilikka o'tganlar, yirik va mayda shoxli mol boqib kun kechirganlar. Ular ham tropik o'rmon aholisidek uylarini doirasimon qo'ra qilib (kraal shaklida) qurganlar va katta patriafxal oilalarga bo'linib joylashganlar. Guttentotlar qo'shni bantu xalqlaridan kulolchilik, temir eritish va ishlab chiqarish, temir qurollardan foydalanishni o'rganganlar.

Sharqiy Afrikaning yirik mamlakatlaridan Keniya (20,4 mln. aholi), Uganda (15,4 mln.), Tanzaniya (21,7 mln. kishi)ning etnik qiyofasi rang-barang. Masalan, Keniyada yashovchi aholining asosiy qismi (95 %) negroid irqda, ayniqsa, nilot tipi ko'pchilikni tashkil qiladi. Bu yerda bantu, nilot, kushit tillarida gapiradigan turli elatlar yashaydi. Shulardan bantu tilidagi etnoslar (kikyuyu, embu, kamba, taraka, luxya, kasik, pakomo, iverine, suaxili va hk.). Nilot til turkumiga oid xalqlar (aholining 30 % i)dan eng kattasi jalu o yoki luomlgari ko'chmanchi chorvador bo'lib, keyin o'troq dehqonchilikka o'tgan. Hozirgacha yarim ko'chmanchilikda yashab kelayotgan nilotlar ko'p. Ularning tasavurida yerga ishlov berish, ya'ni dehqonchilik qilish nomunosib kasb. Bunday fikrdagi masai samburu, turkana, teso nomli chorvador qabilalar hozir ham qadimiy odatlariga binoan ayricha yashaydilar.

Nilot va kushit xalqlarining ko'pchiligi uzoq asrlar davomida mustamlakachilar asorati va undan oldingi davrlardagi qul savdosi tufayli o'zlarining an'anaviy madaniy xususiyatlarini biroz yo'qotganlar. Bantu, nilot va kushitlar o'ziga xos tarixiy-madaniy viloyatlarga bo'linadi.

Afrika, arab va hind madaniyatlarining ko'p asrlik yaqin aloqa-lari va aralashmasida paydo bo'lgan yorqin va original suaxili madaniyati umumjahon mohiyatga ega bo'lgan va juda ko'p etnos-larga manzur tushgan madaniyatga aylangan. Uy qurilishida, ki-yimlarida, badiiy hunarmandchilik mahsulotlarida, ma'naviy hayotida nihoyatda go'zal va rang-barang o'ziga xos xususiyatlarni saqlab kelgan. Keniya xalqlarining sohil qismi aholisi hozirgacha zargarlik, misgarlik, yog'och va suyak o'ymakorligi san'ati an'ana-larini davom ettirmoqdalar. Suaxilliklarning oq xalat (galabey)lari, kumush bilan kashtalangan chiroyli do'ppilari, ayollarning quyuq ko'k, o'ziga xos parda va choyshablari, turli taomlari sharqi-janubiy sohil aholisi orasida keng tarqalgan.

4. JANUBIY AFRIKA XALQLARI

Janubiy Afrikaning etnik qiyofasi, lingvistik tuzilishi va sotsial tuzumi turlicha ko'rinish kasb etgan. Tub aholi afrikaliklar mintaqaning 5/4 qismini tashkil qiladi (1980-yil 61 million), janubiy qismida afrikaliklarning ko'pchiligi bantu xalqlaridan (taxminan umumiy aholining 78 %

i), qadimiy etnos hisoblangan bushmen va guttentotlar 0,5 %, kelgindi yevropaliklar metislar bilan 19 %, osiyo-liklar 2 % nufuzga ega.

Turli mahalliy etnoslar mintaqada Mozambik, Zimbabve, Janubiy Afrika Respublikasi (JAR), Namibiya, Botsvana, Svazilend, Lesoto davlatlari, Madagaskar, Komor, Reyunon, Mavrikiy va Seyshel orollaridagi o'lkalar orasida tarqoq holda joylashgan. Mintaqadagi mamlakatlar orasida o'zining ijtimoiy tuzumi va etnik tarkibi jihatidan Mozambik respublikasi alohida o'rin egallaydi.

Janubiy Afrikaning nisbatan rivojlangan ko'ptarmoqli xo'jalikka ega bo'lgan mamlakatlaridan sanalgan Zimbabve xalqlarida an'anaviy turmush tarzi unsurlari ancha saqlanib kelgan. Masalan, aholining 3|2 qismini tashkil qiluvchi shona xalqi hozirgacha oynasiz, ; doirasimon konussimon somon tomli uylarda yashaydilar, butun faoliyat va tirikchilik ochiq hovlilarda o'tadi. Ovqatlari dondan pishirilgan atala, sabzavot qaylasi, go'shtni faqat oilaviy yoki diniy bayramlarda iste'mol qiladilar. Teridan tikilgan belbog' yoki etakcha, ba'zan kandirdan to'qilgan etik kiyadilar. Ularda hozirgacha qadimiy qabilaviy tashkilot tartiblari saqlangan. Katta etnohududiy birikmadan iborat qabila jamoasi — «nika»ni oqsoqollar boshqaradi. Ular muayyan davrda jamoa mulki hisoblangan mulk — yerlarni qayta taqsimlash, hashar tashkil qilish, ma-rosimlar o'tkazishga bosh bo'ladilar. Qishloq oilalarida har bir oila a'zosi hurmatiga qarab taom iste'mol qilishda o'z o'rmini aniq bilgan. Har qaysi kishi dala ishlaridan tashqari uyida bir kasbni bilishi, masalan, chipta yoki savat to'qishni, sopol idish yasashni, o'yma-korlikni yoki boshqa bir kasbni egallashi shart bo'lgan. Ularning sevimli musiqa asboblari turli nog'oralar, nay va surnaylar, o'ziga xos yog'och rezonatorga o'rnatilgan tunikali instrument «mbira». Juda nozik geometrik naqshlar berilgan sopol buyumlar, to'qima mahsulotlar, applikatsiya usulida to'qilgan gilamlar shona xalqiga xos dekorativ san'at namunalari.

Etnik jihatdan o'ziga xos Koysan til turkumiga mansub bush-menlarning qurol va buyumlari o'q-yoy, o'qdon, yog'och so'qi va sopi straus tuxumi qobig'idan va yowoyi hayvonlarning oshqozoni-dan ishlangan suv idishlaridir. Yoy-o'qning uchi toshdan yoki qo'shni bantu va guttentotlardan almashib olgan metallardan yasalgan. Ular o'q-yoyni musiqa asbobi sifatida ham ishlata biladilar. Sehrgarlik marosimlarida musiqachilar chalqancha yotib kuy ijro etadilar. Bushmenlar ota urug'idagi qavm-qarindosh guruhlariga birikib, daydilik qilib ko'chib yuradilar. Ularda doimiy uylar bo'lmasdan, turargohlarida qumni kavlab yoki yerto'la qilib somon to'shab yotganlar, ba'zan xashaklardan chayla tiklaganlar. Okavango vohasida bir necha o'troq bushmenlarning qishlog'i uchraydi. Ular yig'im-terim va ovchilikdan tashqari chopqi dehqonchiligi bilan ham shug'ullanadilar.

Janubiy Afrika Respublikasi juda katta hududda joylashgan (1,2 mln. kv. km.), uning aholi soni 32,4 million kishidan iborat (1985-yil), Namibiyaniki 1,5 mln.dan oshiq (hududi 824,3 ming kv.km.).

Afrikaliklardan eng katta etnik guruh bantu (aholining 70 foizi), ayniqsa, zulu, kosa, suto, tivan va svazi xalqlari o'ziga xos madaniyatini saqlab kelmoqda. Ularning ijtimoiy tuzumida ancha o'zgarishlar ro'y bergan. Katta patriarxal oilalar o'rniga kichik oilalar paydo bo'lgan, diniy e'tiqodlar ancha o'zgargan, ko'pchilik aholi nasroniy diniga o'tgan (47 %), mahalliy an'anaviy dinlar aholining 3|1 qismida saqlangan, qurama nasroniy Afrika cherkovi va mazhablari tarafdorlari esa 13,7 foiz aholini tashkil qiladi. Islom bu yerga dastlab XVIII asrda Indoneziyadan musulmon qullar bilan kelgan va XIX asrning o'rtalaridan keyin ancha ko'paygan. Hozir aholining 1,4 foizi musulmon dinida.

Janubiy Afrika bantu xalqlarining an'anaviy xo'jaligi chorvachilik va chopqi dehqonchiligi. Qo'shimcha ovchilik va te-rimchilik bilan ham shug'ullanganlar. Ovchilarning

asosiy qurollari otiladigan nayza, bolta, cho'qmor, o'q-yoydan iborat, ovda tuzoq va pistirma ham ishlatganlar. Barcha bantu xalqlari temir va mis eritish, metall-qurol, aslaha va bezaklar yasash san'atini egallagan. Temirchilik eng hurmatli kasb hisoblangan. Charxsiz ajoyib sopol idishlar yasab, o'tda kuydirib, qizil bo'yoq bilan naqsh berilgan va siyqalab yaltiratilgan.

To'qimachilikni bilmasa ham bantular terilarga yaxshi ishlov berib kiyim tikkanlar. Ular antilopa (ohu), shag'al, zodagonlar esa sher va qoplon terisidan po'stin (kaross) tikib kiyganlar. Erkaklar teri belbog'cha, ayollar barra terisidan etakcha bog'laganlar. Zulu ayollari erga chiqqanda sochini cho'qqaytirib o'rab, qizil rangga bo'yaydi, ndebela ayollari esa aksincha, sochini onda-sonda qirqib, bir-ikki kokil qoldiradi..

Guttentotlarning uylari egilgan daraxt navdalaridan gumbaz shaklida qurilib, ularning usti terilar bilan qoplangan yoki loy bilan suvalgan kulbalardan iborat. Ularning ov qurollari metall uchli nayza, o'q-yoy, uzun cho'qmor («kirri») bo'lgan. Janubiy Afrika bantu xalqlarining uylari doira shaklida cho'qqaygan tomli qamish yoki somon bilan yopilgan, doira qilib tizilgan bo'lib mol qo'rasi vazifasini bajaradi. Zulu xalqlarida sharga o'xshash ustunlarga o'rnatilgan to'qima uylarning tashqari va ichkarisi loy bilan urilgan. Soto xalqida esa turli xilda: konus tomli, tuxum shaklida yoki to'g'riburchakli ikki yoki to'rt nishabli. Tog'li joylarda uylar toshdan yoki guvaladan tiklanib ba'zan bezak berilgan. Ayniqsa, ndebela xalqida tuxumsimon uylar bir-birlari bilan naqsh berilgan gumbazli va ustunli devorlar orqali yopishgan, devorlari qora, kulrang, qizil, sariq va ko'k rangli geometrik ornamentlar bilan bezatilgan. Uy-ro'zg'or buyumlari yog' va sut saqlaydigan yog'och idishlar, qovoq-dan ishlangan suvdonlar, don va go'sht soladigan savatlar, yerga to'shaladigan chipta va bo'yralardan iborat.

Xalq ijodi, badiiy hunarmandchilik ancha rivojlangan. Janubiy Afrika bantulari chiroyli cho'zma usulda sopol buyumlar, o'yma naqshli yog'och idishlar, ho'kiz qo'shiladigan ayrishoxli yog'och-dan yasalgan chanalar, temir uchli nayza va boshqa qurollar ishlab chiqarganlar. Jo'shqin raqs va kuylar ularning eng sevimli tomoshalari, barcha tantana va marosimlarning eng muhim qismi-dir. Musiqa asboblari turli xilda, ammo katta-kichik nog'oralar («marimbo», «ngoma») doimo jo'r bo'lgan, yog'och, shox yoki qamishdan yasalgan surnay va naylar, kamonchali asboblari... Yom-g'ir yog'dirish marosimida bantu xalqlarida o'yin-kulgi, raqs ashulalar bilan birga, qora qo'y yoki buzoq qurbonlikka so'yilishi shart bo'lgan. Bushmenlar beshikchi chigirtkaga sig'inadilar (totemizm).

Umuman olganda, bushmenlarning soni 50 ming kishidan iborat, shulardan 33 mingga Botswana davlatida yashaydi. Mustaqillik-ka erishgan Botswana respublikasi bushmenlarni mamlakatning teng huquqli fuqarolari deb e'lon qilgan. Ularning bir oz qismi o'troq holatga o'tgan. Ammo ko'pchiligi hali ham Kalaxari cho'llarida yashamoqda. o'troq holatda yashayotgan chorvachilik bilan shu-g'ullanuvchi tevana xalqi (mamlakatning 90 foiz aholisini tashkil qiladi) suv havzalari bo'yida, bir necha yuz hovlili qishloqlarda joylashgan. Ularning oilasida odatda 8-10 bola, bushmenlarda esa 2-3 bola bo'ladi. Bushmenlar og'ir sharoitda yashasada bolalarini uch yoshgacha emizadi. Moddiy va ma'naviy turmushi qo'shni bantu xalqlariga ancha yaqin.

Nazorat savollari:

1. Afrika hududida joylashgan mamlakatlar qaysilar?
2. Afrikaning etnik tarkibi va etnogenezi?
3. Afrika xalqlari antropologik tuzilishi qanday?
4. Afrika xalqlari lingvistik tuzilishi qanday?
5. Afrika xalqlari xo'jaligi tuzilishi qanday?
6. Afrika xalqining madaniyati.

7-Mavzu. Amerika xalqlari

Ryeja:

1. Amerikaning kashf etilishi.
2. Amerika xalqlari etnogenyeni va etnik tarixi.
3. Tili, dini va antropologik qiyofasi.
4. Xo'jaligi va asosiy mashg'ulotlari.
5. Moddiy va ma'naviy madaniyati.

Tayanch iboralar: Xindular, "Buyuk Pueblo", inklar, atseklar, mayalar, preriya, irokezlar ligasi, amazonka.

Amerika qifasi o'zining hududi bilan faqat Osiyodan bir oz ki-chikroq. Uning maydoni Grenlandiya bilan 44,5 mln.kv.km ni tashkil etadi. Atlantik va Tinch okeanlari oralig'ida joylashgan shimol-dan janubga-15,5 ming km uzunlikka cho'zilgan bu qifa aslida ikkita mustaqil quruqlikdan iborat. Uning 24,3 mln.kv.km (Grenlandiyasiz)ga ega bo'lgan shimoliy qismi trapesiya shaklida, janubiy qismi katta notekis uchburchakka o'xshaydi (maydoni 18 mln.kv.km). Amerikaning shimoldagi keng qismi ekvatoridan pastroqda 4,5 ming km kelsa, tor qismi Panama hududida joylashgan bo'lib 100 km ga ham yetmaydi. XX asrda shu yerda qazilgan 80 km lik Panama kanali Tinch va Atlantik okeanlarini bog'lagan muhim xalqaro savdo yo'liga aylangan edi.

Ko'hna dunyo deb nomlangan Yevropa, Osiyo va Afrikaga nisbatan Yangi Dunyo deb atalgan Amerikaning tabiati va iqlimi niho-yatda rang-barang. Tinch okeani sohillari bo'ylab shimoldan janub-ga tomon butun ikki qifaga cho'zilgan Kordiler nomli eng yirik tog' tizmalari Tinch okeanida ro'y berayotgan tektonik jarayon bilan bog'liq. Shuning uchun bu tizmalar seysmik jihatdan notinch hisoblanadi. Bu yerda eng baland tog'liklar va hozirgacha qaynab turgan vulqonlar mavjud. Qifaning ichki qismidagi bepoyon tayga, tundra va tropik o'rmonlar, cheksiz dashtu biyobon va preriylar, katta-kichik ko'llar va daryolar inson uchun zarur mahsulotlarni yetkazib beradi.

Hindilarning kelib chiqishi uzoq vaqtgacha fanda sir bo'lib, turli faraz va mulohazalarni yuzaga keltirgan. Ayrim olimlar Amerika aholisi avtohton, ya'ni shu yerda paydo bo'lgan, degan fikrni yoqlab chiqqanlar. Ammo Amerikaga odamlarning Osiyodan kelganligi, uning shimoldan janubga tomon asta-sekin ko'chib tarqalganligi tasdiqlangan. Bu ko'chish Bering bo'g'ozini bo'lmagan Osiyo va Amerika qifasi qo'shilgan bir davrda ro'y bergan. So'nggi 20 yil ichida qilingan kashfiyotlarga tayanib, olimlarning ko'pchiligi bu yerda odam 30-25 ming yillar muqaddam paydo bo'lgan degan fikrga kelganlar. Atoqli antropolog L.Liki Amerikaga dastlab osiyoliklar hatto 50-100 ming yillar ilgari kela boshlagan, degan fikrni aytmoqda. Ko'pchilik olimlar Janubiy Amerikaga esa odamlar dastlab 17-11 ming yillar ilgari kelgan, degan fikrni quvatlashadi.

Tub amerikaliklarning ajdodlari butun qit'ada Shimoliy Alyaskadan janubdagi Olovli Yergacha osiyoliklar ekanligini arxeologik dalillardan tashqari antropologiya tuzilishlari ham tasdiqlaydi. Ularning hammasi mongoloid irqiga oid bo'lib, badanini kam tukliligi, qora ko'zliligi, keng yalpoq yuzliligi va yonoq suyagining chiqqanligi bilan umumiy o'ziga xos tipni paydo qilgan. Ammo hindilar osiyo mongoloidlaridan baland bo'yli, burgutsimon burni, epikantus (ko'z qiyachig'i)ning kamligi va uzunchoqroq yuzi bilan ajralib turadi. Ular balki, ayrim olimlarning fikricha, o'zlarining osiyolik ajdodlarining antropologik tuzilishini saqlab

qolgandir. Hindilardan Shimoliy Amerika va Grenlandiyaga tarqalgan aleut-eskimoslar ancha ajralib turadi. Ularda mongoloid belgilari juda kuchli va hozirgi shimoli-sharqiy osiyoliklarga ancha yaqin. Demak, aleut-eskimoslar Amerikaga kelgan aholining eng oxirgi oqimi bilan bog'liq.

Qolgan barcha hindilar bir necha asrlar va hatto ming yillar da-vomida asta-sekin shimoldan janubga va keyin qifaning ichki hududiga tarqalgan hamda turli elat va xalqlarning shakllanishiga asos bo'lgan. Ba'zi umumiy belgilariga qarab ularni odatda uch katta guruhga: shimoliy amerikalik, markaziy amerikalik va janubiy amerikaliklarga bo'ladilar. Ular o'zaro faqat bo'yi va badan terisining rangi bilan farqlanadilar. Shimoliy Amerika hindilari bo'yining balandligi, ko'zining to'g'ri qiyig'i va burgutsimon burni bilan ajralib turadi.

Hozirgi davrda hindi tillarining asosiy qismi ayrim mamlakat-larning davlat tillari tomonidan siqib chiqarilgan yoki siqib chiqarish arafasida. Faqat eng yirik til oilalari — kechua, aymara, mayya va ularga yaqin tillar o'z mavqeini saqlab qolganlar. Bu tillarda Peru va Boliviya da hatto maktablar va adabiyot mavjuddir. 1975-yil 27-iyunda birinchi marta Amerika qifasida Peru hokimiyati kechua tilini davlat tili deb e'lon qildi. Paragvayda ispan tilini yengib o'tib, mavqeini tiklagan guarani tilida adabiyot va matbuot mavjud bo'lib, radioeshittirishlar tayyorlanadi.

Yevropa mustamlakasi, ayniqsa, XVI asr boshlaridan ispan va portugallarning kela boshlashi, Amerika qifasidagi tub aholining taqdirida muhim rol o'ynadi. Mazkur voqea qisqa muddat ichida hindilarning lingvistik, antropologik va etnik qiyofasida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Ammo eng katta fojia shundan iborat ediki, hindilarning juda ko'p qismi yo jismoniy qirilgan, yo og'ir mehnat tufayli, yo yevropaliklar olib kelgan kasalliklardan qurbon bo'lgan. Dastlab, Vest-Indiyaning tub aholisi bu fojiani boshidan kechirgan, ularning ko'pchiligi XVI asrning birinchi yarmidayoq qirilib ketishgan.

Amerika qifasiga yevropaliklarning qachon kelganligi aniq emas. Ayrim olimlarning fikricha, bepoyon okean suvlari bilan har tomondan yuvilib turgan bu qifaga Ko'hna dunyodan kishilar bir necha ming yillar muqaddam kelib turgan. Bunday bo'lishi mumkinligini norveg sayyoh olimi Tur Xeyerdalning «Ra» nomli papirus kemasida o'tkazgan ekspeditsiyasi ham tafeddiqlaydi. Taxminan ming yillar muqaddam Amerikaning shimoli-sharqiy sohillarida va Grenlandiyada normannlarning yashaganligi («Vinland») aniqlangan.

Asli Amerikani mustamlaka qilinishi ispan hokimiyati xizmati-dagi genuyalik Xristofor Kolumbning 1492-yil 12-oktabrdagi kashfiyoti bilan bog'liq edi. o'sha kuni buyuk sayyoh Hindistonga g'arbiy yo'l axtarib Karib dengizidagi Bagam arxipelagiga yetib kelib, uni g'arbiy Hindiston (Vest-Indiya) deb o'ylagan. Juda qiyinchiliklar bilan kashf etilgan o'lkani Salvador (ispancha «xaloskor») deb atagan. Kolumb keyinroq bir necha marta Venesuela, Gonduras va Panama sohillariga kelgan bo'lsa-da, bu yerlarni xindlarniki, degan fikrini o'zgartirmadi, Ammo uning ayrim zamondoshlari yangi kashf etilgan yerlar Osiyo emasligini tez aniqlab oldilar.

Ispanlar ortidan boylik axtarib portugallar, inglizlar, fransuzlar va gollandlar kela boshlaydilar va Yangi Dunyoni bo'lib mustamla-kaga aylantiradilar. Oqibatda Shimoliy Amerika Rio-Grande daryosining shimolidan ingliz va fransuzlar qo'liga, Meksika, Markaziy va Janubiy Amerika ispanlar va portugallarning qo'liga o'tadi. Vest-Indiya orollarini ispan, ingliz, fransuz va golland istilochilari o'zaro bo'lib olishgan. Hatto Daniya ham bir qismini egallagan. Oqibatda, hindilar serunum yerlaridan mahrum bo'lib, bir qismi qulga aylangan, qolgan qismi esa qirilgan. Ispaniya va Portugaliya qirollari, yirik feodallari va cherkovlarning xazinalari boylikka to'lib ketgan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, qisqa muddat ichida XVI asrning birinchi yarmi davomida 15 million hindilar qirib tashlangan. Vaholanki, mustamlakachilar kelish ara-fasida Yangi Dunyoda tub aholi, ya'ni hindilar soni 90-100 million kishiga yetgan¹⁶. Agar hozirgi AQSH hududida awallari 400 qabi-ladan iborat 2-3 millionga yaqin hindilar yashagan bo'lsa, XX asr boshlariga

kelib Amerika Qo'shma Shtatlarida 200 mingga yaqin hindilar qolgan, xolos¹⁷. Hozir Lotin Amerikasida hindilar aholi-ning 15% ni tashkil qiladi.

XVI asrning oxirlarida portugaliyaliklar qul «ovlash» niyatida Janubiy Amerikaning ichki qismiga yurishlar o'tkazib, bir necha ming hindilarning yostig'ini quritganlar. Shu davrdan boshlab Amerika, Yevropa tarixida eng fojiali va dahshatli sahifalar boshlandi. Boy plantatorlar qirilgan hindilar o'rniga ishchi kuchiga muhtoj bo'lib qo'shimcha qul olib kelishga majbur bo'ladilar. XVI asrning birinchi choragidayoq Vest-Indiya va Braziliyaga Afrikadan zo'rlab minglab negrlarni keltira boshlaydilar. o'sha davrda Afrika negrlariga chinakam ov boshlanadi. Kuch bilan bosib olib kelingan bir necha ming qora tanlilar halok bo'lib ketgan. Negr qullarni zo'rlab keltirish to XIX asr boshlarigacha davom etgan. Afrikadan keltirilgan qullarning umumiy soni haligacha ma'lum emas. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, faqat Braziliyaga qullikka Afrikaning asosan, g'arbiy qismidan 10 millionga yaqin negr keltirilgan. Hozirgi AQSHda 25 millionga yaqin negr yashaydi. Amerikaning ayrim mamlakatlarida (asosan, Vest-Indiya orollarida) negrlar hatto aholi-ning ko'pchilik qismini tashkil qiladi.

1. SHIMOLIY AMERIKANING TUB AHOLISI

So'nggi chorak asf davomida to'plangan arxeologik ma'lumot-lar Shimoliy Amerika hududida ketma-ket izchil almashib, taraqqiy qilib kelgan hindilar jamiyatining taxminan o'n bir ming yillik tarixini aniqlab olish imkonini yaratdi. Arxeologlar qifada ikkita eng qadimiy paleohindi madaniy an'analarini aniqlaganlar:

1) Markaziy dasht mintaqada joylashgan yirik qush ovchilari ma-daniyati;

2) Shimoli-g'arbiy Tinch okeani ovchi-terimchilari kordiler madaniyati¹⁸. Bu madaniyatlar miloddan avvalgi VIII ming yillik-kacha davom qilib kelgan va butun qifaga tarqalgan turli lokal madaniyatlarning negizini hosil qilgan.

Ayniqsa, hindilar tarixi qifaning sharqiy qismi va janubi-g'arbida Shimoliy Amerikaning o'rmon zonasida (hozirgi Arizona va Nyu-Meksiko shtatlarida) jiddiy o'rganilgan. Ayni shu yerda hozirgi tarixiy va etnografik manbalarga kirgan yuksak darajadagi madaniyatli Shimoliy Amerika hindi qabilalarining shakllanish markazi bo'lgan va ularning keyingi taraqqiyotiga zo'r ta'sir

ko'rsatgan. Sharqiy o'rmon zonasida yashagan hindilarning tarixiga oid uchta davr aniqlangan. Bu birinchidan, mo'tadil iqlimli o'rmon va suv havzalari mahsulotlarini ovlab, yig'ib-terib o'zlashtirish xo'jaligiga ega bo'lgan arxaik davr (eramizdan avvalgi VIII-I ming yilliklar), shu zaminda paydo bo'lgan ikkinchi madaniyat janubiy Kanadadan to Meksika bo'g'ozigacha, Atlantikadan to Amerika dashtlarigacha katta hududga tarqalgan vudlend madaniyati ilgari madaniy an'anani davom qildirib, qo'shimcha dehqonchilik va ku-lolchilik bilan ajralib turadi (eramizning VII asrlariga kelib, ayniqsa, Ogoyo daryosining vohasida, bu madaniyat nihoyatda gullaydi va dasht hududlarda X asrgacha, shimoli-sharqiy qismida yevropaliklar kelguncha saqlangan). VII asrning oxirlaridan boshlab madaniyat markazi asta-sekin Missisipi daryosining o'rta va pastki oqimi vodiylariga va Meksika bo'g'ozini sohillariga ko'cha boshlaydi. Missisipi madaniyati deb atalgan bu davr (VII-XV asr-lar) ilgari madaniy yutuqlarni o'zida mujassamlashtirgan o'troq dehqonchilik xo'jaligi, qapali shahar va qo'rg'onlar, ibodat va saroy tipidagi inshootlar bilan ajralib turadi. Vudlend madaniyatidan missisipiliklar o'zining sopol mahsulotlaridagi yangi shakldagi naqshlar, yog'och, tosh va chig'anoqlardagi yuksak badiiy o'ymakorlik va naqqoshlik san'ati, metall buyumlar yasash mahorati bilan ham farq qilganlar.

Demak, yevropaliklar kelguncha Shimoliy Amerikada hindilar yuksak madaniyat yaratganlar. Albatta, hindilar jamiyati bu davrda sinfiy tuzumga o'ta boshlagan. Tadqiqotchilar bu davrni ikki muhim bosqichga bo'ladilar: eng rivojlangan ibodat qo'rg'onlarini tiklash bosqichi (VII-XII

asrlar) va qo'rg'on inshootlarining periferiya hududlariga tarqalish bosqichi, ya'ni yuksak hindi madaniyatining boshqa sharqiy o'rmon zonasi va dasht daryo vodiylariga zo'r ta'sir qilib, o'z hukmronligini to'liq o'rnatgan bosqichi (XII-XV asrlar). Mazkur madaniyat mahalliy an'analar bilan aralashib, o'ziga xos rivojlangan hindi dehqonchilik xo'jalik tipini hosil qilgan edi.

Arxeologik tadqiqotlarga qaraganda, Shimoliy Amerikada dehqonchilik dastavval miloddan avvalgi III ming yillikda janubi-g'arbiy hududlarda paydo bo'lgan. Shu asosda arxeologlar «kochiz», «monolon», «xoxokam» va «anasazi», deb atalgan hindi madaniyatining lokal tiplarini ajratadilar. Eng birinchi dehqonchilik madaniyatini Shimoliy Amerikada kochizliklar yaratgan bo'lib, ular dastlab makkajo'xori, keyinroq qovoq va lobiyo ekkanlar. Kochizliklar yovvoyi o'simliklar yig'ish va ovchilik bilan ham shug'ullanganlar, g'orlarda yashaganlar.

Xoxokam va mogolon madaniyatidan 300-700 yillar keyin paydo bo'lgan anasazi nomli rivojlangan dehqonchilik madaniyati ancha takomillashgan va qo'shni elatlarga zo'r ta'sir o'tkazgan. Mazkur madaniyat izlari hozirgi AQSHning Arizona, Nyu-Meksika, Yuta va Kolorado shtatlarida va qo'shni vohalarda topilgan. Anasazi madaniyati tarixi ikki davrga: «rivojlangan pueblo» (milodning VII-X asrlari) va «buyuk pueblo» (X-XIII asrlar)ga bo'lingan. Birinchi davr hindilari makka, qovoq, lobiyo, paxta ekkanlar, ilgarigi savat idishlari o'rniga geometrik ornamentli sopol idishlar yaratganlar, ko'pxonalik (6-14 hujayrali) toshdan va xomg'ishtdan katta uylar tiklaganlar.

«Buyuk pueblo» davrida qurilish texnikasi yana ham yuksak darajaga ko'tariladi. Hindilar bu davrda ko'p qavatli va ko'pxonali ming va undan ham ko'p kishi sig'adigan katta uy (asli shahar)lar tiklaganlar. Bunday bir uydan tashkil topgan sha-harlar qumtosh yoki tuf qoyalarda, daryolarning katta daralarida paydo bo'lgan. Ular asosan, Kolorado va San-Xuan daryolari-ning daralarida qurilgan. Ba'zan tabiiy g'orlardan ham foydalanilgan. Oilalar ko'paygan sayin xonaga xona qo'shilib ari uyasi-dek shahar kattayib boravergan. Bunga Kolorado darasidagi 200 xonalik va 36 ibodatxona (kiva)lik «qoya ko'shki» (XI asr) xaro-balari va hozirgacha saqlanib qolgan Chaka darasidagi (XII #sr-ga pid) devor bilan o'ralgan 650 hujrali va markazida 20 ibodat-xonasi bor hovli-qasr ham misol bo'ladi. Ammo XII asrga kelib, hindilar o'zlarining qoya uy-qasrlarini tashlab tekis adirlarga ko'chib, hovli-qishloqlarini tiklay boshlaganlar.

Mahalliy hindilarning xo'jalik faoliyati ham turli xilda bo'lib, olimlarning aniqlashiga qaraganda, o'sha davrda Shimoliy Amerikada olti xo'jalik madaniy tiplari tashkil topgan.

Hindi qabilalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ham turli darajada bo'lgan. Ularning ko'pchiligi mustamlaka arafasida ib-tidoiy jamiyat tuzumining turli pog'onasida, qifaning janubi-sharqiy va g'arbiy qismida qabilalar sinfiy jamiyatga o'tish darajasida bo'lganlar. XV asr oxirlaridan Shimoliy Amerikada oqtanliklar, ya'ni yevropaliklar (asosan, Fransiya, Ispaniya, Gollandiya va Angliyadan) kelishi bilan mustamlaka davri boshlanadi. XVIII asr boshlarida esa qifaga ko'plab negrlar keltirilishi bilan Shimoliy Amerikaning etnik qiyofasi tubdan o'zgara boshlaydi.

XIX asr oxirlariga kelib hindi qabilalarining ko'pchiligi tor-mor qilinib, to'liq bo'ysundirilgan va rezervatsiyalarga joylashtirilgan edi. XV asrda jami 15-20 mln. hindilar yashagan bo'lsa, hozir Shimoliy Amerikada yashovchi tub aholining soni 1,5 milliondan ortiq²⁰.

Ammo hindilar o'z huquqlari uchun doimo kurashib kelmoqda-lar. Ayniqsa, so'nggi o'n yilliklarda ularning ijtimoiy-siyosiy faolligi kuchaydi, oqibatda hindilar masalasi mamlakatning eng muhim siyosiy masalalaridan biriga aylandi.

Hozirgi davrda eskimoslar, ayniqsa, Grenlandiyada, zamona-viy jihozlangan elektr va issiq suv bilan ta'minlangan ko'p qavatli uylarda ham yashaydilar; kiyimlari va taomlari ham ancha o'zgarib yevropalashtirilgan. An'anaviy transport vositasi sifatida chang'i va itlar qo'shilgan

chanalardan foydalanishadi. So'nggi yillarda motorli kema va chanalar, miltiq va temir qopqonlar ishlatilmoqda.

Eskimoslarning ijtimoiy tuzumida XIX asrgacha urug' jamoa-chilik munosabatlari saqlanib kelgan. Ular ikki-uch oiladan tashkil topgan kichik jamoadan iborat bo'lib, ota urug'iga o'tish davrida yashaganlar. Ammo urug'-qabilachilik munosabatlari og'ir tabiiy sharoit tufayli uncha mustahkam bo'lmagan. Og'ir sharoit eskimoslarning dinlarida ham o'z aksini topgan. Kishi ustidan hukmronlik qilib turgan tabiat kuchlari har xil tabiiy hodisalarga, turli arvohlarga va «dengiz xo'jayini»ga sig'inish, sehergarlik (magiya) va shomonizm kabi ibtidoiy dinlarni yaratgan. Ularda shomoniylilik ibodati va turli mifologik tasawurlar rivoj topgan. Hozir eskimoslar orasida nasroniy dini ko'p tarqalgan.

Tinch okeanida, Alyaska yarim orolidan janubga cho'zilib ket-gan Aleut orollarida va Alyaskaning g'arbiy qismida eskimos-aleut til oilasiga oid qadimiy elatlar yashaydi.

Eskimoslarga maishiy turmush va madaniyati yaqin aleutlar ham XIX asr boshlarida dengiz hayvonlari bilan ov qilib tirikchilik o'tkazganlar. Ularning ov qurollari eskimoslarnikiday ammo teridan yasalgan baydarka, dengiz hayvonlarining ichagidan tikilgan suv o'tmaydigan plash, yog'ochdan yasalgan shlapa, o'ziga xos moddiy va ma'naviy madaniyat xususiyatlari bilan ajralib tu-radilar.

Mahalliy hindilarning ovchilik san'ati ancha rivojlangan. Ayniqsa, baliqchilikda turli texnika va takomillashgan qurollar ishlatilgan. Ular yaxlit yog'ochdan o'yib yasalgan uch-to'rttadan yuztagacha kishi sig'adigan kemalarda sayohatga va ovga chiqqan-lar. Baliqni tosh, suyak, yog'ochdan va uning tolalaridan yasalgan har xil qarmoq, sanchqi, nayza, to'r, savatlar bilan turli to'g'onlar qurib ovlaganlar. Metalldan faqat misni bilganlar, undan ba'zi qurollar va bezaklar yasaganlar, pul o'rnida ishlatganlar. Ovqatni yog'och idishlarda o'tda qizdirilgan tosh solib pishirganlar.

Shimoli-g'arbiy sohil hindilarining hayotida potlach («o'yinchoq») nomli murakkab marosim muhim rol o'ynagan. Asli katta bazm sifatida bir necha kun, ba'zan oylab o'tkaziladigan potlach marosimida boy jamoa a'zolari va urug' boshliqlari o'z boyliklarini tarqatib berganlar, hatto qullarini qurbon qilganlar. o'z navbatida jamoa a'zolari ham bazm egasiga katta sovg'alar qilishlari shart bo'lgan. Umuman urug' boshliqlariga urug'doshlari tomonidan har xil sovg'alar berib turish majburiy odat tusiga aylangan bo'lib, urug'chilik ichida dastlabki soliq (renta) shaklida namoyon bo'ladi. Shu yo'l bilan erkin jamoa a'zolarini o'ziga qaram qilishning iqtisodiy zamini yaratilgan. Potlach marosimida sarflangan xarajat va tarqatilgan boylik o'rni sovg'alar orqali yana tiklangan. Kim bazm va bayramni zo'r o'tkazsa, shu katta nom qozongan. Aslida potlach ibtidoiy jamoa tuzumidan sinfiy jamiyatga o'tish davriga xos marosim bo'lib, endi kurtak otayotgan iqtisodiy va sotsial tengsizlik, boylik va kambag'allikni ijtimoiy hodisa sifatida paydo bo'lganligi-ni ifodalovchi marosimdir.

Mustamlaka davrida savdo-sotiq yana ham rivojlanib ijtimoiy munosabatlar chuqurlasha boshlaydi. AQSH hukmronligi o'rnatilgandan keyin mahalliy aholining asosiy tirikchilik manbai hisoblangan baliqchilik mustamlakachilar qo'lga o'tib, o'z yerlaridan haydalib rezervatsiyalarga ko'chirilgan hindilar qashshoqlashib yollanma ishchi kuchiga aylanganlar.

Shimolning o'rmon hindilari mustamlaka arafasida urug'chilik munosabatlarini saqlab, jamoa bo'lib yashaganlar va ov qilganlar. Qishda ular ayrim guruhlariga bo'linib, ko'chib yurganlar, yozda daryo bo'ylaridagi qarorgohlarga to'planishib savdo qilganlar. XVII asrlardan mustamlakachilar bilan yaqin aloqalar o'rnatilib, mo'ynachilik maxsus sohaga aylanadi va mo'yna savdosi tovar ayirboshlashni kuchaytiradi. Subarktika ovchilari boshqa hindilar singari yevropaliklar tomonidan zo'rlik bilan o'z yerlaridan haydalmaganlar va qirilmagan. Chunki

Shimoliy Amerika o'rmonlari chorvachilik va dehqonchilikka noqulay bo'lganligi tufayli mustamlakachilar bu yerga bostirib kirmaganlar. Ular aksincha, qimmatbaho mo'ynaga muhtoj bo'lib, mo'ynachilikni rivojlantirish maqsadida ovchi hindi qabilalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlaganlar. Yevropaliklar keltirgan temir qurollar (pichoq, bolta, iskana, keyin miltiq va hk.) hindilarning og'ir mehnatini ancha yengillashtirdi. Shuning uchun dastlab mo'yna savdosi yevropaliklar bilan hindilar orasidagi munosabatlarni katta fojiasiz rivojlanishiga sabab bo'lgan edi. XVII asrning 30-yillaridan boshlab missionerchilikning kuchayishi bu munosabatlarni yana ham mustahkamladi. Mahalliy atapask, kri qabilalari bilan kelgindi ka-nadalik fransuzlar va shotlandliklar orasidagi nikohlar natijasida bir-ikki asr ichida yangi guruh metislar ham paydo bo'la boshlaydi.

Hozirgacha algonkin va atapask qabilalarida ham matrilokal, ham patrilokal nikoh tartiblari saqlanib kelgan. Bir necha juft oilalardan tashkil topgan kichkina urug'-jamo'a ko'chib yurishga odatlangan. Ayrim vaqtlarda bayram yoki diniy marosim munosabati bilan muayyan joyda bir necha nikohdagi guruhlar to'planishgan. Odat bo'yicha, nikohdan keyin ma'lum davr kuyov xotin urug'ida joylashib, kelin haqi uchun xizmat qilishi keng tarqalgan. Jamoa ekzogamiya tartiblariga rioya qilishi shart bo'lgan. Barcha qabilalarda muhim masalalarni muhokama va hal qilishda hamma teng huquqqa ega bo'lsalar-da, eng keksa donishmand kishilar rahbarlik qilganlar. Ichki jamoa munosabatlarida «har kim o'ziga-o'zi xo'jayin» degan axloq qoidasiga rioya qilinadi.

Shimoliy Kaliforniya hindilari yarim yerto'lalardan iborat kichik qishloqlarda yashaganlar. Qolganlari ko'chib yurishga qulay bo'lgan daraxt qobig'i bilan yopilgan konus yoki gumbaz shaklidagi chaylalarda istiqomat qilganlar. Deyarli barcha qabilalar kiyimsiz yurganlar, ammo bayramlarda juda ko'p bezaklar taqilgan. Qizlar faqat voyaga yetgandan keyin o'simlik tolasidan yubka yoki teridan etakcha kiyganlar, erkaklar esa bug'u terisidan qilingan belbog' bilan cheklangan. Sovuqda egniga teri yoki ko'rpacha yopinganlar.

Shimoliy va markaziy hindilarning ijtimoiy tuzumida qishloq jamoasi, ko'pchiligida fraternal tuzumi saqlanib kelgan. Ona urug'idan patriarxatga o'tish munosabatlariga xos tartiblar kuchli bo'lgan. Vohalardagi va tog' etaklaridagi hindilar yirik qishloqlarda joylashgan bo'lib, ancha rivojlangan ijtimoiy va siyosiy tuzumga, murakkab diniy tizimga ega bo'lganlar. Totemizm va shomonizm keng tarqalgan. Shomoniylik chuqur o'ylanilgan marosimlar va davolash usullariga ega bo'lgan. Har qishloqda maxfiy jamiyatlar mavjud bo'lib, ommaviy marosimlar (har xil o'yinlar, tantanalar, bezakli kiyimlar bilan) namoyish qilingan. Ibodat marosimlarida ijro etiladigan o'yinlarda har kim o'z boyligini ko'rsatishi mumkin bo'lgan. Janubiy Kaliforniya qabilalarida o'spirinlarni urug' a'zoligiga o'tkazish va boshqa diniy marosimlarda kayf yoki qayt qiladigan o'tlarni iste'mol qilish odat bo'lgan.

Irokezlar Shimoliy Amerikaning sharqiy qismida keyin paydo bo'lsa-da, arxeologlarning aytishicha, bu yerda madaniyat besh ming yillar muqaddam tashkil topgan. Irokezlarning etnogenezi eramizdan avvalgi 1 ming yillikda shakllana boshlagan vudlend madaniyati bilan bog'liq ekanligi aniqlangan.

Mahalliy hindilar qadimdan mayda daraxtli o'rmon va to'qayzorlarni kuydirib, dehqonchilik qilib kelganlar. Ular qirg'ilgan daraxtlarni quritib yoqqanlar, chopqida, yog'och bel yoki yo'nilgan uchli yog'och bilan yerni kavlab, ishlov berib kul aralash tuproqqa urug' sepganlar. Irokezlarning asosiy ekinlari — mais (makkajo'xori), lobiyo va qovoq. Bu ekinlar («Uch opa-singil») bilan ularning diniy tasavvurlari ham bog'liq. Uy oldi tomorqada tamaki, tarvuz, no'xot, kungaboqar, yer noki va boshqa ekinlar ham ekilgan. Ammo makkajo'xorining har xil turlari irokezlarni zarur oziq-ovqat bilan ta'min qilib, hatto qo'shimcha mahsulot yetkazib bergan. Makkaga go'sht qo'shib, sopol idishlarda turli taomlar tayyorlaganlar. Zarang daraxti

sharbatidan bahor faslida qand pishirganlar. Hindilar yovvoyi meva, urug' va yemishli ildizlarni terishga juda mohir bo'lganlar. Ko'l bo'yida yashovchi ayrim algonlik qabilalari yovvoyi sholini kemada yig'ib, boshog'ini yanchib, yog'och bilan tuyib guruch olganlar.

Irokez qabilalarining jamoa uylari bir necha oilaga mo'ljallangan to'g'ri burchakli yog'ochdan tiklanib daraxt qobig'i bilan yopilgan. L.Morgan ta'rificha, bu «uzun uylar» 6-8 metr kenglikda, ichki tomoni dahliz bilan ikkiga bo'lingan, devor bo'ylab uzunasiga yarim metr ko'tarilgan yog'och supalarda eni 4 metr keladigan «xonalar» har bir oilaga ajratib qurilgan. Ba'zan bunday uylarda butun bir urug' yashagan. Uylangan yangi kelin-kuyovlarga shu uy yoniga cho'zib yangi xona qo'shib qurilgan. Dahliz o'rtasida to'rt oilaga mo'ljallangan bir necha o'choq o'rnatilgan. Qozon mehmondorchilik belgisi hisoblangan. Har qishloqda mazkur «uzun uylar» soni 10-30 tagacha yetgan. Ayrim algonkin qabilalarining uylari egilgan maxsus daraxt shoxlaridan gumbaz yoki to'rtburchak shaklida tiklanib yog'och qobig'i yoki chipta bilan yopilgan. Qishloqlar 500 dan to 1000 kishigacha yetadigan aholiga ega bo'lgan.

AQSHning mustaqillik uchun olib borgan urushidan keyin irokezlar qattiq mag'lubiyatga uchrab o'z ona yerlarini tashlab ketishga va asta-sekin mol qo'rasidek o'ralgan maxsus rezervatsiya-larga ko'chishga majbur bo'ladilar. Ammo ayrim qabilalar parti-zanlik urushini davom ettirganlar. Urug'-qabila munosabatlari yemirilib, monogam oila paydo bo'ladi, bir vaqtlar dahshatli kuchga ega bo'lgan irokezlar grajdanlik huquqlaridan mahrum holda kambag'al fermer va ishchilarga aylanadilar. Shimoliy Amerikaning algonkin va musgok tillar oilasiga mansub qabilalarning ham taqdiri fqjiali tugagan. Mazkur qabilalardan tashkil topgan ittifoqlar (ayniqsa, kuchli Krik Konfederatsiyasi) ham yemirilib, 1820-yillarda AQSH hukumati tomonidan g'arbiy tomondagi noqulay joylarga zo'rlik bilan ko'chirilgan. Irokezlarning bir qismi Kanadaga ko'chib, rezervatsiyalarga joylashgan.

Mahalliy hindilarning dinlari ibtidoiy e'tiqodlar bilan bog'liq. Bular da keng tarqalgan totemizm, shomonizmdan tashqari tabiat kuchlari, o'simlik dunyosi va jonivorlar bilan bog'liq turli animistik tasavvurlar muhim o'rin egallagan. Irokezlarda «Uch opa-singil» (mais, lobiyo va qovoq) ibodati kuchli bo'lgan. Ular yilni uch davrga bo'lib (ovchilik, yig'im-terim va dehqonchilik faoliyati bilan bog'liq), turli marosimlar o'tkazganlar. Eng katta bayram marosimlari qishning o'rtasida nishonlangan. Ular, ayniqsa, momaqaldir oq va quyoshga sig'inganlar. Seminola qabilalari sehrlil buyumlardan iborat muqaddas tugunga itoat qilganlar va shunga bag'ishlangan yilda bir marta bayramlar o'tkazilgan. Chippeva qabilalarida o'simlik va hayvonlarning arvo hlari bilan yaqin aloqada bo'lish mumkin, degan tasavvurlar keng tarqalgan. Ularning shomonlari duogo'ylik yo'li bilan yaxshi ovni ta'minlovchi irimlar qilganlar, turli o'tlar bilan kasalliklarni da-volaganlar. Keyingi davrlarda missionerlarning faolligi tufayli ma-halliy hindilarning orasida nasroniy dini keng tarqalgan. Hatto ibtidoiy dinlar bilan nasroniy dini mazhablari aralashmasidan yangi diniy yo'nalishlar ham paydo bo'la boshlagan.

2. MARKAZIY AMERIKA XALQLARI

Amerika qifasining AQSH bilan Meksika chegarasidan janubiy qismini odatda Lotin Amerikasi, deb ataydilar. Ba'zan etnogeografik jihatdan Meksika, Markaziy Amerika va Vest-Indiya maxsus hudud qilib ajratilgan va unga Mezoamerika (o'rta yoki Markaziy Amerika) deb nom berilgan. Bu yerda 30 ta mustaqil davlat va hozirgacha mustamlaka holatdagi bir necha mamlakatlar mavjud. Agar 80-yilning boshlarida Shimoliy Amerikada 258,7 mln. aholi bo'lsa Lotin Amerikasi 20,1 million km² maydonni egallagan va 1983-yillarga kelib aholi soni 387,7 million kishiga yetgan edi.

Lotin Amerikasi davlatlarining 3V2 qismida ispan tili rasmiy til deb qabul qilingan. Braziliya (mintaqa aholisining qolgan 3g'1 qismi)da portugal tili tarqalgan. Faqat 3 foizi aholi yashaydigan

kichkina davlatlarda fransuz (Gaiti), ingliz (Gayana, Trenidad, Bar-bados, Yamayka, Bagam va boshqa orollarda) va golland (Surina) tillari hukmron. Mamlakatlar tillari va tarixiy taqdiri bilan umu-miylikka ega bo'lsa-da, o'zining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, etnomadaniyati va xo'jalik xususiyatlari bilan farq qiladilar. Masalan, Argentina, Braziliya, Meksika va Venesuela ancha taraqqiy qilgan zamonaviy mamlakatlar qatoriga kiradi. Aksincha, sust rivojlangan Gaiti iqtisodiy ko'rsatkichlariga qaraganda, yuqorida qayd qilgan mamlakatlarga nisbatan o'nlab, balki yuz hissa orqada qolgan. Yoki eng katta hududga ega bo'lgan Braziliya Salvadorga nisbatan 400 hissa ko'p maydonni egallaydi, qo'shni Gayana aholi-siga nisbatan 150 hissa ko'proq aholiga ega.

Lotin Amerikasi aholisining etnik qiyofasi ham turlicha. Uzoq davr ichida mahalliy tub aholi bilan kelgindi yevropaliklar va millionlab qul qilib keltirilgan afrikaliklar avlodlarining aralashmasidan paydo bo'lgan hozirgi mamlakatlarning o'ziga xos milliy madaniyati, mehnat va xalq ijodi an'analari shakllangan. Mintaqaning rang-barang tabiati ham ularning xo'jalik-madaniy tiplari va madaniyati xususiyatlariga mislsiz ta'sir o'tkazgan. Nihoyatda ko'p tabiiy boyliklarga ega bo'lgan mazkur mintaqani «jahonning xazinasini» deb ham ataganlar. Ammo boy tabiatli Lotin Amerikasi ancha qashshoq va qoloq o'lkalardan. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, bu yerda yashovchi aholining yarmiga yaqini och yoki yarim och, ya'ni to'yib ovqat yemaydi. Ayniqsa, mahalliy hindilarog'irahvokta. Hozir Lotin Amerikasida 30mln.ga yaqin hind Oar yashaydi.

Mahalliy tub aholi o'tmishda yuksak madaniyat yaratib, faqat Lotin Amerikasigagina emas, baffci jahon madaniyatiga ham ulkan hissa qo'shganlar. Hindi qabflaiari birinchi bo'lib jahonga kartosh-ka, tomat, makka, manioka, paxta, kungaboqar, kakao va boshqa mubim ekinlarni kashf etganlar. Ular dastlab kauchuk shirasidan foydalanish kurarezaharini ishlab diiqarish va tibbiyotda foydala-nishni o'rgatganlar, gamakni kasbf qilib jahonga yoyganlar. Go'zal qadimiy me'morchiKkT katta hashamatli shaharlar va dabdabali piramidalar, afsonaviy o'yma va bo'rtma rasmlar bilan bezatilgan ko'shku saroylar, tnrii sfaakJ va hajmdagi go'zal haykallar, rang-barang bo'yoqG idisii va buyumlar, tilladan quyilgan har xil haykallar hindilarni mo'jpbzakor san'at sohiblari ekanligidan dalolat beradi. Lotin Amerikasi hindilari yaratgan kuy va o'yinlar ham uzoq elat-larga tarqalib shnbrat qozongan. Bu yerda yevropaliklar kelgunga qadar flk sinfiy jamiyaU yuksak saiTat va hunarmandchilikka ega bolgan davlatlar paydo bolgan.

IX-X asrlarga kelib mazkur madaniyatlar asta-sekin inqirozga uchrab, Mexiko vodiysida yangi elatlar-tenochka yoki atstek qabilalari paydo bo'la boshlaydi. Ular XIV asr boshlarida shimoli-g'arbiy hududlardan bostirib kirib qadimiy madaniyat markazlarini egallab o'z tillarini saqlab qolganlar. Atsteklar qudratli davlat birikmasiga asos solgan va eski madaniy an'analarni davom qildirganlar. Ular kuchli qo'shinga ega bo'lgan va qisqa muddat ichida qo'shni qabilalarni bo'ysundirib soliq to'lashga majbur qilgan.

Atsteklar o'ziga xos sug'orish va melioratsiya tizimiga asoslan-gan dehqonchilik xo'jaligini yaratganlar, lobiyo, pomidor, batata (shirin kartoshka), kakao, tamaki va paxta ekkanlar. Yer o'g'itlan-gan, yo'nilgan yog'och bilan ishlov berib ekilgan. Maxsus qamish-dan sol yasab, ustiga tuproq to'kib, suzadigan orolchalarda dehqon-chilik qilganlar. Paxta va agava tolasidan ip yigirib turli mato to'qi-ganlar. Uy hayvonlaridan it va kurka saqlaganlar. Bug'i, quyon, yovvoyi qushlarga o'q-yoy, nayza, tuzoq bilan ov qilganlar, ko'l va daryolarda baliq tutganlar. Mis va toshdan bolta, nayza uchi va pichoqlar, naqsh berilgan charxsiz sopol idishlar, oltindan har xil bezaklar yasaganlar. Hunarmandchilik nihoyatda rivojlangan bo'lsa-da, ammo mehnat taqsimoti bo'lmagan. Zarur buyumlar oilalarda ishlab chiqarilgan.

Qudratli atsteklar davlatining poytaxti Tenochtitlan katta ko'lning o'rtasidagi orolda qurilgan va o'zining go'zalligi, ulug'vorligi va hashamatligi bilan ispan istilochilarini hayratda qoldirgan.

Poytaxtni ko'l sohili bilan uchta 10 metr kenglikdagi Damba bog'lab turgan, ikkita maxsus tarnov orqali suv o'tkazilgan. Ko'l atrofida asosiy ekin dalalari joylashgan, qishloqlar ham dalalar bilan o'ralgan.

Atsteklarning uylari odatda qamishdan qurilib, devorlari loy bilan suvalgan, tomi somon bilan yopilgan. Boy tabaqalar uylarini xom-g'ishtdan tekis tomli va ichki hovlilari qilib qurganlar. Poytaxtdagi ba'zi uylar ustunlarga tiklangan. Piramida shaklidagi ibodatxona va jamoa inshootlari toshdan dabdabali qilib qurilgan, haykallar va o'yima naqshli toshlar bilan bezatilgan. Qishloq jamoasi (kalpulli) umumiy yerga ega bo'lgan va bu yerlarni ayrim oilalarga taqsim qilganlar.

Erkaklarning kiyimlari etakli belbog' va plashdan iborat, ayollar yubka, yengsiz uzun ko'ylak kiyganlar. Poyabzal teridan tikilgan yoki agavadan to'qilgan sandaldan iborat. Kiyimlari bezatilgan, bilak va burun uzuklar osganlar, badanni bo'yaganlar. Taomlari ham turli xilda har xil zira aralashtirib xushxo'r qilingan. Makkadan toshyorg'ich bilan un chiqarib taom pishirganlar. Atsteklar shokoladni kashf etganlar. Ammo ular «chokolat»ni ichimlik sifatida iste'mol qilganlar.

Ilk quldorlik tuzumiga mos keladigan atstek madaniyati shakllangan. Tolteklar mayya xalqidan yozuvni, yil hisobi va kalendarni, astronomiya va matematik bilimlarni qabul qilib olganlar. Din mustaqil sohaga ajralib, diniy masalalarni zodagon va kohinlar boshqarib turgan. Quyosh xudosi va ayniqsa, qabilaning urush xudosiiga bag'ishlangan murakkab ibodatlar rusumi ishlab chiqilgan. Katta marosimlarda hatto odam qurbon qilingan. Bundan tashqari turli totemistik va sehrgarlik tasavurlar ham tarqalgan.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, hozir Meksikada yashovchi aholi 70 million kishini, shulardan hindilar taxminan 30 foizni tashkil qiladi, ya'ni nufuzi 20 mln.gacha yetadi. Markaziy vohalarda joylashgan bir vaqtlar qudratli xalq hisoblangan atsteklar bilan million 300 mingdan ortiq, janubroqda yashovchi mayya — 650 mingga yaqin, tog' vodiylarida yuqori madaniyat yaratgan sapoteklar soni 450 mingga yetadi.

Mayya davlati. Milodning boshlarida Yukatan yarim orolining janubiy qismida hozirgi Gvatemala hududida bir qancha mayda shahar-davlatlar paydo bo'ladi. V-VI asrlarga kelib bunday davlat-larning soni yana ham ko'payadi va shimoliy hududlarga tarqaladi. Ular o'zaro kurashib turganlar. Ammo janubi davlat-shaharlarning ko'pchiligi XI asrga kelib birdaniga bo'shab qoladi. Yukatan yarim orolining shimolida o'sha davrda mayya xalqlarining bosh shahri Mayyapan kuchayib yuksak madaniyat yaratgan qudratli davlatga aylangan va ispanlar istilosigacha o'z hukmronligini saqlab kelgan.

Mayya ancha rivojlangan dehqonchilik xo'jaligiga ega bo'lgan. Ular o'rmonlarni toshboltalar bilan kesib, daraxtlarni kuydirganlar, kul bosgan dalani yog'och bilan kavlab urug' sepganlar. Asosiy ekin makkajo'xori hisoblangan. Undan tashqari lobiyo, pomidor, qalampir, qovoq va paxta ekilgan. Go'shtga it va kurka boqilgan, o'q-yoy, nayza va puflab otadigan naycha bilan ov qilib, ham go'sht g'amlangan. Baliqchilik va asalchilikni bilganlar. Mayya hindilari birinchi bo'lib kakao daraxtini o'stirib mevasidan ichimlik tayyorlaganlar.

Mayya davlatida ruda bo'lmaganidan metall qurollarni, ayniqsa, temir bolta va nayza uchlari, mis bilan oltin qotishmasidan yoki sof oltindan yasalgan bezaklarni Meksikadan va qo'shni mamlakatlardan keltirganlar. Paxta va agava tolalaridan nozik matolar to'qilgan, ulardan plash, yubka va boshqa kiyimlar tikkanlar, charxsiz sopol idishlar yasab, ularga turli naqshlar berilgan. Savdo-sotiq ancha rivojlangan, lobiyo va kakao urug'lari pul vazifasini bajargan. Qul savdosi ham bo'lgan.

Qishloqlar yengil to'qima yopilgan cho'qqaygan tomli uylardan tashkil topgan. Qishloq markazida toshdan qurilgan ibodatxona qad ko'targan, unda zodagon va kohinlar yashagan. Jamoa

yeri uylangan erkaklarning soniga qarab, ya'ni har oilaga uch yilgacha taqsimlangan. Zodagonlarga ajratilgan maxsus dalalarda jamoa a'zolari xizmat qilgan va hatto sadaqa berib turganlar, urushda ishtirok etganlar. Soliq to'lashdan bo'yin o'girganlar xudo yo'liga qurbon qilingan. Quldorlik paydo bo'lgach, qullar zodagonlarning xo'jaligida, jamoa inshootlarini, ko'shk, saroylar va yo'llar qurishda, yuk tashishda ishlatilgan. Qullar miqdori asirlar, qarzdorlar hukm qilinganlar va hatto yetimlar hisobidan to'ldirib borilgan.

Mayya xalqining diniy tasawurlari sinfiy munosabatlarni mu-qaddaslashtirgan juda murakkab serhasham marosim va ibodatlar-dan iborat bo'lgan. Muqaddas kitoblar fikus qobig'idan ishlangan qog'ozlarga yozilgan va rangli rasmlar bilan bezatilgan. Afsus deyarli barcha qo'lyozmalar ispan mustamlakachilari tomonidan kuydirilgan. Asosiy e'tiqodlari dehqonchilik bilan bog'liq aholi osmon, yomg'ir, o'simlik va boshqa tabiat hodisalarini ifodalovchi xudolarga sig'inishga asoslangan.

Chibcha xalqlarining dinlari dehqonchilik bilan bog'liq. Quyosh, oy, yer xudolariga, ajdodlarning arvoqlariga sig'inishdan iborat. Boylarning jasadlari mumiyolashtirilgan, xotinalari va qullari qatl qilinib birga dafn qilingan. Qabrga qurol va qimmatbaho buyumlar qo'yilgan. Qohinlar boy tabaqalardan tayinlangan. Tabiblar davolaganlar va folbinlik qilganlar.

3. JANUBIY AMERKA XALQLARI

Inklar davlati. Janubiy Amerikadagi And tog'larining hozirgi Kolumbiya, Ekvador, Peru, Boliviya, Shimoliy Chilida, ya'ni juda katta hududda kechua til oilasiga mansub turli elat va qabilalardan tashkil topgan Ink daviati bo'lgan.

Bu yerda I ming yillikda kechua va aymara tillaridagi ko'plab mayda qabilalar yashagan. Rivoyatlarga qaraganda, XIII asrga kelib shu qabilalardan Kusko vohasida joylashgan Inklar kuchayib 1438-yildan qabilalar ittifoqiga bosh bo'ladi va oliy kasta deb taniladi. Boshqa barcha elatlar unga bo'ysunib soliq to'lab turgan.

Ink davlatida aholi asosan, dehqonchilik bilan shug'ullangan. Asli And tog'larida dehqonchilik xo'jaligi miloddan avvalgi uch mingiochi yillikda paydo bo'lgan. Inklar miloddan avvalgi VI asrda shakllangan chanapata madaniyatining merosxo'rlaridir. Ular markazlashgan sug'orish tizimini yaratganlar, asosan, makka va kartoshka ekkanlar. Kartoshkaningko'p turlari, Yevropaga ilk bor shu yerdan olib borilgan. Dalalar tosh bilan berkitilgan kanallar orqali sug'orilgan, suv omborlari to'ldirilgan. Yerga jez uchli maxsus tayoq (taklya) va tosh bronza uchli chopqi bilan ishlov berilgan, hosil jez o'roq bilan o'rilgan. Umuman 40 ga yaqin ekin turlarini bilganlar.

Andlik hindilar Amerika qit'asidagi chorvachilikni bilgan yagona elatlardan hisoblangan. Kechua va aymara xalqlari lama va alpaka nomli hayvonlarni qo'lga o'rgatib yuk tashishda foydalanganlar, go'shti, yog'i, terisi, juni, suyagini xo'jalikda keng ishlatganlar. Lamaning yowoyi turini uch yilda bir marta mol qo'ralariga haydab, qamab, junini qirqib, keyin erkinlikka chiqarib yuborganlar. Go'sht uchun dengiz cho'chqasi va o'rdaklarni ovlaganlar. Uy hayvonlaridan faqat itni saqlaganlar.

Ink davlatida hunarmandchilik rivojlangan. Ular metallni ruda konlaridan qazib olganlar. Mis, kumush, oltin, simob va boshqa rangli metallarni, hatto jez ishlab chiqqanlar, turli qurol (o'roq, bolta, pichoq), bezaklar va diniy buyumlar yasaganlar. Charxsiz naqsh berilgan ajoyib sopol idishlar va haykalchalar ishlab chiqqanlar, paxta va jundan chiroyli nozik matolar to'qiganlar. Hech qanday qorishmasiz yirik kesilgan tosh bo'laklardan dabdabali ibodatxona va qasrlar tiklaganlar. Oddiy kishilarning uylari toshdan yoki xomg'ishtdan qurilgan, qamish yoki somon bilan yopilgan, oynasiz va chipta eshikli kichkina xonalardan iborat.

Inklar g'ildirakli transport bo'lmasa ham yo'llarga katta e'tibor berganlar. Bizning davrimizgacha yetib kelgan dengiz sohili va tog' etaklarida qurilgan tog' yo'llar, tunnel va ko'priklar hozirgacha kishini hayratda qoldiradi. Ular yengil sol kemalarda uzoq masofalarga sayohat qilganlar. Pulni bilmaganlar, ammo natural savdo-sotiq rivojlangan. Hokimlar eng mohir ustalarni poytaxtga to'plaganlar. Bo'ysundirilgan qishloqlardan yosh qizlarni zo'rlab keltirganlar va to'rt yil davomida to'qimachilik va boshqa kasblarga o'rgatganlar, keyin ular 30 yoshigacha erga tegmasdan ink zodagonlariga xizmat qilganlar.

Asosiy ijtimoiy hujayra qishloq jamoasi (aylu) hisoblangan. Yer bosh hokimning mulki hisoblansa ham har yil jamoa a'zolari (oilalar)ga taqsim qilib berilgan. Oliy hokimga («Inka dalasi») va kohinlarga («Quyosh dalasi») maxsus yerlar ajratilib, uni jamoa a'zolari ishlab hosilini yig'ib berganlar.

Chilining janubiy hududlarida bir necha guruhlariga bo'lingan araukan qabilalari yashaydi. Ular ham inklar singari dehqonchilik bilan shug'ullanganlar, kartoshka, mais, lobiyo, suli ekkanlar, chorvachilik va terimchilikni bilganlar, qisman ovchilik ham qilganlar. Kiyimlari gazlamani ikkiga buklab, o'rtasini bosh sig'adigan qilib kesib olingan plash (pancho) shaklida bo'lib, uning tagida teridan shim kiyganlar. Har xil chig'anoq va metallardan yasalgan bezaklar taqishgan. Araukanlar qamishdan to'qilib, loy bilan suvalgan konus shaklidagi somon yoki qamish tomli uylarda yashaganlar. Ijtimoiy tuzumi matriarxatdan ota urug'iga o'tish davriga to'g'ri keladi. Ular inklarning qattiq ta'sirida bo'lgan va madaniyatining ko'p tomonlarini, jumladan, metall ishlab chiqarishni, tugma yozuvni qabul qilib olganlar. Chili davlati araukanlarni 1883-yili katta kuch bilan o'ziga bo'ysundirgan. So'nggi davrlargacha ular ba'zi jamoatchilik munosabatlarini saqlab kelganlar. Hozir ko'pchilik araukanlar rezervatsiyalarga joylashgan.

Sharqi-janubiy Braziliya va Pampa hindilari. Braziliyaning qalin o'rmonlarida va qurg'oq yassi tog'larda botokuda, jes va boshqa til turkumiga mansub turli qabilalar yashagan. Ular dehqonchilikdan xabardor bo'lsa ham, asosan, terimchilik, ovchilik va baliqchilik bilan kun kechirganlar. Bir necha katta oilalardan tashkil topgan lokal guruhlar qirlarda, kichkina yerlarda manio-ka, botata ekib, hosilini yig'ib-terib olgandan keyin boshqa joylarga ko'chib terimchilik qilganlar. Ularning asosiy qurollari o'q-yoy va nayza, ayollar oddiy yog'och bilan kavlab yemishli ildizlar, urug' va mevalarni terganlar, erkaklar bug'u, straus va boshqa har xil mayda hayvon va qushlarni ovlaganlar, sanchqi va to'r bilan baliq tutganlar. Ularda toshdan yasalgan bolta va pichoqlar ham bo'lgan.

4.AMERIKANING HOZIRGIETNIK QIYOFASI

Hozirgi Amerika qifasi o'zining rang-barang tabiati singari turli xildagi etnik qiyofaga ega. Kashf etilgandan so'ng besh asrlik tarixi davomida qifaga juda ko'p xilma-xil elat va xalqlar kelib uning etnik tuzilishida tub o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Ularning geografik joylashishda ham katta o'zgarishlar ro'y bergan. Bu yerda yirik xalqlar faqat Yangi davrda shakllangan. Yevropaliklar kelgunga qadar Amerikaning tub aholisi asosan, qadimiy dehqonchilik madaniyati markazlari Janubiy Meksika va And tog'larida joylashgan. Shimoliy va Janubiy Amerikaning mayda qabilalari esa ovchilik, terimchilik va baliqchilik bilan shug'ullanganlar.

Hozir AQSH va Braziliyada 100 dan ortiq turli xalqlar, Kana-da, Meksika va Argentinada 50 dan ko'proq, Boliviya, Venesue-la, Peru, Kolumbiya va Chilida 25 ga yaqin xalq va elatlar yashaydi. 30 dan ortiq xalq bir milliondan ko'p aholiga ega. Eng ko'p sonli aholi 1985-yili AQSHda (240 mln.), Braziliyada (135,5 mln.), Meksikada (78,5 mln.), Kolumbiyada (28,4 mln.), Kanadada (25,3 mln.), Argentinada (30,5 mln.), Peruda (19,7 mln.), Venesu-elada (17,3 mln.), Chilida (12,1 mln.) yashaydi. Tub aholi hisoblangan hindilarning avlodlari butun aholining taxminan 6g'1 qismini tashkil qiladi. Shulardan eng ko'p sonli xalqlar: kechua 13,2 mln. (Peru, Ekvador,

Boliviya), guarani 2,9 mln. (Paragvay), aymara 2 mln. (Boliviya, Peru), atsteklar 1,3 mln. (Meksika), algonkinlar 350 ming, atapasklar 285 ming, chibcha-muisca 270 ming va boshqalar.

Til jihatdan hozirgi Amerika aholisini olimlar ikki katta guruhga bo'ladilar, kelgindi hind-yevropa tillari (asosan, ingliz, ispan, fransuz) va mahalliy hindi tillari (mayya, atstek, aymara, kechua, guarani, penuti, chibcha va hokazo). XVI-XVIII asrlar davomida Afrikadan zo'rlik bilan millionlab keltirilgan turli elatlar (bantu, yoruba, xuasa, eva va hk.) ham qifaning etnik qiyofasiga muayyan ta'sir o'tkazgan. Hozirgi Amerikaning ayrim mamlakatlarida negrlar hatto ko'pchilikni tashkil qiladi.

Kelgindi yevropaliklarning etnik tarixi ancha murakkab va notekis. Ular Amerika qifasining turli qismida turlicha joylashganlar. Dastlab Shimoliy Amerikaga kishilar Angliya, Irlandiya va Shotlandiyadan kela boshlagan. XIX asr o'rtalarigacha bu yerga ko'proq Shimoliy, g'arbiy Yevropa mamlakatlarining vakillari ko'chib kelganlar. Kelgindilarning ko'pchiligi irqiy tomoniga kam e'tibor qilib mahalliy qabilalar bilan nikoh tuzganlar. Keyinchalik Germaniya va Shvetsiyadan immigrant-larning to'liqini bir oz kuchayadi. XIX asrning II yarmida Avstro-Vengriya, Italiya va hatto Rossiyadan, keyin Yaponiya va Xitoy-dan ham odamlar ko'chib kela boshlaydi. Ammo immigrantlar qifaning qulayjoylarini axtarib turlicha joylashganlar. Yevropaliklar ko'pincha AQSH va Kanadaning sharqiy va markaziy qismlariga, hamda Markaziy va Janubiy Amerikaga tarqalib o'rinishgan bo'lsalar, yaponlar va xitoylar asosan, Tinch okeani sohillariga joylashgan.

AQSHning aholisi qurama bo'lib, uning asosiy tili inglizcha, faqat 10 foiz aholi o'z ona tilida gapiradi. Bir necha asrlik assimilyatsiya natijasida hozirgi ingliz tilik Amerika millati shakllangan. Shunisi qiziqki, qifada yashovchi roman-german tillarida gapiradigan kishilarning soni shu tillarning vatanidagi aholiga nisbatan bir necha marta ko'p. Masalan, ingliz tilining vatani Angliyada 56 mln. kishi shu tilda gapirsa, Amerikada inglizchada 200 mln. ga yaqin kishi gapiradi. Ispaniyada 36 mln. dan ortiq kishi ispancha gapirsa, shu tilda gapiradigan kishilar Amerikada 200 mln. dan oshadi. Portugaliya tili vatanida 10 mln. ga yaqin portugolcha gapirsa, Braziliya shu tilda 115,5 mln. aholining tiliga aylangan. Umuman, qifadagi aholining ko'pchiligi roman tillarida (ispan, portugol va fransuzcha—54 foizdan ortiq) va german tillaridagi xalqlar (inglizcha 35 foiz), qolgan aholi hindilar va boshqa kelgindi mayda millatlar-dan iborat.

Butun Amerikada 3-4 asrlik murakkab assimilyatsiya va konsolidatsiya jarayoni natijasida turli qurama etnik guruhlar paydo bo'lgan edi. Bu yerdagi Ispaniya va Portugaliya mulklariga ko'chib kelgan ispaniyalik va portugaliyalik dvoryanlarining avlodlari «kreollar» deb nom qozongan. Ular mahalliy boy tabaqalar hisoblanib qonu qarindoshlik aloqalarini o'rnatganlar. Kreollar metropoliya aholisi bilan bir oz ziddiyatda bo'lib, ayrim huquqlar (masalan, hukmronlik qilish)dan mahrum bo'lishgan. Shuning uchun ular XIX asrning 1 choragidan mustamlakachilik tugagandan keyin mustaqillik uchun kurashga bosh bo'lib, yangi paydo bo'lgan respublikalarda hokimlikni o'z qo'llariga olganlar.

Aslida irqilarning aralashuvi mustamlakachilik davrida boshlangan edi. Oqibatda juda ko'p metislar paydo bo'lgan. Ular yevropaliklar bilan hindilarning avlodlaridir. Ba'zan metis hindi ayoliga uylanib fanda «salto atras» (orqaga sakrash) deb atalgan avlod ham paydo bo'lgan. Metislar ayniqsa, Meksikada, Janubiy Amerikaning g'arbiy sohillarida, Markaziy Amerika mamlakatlarida, Kolumbiya va Venesuelada ko'p.

Yevropaliklar bilan negrlar aralashmasidan paydo bo'lgan avlodlar «mulat», deb nom olgan. Ular negrlar ko'proq bo'lgan joylarda tarqalgan. Vest-Indiyada bunday avlodlar hatto maxsus terminlar bilan atalgan. Masalan, avlodda 4g'1 qismi negr hisoblansa, «kvarteron», 8g'1 qismi «oktron», 16g'1 qismi «musti», 32g'1 qismi «mustefino» deb nom berilgan. Mazkur tizim asosida

kishining ijtimoiy o'rnini belgilangan. Agar «oq tanli» bilan «mustefino»dan bola tug'lsa, u oq tanli, deb tanilgan va erkinlar qatoriga kirgan (hatto ota-onasi qul bo'lsa ham).

Markaziy Amerika, Kolumbiya va Ekvadorda hindi bilan negrlar nikohidan paydo bo'lgan avlodlarni «sambo» deb ataganlar. Bulardan tashqari, XIX asrning 30-yillarida qullik manqilingandan keyin Amerikaga Hindiston va Xitoydan kontrakt asosida yollanma ishchilar keltirila boshlandi. Ularning ko'pchiligi Vest-Indiya mamlakatlariga joylashib yangi etnik guruhlarning shakllanishida ishtirok qilganlar.

Shimoliy Amerikada juda ko'p fransuzlar, italyanlar, nemislar, slavyan xalqlari va boshqa millatlar yashaydi. Masalan, Kanadada fransuzlar aholining 3g'1 qismini tashkil qiladi. XIX asr oxirlaridan boshlab Lotin Amerikasidagi mamlakatlarga arablar, Livan va Falastindan ko'chib kela boshlaganlar.

Hozirgi Amerika mamlakatlarida barcha elat, qabila va xalqlar millat bo'lib shakllanmoqda. Muayyan iqtisodiy, hududiy, ruhiy va ma'naviy madaniyat birligi negizida Amerika, Kanada, Meksika, Braziliya, Venesuela, Kuba, Kolumbiya va boshqa o'nlab zamonaviy millatlar paydo bo'lmoqda. Amerika aholisining, ayniqsa, Markaziy va Janubiy qismida joylashgan davlatlarning tarixiy taqdiri, til birligi, bir din (katolitsizm) ga taalluqli ekanligi va tabiiy sharoitining nisbatan yaqinligi mazkur jarayonni ancha tezlashtirmoqda. Lekin Shimoliy Amerika bilan Lotin Amerikasi orasidagi sotsial-iqtisodiy, etnik va madaniy tafovutlar qifa aholisining o'ziga xos xususiyatlarini belgilab, ularning demografik rivojiga ham zo'r ta'sir qilib kelmoqda. Hozirgi davrda Lotin Amerikasining aholisi Shimoliy Amerikaga nisbatan uch hissa tez sur'atlar bilan o'smoqda. Lotin Amerikasi jahonda eng yosh mintaqa, uning aholisining yarmidan ko'pi 20 yoshga ham yetmaydi. 1960-yillarda Amerikaning shimoliy qismi bilan Lotin Amerikasi aholisining soni taxminan teng bo'lgan bo'lsa, 1975-yilga borib shimolga nisbatan 3g'1 qism ko'paygan. XX asr oxiriga kelib, Lotin Amerikasining aholisi Shimolga qaraganda taxminan ikki baravar oshdi. Bunday hodisa qifaning etnik qiyofasiga hani ta'sir qilmay qolmaydi, albatta.

Nazorat savollari:

1. Shimoliy Amerikada yashaydigan indeyslarni aniqlang.
2. Arktika ovchilari va baliqchilari haqida so'zlab bering.
3. Shimoli-g'arbiy sohil indeyslari haqida ma'lumot bering.
4. O'rmon ovchi qabilalari haqida ma'lumot bering.
5. Kalig'orniya indeyslari haqida ma'lumot bering.
6. Sharqiy va Janubiy-Sharqiy dehqon va ovchilari haqida ma'lumot bering
7. Markaziy Amerika xalqlarining etnik tartibini aniqlang.
8. Mesikaning tub aholisi haqida ma'lumot bering.
9. Mayya davlati haqida ma'lumot bering.
10. Chibcha-muisklar davlati haqida ma'lumot bering.
11. Markaziy Amerika xalqlarining xo'jaligi haqida ma'lumot bering
12. Markaziy Amerika xalqlarining diniy e'tiqodi haqida ma'lumot bering
13. Markaziy va Janubiy Amerika xalqlarining etnik tartibini aniqlang.
14. Inklar davlati haqida ma'lumot bering.
15. Tropik o'rmon zonasidagi indeys qabilalari haqida ma'lumot bering.
16. Sharqiy va Janubiy Braziliya indeyslar haqida ma'lumot bering i.
17. Pampa indeyslari va Olovli YERliklar haqida ma'lumot bering.

8-Mavzu. Evropa xalqlari

Ryeja:

1. Yevropaning tabiiy gyeografik o'zmi va tarixiy etnografik xududlari.
2. Yevropa xalqlarining etnogenyezi, antropologik va etnolingvistik qiyofasi.
3. Xo'jaligi va asosiy mashg'ulotlari.
4. Moddiy va ma'naviy madaniyati.

Tayanch iboralar: Kelt – iber, germanlar, anglo – sakslar, slavyanlar, romanlar, arxetektura, yunonlar, katolik, provaslav, kavkazlar.

Yarim milliardga yaqin hozirgi Yevropa xalqlari butun jahon madaniyati tarixida muhim rol o'ynagan. Ular eng qadimgi zamonlarda, ayniqsa, ko'hna Gretsiya va Rim davrlaridan boshlab deyarli olamga tarqalgan bugungi Yevropa madaniyatiga asos sol-gan elatlarning avlodlaridir. Bu qadimiy madaniy meros, buyuk geografik kashfiyotlardan keyin uyg'onish davrlaridan boshlab sivilizatsiyaning gurkirab o'sishi natijasida qayta tiklanib, boshqa qifalarga ham tarqalgan edi. Zamonamiz madaniyatini Yevropada paydo bo'lgan qadimgi Gretsiya va Rim madaniyatlarisiz tasavur qilish qiyin. XIX asrning mutafakkirlaridan birining ta'rificha «... Qullik bo'lmaganda, grek davlati, grek san'ati va grek fani ham bo'lmas edi; qullik bo'lmaganda Rim davlati ham bo'lmas edi. Gretsiya bilan Rim qurib bergan poydevor bo'lmaganda esa hozirgi Yevropa ham bo'lmas edi».

Qadimgi davrlardan Yevropa inson yashashi uchun nihoyatda qulay sharoitga ega bo'lgan. Uning boshqa qit'alardan farqi shun-dan iboratki, mamlakatlar orasida tabiiy g'ov hisoblangan baland tog'lar va bepoyon sahroyu dashtlar yo'q, aksincha ko'pchiligi zich aholiga ega bo'lgan davlatlar bir-birlari bilan serunum tuproqli vo-diyalar va o'rmonli adirlar orqali chegaradosh. Yevropaning eng shimoliy qismi (Shpesbergen sohillari) Subarktika yoki hatto, Arktika kengligiga yetsa, janubiy qismi esa (Krit orollarigacha) subtropik poyasiga taqaladi (taxminan 5 ming km. uzunasiga). Kengligi g'arbdan sharqqacha, ya'ni Pireney yarim orolining Atlantika sohillardan Bolqon yarim oroli, Qora dengiz sohillariga (3100 km.ga)cha cho'zilgan.

Yevropada odamning uzoq davrlarda paydo bo'lishi, aholining zichligi, sanoat va qishloq xo'jaligining gurkirab o'sishi uning tabiiy sharoitining ancha o'zgarishiga sabab bo'lgan. Yevropaliklarning hayotida va tabiatida yirik sanoat markazlarining shakllanishi, bir-biriga chatishib ketgan ekin dalalari va qishloqlarning, sun'iy o'rmonlar va turli transport vositalarining yaratilishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Hozirgacha Yevropa mamlakatlarining ko'pining okean va dengizlar bilan bog'liq bo'lishi, ularning iqtisodiyoti va madaniyatida katta rol o'ynab kelmoqda. Ayniqsa, dengiz savdosi, okean va dengiz mahsulotlaridan foydalanish bu mamlakatlarning taraqqiyotiga beqiyos ta'sir qilib kelgan.

Tabiiy-geografik jihatdan Yevropa qifasining geologik tarixi, relyef va iqlimining umumiy belgilari, biologik birligi, suv zaxiralari tabiiy sharoitlarga qarab bir necha muzofotlarga bo'lingan. Etnografik klassifikatsiyaga binoan Yevropa mamlakatlari to'rt guruhni tashkil qiladi: Shimoliy Yevropa (Finlyandiya, Shvetsiya va Norvegiya, Daniya va Islandiya), Sharqiy Yevropa (Polsha, Germaniya, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya, Rossiya, Ukraina, Bellorusiya, Albaniya), g'arbiy Yevropa (Ang-liya, Irlandiya, Fransiya, Belgiya, Niderlandiya, Shveytsariya, Avstriya, Manako va Lyuksemburg) va Janubiy Yevropa (Portuga-liya", Ispaniya, Italiya, Gretsiya, Gibraltar, Malta, San-Marino). Tarixiy jihatdan bu mamlakatlar nihoyatda murakkab turli voqealarga boy davrlarni bosib o'tgan, jahon miqyosida Buyuk geografik kashfiyotlar va Uyg'onish davridan, keyin butun insoniyat taqdirini belgilab bergan olamshumumul hodisalarning sababchisi va guvohi bo'lgan. Ammo eng qadimiy yuksak madaniyat o'chog'i bu yerda emas, miloddan avvalgi V-III ming yilliklarda Shimoliy Afrika, Janubiy (g'arbiy va Janubiy) Osiyo

hududida paydo bo'lgan. o'sha davrlarda Yevropada ovchilik va terimchilik bilan shug'ullangan ibtidoiy qabilalar yashagan.

Insoniyat Janubiy Yevropa va uning o'rta qismini eng qadkniy davrlardan o'zlashtira boshlagan. o'tgan asrda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, aksariyat Yevropa mamlakatlarida ilk paleolit davridan odamlar yashagan. Fransiya g'orlarida topilgan tosh qurollar, arxeologlarning ta'rificha, bu yerda ketma-ket paleolit madaniyati shakllanib kelganligini tasdiqlaydi.

Ibtidoiy ajdodlar dastlab yirik hayvonlarga ov qilib kun kechirganlar, g'orlarda, chayla va yerto'lalarda yashaganlar, tosh-lardan, yog'och va suyakdan turli qurollar yasaganlar, teridan kiyim tikishni bilganlar. Ular kichik urug' turkumlarga bo'lingan, qoyalarga rasmlar chizishgan, turlicha xo'jalik shakllari yaratgan-lar. Masalan, Baltika bo'ylarida asosan, baliqchilik (maglemos ma-daniyati), Shimoliy dengiz sohillarida dengiz terimchiligi (kyokke-meding madaniyati), ichki hududlarda bug'u ovchiligi (tardenuaz, svider kabi maxlaniyatlar) xo'jaliklari paydo bo'lgan.

Yevropa madaniyatining keyingi rivojida neolit davri katta ahamiyatga ega. Miloddan avvalgi IV-II ming yilliklarini o'z ichiga olgan bu davr tosh qurollarni ishlab chiqarishning takomillasMshi, o'q-yoyning kashf etilishi, kulolchilik va to'qimachilikning paydo bo'lishi, asta-sekin dehqonchilik va chorvachilik xo'jaliklarining vujudga kelishi, o'troq aholiga xos qishloqlarning tashkil topishi bilan belgilanadi. Turli hududlarda mahalliy tabiiy sharoitga moslashgan madaniyatlar shakllanadi. Ammo turli madaniyat yaratgan elatlarning qaysi tillarda gapirganligi hozirgacha noaniq. Faqat miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikdan boshlab butun Yevropa qifasiga hind-yevropa tillarida gapiradigan qabilalar tarqala boshlaydi. Ular asta-sekin janubda Bolqon yarim orolini va Krit orolini, keyin (miloddan avvalgi 1 ming yilliklarda) Italiyaning ko'p qismini egallaydilar. Eng katta to'liqin (kelt qabilalari) g'arbiy Yevropaga yetib hozirgi Fransiya va Belgiyaga joylashgan. Pireney yarim oroliga kelgan keltlar iberlar bilan aralashib «keltiber» aholisiga asos solgan, Britaniya orolini egallagan.

Shunday qilib, hind-yevropa tillari eramizdan avvalgi II-I ming yilliklarda butun Yevropaga tarqalgan. Ammo bu tillarning asli kelib chiqishi qanday ekanligi haligacha qorong'i. Keyingi xalqlarning buyuk ko'chishi davrida kb'hria Yevropa aholisi yana ham ko'proq aralashib ketgan. Sharqdan ko'chib kelgan gunlar, avarlar, bulg'or va vengerlar mahalliy hind-yevropa xalqlarini harakatga keltirgan. o'sha davrda german qabilalari g'arb tomon siljib keng hududda joylashgan, Dnepr va Visla vohalarida yashagan slavyan qabilalari esa Bolqon yarim oroliga va Sharqiy Yevropaga ko'chib kelib o'mashgan. Bu etnik jarayon keyin ham davom qilib, hozirgi Yevropa xalqlarining shakllanishiga asos seigah edi.

Hozirgi bolgar xalqi V-VI asrlarda Bolqonga kelgan janubiy slavyan qabilalari bilan mahalliy frakiy aholisi harada VII asrlarda sharqdan bosib kirgan va o'z nomini bergan turkiy tildagi ko'chmanchi bulg'orlarning aralashishi natijasida paydo bo'ladi.

Yugoslaviya xalqlarining slavyan ajdodlari VII asrlarda juda keng hududda Qora dengiz qirg'oqlaridan Adriatikagacha joylashgan. Ular qadimiy mahalliy illiriya va frakiyalik roman xalqlari bilan to'qnashib qisman siqib chiqargan yoki aralashib ketgan. Ammo Yugoslaviya xalqlari ketma-ket Vizantiya, Vengriya, Avstriya, Turkiya davlatlari tomonidan istilo qilinib, faqat 1918-yilda mustaqil davlat bo'lib birikadilar.

Hozirgi eng katta millatlardan hisoblangan nemislarning etnogenezida qadimgi elatlardan keltlar, so'ngra saks, bavar, turing, gess, frank kabi qabilalar muhim rol o'ynagan. X asrda nemislar ta'siriga tushgan Oder va Elba daryolari bo'ylarida yashovchi slav-yanlar ham nemislar bilan aralashib ketganlar. o'rta asrlar davrida tarqoq holatda yashagan nemis xalqi o'ziga xos madaniyat yaratgan.

German tiliga yaqin inglizlarning kelib chiqishida ham dastlab Britaniya oroliga ko'chib kelgan keltlar, milodning birinchi ming yilligi o'rtalarida joylashgan ko'p sonli german qabilalari-anglo-sakslar, yuta vafriklar, keyinchalik qo'shilgan daniyaliklar, norveg-lar va ayniqsa, fransuzlashgan normanlar muhim o'rinni egallaydi.

Fransuz xalqining shakllanishida ham kelt tilida gapiradigan gallar asosiy rol o'ynagan. Ular eramizdan avvalgi I asrlarda rimliklar tomonidan bosib olingan va romanlashtirilgan. Keyin estgot, burgund va frank kabi german qabilalari fransuz xalqining tarkibiy qismi bo'lib roman elatlari bilan aralashib ketgan, frank qabilalaridan esa fransuz xalqining nomi kelib chiqqan.

Italyan xalqiga dastavval eramizdan avvalgi I ming yillikda Appenin yarim oroliga kelib joylashgan italiy qabilalari, ayniqsa, latinlar asos solgan. Rim imperiyasi yemirilgandan keyin V asrlardan boshlab bir necha yuz yillar davomida varvar qabilalari bosib keladilar va yuksak madaniyatli italiyaliklarga qo'shilib singib ketadilar. Milodning ikkinchi ming yilligiga kelib, hozirgi italyan xalqi shakllana boshlaydi.

Pireney yarim orolida eng qadimgi aholi iberlar va basklar yashagan. Ular bilan miloddan avvalgi I ining yillikda kelgan keltlar, keyinchalik Rim imperiyasi bosib olgandan so'ng lotin tilida gapiradigan elatlar aralashishi natijasida hozirgi ispan va portugal xalqlari paydo bo'ladi. Ammo hozir ham Pireneyda qisman Fransiyada yashovchi qadimiy basklarning avlodlari o'z tillarini saqlab qolganlar. Ular o'ziga xos ona tilidan tashqari qaysi mamlakatda yashasa, masalan, Ispaniyadagilar ispan tilini, Fransiyadagi basklar fransuz tilini ham to'liq egallaganlar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, g'arbiy Yevropaning etnik qiyofa-sidagi milliy tuzilish murakkab va ko'p asrlik jarayon mahsulidir. Hozirgi davrda bu yerda 60 ga yaqin etnoslar yashaydi. Shulardan 38 tasi, ya'ni 67,5 foizi bir milliondan ziyod aholiga ega. Yevropa xalqlari boshqa qit'a xalqlariga qaraganda milliy jihatdan oldinroq shakllana boshlagan. XIX asrning o'rtalariga kelib ko'pchilik xalqlar millat sifatida asosan, o'z milliy davlati chegarasida shakllangan. Ayrim xalqlar (masalan, italyanlar va nemislar) XIX asrning 70-yillarga kelib, ba'zilar (Janubi-Sharqiy Yevropadagi Gabsburg va Usmon imperiyalari tomonidan asoratga solingan elatlar) birinchi jahon urushi tugagach milliy shakllanish jarayonini boshidan ke-chirgan.

Hozirgi Yevropa aholisining yarmiga yaqini (Daniya, Vengriya, Italiya, Polsha, Germaniya, Portugaliya, Islandiya, Gretsiya, Irlandiya va hk.) bir millatlik, ya'ni 95 foizdan ortig'i asosiy tub millat vakillari yashaydigan mamlakatlardir. Ayrim davlatlarda mayda millatlarning yirik guruhleri joylashgan (Fransiya, Bolgariya, Finlyandiya va Ruminiya), ba'zilar esa ko'p millatli mamlakatlar qatoriga kiradi. XX asr so'ngida ana shunday mamlakatlardan biri Yugoslaviya siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va etnik sabablarga ko'ra parchalanib ketdi. Uning merosxo'ri sifatida besh mustaqil davlat Serbiya va Chernogoriya, Xorvatiya, Makedoniya, Bosniya va Ger-sogovina, Sloveniya jahon xaritasida paydo bo'ldi. Bugungi kunda ko'p millatli mamlakat hisoblanadigan Buyuk Britaniyada ingliz-lar, shotlandlar, irlandlar, uelsliklar, gallar; Ispaniyada ispanlar, katalonliklar, nalisiylar, basklar yashashadi.

Yevropa mamlakatlarida yashovchi yahudiylar asosan, o'sha mamlakatning tilida gapiradilar, ammo diniy ibodatda qadimiy yahudiylar tili (ivrit)dan foydalanadilar. Boshqa til oilalarining vakillaridan ural tili oilasiga mansub (taxminan 18 mln.) uchta xalq: finlar, vengerlar hamda ko'chmanchi lopar (saam)lar, turkiy til guruhiga tegishli Bolqon yarim orolidagi usmon turklari va gagauzlar o'z tillarida gapiradilar. Malta va Sitsiliya janubidagi Choko orollarida yashovchi aholi semit til oilasiga mansub tunis shevasiga yaqin arab tili vakillaridir. Ammo ularning tillarida italyan va ingliz so'zlari ko'p uchraydi.

Yevropada qadimiy davrlardan mahalliy tabiiy sharoitga moslashgan yevropoid irqining *hat* xil tiplari joylashgan. Aslida bu yerda ikkita irqiy tip farqlanadi: oqtanli, malla rang sochli, ko'k

ko'z (blondin) belgilari bilan ajralib turgan shimoliy yevropoid va qora sochli, qora ko'zli (brunet) tipidagi janubi yevropoid irqi. Mazkur tiplarning o'rtasi (shaten) ikkalasining belgilarini saqlagan. Keyinchalik Yevropaga mo'g'ullarning kirib kelishi ayrim etnoslarda qisman o'z ta'sirini qoldirgan. Bunga Skandinaviyada yashovchi mongoloid belgilariga ega bo'lgan loqarlar misol bo'la oladi. Keyingi yillarda Yevropa mamlakatlarida, ayniqsa, Angliya, Fransiya va Germaniya Federativ respublikasida, ko'plab negroidlar paydo bo'lgan. Ularning ancha qismi mahalliy xalqlar bilan aralashib mulatlar guruhini yaratgan.

Nihoyatda zich aholiga ega bo'lgan g'arbiy Yevropa dehqon-chilikka mos yerlardan ancha siqilgan va unga muhtoj bo'lsa-da, yuqori mahsulotli qishloq xo'jaligini tashkil qilishga muvassar bo'lgan. Yevropa qishloq xo'jaligi aholining oziq-ovqatga, dastav-val inson uchun eng muhim bo'lgan go'sht, sabzavot va meva mahsulotlariga ehtiyojini qondirish imkoniyatini yaratgan. Bu imkoniyatga qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni industirlashtirish, ximiyalashtirish va mexanizatsiyalash orqali erishilgan. Jmuman, Yevropada qishloq xo'jalik ishlab chiqarish sanoatga nisbatan sekinroq rivojlangan bo'lsa-da, urushdan keyingi yillar ichida uning hajmi o'rtacha ikki-uch hissa o'sgan. Ko'pgina Yevropa mamlakatlarida chorvachilikka alohida e'tibor qaratiladi. Hatto, dehqonchilik chorvachilikka bo'ysundirilib, yem-xashak yetishtirish asosiy-tarmoqqa aylangan. So'nggi yillarda yem-xashakka dehqon-chilik mahsulotlaridan tashqari baliqchilik mahsulotlari ham ishla-tilmoqda.

Yevropa dehqonchiligi mamlakatlar orasida ekiladigan ekinlari bilan bir oz farq qiladi, xolos. Misol, markaziy qismidagi mamlakatlarda asosan, bo'g'doy, arpa, suli, so'nggi asrlardan boshlab kartoshka; janubiy hududlarida, ayniqsa, Chexiyaslovakiyada, Ruminiya va Bolgariyada makkajo'xori, Italiyada sholi va boshqa don hamda poliz ekinlari ekiladi, bog'dorchilik va uzumchilik juda keng tarqalgan. Janubiy Yevropada uzumzorlar, zaytun daraxti, anjirzorlar ko'p uchraydi. Gretsiyada paxta va tamaki yetishtirish muhim xo'jalik sohasi hisoblanadi. Shimolda qadimiy davrlardan uzumchilik, bodom va har xil mevalar ko'p yetishtiriladi. Zaytun ekinlari Ellinlar tomonidan Pireney yarim oroliga qadim davrlardan keltirib ekilgan, hozir Ispaniya zaytun yog'i ishlab chiqarishda jahonda birinchi o'rinda turadi, uzumzorlar maydoni bo'yicha ikkinchi o'rinda, uzum yetishtirish va vino ishlab chiqarishda uchinchi o'rinda (aholi jon boshiga hisoblaganda vino ishlab chiqarishda Portugaliya birinchi o'rinda) turadi.

Chorvachilik hamma xalqlar orasida tarqalgan. Italiya, Karpat, Bolqon va Alp tog'li hududlarida qo'ychilik muhim xo'jalik sohasidir. Skandinaviya mamlakatlarida, fransuzlar, irlandiyalik-lar, valiyalar va britanlarda qoramol chorvasi rivojlangan va shu asosda sut mahsulotlari ishlab chiqarish taraqqiy etgan. Chorvachilikda asosan, go'sht va sut olinadi, turli yuqori sifatli mahsulotlar yetishtiriladi. Kelt xalqlari dehqonchilikda asosan, yem-xashak yetishtirish bo'yicha ixtisoslashganlar. Yevropada bug'uchilik bilan shug'ullanadigan yagona xalq saamlar hozirgacha yarim ko'chmanchi holatda yashaydi. Finlarning an'anaviy xo'jaligi qoramol boqish, go'sht, sut mahsulotlarini ishlab chiqarishdan iborat. Ularda erkin dalalarning uchdan ikki qismi yem-xashak ekinlari bilan band.

Hozir an'anaviy mayda hunarmandchilikning badiiy sohalari, masalan, kulolchilik, shisha ishlab chiqarish, zargarlik, kashtachilik, musiqa asboblari va o'yinchoqlar ishlab chiqarish, gilam va palos to'qish kabilar ayrim mamlakatlarda saqlangan, xolos. Norveglar, shvedlar, nemislar, shveytsariyaliklar va avstraliyaliklarda yog'och ustunlar, eshik, rom hamda uy-ro'zg'or buyumlariga o'yima naqshlar berish ancha rivojlangan.

Qishloqlar hozir ham o'zining shakli va tiplari bilan farqlanadi-lar. Butun Yevropada bir hovlili yoki ikki-uch hovlili qishloqlar ko'p uchraydi. Ayniqsa, Fransiyaning tog'li hududlarida, Shimoliy Ispaniyada, Shimoliy Italiyada, Germaniyaning shimoli-g'arbida, Norvegiyada va

Angliyaning shimolida bir hovlilil qarorgohlar ko'p uchraydi. Markaziy Yevropa, Fransiya, Italiya va ichki Ispaniyaning tekisliklarida qadimiy jamoa hayoti bilan bog'liq bo'lgan ko'p hovlilil qishloqlar hozirgacha saqlangan.

Agar qishloqlarni qurilish ashyolariga qarab tasniflasak, butun Yevropani taxminan ikki qismga bo'lish mumkin. Janubiy qismida uylar asosan, toshdan, shimoliy qismida yog'ochdan qurilgan. Ammo Shimoliy Yevropaning ayrim mamlakatlari, masalan, Angliyada, qadimdan tosh uylar, ba'zan janubida ham (ayniqsa, o'rmonlar ko'p bo'lgan davrda) o'rta dengiz sohillaridagi mamlakatlarda, yog'och-dan qurilgan qarorgohlar uchraydi. Masalan, Qadimgi Gretsiyaning klassik arxitekturasida ilgari ishlatilgan yog'och ustunlari o'rnini tosh ustunlar egallagan va nihoyatda ajib sarfat namunasiga aylangan. Tosh qurilishining namunalari hozirgacha o'rta dengiz sohil-laridagi mamlakatlarning ba'zilarida va Fransiyaning g'arbiy qismida uchraydi.

German xalqlarida erkaklar yengli yoki yengsiz ikki buklam matodan tikilgan ko'ylak, uzun ishton, kamarasta teri o'ltonli kavush kiyiladi. Ayollarning ham ust kiyimi ikki buklam matodan tikilib maxsus fibula bilan egniga bog'langan, keyinchalik keng tikiladigan bo'lgan. Ularda eskidan kapushonli plash ma'lum bo'lgan. Janubiy germanlarda yengil kiyim, shimolda esa issiq va qalin jun matodan korsaj, kofta, yubka, etak (fartuk) tikkanlar. Hozir ham Gessen aholisi orasida bir yoki bir necha qavatli (ba'zan 20 qavatli) yubka kiyiladi. Frankoniya ayollarining an'anaviy kiyimlari qizil yoki jigarrang matodan yubka yoki etaklar tikilib kashtalanadi. Shveysariya ayollari aksincha, qoramtir yoki frankonlar singari qizil rangli yubka va fartuk; kumush bezakli qora belnimcha, keng kashta yengli kofta kiyadilar. Norvegiya ayollarining bayram kiyimlarining turlari 120 dan ortiq. Butun german xalqlarida hozirgi davrda umumiy Yevropa kiyimlari tarqalgan bo'lsa-da, milliy belgilari (rangi, bezaklari va hk.) mustahkam saqlangan. Ayniqsa, kelt elatlarida bayram vaqtida milliy sarpolarga bezanish odat tusiga kirgan. Masalan, bretonliklarda 66 xil ayol kiyimlari mavjud.

g'arbiy va janubi slavyanlarning milliy kiyimlari nihoyatda rang-barang. Ularda ilk o'rta asrlardan boshlab aholi tabaqalangan va sinflarga qarab kiyimlari farq qilgan. o'tmishda erkak va ayollarda kiyimlari asosan, kanopdan tikilgan to'g'ri yoki burma yoqali ko'ylak. Ayrim xalqlar (Moraviya, Slovakiya, g'arbiy Prikarpate)da ayollar egniga ip bog'langan yengsiz ko'ylaklar kiygan. Eng qadimiy kiyimlaridan hozirgacha etakcha (fartuk) saqlangan. XIX asr birinchi choragida slavyanlarda Yevropa yubkasi keng tarqalgan. Qadim slavyanlarda ustki kiyim—yarim po'stin, chakmon (kaftan), yengsiz kamzul (*iilet*), plashning har xil turlari mavjud. Bosh kiyimlariga qarab ayrim etnoslarni ajratish mumkin (keng slavyan teri telpaklari, turli ro'mollar, shlapa va feskellar, jun movutdan tikilgan do'ppilar). Poyabzallar turli xilda (brodnya, teri bashmoq, yumshoq tufli, tagi yog'ochli sandal, junli nogovitsa va hk.). Hozir milliy kiyimlar Markaziy va Janubiy Yevropaning ayrim viloyatlarida uchraydi va ular asosan, san'at festivallari, folklor jamoalarining badiiy chiqishlarida namoyish qilinadi.

G'arbiy Yevropa xalqlarining milliy xususiyatlari ko'proq taomlarida namoyon bo'ladi. Masalan, roman xalqlarida italyanlarda sevimli taomlardan makaron mahsulotlari juda keng tarqalgan. Ularda kunduzgi ovqatga birinchi pomidor qaylasi yoki yog' va suzma, ba'zan qiyma go'sht solingan xo'rda. Dehqon sho'rvasi (dzuppasi)ga loviya va sabzavot solib pishiriladi va non to'g'raladi. Keyin polenta (makkajo'xori atalasi), qovurilgan sabzavot, salat, meva, suzma iste'mol qilinadi. Kunduzgi ovqatga albatta uzum vinosi yoki sevimli ichimlik kofe beriladi. Fransuzlarning milliy taomlari nihoyatda boy va rang-barangligi bilan mashhur. Taomlarida sabzavot va yemishli ildizli mahsulotlar, quyon va parranda go'shti, janubda kaptar go'shti muhim ahamiyatni egallaydi. An'anaviy sevimli taomlardan qaynatilgan o'simlik yog'iga pishirilgan go'sht bilan bifshteks va kartoshka, piyozli qaynatma sho'rvaga pishloq solish keng

tarqalgan. Provansda qalampirli turli baliqlardan pishirilgan sho'rva (buyabez) ancha obro' qozongan. U yerda dengiz jonivori-ulitkani sarimsoq va non bilan iste'mol qilishni yaxshi ko'radilar. Janubda har xil zaytun va dorivorlar taomga ishlatiladi. Kuniga ikki marta taomga uzum vinosi berish shart. Umuman fransuzlar vino iste'mol qilishda jahonda birinchi o'rinni egallaydilar. Qadimgi kelt xalqlarida, masalan, Buyuk Britaniyada, Yevropa taomlaridan uncha farq qilmasa ham, o'ziga xos milliy taomlar, ayniqsa, don solib pishirilgan sho'rvalar, so'li atalasi, gel va irlandiyaliklarda baliq va sutli taomlar mavjud. Ular sho'rvaga qo'y yoki mol ichakchovog'i va qatqorinlarini solib, suli uni bilan pishirib (xaggis) qalampir, piyoz solib yeyishni yaxshi ko'radilar. Eng sevimli ichimliklari pivo (el) va viski. Janubiy xalqlar ko'proq sabzavot (karam, pomidor, sarimsoq, piyoz, sabzi, kartoshka) va mevani ko'proq iste'mol qiladilar. Vengerlarda cho'chqa go'shtidan turli taomlar tayyorlanadi. Slavyan xalqlarining taomlaridan xamir ovqat mahsulotlari ko'proq o'rinni egallaydi. Dengiz va daryo sohillarida yashovchi elatlar baliqdan turli xil taomlar tayyorlaydilar.

Ijtimoiy-maishiy turmushi, oila-nikoh munosabatlari va madaniyati. Hozirgi Yevropaning ijtimoiy qiyofasi umuman iqtisodiy jihatdan olganda butun qifa aholisining o'rtacha 44 foizi faol qismini tashkil qiladi. Shundan erkaklar hisobiga taxminan 58 foizi to'g'ri keladi, ayollarning iqtisodiy faol qismi deyarli ikki hissa kam (29 foiz). Vaholanki, bu mamlakatlarda iqtisodiy faol aholiga ijtimoiy ishlab chiqarishda bevosita ishtirok qilayotgan qismidan tashqari ishsizlar ham kiradi. So'nggi yillarda ayrim an'anaviy kasblarning (ayniqsa, hunarmandchilik va hk.) tugatilishi natijasida ularni professional jihatdan qayta o'qitib o'rgatishga imkoniyat yo'qligidan texnologik ishsizlik jarayoni paydo bo'lgan. Professional ishchilar qatorida yoshlar o'rtasida ham ishsizlik mu'ammosi mavjud.

Mintaqada industrial taraqqiyot yuksak bo'lganligi tufayli iqtisodiy faol aholining asosiy qismi sanoat va qurilishda band ekanligini alohida qayd qilish lozim. Masalan, o'tgan asr so'ngida bunday aholi 35-45 % ni tashkil qilgan bo'lsa, ayrim mamlakatlar (Chexiya va Slovakiya, Germaniya va Shveysariya)da 50 foizga yaqinlashgan. Eng taraqqiy qilgan industrial mamlakatlarda qishloq va o'rmon xo'jaligida hamda baliqchilikda iqtisodiy faol aholining 10-12 % ini tashkil qiladi, xolos. Qishloq xo'jaligi sohasida eng kam band aholiga ega bo'lgan o'lkalardan Buyuk Britaniya (3 %), Belgiya (4 %), Shvetsiya va Germaniya (6 %). Ammo Janubiy Yevropada qishloq xo'jaligi hali ham muhim o'rinni egallaydi (Italiyada 15 % dan to Gretsiyada 40 % gacha). Keyingi yillarda asosan, qishloq xo'jaligi hisobiga aholining xizmat ko'rsatish sohasida yashovchi qismi ancha ko'paygan.

Yevropa mamlakatlarida eng katta ijtimoiy tabaqa xodimlar-ishchilar va ziyolilardan iborat. Ular butun iqtisodiy faol aholining taxminan o'rtacha 80 % ini, Buyuk Britaniyada hatto 90 % dan ham ko'prog'i, janubiy mamlakatlarda esa 70 % i (Gretsiyada 40 %) ini tashkil etadi.

Ijtimoiy va oilaviy turmushi ham barcha Yevropa xalqlarining singari umumiylikka ega bo'lgan. Nasroniy dini axloqiga tayanib, xususiy mulkka asoslangan holda kichik monogam oila butun Yevropada eng keng tarqalgan. Ammo ayrim patriarxal natural xo'jalik mavjud bo'lgan ba'zi joylarda arxaik tipdagi katta patriarxal oilalar va oila-nikoh tartiblari ham uchraydi. Patriarxal urug'chilik tartiblarining qoldiqlari albanlarda (fis), chernogorliklarda (bratstvo), tog'lik shotlandlarda (klan), qisman uels va irlandliklarda bir oz seziladi. Oila jamoa munosabatlari yaqin davrgacha ayrim bolqon xalqlari (bolgarlar, makedoniyaliklar, serblar, bosniylar va hk.)da saqlanib kelgan. Mazkur oilaviy munosabatlarning yemirili-shi maxsus minorat odatini yaratgan edi. Ilgari kelt va german xalqlarida ma'lum bo'lgan bu odatga binoan meros ota-onadan kenja o'g'ilga o'tadi. Keyinchalik mayorat odati, ya'ni meros katta o'g'ilga o'tish rasmi bilan almashadi. Janubiy

slavyanlarda katta patriarxal oila («zadruga») natural xo'jalikka asoslangan 20-50, ba'zan 100 kishiga yetadigan qavmu qarindoshlardan tashkil topgan jamoadan iborat edi.

Nikoh to'ylarida va boshqa oilaviy urf-odatlarda ancha qadi-miy belgilarni hozirgacha uchratish mumkin. Qalin saqlanma-gan bo'lsa-da, kelinni olib qochish, uni «sotib» olish rasmi, qiz moli, kuyov sovg'asi kabi udumlar hali ham nikoh to'ylaridagi qadimgi sarqitlar sifatida, ammo hazil o'yinlar shaklida namo-yon bo'ladi. Qiz yoshligidan mehnat qilib, o'zi sepini tayyorlashi ko'p xalqlarda shart bo'lgan. Agar kichik individual oilalar (er, xotin va bolalardan iborat) eng keng tarqalgan bo'lsa, slavyan-lardagi zadruga tipidagi katta oilalarda nikoh va boshqa oilaviy an'analarda ibtidoiy tartiblar saqlanib kelmoqda. Nikoh doimo ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan oilaviy voqea sifatida hozir ham unda ko'pchilik ishtirok qiladi, an'anaviy marosimlar, rasm-udumlar bajariladi. Deyarli hamma yerda kelin-kuyovlar cherkovda nikohdan o'tishsa-da, ammo nikoh to'yi asosan, xalq an'alariga tayanadi.

Pravoslav dini Vizantiyadan chiqib Yevropaning sharqiy va janubi-sharqiy mamlakatlarini, rus, belorus, ukrain, grek, bolgar, gagaus, serb, janubi alban va rumin xalqlari orasida keng tarqalgan. Hozir pravoslav dini Gretsiyada hukmron va bu yerda uning markazi joylashgan.

Islom dini Yevropaga dastlab arab istilochilari tomonidan keltirilgan va Pireney yarim oroliga tarqatilgan. Istilochilar tarqatilgandan keyin XV asrlarda nasroniylik qayta tiklangan. o'sha davrlarda, ya'ni yaqin XIV-XV asrlarda usmon turklari Bolqon yarim orolini bosib olib aholining ancha qismini musulmonlashtirgan va u imperiya vaqtida hukmron din bo'lgan. Turklar zo'rlik bilan albanlar, qisman makedoniyaliklar, bolgarlar, bosniya va gersogovina aholisini islom diniga o'tkazgan.

Hozirgacha professional teatrdan, keyingi yillarda paydo bo'lgan romantik, naturalistik va modernistik teatrlardan tashqari ommaviy teatrlashgan xalq tomoshalari an'analari barcha Yevropa mamlakatlarida saqlangan.

2. YEVROPA QISMIDAGI SHARQIY SLAVYAN XALQLARI

Sharqiy slavyanlar tili va madaniyati bir-biriga yaqin, rus, ukrain va belorus xalqlaridan iborat va ular joylashgan hududlar kurrasining qariyb 6G'1 qismini tashkil qilgan edi. 1985-yilgi ma'lumotlarga binoan, bu hududda 143,5 mln.ga yaqin ruslar, 45,5 mln.dan ortiq ukrainlar, 9,8 mln.ga yaqin beloruslar istiqomat qilishgan. Xorijiy mamlakatlarda, ayniqsa, AQSHda, Kanada va Yevropada sharqiy slavyanlarning so'nggi bir asr davomida ko'chib ketgan (emigrant) avlodlari tarqoq holda yashashadi. Masalan, AQSHda va boshqa mamlakatlarda XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlariga kelib joylashgan emigrant ruslar va ularning avlodlari 1,2 mln.dan ortiq, ukrainlar (asosan, AQSH, Kanada va Argentinada) 1,6 mln.dan ko'proq.

Irqiy jihatdan ular katta yevropoid irqiga mansub bo'lib, o'zaro bir necha tiplarga bo'linadi. Janubiy Ukraina va Qora dengiz sohillarida yashovchi aholi qora qosh va qora ko'zli atlanto-qora dengiz tipiga kiradi. Sharqiy Yevropa tekisliklarida istiqomat qUuvchi rus, ukrain va beloruslar malla rang (shaten) tipidagi irqiy tiplarni tashkil qilsa, shimoliy hududlarda yashovchi qismi katta yevropoid irqining belomor-baltika tipiga oiddir. Sharqiy viloyatlarda yashovchi ruslarda hatto mongoloid belgilari ham seziladi.

Sharqiy slavyan til turkumiga kirgan rus tili ikki shevaga bo'lingan: biri shimoliy rus va ikkinchisi janubiy rus shevalaridan iborat bo'lib, faqat talaffuzi bilan farqlanadi. Ukrain va belorus tillari ham rus tiliga ancha yaqin. Uchalasi ham hind-yevropa til oilasining slavyan turkumining sharqiy slavyan shoxobchasini tashkil qiladi.o'zlarining kelib chiqishi, madaniyati bilan sharqiy slavyanlar Yevropadagi g'arbiy va janubiy slavyanlar bilan ko'p umumiylikka ega. Ammo hozirgacha ularning etnogenezi eng murakkab hal qilinmagan muammolar bilan to'la.

Chunki, hozirgacha umuman slavyanlarning kelib chiqishi to'liq aniqlanmagan. Bu masalada hatto bir necha nazariyalar va chalkash mulohazalar mavjud.

Shunday qilib, milodning I ming yilligi oxirida II ming yilligi boshlarida rus solnomalarida tilga olingan qadimgi qabila turkumlari (polyanlar, drevlyanlar, dregovichlar, radivichlar, vyatichtar, volyanlar, slaven va boshqalar)ning birikib aralashib ketishi natijasida qadimgi rus xalqi paydo bo'ladi. Bu jarayon oqibatida butun sharqiy slavyanlarni qadimgi Rus davlati Kiyev Rusi tevaragida jipslashtiradi. o'sha davrda Dnepr bo'yida joylashgan rus yoki ros qabila ittifoqi Kiyev davlatining paydo bo'lishida katta rol o'ynagan. Bu qabilalarning nomi mahalliy Ros daryosi nomi bilan bog'liq bo'lib, rus xalqining nomi ham ana shundan kelib chiqqanligi ehtimol. Qadimgi rus xalqi o'zining umumiy tili, madaniyati, yozuvi va adabiyotiga ega bo'lgan.

Rossiyada bozor munosabatlarning paydo bo'lishi va rivojlani-shi (XVII-XIX asr o'rtalarigacha) jarayonida rus xalqi asta-sekin millat sifatida shakllangan.

Ruslarning ulkan hududda turli tabiiy sharoitlarda joylashganligi ularni ikki turkumga shimoliy va janubiy rus (velikorus)larga bo'linishiga sabab bo'lgan. Ular faqat tili, ya'ni so'zida «u» yoki «0» ishlatilishi («okayushiye» yoki «akayushiye») bilan farq qiladilar. o'tmishda moddiy va ma'naviy madaniyatida ham ba'zi farqlovchi xususiyatlar mavjud bo'lgan. Asrlar davomida ruslar yuqorida qayd qilinganidek Volga orqasiga, Ural va Sibirga asta-sekin siljib g'ayritabiiy sharoit va elatlar orasiga tushib, mahalliy madaniyatni singdirib o'ziga xos etnografik guruhlarni paydo qilganlar. Masalan, shimolga Oq va Barensev dengizlari sohillariga ko'chib borgan Pomorlar asosan, dengiz ovi va baliqchilik bilan shug'ullanib, o'ziga xos moddiy madaniyat va maishiy turmush yaratgan. Janubiy va sharqiy chegara hududlariga joylashtirilgan harbiy xizmatdagi ruslardan «kazak» deb nom olgan maxsus etnografik guruhlar (doh kazaklari, ural kazaklari, kuban kazaklari, sibir kazaklari, amur va ussuri kazaklari) paydo bo'lgan edi. o'rta Ural o'rmonlarida joylashgan kerjaklar; pechora pastki oqimidagi pustozerlar va ustilemlar; Kaluga-Bryansk-Orlov o'rmonlaridagi poplekhar; Sibir va Shimoldagi starojil aholisi (kolimaliklar, russko-ustinliklar, markovchilar, kamchadallar) kabi mayda guruh ruslar ham o'ziga xos madaniy-maishiy xususiyatlarini saqlab tevarak-atrofidagi xalqlarning madaniy an'analarini qabul qilib olganlar. Ayrim etnografik guruhga staroobryadliklar (Altaydagi «polyaklar», Qozog'istonning Buxtanria daryosi sohillaridagi «kamenshiklar», Zabaykaledagi «semeyskiy»lar)ni kiritish mumkin.

Hozirgi davrda Rossiya aholisining asosiy qismi 95 % ini ruslar tashkil qiladi.

Ruslardan keyingi Sharqiy Yevropadagi eng katta millat ukrainlar bo'lib ular asosan, Ukrainada joylashgan. Respublikadan tashqarida qo'shni Rossiya Federatsiyasining Voronej va Rostov viloyatlarida Krasnodar o'lkasida, Moldaviyada, Markaziy Osiyo respublikalarida ukrainlar yashaydi. AQSH, Kanada va Argentinada yashovchi ukrainlarning soni 1,6 mln.dan ortiq.

Ukrain xalqlarining shakllanishi o'rta Podneprove hududi — Kiyevshina markazi bilan bir qancha viloyatlarning jipslashishi orqali ro'y beradi. Buyuk Litva knyazligi chegarasida belorus xalqi shakllana boshlagan edi. Mazkur jarayon chet el istilochilari bilan milliy ozodlik uchun kurashida namoyon bo'lgan.

Ukrain va belorus aholisi ancha zich hududda joylashgan bo'lib, ular ruslardek mayda etnografik turkumlarga bo'linmagan. Sharqiy tog'li hududlarda yashovchi aholi-lemkalar, gutsullar va verxovinlar, Polesdagi poleshuklar ba'zi xususiyatlari bilan ajralib turadi, xolos.

Beloruslar ham asosan, hozirgi hududida joylashgan bo'lib, oz-gina qismi qo'shni Rossiya, Qozog'iston va Boltiqbo'yi respublikalarida yashashadi. Beloruslarning etnik negizini sharqiy slavyan qabilalari bilan birga qisman aralashib ketgan litvalik etnik elementlar tashkil qiladi. IX asrlarda mazkur qabilalar boshqa sharqiy slavyanlar bilan birga Qadimiy Rus davlatiga kirib qadimiy rus xalqining tarkibiy qismini tashkil qilgan. Bu davlat inqirozga uchragandan keyin

belorus yerlari Buyuk Litva knyazligiga qo'shildi, 1569-yilda esa Rech Pospalita ixtiyoriga o'tadi. Chet el bosqinchilariga qarshi kurash jarayonida belorus xalqi shakllanib XVI asrda etnik birlik yuzaga keladi. XVIII asrda belorus yerlari Rossiyaga tarkibiga kirdi.

Bugungi kunda 9,5 millionli belorus xalqi ichida ayrim guruhlar (poleshuklar va litvinlar) ham saqlangan bo'lib, ular ba'zi maishiy turmush va madaniy xususiyatlari bilan o'zaro ajralib turadi.

Dehqonchilikda tuproq va iqlim sharoitiga qarab ikki xil tipni ajratish mumkin. Dasht va o'rmonli dasht zonasida dam berilgan partav yerli xo'jaliklar keijg tarqalgan. o'rmon joylarda boshqacha tipdagi xo'jaliklar yuzaga kelgan. Ular ham ochiq partav yerlardan, ham o'rmon ichidagi daraxtlarni kuydirib ochilgan yerlardan foydalanganlar. Ikki-uch yil foydalangandan so'ng bu yerlar ozib kuch-quwati qolmagach, yangi yerlar ochilgan. XI-XII asrlardan boshlab uch paykalli almashib ekish joriy qilingan.

XIX asrda ovchilik va baliqchilik dastlabki ahamiyatini yo'qotib yordamchi xo'jalik yoki havaskorlik sohasiga aylangan. Ammo ovbop hayvonlar va baliqlar ko'p bo'lgan joylarda katta ko'l va qalin o'rmonlarda bu soha muhim o'rinni egallab kelgan.

Janubdagi uylar an'anaviy usulda somon, yog'och, loydan qurilib oqlangan. Odatda ular ikki-uch xonali bo'lib, hovlida xo'jalik inshootlari tiklangan. Markaziy rus hududlarida yoki Belorus o'rmonlarida asosiy qurilish ashyosi yog'och bo'lganligi tufayli ko'proq pastroq yog'och uylar tiklangan, xo'jalik inshootlari uyga yaqin qurilgan. Shimoldagi uylarning xususiyati aksincha turar joy xonalari va xo'jalik hujralari hammasi bir joyda joylashgan katta dabdabali hovlilardan iborat. Uylarning jihozlanishi deyarli bir tipda bo'lgan. Albatta zamonaviy texnikaga tayangan xo'jaliklarning paydo bo'lishi hamma yerda an'anaviy qishloq va uy qurilishiga jiddiy o'zgarishlar kiritgan edi. Qadimgi Rus davridayoq feodal tipdagi shahar va qishloqlar paydo bo'lgan va o'z shakl-shamoyili bilan qisman yangi zamonga yetib kelgan. Hozirgi shahar tipdagi qishloqlar barcha qulayliklarga ega. Ularda vodoprovod va kommunikatsiya mavjud, turar joy va jamoat imoratlari elektrlashtirilgan, ko'p joylarda gaz va kanalizatsiya o'tkazilgan. Xalqlarning etnografik xususiyatlari ko'proq milliy ki-yimlarida namoyon bo'ladi. Yaqin davrlargacha sharqiy slavyan-larning xalq kiyimlari uyda to'qilib tikilgan. o'zlari zig'irpoya va kanop o'stirib tolasidan ip yigirganlar, jun va teridan turli kiyimlar tikkanlar. Ayollar oila uchun zarur bo'lgan kiyimlarga o'zlari ip yigirib mato to'qiganlar va kiyim tikkanlar. Ustki kiyim odatda umumiy ko'rinishga ega bo'lib, erkak va ayollarniki uncha farqlanmagan. Masalan, choponga o'xshash kaftan; jun chakmon, keng tikilgan armak va po'stin. Qo'y terisidan po'stin (kojux yoki shuba) tikib kiyilgan. Ayollarning ko'ylak va ichki kiyimlari turli xilda. Kiyim tikishda yomon ko'z, yovuz kuchlardan saqlaydigan turli irimlarga rioya qilganlar. Bayram, to'y va motam kiyimlari har xil bo'lgan.

Kiyimlarida rus, ukraina va beloruslarning o'ziga xos umu-miylik bilan bir qatorda o'zaro farqlanuvchi xususiyatlari ham mavjud bo'lgan. Erkak va ayollarning ko'ylagidagi asosiy farq erkaklarniki tizzagacha, ayollarda esa bir oz uzunroq bo'lgani-dadir. Ayol kiyimining bichimi har xil. Ammo milliy va mahalliy sarpolarning xususiyatlari faqat to'y marosimlari, badiiy havaskorlar to'garagi konsertlari va katta bayramlarda namoyish qili-nadi. Aslida hozir butun sharqiy slavyanlarda milliy an'anaviy sarpo o'rniga barcha elatlarda Yevropa uslubidagi shahar kiyimi tarqalgan.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, ilgari kiyimlarning turi qadimiy etnomadaniy guruhlarining joylanishiga to'g'ri kelgan. Masalan, katak-katak yubkasimon kiyim hind-yevropa guruhlari joylashgan hududga tarqalgan. Shunga o'xshash olabayroq yo'l-yo'l yubkalar shimoliy hududlarda yashaydigan fin-ugor tilidagi milliy guruhlariga xosdir. Mazkur kiyimlar odatda yarim jun matodan tikilib, rang-barang kashtalangan va bezatilgan.

Etnografik jihatdan ayollarning bosh kiyimlari diqqatga sazovor. Masalan, qizlar bilan erga chiqqan ayollarning bosh kiyimi va soch o'rami jiddiyfarqlangan. Qizlar bir o'rim soch qoldirgan, nikoh vaqtida kiyiladigan bosh kiyim eng muhim va tantanali odatlar bilan bog'liq bo'lgan. Janubiy muzofotlardagi rus, ukrain va belorus* ayollariga boshiga gulchambarlar taqish hamda gulchambar shaklida ro'mol o'rash ham odat bo'lgan. Ayollar ro'mol o'rasa yoki bosh kiyimi kiya sochini butunlay qoplashi zarur bo'lgan. Hozir esa turli-tuman soch turmagi juda keng tarqalgan.

Ayollar kiyimidagi bezaklar ham diqqatga sazovordir. Turli naqshlar bilan kashtalangan yoki tikilgan sarpolar muayyan fikrni ifodalagan. Hozirgacha yetib kelgan ayrim naqsh obrazlarida eng qadimiy e'tiqodlar bilan bog'liq personajlar yoki sehrgarlik belgilari tasvirlangan, ibtidoiy irimlar va odatlar aks ettirilgan.

Ijtimoiy turmushida va oilaviy munosabatlarida XIX asrdagi qoloq Rossiyaning qishloqlarida chor hokimiyati tomonidan qo'riqlanib kelgan jamoatchilik tuzumi qoldiqlari saqlanib kelgan. Jamoa tadbirlari ukrain va beloruslarda ham uzoq davr saqlangan. Ayniqsa, qishloq aholisi orasida jamoa qoidalari asosida o'zaro yordam an'analari, bir necha avlodlarni biriktirgan patriarxal turdagi katta oila tashkilotlari, feodal-patriarxal nikoh munosabatlari qoldiqlari, har xil ibtidoiy urf-odatlar kuchli bo'lgan. Ichki oilaviy munosabatlarda va odobda asrlar davomida hukmron bo'lib kelgan mehnat taqsimoti va boshqa qoidalarga qafiyani rioya qilingan.

Rus, ukrain va belorus xalqlarining ma'naviy hayoti uzoq davr hukmron pravoslav dini bilan belgilangan. Ular orasida turli mazhablar paydo bo'lgan (starobryadchiklar, pyatidesyatniklar, duxoborlar va hokazo).

Xalq ijodi nihoyatda boy va rang-barang bo'lgan. Asrlar davomida hukmron sinflar qo'lidagi fan va san'atdan mahrum bo'lgan savodsiz xalq ommasini barcha badiiy sohalarda ajoyib go'zal namunalari yaratgan. Oilaviy marosimlarda, bayram tantanalarida aytiladigan xalq ashulalari va raqslari o'tmishdagi ham hozirgi bastakorlar va balet ustalari uchun tuganmas serchashma bo'lib kelmoqda. Juda boy folklor asarlari (rus dostonlari, ukrain xalq ashulalari)da badiiy obrazlar orqali uzoq davrlardagi tarixiy rivoyatlar va voqealar, milliy ozodlik kurashi g'oyalari yorqin tasvirlangan. Lirik his-tuyg'ular, yumor va satira xalq ijodining turli janrlarida o'z ifodasini topgan.

3. JANUBIY VA SHIMOLIY YEVROPANING NOSLAVYAN XALQLARI

Boltingbo'yi, shimoliy viloyatlarning bir qismi, o'rta Povolje, Prikame va janubi-g'arbiy hududlarida o'ziga xos moddiy va ma'naviy madaniyat yaratgan turli xalq va elatlar yashagan. Ushbu xalqlar sharqiy slavyanlar bilan qo'shni bo'lganligi tufayli o'zaro ta'sir doirasida turganlar va ko'p tomondan umumiy belgilarga ega-dirlar. Antropologik jihatdan noslavyan xalqlar asosan, katta yevropoid irqining turli tiplariga oid. Ammo Volgabo'yi xalqlari mariylar, udmurtlar, chuvashlar, tatar va ayniqsa, boshqirdlar orasida, qisman shimoldagi loparlarda mongoloid belgilari seziladi.

Tiljihatdan noslavyan xalqlar bir necha turkumga bo'linadi. Eng ko'pi finno-ugor turkumiga tegishli fin tilida gapiradigan estonlar, korellar, livlar, vepslar, saamlar, udmurtlar, mordvalar, komiziryan va komi-permyaklar. Litva, latish xalqlarining tillari hind-yevropa til oilasining maxsus lettolitva shoxobchasiga, moldovanlar esa roman turkumiga tegishli. Bu yerda turkiy tilda gapiradigan xalqlar chuvashlar, tatarlar, boshqirdlar, gagauz va karaimlar yashaydi. Qalmiqlar esa oltoy til oilasining mo'g'ul shoxobchasiga kiradi.

Mazkur xalq va elatlarning etnogenezi va etnik tarixi ham turli-cha. Shuning uchun tarixiy-madaniy jihatdan ular bir necha jabhalarga bo'linib o'rganiladi. Shularning ichida tarixiy, etnik va madaniy jihatdan ancha umumiy belgilarga ega bo'lgan Boltingbo'yi xalqlari ajralib turadi.

Boltiqbo'yiga odam eng qadimiy davrlardan kelib joylashgan. Bronza davridayoq (miloddan avvalgi II ming yilliklar) hozirgi Latviya hududiga janubdan qadimgi ajdodlari letgollar, sellar, zengallar va kureyshlar kelib tarixiy jihatdan hali aniqlanmagan mahalliy elatlar bilan aralashib ketgan. Latish xalqining shakllanishi XII-XIII asr boshlaridagi nemis salbchilari istilosi tufayli to'xtab qolgan va faqat XVI asr boshlariga yetib tugallangan. XIX asrning o'rtalarida latish millati shakllanadi. Qadimiy etnik guruhlardan latgallar bir ozmadaniy-maishiy xususiyatlarini saqlab qolganlar. Latishlar bilan to'liq aralashib ketgan mayda etnik gu-ruh-livlar kundalik maishiy hayotida eski tillaridan ham foydala-nadilar.

Latviyaning shimolida qadimiy davrlardan eston xalqining ajdodlaridan rus solmonomalarida tilga olingan chud nomli fin tilida gapiradigan qabilalar yashagan. Ular hozirgi Estoniya hududida miloddan avvalgi III ming yillikda paydo bo'lganlar; keyinroq bol-tiq, skandinav qabilalari, I ming yillikoxirlaridan sharqiy slavyanlar bilan aralashib ketgan va eston xalqining negizini tashkil qilgan.

Eston xalqining etnik jarayonida ishtirok etgan setu yoki setikez nomli etnografik guruh hozirgacha ajralib turadi. XIII asrlardagi nemis istilochilariga qarshi ozodlik kurashi milliy jiplashish jarayonini kuchaytiradi. 1750-yilgi shimoliy urushdan keyin Estoniya Rossiya tomonidan bosib olingandan so'ng qo'shilib olin-gan va o'sha davrdan harakatga kelgan ozdlik kurashlarida toblanib Eston millati shakllana boshlagan. Boltiqbo'yi xalqlari maishiy turmushi, moddiy va ma'naviy madaniyatining shakllanishida bir tomondan sharqiy slavyan xalqlarining, ikkinchi tomondan g'arb-dagi qo'shnilari nemis, shved kabi german xalqlarining ta'siri o'tgan. Ayniqsa, sharqiy slavyan xalqlari bilan uzoq davrlar davomida Boltiqbo'yi xalqlari yaqin munosabatda bo'lganligi tufayli o'zaro madaniy ta'sirlar kuchli bo'lgan. Keyinchalik Litvaning Polsha tasarrufiga o'tishi natijasida bu yerda polyaklar-ning ta'siri kuchayadi va katolik dini tarqaladi.

Eng qadimiy davrlardan Boltiqbo'yi aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan. Boltiq dengizi sohillarida va orollarida baliqchilik muhim soha hisoblangan. Hozirgi davrda Estoniya, Litva va Latviya yuksak rivojlangan sanoat va qishloq xo'jaligiga ega bo'lgan eng ilg'or industrial-agrar respublikalardan hisoblanadi.

Sanoatning gurkirab o'sishi shahar aholisining ko'payishiga olib keldi. Boltiqbo'yi shaharlarining ko'pchiligi ko'p asrlik tarkga ega. Feodalizm davrida, ayniqsa, Latviya va Estoniyada, shaharlarda asosan, nemislar yashagan va ularning qo'lida hunarmandchilik ham savdo markazlashgan. Bozor iqtisodiyotining yangi shakllari paydo bo'lishi bilan shaharlar mahalliy tub aholi hisobiga o'sa boshlaydi. Hozir shahar aholisi qishloqqa nisbatan ancha ko'p.

Boltiqbo'yi xalqlarining an'anaviy milliy kiyimlari feodalizm davrida paydo bo'lgan. Ular faqat uyda to'qilgan matodan tikilgan. Erkaklar kiyimining shakllanishida qo'shni nemislarning shahar madaniyati zo'r ta'sir o'tkazgan. Rang-barang va xilma-xil ayol kiyimlari ayniqsa, chiroyli bo'lgan. Ayollarning milliy kiyimlari asosan, turli yubka, kofta, ro'mol, etakcha va bezaklardan iborat. Butun Boltiqbo'yi aholisida bir necha xildagi an'anaviy kiyimlar mavjud bo'lgan.

Fin til turkumiga kirgan udmurt, komi, mordva va mariylar-ning qadimgi ajdodlari miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda sharqdan Volga-Kania sohillariga kelib joylashgan. Ularning bir qismi (eston-litva va karelo-finlar) eramizdan avvalgi II-I ming yilliklarda Boltiqbo'yi va Kareliya tomonga o'tib o'rnashgan. Eramizning boshlariga kelib mazkur xalqlar etnik guruh sifatida shakllana boshlaydi. Vyatka va Kama daryolari oralig'ida joylashgan qabilalar udmurt xalqiga asos bo'lgan. Miloddan avvalgi I ming yillikda yuqori Kama va Vichegda vohasidagi finno-ugor qabilalardan komi-ziryan etnosi tashkil topadi. o'sha davrlardayoq Pechora va Vichegda

vohasidagi mahalliy qabilalar bilan aralashib ketgan perm qabila birikmasi asosida komi-permyaklari paydo bo'lgan.

XIX asr boshlarida Yevropaning shimolidagi xalqlarning ko'pchiligi yozuvni ham bilmaganlar. Ularaing ma'naviy madaniyatida asosiy o'rinni og'zaki ijod va amaliy san'at egallagan. Har xil epos, rivoyatlar, masallar, matallar va ertaklar keng tarqalgan. Ayniqsa, ajoyib xalq eposi «Kalevala» mashhur bo'lgan. Kashta-chilik, naqshli tikuv, yog'och o'ymakorligi rivojlangan.

Pravoslav dini o'tmishda hukmron bo'lganligi sababli hozirga-cha ibtidoiy diniy tasawurlar bilan birga mavjud. Masalan, lopar-lar har xil kasb-hunar, «xo'jayin» homiylariga sig'inganlar, muqaddas toshlarga itoat qilganlar, shomonizm saqlangan.

4.VOLGA-KAMA BO'YI XALQLARI VA MOLDAVANLAR

